

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

**BIOLOGIK KIMYO**  
**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**  
**(davolash fakulteti 2-kurs talabalari uchun )**

**Buxoro -2019 yil**

**Tuzuvchilar :** b.f.n. dots.SHukurov I.B, t.f.n. dots Amonova H.I.

**Taqrizchilar :** k.f.n. I.I.Nazarov

Abu ali ibn sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining o'quv-metodik kengashining 2019 yil " \_\_ " iyul - son majlisida muxokama etildi.

## ANNOTATSIIYA

Ushbu uslubiy majmua muallifi oliy ta'limning 2-kurs davolash va Tibbiy pedagogika yo'nalishlari va tabiiy fanlar Bloki o'quv adabiyotlar i turkumiga kiradi, davlat standartlari va namunaviy o'quv dasturi mazmuniga mos. O'quv uslubiy majmuada oqsillar, fermentlar, nuklein kislotalar, xujayrada kechadigan modda va energiya almashinuvi, uglevodlar, lipidlar, oddiy va murakkab oqsillar almashinuvi, gormonlar, qon, jigar, siydik, muskul, biriktiruvchi to'qima biokimyosi kabi mavzular tulik yoritilgan. Aloxida axamiyatga bulgan jixati shundaki xar bir mavzuning nazariy bayonida internetdan olingan materiallardan va zamonaviy biokimyoning so'nggi yutuklaridan keng foydalanilgan. SHuningdek xar bir mavzuga doir laboratoriya ishlari, nazorat savollari, test savollari, vaziyatli masalalar anik va keng yoritilgan. Uslubiy majmuada dars samaradorligini oshirish maksadida yangi pedagogik texnologiyalar asosida mavzularni utish usullari bayon kilingan bulib, bu talabalar uchun ancha kulaylik tugdiradi. Uslubiy majmuada xar bir mavzu buyicha mustakil tayyorlanish uchun savollar keltirilgan. Talabalarning tayyorgarlik darajasini oshirish maksadida xar bir mavzu buyicha baxolash me'zonlari xolisona ishlab chikilgan bulib bu talabalarni uz-uzini baxolashda muxim axamiyat kasb etadi.

Uslubiy majmuada bayon etilgan nazariy bilimlar va amaliy mashgulot mavzulari bulajak shifokor talabalarning tibbiyotning maxsus fanlari farmokologiya, fiziologiya, mikrobiologiya fanlarini puxta egallashlariga tayanch bilim manbai bulib xizmat kiladi.

O'quv-uslubiy majmuada xar bir ma'ruza va amaliy mashgulot innovatsion ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan.

O'quv-uslubiy majmua tibbiyot kollej o'qituvchilari, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar va institut 2-kurs talabalariga mo'ljallangan.

## Mundarija

1. So'z boshi	2	bet
2. Fanning o'quv dasturi	4	bet
3. Fanning ishchi dasturi	12	bet
4. Ta'lim texnologiyasi (ma'ruza va amaliy mashg'ulot)	46	bet
5. Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar (slydalar yoki grafikli multimedialar)	340	bet
6. Glossariy	528	bet

## Kirish

**Biologik kimyo** – tirik organizmlar tarkibiga kiruvchi moddalar kimyoviy tarkibini, ularning o'zgarishini, shuningdek bu o'zgarishlarning a'zo va to'qimalar faoliyati bilan bo'rligini o'rganuvchi fan bo'lib, talabalarda mutaxassislikka oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Fanning vazifasi organizmda kechayotgan metabolik jarayonlar, ularning asoslari, qonuniyatlarini o'zlashtirib, meyoriy biokimyoviy ko'rsatkichlarni bilishni, ularni aniqlashni, bo'lajak umum amaliyot shifokori uchun juda zarur odam fiziologik vazifalarining molekulyar asoslari, kasalliklar patogenezining molekulyar mexanizmlari, kasalliklarining oldini olish va davolashning biokimyoviy asoslari, kasalliklarni tashxis qilish va davolash samaradorligini nazorat qilishga o'rgatishdir.

## O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi: **biokimyoning xozirgi kun yutuqlari asosida talabalarda matearilistik dunyoqarashni shakllantirish; talabalarni umumnazariy bilim kompleksiga o'rgatish: tirik organizmning kimyoviy tarkibi va butun organizmning faoliyat ko'rsatish jarayonida meyorda va patologik hollarda a'zo, xujayra va molekulyar bosqichlarda vujudga keladigan o'zgarishlar.**

### Biologik kimyoni o'qitishning vazifalari:

- amaliy shifokor faoliyatiga yo'naltirilgan mutaxassis tayyorlash davrida mazkur dastur o'zida fanning statistik qismi bo'yicha ma'lumotlarni integratsiya qilishi, organizmda past va yuqori molekulyar birikmalarning turli xil dinamik o'zgarishlari haqida ma'lumotlar berishi zarur.
- klinik-tashxis laboratoriyalarda keng o'tkaziladigan laborator tekshiruv natijalarini to'g'ri taxlil etish maqsadida talabalarning bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash.
- bo'lajak mutaxassisni shifokor uchun juda zarur odam fiziologik vazifalarining molekulyar asoslari, kasalliklar patogenezining molekulyar mexanizmlari (molekulyar va irsiy patologiya), kasalliklarining oldini olish va davolashning biokimyoviy asoslari kasalliklarni tashxis qilish va davolash samaradorligini nazorat qilishni o'rgatish.
- taxlilning fizik-kimyoviy usullari yordamida in vivo va in vitro jarayonlarini o'rganish; atrofi muhitni ifloslantirish bilan aholi so'rlirining bo'rligini aniqlash.

## Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

- «Biologik kimyo» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:
- organizmda kechadigan biokimyoviy jarayonlarning o'zaro bo'rligini, gomeostaz va bu jarayonlarning boshqarilish mexanizmlari haqida; ba'zi patologik holatlarda: qandli diabet, ateroskleroz, gepatit, oshqozon kasalliklari, o't toshi va siydik toshi kasalliklari, gipertoniya, irsiy kasalliklar, pankreatit, gipo- va gipervitaminozlar, podagra, immuntanqislikda modda almashinuvining buzilishi haqida **tasavvurlarga ega bo'lishi kerak.**
  - yoshga borliq holda qon konstantalarining biokimyoviy ko'rsatkichlari (oqsil, uglevod, lipid almashinuv ko'rsatkichlari, fermentlar spektri); oshqozon shirasining meyorida va patologik holatlardagi biokimyoviy konstantlari; meyorda va patologik holatlarda siydikning biokimyoviy ko'rsatkichlari; organizmdagi modda almashinuvining biokimyoviy asoslarini **bilishi kerak.**
  - oshqozon shirasi kislotaligi va patologik tarkibiy qismlarini aniqlay olishi; siydik analizini o'tkazish va uning tarkibidagi patologik moddalarni aniqlash; fermentlar faolligi va turli biosuyuqliklardagi metabolitlar miqdorini reaktivlar to'plami va biotestlardan bilan foydalangan holda aniqlay **bilishi kerak.**
  - fotoelektrokolorimetr, polyarimetr, spektrofotometr, RN-metr, tsentrifuga va termostatdan bilan foydalana bilishi; qo'llanma, spravochnik, jadvallardan foydalana **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**
  - klinik biokimyoda kimyoviy va biokimyoviy sistemalardan foydalanishni, organizm asosiy sistemalarining funktsional holatini belgilovchi ko'rsatkichlarni o'lchash va baholashda **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

## Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bo'rligini va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Biologik kimyo fani tibbiy-biologik fan hisoblanib, 3- va 4-semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy-ilmiy (tibbiy biologiya va genetika, odam anatomiyasi, biofizika, bioorganik va bioorganik kimyo, gistologiya, embriologiya, hamda normal fiziologiya) fanlardan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

## Sorliqni saqlash tizimidagi o'rni

Umumiy shifokor tayyorlashda tayyorlash Sorliqni saqlash tizimida alohida muhim o'rinni egallab, talabalardan modda almashinuvining biokimyoviy asoslarini bilishni talab etadi. SHu bilimlarni talabalar klinik laboratoriya tekshiruvlari natijalarini tahlil qilish, kasalliklarni tahlil qilish, ularni oldini olish va davolash ishlarida qo'llaydi.

## Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning biologik kimyo fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilfor va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, kompyuter dasturlari, elektron materiallar hamda zamonaviy fotokolorimetr, spektrofotometrlar, tsentrifugal, rN-metrlar, hamda biokimyoviy va immunoferment analizatorlar, videotizimlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilfor pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi.

### Asosiy qism

#### Fanning nazariy mashfulotlari mazmuni

Oqsillar qurilishi va funksiyasi

**Aminokislotalar tuzilishi, xususiyatlari, biologik roli. Oqsillar tuzilishining peptid nazariyasi. Biologik faol peptidlar. Oqsillarning elementar tarkibi. Globulyar va fibrillyar oqsillar. Oddiy va murakkab oqsillar. Oqsillarning birlamchi strukturasi, uni biologik xususiyatlariga bo'liqligi. Birlamchi strukturaning turga xos spetsifikligi (turli hayvonlar insulini). Oqsillardagi peptid zanjirlarning konformatsiyasi (ikkilamchi va uchlamchi strukturalar). Oqsillar biologik xususiyatlarining ikkilamchi va uchlamchi strukturaga bo'liqligi. Oqsillarning domen strukturasi. Oqsil molekulasining konformatsion o'zgarishlari. Oqsillarning to'rtlamchi strukturasi. Oqsillar biologik faolligining to'rtlamchi strukturaga bo'liqligi; protomerlar komplementarligi; protomerlar konformatsiyasining kooperativ o'zgarishi (gemoglobin misolida). Oqsillarning biologik vazifalari. Izofunktsional oqsillar. Genom faolligini boshqaruvchi oqsillar.**

Oqsillarning fizik-kimyoviy xususiyati

**Oqsillarning ligandlar bilan ta'siri. Oqsillarning fizik-kimyoviy xususiyatlari: eruvchanligi, ionlanishi va gidratatsiya; oqsillarni eritmalaridan cho'ktirish. Oqsillarning molekulyar massasi, aniqlash usullari. Oqsillar denaturatsiyasi, denaturatsiyaning qaytarligi. Individual oqsillarni ajratish usullari. Organizm oqsil tarkibining o'zgarishi.**

Nuklein kislotalarning tuzilishi va funktsiyalari

**Nuklein kislotalar ochilishi va o'rganishining tarixi. Eng ko'p tarqalgan xujayra nukleotidlari. Nuklein kislotalarning birlamchi va ikkilamchi strukturasi. DNKning uchlamchi strukturasi. Restriktazalar. RNK tuzilishining o'ziga xosligi. Nuklein kislotalarning gibridlanishi. DNK-zondlar. Xromatin tuzilishi. Nukleosomalar. Xromosomaning giston bo'lmagan oqsillari. Ribosomalar tuzilishi.**

Nuklein kislotalar biosintezi

Genlarning o'z-o'zidan hosil bo'lishining fizik-kimyoviy mexanizmlarini tushuntirib beruvchi Uotson va Krik modeli. DNK biosintezi (replikatsiya): DNK-polimerazalar; polinukleotid zanjirda nukleotidlarning ma'lum tartibda ketma-ketligi axborot yozilishining usulidir. Replikatsiya matritsadan axborot ko'chirishning usulidir. DNK sintezi va xujayra bo'linishining fazalari. RNK biosintezi (transkripsiya): RNK-polimeraza; DNK matritsa sifatida; transkripsiya DNKdan RNKga axborot ko'chirish usulidir. Ribosomal, transport va axborot RNKlar biosintezi. Polinukleotidfosforilaza. RNKlarning etilishi.

#### Oqsil biosintezi

Oqsillar biosintezi (translyatsiya). Bir gen - bir oqsil (bir tsistron - bir polipeptid zanjir) kontseptsiyasi. Gen nukleotid ketma-ketligi va tegishli oqsildagi aminokislotalar ketma-ketlining mos kelishi haqida tushuncha (kollinearlik). Molekulyar biologiyaning asosiy qonuniyati (DNK-mRNK-oqsil); biologik kod. Nirenberg va Mattheyning (1961) mRNA sifatida poli-U bilan tajribasi; kod jadvali. Nukleotidlar (kodonlar) va aminokislotalar o'rtasida komplementarlikning yo'qligi; tRNK adaptor sifatida; aminoatsil-tRNK biosintezi: aminoatsil-tRNK-sintetazaning substrat spetsifikligi. Izoaktseptor tRNK. Oqsil sintezining asosiy bosqichlari. Nuklein kislota va oqsillar sintezi ingibitorlari (antibiotiklar, interferon, toksinlar). Oqsillardagi translyatsiyadan keyingi o'zgarishlar: oligomer oqsillarning hosil bo'lishi, qisman proteoliz, oqsil bo'lmagan komponentlarning qo'shilishi. Oqsil biosintezining boshqarilishi. Genlar ta'sirining gormonlar yordamida boshqarilishi. DNKning jarohatlanishi va reparatsiyasi. Apoptoz. Molekulyar mutatsiyalar: almashtirish, deletsiya, nukleotidlar kiritish. Oqsillar polimorfizmi. Organizm kimyoviy (antigen) tarkibi o'ziga xosligining to'qima mustaqilligi (transplantatsion) asosi haqida tushuncha.

#### Fermentlar tuzilishi, xususiyati va ta'sir etish mexanizmi

Fermentlar ochilishi, tarixi. Fermentlarning xususiyatlari. Fermentativ reaksiya tezliklarining harorat, muhit, ferment va substrat konsentratsiyasiga bo'liqligi. Fermentativ katalizning o'ziga xos tomonlari. Fermentativ reaksiyalar kinetikasi. Fermentlar faolligini o'lchash birliklari. Fermentlar kofaktorlari: metal ionlari va kofermentlar. Fermentlar klassifikatsiyasi va nomenklaturasi. Fermentlar faolligini aniqlash. Fermentlarning xujayra ichida joylashishi. Izofermentlar.

#### Fermentlar faolligini boshqarilishi, klinik enzimologiya

Fermentlar ingibitorlari; ingibirlanish turlari. Dori moddalar – fermentlar ingibitorlari. Fermentlar ta'sirining boshqarilishi: massalar ta'sir qonunining ta'siri; ferment miqdorining o'zgarishi; profermentlar; fermentning kimyoviy modifikatsiyasi; allosterik boshqarilish; fosforillanish-defosforillanish yo'li bilan; fermentlar faolligini boshqarishning boshqa turlari; katalitik va boshqaruv markazlar; allosterik fermentlarning to'rtlamchi strukturasi va ferment protomerlari konformatsiyasining kooperativ o'zgarishi. A'zo va to'qimalar ferment tarkibining farqi. Organospetsifik fermentlar. Ontogenezda ferment tarkibining o'zgarishi. Imobilangan fermentlar. Fermentlarning qo'llanishi. Tibbiy enzimologiya muammolari: enzimodiagnostika, enzimopatologiya va enzimoterapiya.

### **Vitaminlar**

Vitaminlar, tasnifi, funksiyalari. Vitaminlar aniqlash usullari. YO'rdagi eruvchi vitaminlar xususiyati, axamiyati, ta'sir etish mexanizmi. Alimantar va ikkilamchi avitaminoz va gipovitaminozlar. Gipervitaminozlar. Antivitaminlar.

### **Xujayra membranalarini tuzilishi**

Membranalar to'rtida tushuncha, membranalar vazifalari, lipid tarkibi, lipid qo'shqavatining tuzilishi. Xujayra membranasi oqsillari, glikoproteidlar va ularning vazifalari. Membranalar umumiy xususiyatlari: ko'ndalang asimetriya, suyuq xolati va tanlab o'tkazish. Membranalar aro moddalarning tashilishi. Membranalar biologik vazifalari. Membrana retseptorlari. Membrana orqali signallarning o'tkazilishi. Membrana orqali moddalarning o'tkazilishi: oddiy, engillashgan diffuziya, aktiv transport. Endotsitoz. Xujayra membranalarining turli-tumanligi.

### **Modda almashinuviga kirish**

Ovqatlanish biokimyosi. Ovqatning tarkibiy qismi. Asosiy ovqat moddalari: uglevodlar, yoflar, oqsillar; sutkalik meyor. Hazmlanishning asosiy tamoyillari: ovqatlanishdagi qisman o'rnini bosish. Ovqat tarkibidagi almashtirib bo'lmaydigan tarkibiy qismlar. Ovqatning mineral tarkibiy qismi. Ovqat va suv tarkibida mikroelementlar etishmovchiligi bilan bo'liq bo'lgan regionar kasalliklar. Sut biokimyosi. Modda almashinuvni o'rganish usullari. Metabolizm, metabolik yo'llar haqida tushuncha, metabolizm xaritasi. Katabolizm va anabolizm. Asosiy ovqat moddalari katabolizmining sxemasi. Katabolizmining xususiy (uglevod va ko'pchilik aminokislotalardan piruvat hosil bo'lguncha) va umumiy yo'llari haqida tushuncha. Tirik xujayradagi endergonik va ekzergonik reaksiyalar. Makroergik moddalar. Substratlarning degidrogenlanishi va vodorodning oksidlanishi (suv hosil bo'lishi) ATF sintezi uchun energiya manbaidir. Degidrogenazalar va vodorodning birlamchi aktseptorlari – NAD va flavoproteinlar; NADN-degidrogenaza. Terminal oksidlanish: ubixinon, tsitoxromlar. TSitxromoksidaza.

### **Mitoxondrial va mikrosomal oksidlanish**

Elektron tashuvchilarning oksidlanish-qaytarilish potentsiali. Oksidlanish bilan boruvchi fosforillanish: R/O koeffitsienti. Oksidlanish bilan fosforillanishning energiya manbai sifatida kislorod va oksidlanuvchi substratlarning oksidlanish-qaytarilish potentsialidagi farqi. Elektron tashish zanjirining boshqarilishi (nafas nazorati). To'qima nafas olishi va oksidlanish bilan boruvchi fosforillanishning ajratuvchilari; to'qima nafas olishining termoregulyator funksiyasi. Mitoxondriyalar tuzilishi, elektron va proton tashish zanjirining joylanishi. Mitoxondriya membranasining substratlar, ADF, ATFni tanlab o'tkazishi. Elektron tashish zanjiri nafas olish va kislorodning gemoglobin bilan bo'lanishidan boshlanadigan nafas sistemasining bir qismidir. Energetik almashinuvning buzilishi va gipoksik holatlar. Vitamin RR, V<sub>2</sub>, avitaminozlarning ko'rinishi. Erkin oksidlanish. Mikrosomal oksidlanish, uni dori vositalar va toksik moddalar zararsizlantirilishida axamiyati. Xujayrada erkin radikallar generatsiyasi. Piruvatni oksidlanishli dekarboksillanishi va atsetil-KoAni xosil bo'lishi. Krebs xalqasi, uning funksiyalari va nafas zanjiri bilan bo'liqligi.

### **Uglevodlar almashinuvi va funksiyalari**

Hayvon va odam asosiy uglevodlari, ularning to'qimalarda saqlanishi. Ovqatning asosiy uglevodlari. Uglevodlarning hazmlanishi va so'rilishi, bijrish, sutni ko'taraolmaslik. So'rilgan uglevodlarning organizmda taqdiri. Glikogen sintez iva parchalanishi, uning fiziologik axamiyati, glyukokinaza va geksokinazalar ta'siri. Glikogen almashinuvini adrenalin va insulin bilan boshqarilishining molekulyar mexanizmlari. Glikogen kasalliklar.

### **Glyukoza katabolizmi va glyukoneogenez**

Glyukoza katabolizmi. Aerob parchalanish - odam va boshqa aerob organizmlarda glyukoza katabolizmining asosiy yo'lidir. TSitozoldan mitoxondriyaga vodorod o'tkazishning mokki mexanizmlari (glitserofosfat mokki mexanizmi; boshqa mexanizmlar haqida tushuncha). Glyukoza aerob parchalanishining tarqalishi va fiziologik ahamiyati. Glyukoza anaerob parchalanishi (glikoliz). Glikolitik oksidoreduksiya; piruvat vodorodning aktseptori sifatida; substrat fosforillanish. Glyukoneogenez. Kori va glyukozalanin tsikllari. Glyukoza aerob va anaerob parchalanishi va glyukoneogenez boshqarilishining allosterik mexanizmlari; ATF va AMF allosterik effektorlar sifatida. Fruktioza-2,6-bifosfatning roli. Fruktioza va galaktoza almashinuvi. Etil spirtining uglevod almashinuviga ta'siri.

### **Glikoproteinlar va proteoglikanlar**

Glyukoza ning pentozfosfat yo'li bilan oksidlanishi haqida tushuncha. Oksidlanish bilan boruvchi reaksiyalar (ribuloza-5-fosfat hosil bo'lguncha). Pentozfosfat yo'lining umumiy natijalari: NADFN<sub>2</sub>, pentoza, ATF hosil bo'lishi. Glikolipid va glikoproteinlar. Uglevod qismining tuzilishi. Membrana uglevodlarining vazifalari. Membrana tarkibiga kirmagan glikoproteinlar uglevod qismining vazifasi. qon struktur-funksional tarkibiy qismi uglevodlari.

### **Lipidlar almashinuvi va funktsiyasi**

Odam to'qimasi asosiy lipidlarining tuzilishi va tasnifi. Zahira va protoplazmatik lipidlar. YOflarning hazmlanishi, o't kislotalarining xazmlanish va so'rilishda ahamiyati. YOflarning ichak devorida resintezi. Xilomikronlarning hosil bo'lishi va lipidlar transporti. Lipoproteinlipaza. Ichak devorida yoflarni resintezi.

#### **Lipidlar metabolizmi**

YOf to'qimasida yoflarning to'planishi va sarflanishi; sarflanishining adrenal yordamida boshqarilishi: lipaza faollanishining shalola mexanizmi. Qon albumini yordamida yo'f kislotalarning tashilishi. YOf to'qimasida yoflarning to'planishi va sarflanishining fiziologik ahamiyati. Semizlikda bu jarayonlarning buzilishi. YOf kislotalar almashinuvi. Odam triatsilglitserinlari uchun xos yo'f kislotalari. Beta-oksidlanish yo'f kislotalari katabolizmining spetsifik yo'lidir; yo'f kislotalar oksidlanishida qatnashuvchi fermentlarning mitoxondriya ichida joylashishi. Karnitinsiltransferaza va yo'f kislotalarning mitoxondriya ichiga tashilishi. To'yinmagan va toq uglerod atomli yo'f kislotalarning oksidlanishi. YOf kislotalar katabolizmining fiziologik ahamiyati. YOf kislotalar biosintezi. Pal'mitat kislota yo'f kislotalar sintezi ta'sirining asosiy mahsuloti. Uzun uglerod zanjiriga ega va to'yinmagan yo'f kislotalar hosil bo'lishi haqida tushuncha. Atsetosirka kislota biosintezi va uning sarflanishi. Bu jarayonning fiziologik ahamiyati.

### **Xolesterin va fosfolipidlar almashinuvi**

Steroidlar funktsiyasi va almashinuvi. Xolesterin boshqa steroidlar o'tmishdoshi sifatida. Xolesterin biosintezi haqida tushuncha. Oksimetilglutaril-KoAning mevalon kislota gacha qaytarilishi. OMG-reduktaza sintezining xolesterin bilan boshqarilishi. Jigarda xolesterinning zichligi juda past lipoproteinlar tarkibiga kiritilishi va qonda tashilishi; zichligi juda past lipoproteinlarning zichligi past lipoproteinlarga aylanishi; zichligi yuqori lipoproteinlar; xolesterinning o't kislotalarga aylanishi. Xolesterinning o't kislotalariga aylanishi. Organizmdan o't kislotalari va xolesterinning chiqarilishi. Giperxolesterinemiya va uning sabablari. O't tosh kasalligi rivojlanishining mexanizmlari (xolesterinli toshlar). Xenodezoksixolat bilan o't tosh kasalligini davolash. Ateroskleroz biokimyosi. Aterosklerotik plakchalar hosil bo'lish mexanizmi (infilytratsion nazariya). Giperxolesterinemiya – aterosklerozning omili sifatida; aterosklerozning boshqa omillari. O'zbekiston Respublikasida ateroskleroz rivojlanishining biokimyoviy o'ziga xos tomonlari. Transport lipoproteinlar tarkibidagi lipidlardan foydalanish; lipoproteinlipaza. Giperliproteinemiya: alimentar, qandli diabet, nevroz, alkogol iste'mol qilishda.

Murakkab lipidlar funktsiyasi va almashinuvi. Odam to'qimasi asosiy fosfo- va glikolipidlari: glitserofosfatidilxolin, fosfatidiletanolamin, fosfatidilserin, sifingolipidlar, glitserolipidlar, glikosifingolipidlar. Bu birikmalarning biosintezi va katabolizmi haqida tushuncha. Fosfo- va glikolipidlar funktsiyasi. Lipid almashinuvining boshqarilishi. Lipid almashinuvining buzilishi. Sifingolipidozlar.

### **Oqsillar xazmlanishi**

To'qimalardagi aminokislotalar manbai va sarflanish yo'llari umumiy sxemasi. Organizmdagi oqsillarning dinamik holati. Katepsinlar. Azot balansi. Ovqat tarkibidagi oqsil meyor. Oqsillarning biologik qiymati. Oqsil zahiralari. Ovqat tarkibidagi oqsillar aminokislotalar manbaidir. Oqsillarning hazmlanishi. Proteinazalarning substrat spetsifikligi (peptid boqlarini tanlab gidrolizlash). Aminokislotalarning so'rilishi. Hazmlanishni boshqarishning biokimyoviy mexanizmlari: oshqozon-ichak yo'li gormonlari. Ichakda oqsillarning (aminokislotalar) chirishi. Parenteral ovqatlanish. Oshqozon va duodenal shirasini biokimyoviy tekshirishning diagnostik ahamiyati. Oshqozon osti bezi proteinazalari va pankreatitlar. Panreatitni trasilol va boshqa ingibitorlar yordamida davolash.

### **Oqsillar almashinuvining umumiy yo'llari, biogen aminlar**

So'rilgan aminokislotalar taqdiri. Xujayra membranalari orqali aminokislotalar transporti. To'qimalarda aminokislotalarning oraliq almashinuvi. Aminokislotalar almashinuvining umumiy yo'llari. Transaminlanish: aminotransferazalar, V<sub>6</sub> vitaminining kofermentlik vazifasi. Aminotransferazalar spetsifikligi. Transaminlanishda qatnashuvchi aminokislotalar; glutamin kislota alohida o'rni. Aminokislotalarning bilvosita dezaminlanishi. Aminokislotalar dezaminlanishining biologik ahamiyati. Transaminlanish reaksiyalarining biologik ahamiyati. YUrak infarkti, jigar kasalliklari tashxisida qon zardobida transaminazalarni aniqlash. Aminokislotalarning oksidlanib dekarboksillanishi; glutamatdegidrogenaza. Aminokislotalarning dekarboksillanishi. Biogen aminlar: gistamin, serotonin, aminomoy kislota, katexolaminlar, hosil bo'lishi va funktsiyalari. Biogen aminlarning oksidlanishi (aminooksidazalar). Gistaminning allergie reaksiyalar va yalliflanishni rivojlanishidagi roli. Antigistamin preparatlar.

### **Amniakni zararsizlantirish. Aminokislotalar almashinuvining spetsifik yo'llari**

Azot almashinuvining oxirgi mahsulotlari: ammoniy tuzlari va siydikchil. Organizmda ammiakning asosiy manbalari. Ammiakning zararsizlanishi: glutamin va karbamoilfosfat sintezi, ketoglutaratning qayta aminlanishi. Glutamin – qator birikmalar sintezida amid guruhining donori sifatida. Buyrak glutaminazasi; ammoniy tuzlarining hosil bo'lishi va chiqarilishi. Ornitin tsiklining fumar va asparagin kislotalar almashinishi bilan borliqligi; siydikchil azot atomlarining manbalari. Siydikchil sintezi va chiqarilishining buzilishi. Giperammonemiya; irsiy, jigar tsirrozi va katabolik holatlarda.

Serin va glitsin almashinuvi. Bir uglerodli guruhlarning hosil bo'lishi. Transmetillanish. Metionin va S-adenozilmetionin. Kreatin, adrenalin, fosfatidilxolinlar sintezi; DNKning metillanishi; yot moddalar, dori moddalarning metillanishi. Tetragidrofolat kislota va bir uglerodli guruhlarning tashilishi. Gomotsisteinning metillanishi. Folat kislota etishmovchiligining belgilari. Folat kislota antivitaminlari. Sulbfanilamid preparatlarining bakteriostatik ta'siri. Antimetabolitlar haqida tushuncha. Fenilalanin va tirozin almashinuvi. Fenilketonuriya: biokimyoviy mexanizmi, kasallik belgilari, oldini olish usullari, tashxisi va davolash. Alkaptonuriya. Albinizm. Parkinsonizm da tirozin almashinuvining buzilishi. Gomotsistinuriya, gistidinemiya i aminokislotalar almashinuvining boshqa irsiy buzilishlari.

### **Nukleotidlar almashinuvi**

Nuklein kislotalarning parchalanishi. Oshqozon-ichak yo'li va to'qimalar nukleazalari. Purin nukleotidlarining parchalanishi. Purin nukleotidlari sintezi, purin yadrosi atomlarining manbalari; biosintezning boshlanrich bosqichlari (riboza-5-fosfatdan 5-fosforibozilamingacha). Inozin kislota adenil va guanil kislotalarning o'tmishdoshi sifatida. Pirimidin nukleotidlarining parchalanishi va biosintezi. Uridil kislota sintezi. TSitidil nukleotidlar sintezi. Dezoksiribonukleotidlar biosintezi. Timidil nukleotidlar sintezi. Purin va pirimidin nukleotidlari biosintezining koordinatsiyasi. Nukleotidlar almashinuvining buzilishi. Giperurikemiya va podagra; allopurinoldan podagrani davolashda foydalanish. Ksantinuriya. Orotatsiduriya.

### **Uglevod, yog, aminokislotalar almashinuvining o'zaro bog'liligi**

Aminokislotalar azotsiz qoldiqning almashinuvi. Glikogen va ketogen aminokislotalar. Aminokislotalar va glitserindan glyukoza sintezi. Uglevodlardan aminokislotalar sintezi. Uglevodlardan yorlar biosintezi. Insulin va kortizolni uglevodlar, lipidlar va aminokislotalar almashinuvini boshkarilishdagi o'rni. Uglevodlar, lipidlar va aminokislotalar almashinuvini ochlikda va qandli diabetda o'zgarishi.

### **Modda almashinuvni gormonal boshqarilishi**

Boshqaruv sistemalar ierarxiyasi. Metabolizm, uni boshqarish darajalari. Endokrin va nerv sistemasi o'rtasidagi o'zaro borliqlik. Qonda gormonlar konsentratsiyasining o'zgarishi. Gormonlarning nomenklaturasi va tasnifi. Gormonlarning ta'sirini o'tkazishning molekulyar mexanizmlari: adenilattsiklaza messendjer sistemasi; guanilattsiklaza messendjer sistemasi; Sa<sup>2+</sup>-messendjer sistemasi. Gipotalamus va gipofiz gormonlari. Qalqonsimon bez gormonlari, tuzilishi va biosintezi. Modda almashinuvning gipo- va gipertireozda o'zgarishi. Endemik buqoqning rivojlanish mexanizmi va uning oldini olish. Buyrak usti bezi mariz qismi gormonlari, biosintezi, katabolizmi, modda almashinuvdagi roli. Jinsiy gormonlar, tuzilishi, modda almashinuvi va funktsiyalarga ta'siri. Suv-tuz almashinuvini boshqarilishi. Kaltsiy va fosfor almashinuvini boshqarilishi. Mahalliy ta'sir etuvchi gormonlar. Prostaglandinlar. TSitokinlar.

### **Qon biokimyosi**

Qonning asosiy funktsiyalari va kimyoviy tarkibi. Qon zardobi oqsillari. Albumin va boshqa transport oqsillar. Globulinlar. Qon fermentlari. Kinin sistemasi. "O'tkir faza oqsillari. Albuminni tana suvini taqsimlanishidagi roli, shishlar kelib chiqish mexanizmi. Eritrotsitlar rivojlanishi, tuzilishi va kimyoviy tarkibining o'ziga xos tomonlari, unda moddalar metabolizmi. Gemoglobin, oksigemoglobin, Qonda kislorodning tashilishi. Karboksigemoglobin. Metgemoglobin. Kislorodning tashilishi. Uglerod dioksidining qonda tashilishi. Gem biosintezi. Temir almashinuvi, transferrin va ferritin. Temir tanqislik anemiyalari. Idiopatik gemoxromatoz. Qon ivishining ichki va tashqi mexanizmlari, fibrinoliz, ularni boshqarilishi.

### **Jigar biokimyosi**

Jigarning uglevod, yor, aminokislotalar almashinuvidagi roli. Jigarda qon plazmasi oqsillarining sintezi. Jigarda moddalarning zararsizlanish (detoksikatsiya) reaksiyalari: oksidlanish (gidroksillanish va boshqalar) va kon'yugatsiya. Bilirubinning zararsizlanishi. "Bevosita va "bilvosita bilirubin. Bilirubin almashinuvining boshqarilishi. Sariqliklar: gemolitik, obturatsion, jigar-xujayra; chaqaloqlar sariqligi. Bilirubin va boshqa o't pigmentlarini qon va siydikda aniqlashning diagnostik ahamiyati. Jigarda gormonlarning inaktivlanishi (insulin, steroid gormonlar, katexolaminlar). Ichakdan so'riluvchi, aminokislotalar chirishidan hosil bo'lgan moddalari, yot va dori moddalarning jigarda zararsizlantirilishi. Kimyoviy kantserogenez haqida tushuncha. Jigar-xujayra etishmovchiligi patogenezining biokimyoviy mexanizmlari va jigar komasi.

### **Mushak biokimyosi**

Miofibrillalarning asosiy oqsillari: miozin, aktin, aktomiozin, tropomiozin, trponin. Miofibrillalar molekulyar tuzilishi. Mushak qisqarishi va bo'shashining biokimyoviy mexanizmlari. Bir valentli ionlar va kaltsiy



ionlarining mushak qisqarishini boshqarishdagi roli. Silliq mushaklar qisqarishi. Azot oksidi. Sarkoplazmatik oqsillar: mioglobin, uning tuzilishi va funktsiyalari. Mushak ekstraktiv moddalari. Mushaklarda energetik almashinuvning o'ziga xos tomonlari; kreatinfosfat. Mushak distrofiyasi va denervatsiyasida biokimyoviy o'zgarishlar. Kreatinuriya.

### **Xujayraaro matriks biokimyosi**

Kollagen: aminokislota tarkibining o'ziga xosligi, birlamchi va fazoviy strukturasi, biosintezi. Askorbin kislotasining prolin va lizin gidroksillanishidagi roli. Vitamin S etishmovchiligining ko'rinishlari. Kollagen tolalarning hosil bo'lishi. Biriktiruvchi to'qimaning boshqa fibrillar oqsillari. Proteoglikanlarning kationlar va suv almashinuvidagi roli. Proteoglikanlarning pressor funktsiyasi. Xujayra aro matriksining qurilishi. Xujayra aro matriksning o'z-o'zidan yirilishi. Xujayra aro matriks va xujayralarning integratsiyasi. Xujayra aro matriks oqsillarining katabolizmi. Qarilik, kollagenoz, yaralar bitishida biriktiruvchi to'qimaning o'zgarishi. Kollagenozlarda oksiprolinuriya. Fibroz.

### **Nerv sistemasi biokimyosi**

Nerv to'qimasi kimyoviy tarkibi. Mielin membranalar: tarkibi va tuzilishining o'ziga xosligi. Nerv to'qimasida energetik almashinuv; glyukoza aerob parchalanishining ahamiyati. Pirouzum kislotasi almashinuv va polinevitritlar. Nerv impulsi hosil bo'lishi va o'tkazilishining biokimyosi. Sinaptik o'tkazishlarning molekulyar mexanizmlari. Mediatorlar: atsetilxolin, katexolamin, serotonin, gamma-aminomoy kislotasi, glutamat kislotasi, gistamin. Ruhiiy kasalliklarda biogen aminlar almashinuvining buzilishi. Katexolaminlar o'tmishdoshlari va monoaminooksidaza ingibitorlarini depressiv holatlarni davolashda yo'llash. Miyaning fiziologik faol peptidlari.

### **Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

Laboratoriya ishlarida talabalar biokimyo bo'yicha amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Laboratoriya ishlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Oqsillar va aminokislotalarga rangli reaksiyalarni o'tkazish: biuret reaksiyasi; ksantoprotein reaksiyasi; ningidrin reaksiyasi;
2. Oqsil miqdorini biuret usuli bilan aniqlash.
3. Oqsillarni cho'ktirish, ajratish, tozalash usullari va denaturatsiyani bilish.
4. Nuklein kislotalar va ularning tarkibi haqida tushunchaga ega bo'lish. Taloq tarkibidagi dezoksiribonukleoproteidni ajratish.
5. DNK miqorini kolorimetrik usuli bilan aniqlashni o'rganish.
6. Fermentlar faolligini o'rganish. Amilaza aktivligiga xarorat, muhit, rN ning ta'sirini bilish va aniqlash.
7. Amilaza faolligiga aktivator va ingibitorlarning ta'siri.
8. Vitaminlar haqida tushunchaga ega bo'lish. YO'da eruvchi vitaminlarga sifat reaksiyalarini o'tkazish: tokoferol, vitamin A.
9. Suvda eruvchi vitaminlarga sifat reaksiyalarni o'tkazish: tiamin, nikotinamid.
10. Biologik membranalar va biologik oksidlanish haqida tushunchaga ega bo'lish. Muskulda suksinatdehidrogenaza fermenti faolligini aniqlash.
11. Muskul tarkibidagi makroergik birikma – ATF, kreatinfosfat miqdorini aniqlash.
12. Katabolizmning umumiy yo'llari haqida tushunchaga ega bo'lish, pirouzum kislotasi miqdorini Umbrayt usuli bo'yicha kolorimetrik usulida aniqlash.
13. Karbonsuvlar almashinuvini haqida tushunchaga ega bo'lish. Oshqozon-ichak yo'llarida karbonsuvlarning hazmlanishi.
14. Jigardan glikogeni ajratib olish.
15. Glikoliz va glikogenoliz va glyukoneogenez haqida tushunchaga ega bo'lish. Glyukozaning muskul to'qimasida kislorodsiz oksidlanishi.
16. Qonda glyukoza miqdorini glyukooksidan usulida aniqlash.
17. Lipidlarning hazmlanishi, so'rilishi va tashilishi haqida tushunchaga ega bo'lish. O't kislotalariga sifat reaksiyasi. O't kislotalarni oshqozon osti bezi lipaza fermenti faolligiga ta'sirini o'rganish.
18. Kon zardobidagi erkin yor kislotalarni aniqlashni o'rganish.
19. Fosfolipidlar va steroidlar almashinuvini haqida tushunchaga ega bo'lish. Tuxum sarifidan kefalinni ajratib olish va uning tarkibiy qismlariga sifat reaksiyalarni o'rganish.
20. Qon zardobidagi xolesterin miqdorini Ilyk usuli bilan aniqlashni o'rganish.
21. Oshqozon shirasining tarkibi, ahamiyati haqida tushunchaga ega bo'lish. Oshqozon shirasini kislotaliligi, normal va patologik tarkibiy qismlarini aniqlash.
22. Aminokislotalar almashinuvining umumiy yo'llari haqida tushunchaga ega bo'lish. Dinitrofenilgidrazin usuli yoki test naborlar yordamida qon zardobida AlAt va AsAT faolligini kolorimetrik usulda aniqlash.
23. Ammiakning hosil bo'lishi va uning zararsizlantirilish yo'llarini o'rganish. Qon tarkibidagi siydikchil miqdorini kolorimetrik usuli bilan aniqlash, uni taxlil qilishni o'rganish.
24. Aloxida aminokislotalar almashinuvini bilish. Tirozinaza ta'sirini o'rganish.
25. Nuklein kislotalar almashinuvini o'rganish. Siydik tarkibidagi siydik kislotasi miqdorini aniqlash.

26. Moddalar almashinuvi va funktsiyalarining gormonlar orqali boshqarilishini o'rganish. Siydik tarkibidagi 17-ketosteroidlarga sifat reaksiyasini o'tkazish.
27. Qalqonsimon bez preparatida yod borligini aniqlash.
28. Qon biokimyosi haqida bilimlarga ega bo'lish. Qon zardobidagi temir miqdorini kolorimetrik usulda aniqlash.
29. Qon zardobidagi azot qoldiri miqdorini aniqlash.
30. Jigar biokimesi haqida tushunchaga ega bo'lish. Qon zardobidagi umumiy bilirubin miqdorini aniqlash.
31. Siydik biokimyosi, uning meyoriy va patologik tarkibiy qismlarini haqida tushunchaga ega bo'lish. Siydikning tarkibiy qismlarini dekafan, pentofan, trifan test poloskalaridan foydalanib siydik tarkibidagi moddalarni o'rganish.
32. Mushak biokimesi haqida tushunchaga ega bo'lish. Siydik kreatinin miqdorini kolorimetrik usulda aniqlash. Kreatinga sifat reaksiyasini bajarish.
33. Biriktiruvchi to'qima biokimesi haqida tushunchaga ega bo'lish. Siydik tarkibidagi oksiprolinni kolorimetrik usul bilan aniqlash.

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan borliq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashfulotlari;
- masofaviy (distantion) ta'lim.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:**

1. To'qima oqsilliri. Gemologik va izofunksional oqsillir.
2. Proteinopatiyalar.
3. Genetikaning molekulyar asoslari va irsiy kasalliklar.
4. Genlar ta'sirining boshqarilishi va hujayraviy differentsirovkasi (taqqoslash).
5. Klonlash va ularni klinik ahamiyati.
6. Fermentlar, qurulishi, tasnifi va ta'sir mexanizmi.
7. Klinik enzimologiya.
8. Ferment ingibitorlari, klinikada ularning qo'llanilishi.
9. Suvda eruvchi vitaminlar va ularni klinik ahamiyati.
10. Antioksidantlar va ularni klinikada ishlatilishi.
11. Membranalarni qurilishi, funktsiyami, ahamiyati, patologik jarayonlarni kelib chiqishida ularni ahamiyati.
12. Biologik oksidlanish fermentlari, mitoxodriyalarda oksidlanishli fosforillanish, mitoxondrial kasalliklar.
13. Mikrosomal oksidlanish va uning klinik ahamiyati.
14. Uglevodlar almashinuvining buzilishlari va kasalliklari.
15. O't kislotalar biosintezida jigarning monooksigenaz tizimining roli, o't kislotalar biosintezini bilan borliq kasalliklar.
16. YO'rlar almaninuvi boshqarilishining buzilishi, uni klinik ahamiyati. Aterosleroz rivojlanishining biokimyoviy asoslari.
17. Oshqozon shirasi ishlab chiqarilishining buzilishlari, kelib chiqadigan kasalliklar.
18. Aminokislotalar almashinuvining spetsifik yo'llarining buzilishlari, nasliy kasalliklarni rivojlanishi.
19. Nukleotidlar almashinuvi buzilishi bilan borliq kasalliklar. Podagra, kelib chiqish mexanizmi va davolash usullari.
20. Qandli diabetda kechki asoratlar rivojlanishining biokimyoviy asoslari.
21. Metabolik kasalliklar, metabolik sindrom, semizlik rivojlanishining biokimyoviy asoslari.
22. Klimakterik sindrom.
23. Kallikrein-kinin tizimi va arterial gipertenziya rivojlanishida o'rni.
24. Qon ivish tizimi, uni klinik ahamiyati va kasalliklari.
25. Qonda gazlarni tashilishi, gipoksiyani kelib chiqish mexanizmi.
26. Jigar-xujayra etishmovchiligi, jigar komasi rivojlanishining biokimyoviy asoslari.
27. Kimyoviy kantserogenez, o'sma xujayralarini dori vositalargi turfunligining biokimyoviy asoslari.
28. Nerv tizimi biokimyosi.

### **Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

- barcha mavzular bo'yicha ma'ruza mashfulotlarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron didaktik texnologiyalarni;
- fanning umumiy va xususiy bo'limlariga tegishli mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashfulotlarda aqliy hujum, qora quti, o'rgimchak ini, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Berezov T.T. Biologicheskaya ximiya, 2007, Moskva, Izd-vo Meditsina.
2. Vavilova T.P., Evstaf'eva O.L. Biologicheskaya ximiya v voprosax i otvetax, 2005, VEDI.
3. Zubairov D.M. i dr. Rukovodstvo k laboratornym zanyatiyam po biologicheskoy ximii. 2005, Geotar-Media.
4. Severin E.S. Bioximiya, 2007, Geotar-Media.
5. Zubairov D.M. Bioximiya. Testy, 2007. Geotar-Media.
6. Severin E.S. Bioximiya. Testy i zadachi. 2007, VEDI.
7. Sultanov R.G., Xolmuxamedova N.M. Bioximiyadan amaliy mashfulotlar, 1995.
8. Sabirova R.A., Abrorov A.A., Inoytova F.', Aripov A.N. Biologik kimyo, 2007.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Byshvskiy A.SH. i soavt. Bioximicheskie sdvigi i ix otsenka v diagnostike patologicheskix sostoyaniy, 2002.
2. Marshall V.Dj. Klinicheskaya bioximiya, 2002.
3. Severin E.S., Nikolaev A.YA. Bioximiya. Kratkiy kurs s uprajneniyami i zadachami, 2005.
4. Nikulin B.A. Posobie po klinicheskoy bioximii, 2006. Geotar-Media.
5. Aripov A.I. i soavt. Rukovodstvo po klinicheskoy laboratornoy diagnostike, 2007.
6. Dadali V.A. i soavt. Uchebno-metodicheskoe posobie k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii. Iz 4-x chastey, 2004.
7. Tkachuk V.A. Klinicheskaya bioximiya, 2006. Geotar-Media.
8. Kolyman YA., Rem K. - G.Naglyadnaya bioximiya, 2000
9. [www.tma.uzsi.net](http://www.tma.uzsi.net).
10. Inoyatova F.X., Ergashov A.T., Oripov O.A. Bioximicheskie osnovy protsessov biotransformatsii. 2005.
11. Inoyatova F.X., Sobirova R.A., Orifov N., SHukurov I.B. Bioximicheskie aspekty obmena jeleza v organizme. 2005.
12. Sabirova R.A., Inoyatova F.X., Ibragimxodjaeva M.P. Uglevodlarning almashinuvi va funktsiyasi, Toshkent-2006 y.
13. Sobirova R.A., Inoyatova F.X., Rasulova V.B. Jigar biokimyosi. 2006.
14. Abrorov A.A., Aripov A.N., Sabirova R.A., Rasulova V.B. Meditsinskaya enzimologiya. 2007.
15. Abrorov A.A., Ibragimxodjaeva M.P. Meditsina enzimologiyasi. 2007.
16. Sobirova R.A., Abrorov A.A., Ergashov A.T. Lipidlar almashinuvi. 2007.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

“Tibbiy kimyo” kafedrası

**Ish dasturi «TIBBIY KIMYO » kafedrasida tuzildi.**

**Mashg'ulotlar va nazorat tarkibi.**

semestr	Jami soat	Audatoriya soat	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya ishi	Mustaqil ta'lim	Nazorat turi		
							Reyting bali		
							j/n	o/n	ya/n
3- 4	306	171	36	98	20	135	0,5	0,2	0,3

Ish dasturi 18.11.2011 yil O'z.RSSV muovini B.Xodiev tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzildi

Ish dasturi ***Bioneorganik, bioorganik va biologik kimyo*** kafedrasining yigilishida muxokama kilindi.

Yigilish bayoni : № \_\_\_\_\_ 2019y.

Kafedra mudiri : \_\_\_\_\_ t.f.n. doII.Nazarov I.I..

Ish dasturi fanlar-aro uslubiy kengashda tasdiqlandi: № \_\_\_\_\_ 2019 yil.

Kengashi raisi : \_\_\_\_\_ t.f.d.prof.Umarov S.X.

Markaziy O'quv- uslubiy kengashda tasdiqlandi: № \_\_\_\_\_ 2019 yil

O'quv bo'limi uslubchisi: \_\_\_\_\_ 2019yil

**Dasturning tarkibiy qismlari**

**Kirish**

**Biologik kimyo** – tirik organizmlar tarkibiga kiruvchi moddalar kimyoviy tarkibini, ularning o'zgarishini, shuningdek bu o'zgarishlarning a'zo va to'qimalar faoliyati bilan bog'liqligini o'rganuvchi fan bo'lib, talabalarda mutaxassislikka oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Fanning vazifasi organizmda kechayotgan metabolik jarayonlar, ularning asoslari, qonuniyatlarini o'zlashtirib, meyoriy biokimyoviy ko'rsatkichlarni bilishni, ularni aniqlashni, bo'lajak umum amaliyot shifokori uchun juda zarur odam fiziologik vazifalarining molekulyar asoslari, kasalliklar patogenezining molekulyar mexanizmlari, kasalliklarining oldini olish va davolashning biokimyoviy asoslari, kasalliklarni tashxis qilish va davolash samaradorligini nazorat qilishga o'rgatishdan iboratdir.

**O'quv fanining maqsadi va vazifalari**

**Fanning maqsadi:** biokimyoning xozirgi kun iqtisodiy asosida talabalarda materalistik dunyoqarashni shakllantirish; talabalarni umumnazariy bilim kompleksiga o'rgatish: tirik organizmning kimyoviy tarkibi va butun organizmning faoliyat ko'rsatish jarayonida meyorda va patologik hollarda a'zo, xujayra va molekulyar bosqichlarda vujudga keladigan o'zgarishlar.

**Biologik kimyoni o'qitishning vazifalari:**

- amaliy shifokor faoliyatiga yo'naltirilgan mutaxassis tayyorlash davrida mazkur dastur o'zida fanning statistik qismi bo'yicha ma'lumotlarni integratsiya qilishi, organizmda past va yuqori molekulyar birikmalarning turli xil dinamik o'zgarishlari haqida ma'lumotlar berishi zarur.
- klinik-tashxis laboratoriyalarda keng o'tkaziladigan laborator tekshiruv natijalarini to'g'ri taxlil etish maqsadida talabalarning bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash.
- bo'lajak mutaxassisni shifokor uchun juda zarur odam fiziologik vazifalarining molekulyar asoslari, kasalliklar patogenezining molekulyar mexanizmlari (molekulyar va irsiy patologiya), kasalliklarining oldini olish va davolashning biokimyoviy asoslari kasalliklarni tashxis qilish va davolash samaradorligini nazorat qilishni o'rgatish.

- taxlilning fizik-kimyoviy usullari yordamida in vivo va in vitro jarayonlarini o'rganish; atrofi muhitni ifloslantirish bilan aholi sog'lig'ining bog'liqligini aniqlash.

#### Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«Biologik kimyo» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- organizmda kechadigan biokimyoviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, gomeostaz va bu jarayonlarning boshqarilish mexanizmlari haqida; ba'zi patologik holatlarda: qandli diabet, ateroskleroz, gepatit, oshqozon kasalliklari, o't toshi va siydik toshi kasalliklari, gipertoniya, irsiy kasalliklar, pankreatit, gipo- va gipervitaminozlar, podagra, immuntanqislikda modda almashinuvining buzilishi haqida **tasavvurlarga ega bo'lishi kerak.**

- yoshga bog'liq holda qon konstantalarining biokimyoviy ko'rsatkichlari (oqsil, uglevod, lipid almashinuv ko'rsatkichlari, fermentlar spektri); oshqozon shirasining meyorida va patologik holatlardagi biokimyoviy konstantlari; meyorda va patologik holatlarda siydikning biokimyoviy ko'rsatkichlari; organizmdagi modda almashinuvining biokimyoviy asoslarini **bilishi kerak.**

- oshqozon shirasi kislotaligi va patologik tarkibiy qismlarini aniqlay olishi; siydik analizini o'tkazish va uning tarkibidagi patologik moddalarni aniqlash; fermentlar faolligi va turli biosuvoqliklardagi metabolitlar miqdorini reaktivlar to'plami va biotestlardan bilan foydalangan holda aniqlay **bilishi kerak.**

- fotoelektrokolorimetr, polyarimetr, spektrofotometr, RN-metr, uentrifuga va termostatdan bilan foydalana bilishi; qo'llanma, spravochnik, jadvallardan foydalana **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

- klinik biokimyoda kimyoviy va biokimyoviy sistemalardan foydalanishni, organizm asosiy sistemalarining funktsional holatini belgilovchi ko'rsatkichlarni o'lchash va baholashda **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

#### Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Biologik kimyo fani tibbiy-biologik fan hisoblanib, 3- va 4-semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy-ilmiy (tibbiy biologiya va genetika, odam anatomiyasi, biofizika, bioorganik va bioorganik kimyo, gistologiya, embriologiya, hamda normal fiziologiya) fanlardan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

#### Sog'liqni saqlash tizimidagi o'rni

Umumiy shifokor tayyorlashda tayyorlash Sog'liqni saqlash tizimida alohida muhim o'rinni egallab, talabalardan modda almashinuvining biokimyoviy asoslarini bilishni talab etadi. SHU bilimlarni talabalar klinik laboratoriya tekshiruvlari natijalarini tahlil qilish, kasalliklarni tahlil qilish, ularni oldini olish va davolash ishlarida qo'llaydi.

#### Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning biologik kimyo fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informacion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, kompyuter dasturlari, elektron materiallar hamda zamonaviy fotokolorimetr, spektrofotometr, uentrifugal, rN-metrlar, hamda biokimyoviy va immunoferment analizatorlar, videotizimlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi.

### 4.Fanning hajmi va mazmuni

#### 4.1.Fanning hajmi

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr
1	Ma'ruza	36 soat	3-4
2	Amaliy	115 soat	3-4
3	Laboratoriya ishi	20 soat	3-4
4	Mustaqil ish		3-4
	Nazoratlar	j/n -34 ta ya/n - test	

#### 4.2.Ma'ruza mashg'uloti mavzusi

№	Mavzu	Mavzu mazmuni	Soat
1	Oqsillar	Aminokislotalar tuzilishi, xususiyatlari, biologik roli. Oqsillar tuzilishining	2

	qurilishi va funktsiyasi Oqsillarning fizik-kimyoviy xususiyati	peptid nazariyasi. Biologik faol peptidlar. Oqsillarning elementar tarkibi. Globulyar va fibrillar oqsillar. Oddiy va murakkab oqsillar. Oqsillarning birlamchi strukturasi, uni biologik xususiyatlariga bog'liqligi. Birlamchi strukturaning turga xos xarakteristikligi (turli hayvonlar insulini). Oqsillardagi peptid zanjirlarning konformatsiyasi (ikkilamchi va uchlamchi strukturalar). Oqsillar biologik xususiyatlarining ikkilamchi va uchlamchi strukturaga bog'liqligi. Oqsillarning domen strukturasi. Oqsil molekulasi konformatsion o'zgarishlari. Oqsillarning to'rtlamchi strukturasi. Oqsillar biologik faolligining to'rtlamchi strukturaga bog'liqligi; protomerlar komplementarligi; protomerlar konformatsiyasining kooperativ o'zgarishi (gemoglobin misolida). Oqsillarning biologik vazifalari. Izofunksional oqsillar. Genom faolligini boshqaruvchi oqsillar. Oqsillarning ligandlar bilan ta'siri. Oqsillarning fizik-kimyoviy xususiyatlari: eruvchanligi, ionlanishi va gidratsiya; oqsillarni eritmalaridan cho'ktirish. Oqsillarning molekulyar massasi, aniqlash usullari. Oqsillar denaturatsiyasi, denaturatsiyaning qaytarligi. Individual oqsillarni ajratish usullari. Organizm oqsil tarkibining o'zgarishi.	
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
1. Mavzuga kirish (15 daqiq)	1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2 – asosiy bosqich (55 daqiq)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar
7-yakuniy bosqich (10 daqiq)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi



Glyukoneogenez - bu laktat va uikl Krebs mahsulotlaridan glyukoza biosintezidir.  
 Glyukoneogenez jigarda sodir bo'ladi. Glyukoneogenez glykolizning qaytar proçessi bo'lib, bunda glykolizning 3ta qaytmas etapi mavjud:



Glyukoneogenez proçessida bu 3ta qaytmas etapni quyidagi fermentlar yordamida qaytar holatga keltiriladi:

I-piruvatkarboqsilaza, bu ferment piruvatga SO<sub>2</sub> birikib, oksaloacetat hosil bo'lishini tezlashtiradi.

II-FEP karboqsilaza – bu oksaloacetatni FEP, hamda SO<sub>2</sub>ga aylanishini katalizlaydi.

III-fruktoza-1,6-difosfataza – bu fruktoza-1,6-difosfatni fruktoza-6-fosfatga aylanishini tezlatadi.

IV-glyukoza-6-fosfataza – esa glyukoza-6-fosfatni glyukoza

### Glikoliz va glyukoneogenezning allosterik regulyauiyasi

Glikoliz va glyukoneogenezning tezligi:

1. birlamchi substratning konçentraciyasiga
2. hujayraning energetik zaryadiga (ATF, ADF, AMF miqdoriga)
3. ba'zi substrat va litobolitlarga bog'liqdir.

Proçessning nomi	Regulyator (allosterik) fermentlar	Aktivator	Ingibitorlar
Glikoliz	1. Geksokinaza 2. Fosfofruktokinaza 3. Piruvatkinaza	ADF, AMF  1,6-fruktoz-adifosfat	Glyukoza-6-fosfat ATF,  Içitrat ATF, Açetil-KoA
Glyukoneogenez	1. Fruktoza-1,6-difosfataza 2. Piruvatkarboqsilaza 3. FEP-karbokinaza	ATF, Içitrat Açetil-KoA Açetil-KoA	AMF  ADF

Glyukoza parchalanishi va sintezlanishida qatnashadigan hujayra regulyatorlariga quyidagi substrat va metabolitlar kiradi:

Oksaloacetat	- hujayrada glyukoneogenezni tezligi oksaloacetatni konçentraciyasiga bog'liq
Alanin	- piruvatkinaza fermentining, manfiy allosterik modifikatori bo'lib, FEP hosil bo'lishini sekinlashtiradi
Içitrat	- fosfofruktokinaza fermentini manfiy allosterik modifikatori glykolizni boshlang'ich etaplarini sekinlashtiradi
Açetil-KoA	- piruvatkinazani aktivligini susaytiradi va glyukoneogenezni tezlashtiradi
YUqori molekulyar yog' lotalari	- glyukoneogenezni tezlashtiradi (chunki fruktozadifosfataza fermentini allosterik; modifikatoridir) va glykolizni to'xtatadi (chunki piruvatkinaza hamda fosfofruktokinazalarni aktivligini pasaytiradi)
Fruktoza-1,6-difosfat	- glykolizni tezlashtiradi, chunki piruvatkinaza fermentining musbat allosterik modifikatoridir
Adenilnukleotidlar AMF, ADF, ATF	- allosterik regulyatorlik vazifasini o'taydi, hujayrada ATF-ni miqdori kamayib, ADF va AMF-larning miqdori ko'payganda glykoliz tezlashadi: glyukoneogenez esa sekinlashadi. Chunki, AMF va ADFning miqdori ko'payishi fosfofruktokinaza fermentini aktivligini oshiradi; ATF-ning miqdorini kamayishi esa piruvatkinaza fermentlarining aktivligini pasaytiradi.

### GLYUKOZANING PENTOZAFOSFAT IIKLIDA (APOTOMIK YO'L) PARCHALANISHI VA UNING FIZIOLOGIK AHAMIYATI

Glyukozani pentozafosfat hosil qilish yo'li bilan parchalanishi hujayra mitoplazmasida boradi. Pentozafosfat uikli yoki apotomik parchalanish yo'lini ochilishi Varburg, Linman, Dikkens va V. A. Engel'gardtlarning nomi bilan bog'liqdir.

Ular hayvon hujayrasida (masalan, eritrotsitlarda) geksozafosfatning ikki fosfotriozaga parchalanmasdan turib, to'g'ridan-to'g'ri oksidlanishini ko'rsatib berganlar.

Bu yo'l bilan glyukozani parchalanishi asosiy – aerob parchalanishdan glyukoza-6-fosfat hosil bo'lishi stadiyasidanoq farqlama boshlaydi. Agar aroyu parchalanishda glyukoza-6-fosfat fruktoza-6-fosfatga, bu esa fosforlanib, fruktoza-1, 6-difosfatga aylansa, pentozafosfat uiklida glyukoza-6-fosfat to'g'ridan-to'g'ri oksidlanib, SO<sub>2</sub> ajratib chiqaradi va pentozofosfatga aylanadi.

SHuning uchun «pentozafosfat uikli»ni «uglevodning to'g'ridan-to'g'ri oksidlanishi» ham deyiladi.

Uglevodlarning pentozafosfat uikli bo'yicha parchalanishda birdaniga 6 molekula glyukoza-6-fosfat glyukoza-6-fosfat degidrogenaza fermenti (kofermenti NAD F) ta'sirida oksidlanib (6 mol. NAD N<sub>2</sub> hosil qilib) 6 molekula-6-fosfogleyukonolaktonga aylanadi. Bu esa fosfogleyukonolaktonga fermenti ta'sirida-6-molekula N<sub>2</sub>O biriktirib, 6 molekula fosfogleyukonat hosil qiladi. Fosfogleyukonatedegidrogenaza (kofermenti NAD F) fermenti ta'sirida esa 6 molekula SO<sub>2</sub> va 6 molekula NAD N<sub>2</sub> ajralii natijasida 5 fosfogleyukonat 6 molekula ribuloza-5-fosfatga aylanadi. Bu esa oraliq 3 «S», 4 «S», 7 «S» li metabolitlar (triozalar, tetrozalar, sedageptulozaza) hosil qilib bir molekula N<sub>2</sub>O biriktirishi bilan, 2 molekula fosfat kislotasi va 1 mol. pentoza (riboza) hamda 5 molekula glyukoza-6-fosfat hosil qiladi.

Uglevodlarni pentozafosfat uiklida parchalanishi modda almashinuv tez boradigan to'qimalarda (maslaan, eritrotsitlar, jigar, sut bezlari, buyrak usti bezi, limfa bezlari, yog' to'qimalari) ro'y beradi.

Bu uiklning asosiy vazifasi:

1. Organizmda qaytarilish yo'li bilan boradigan sintetik reaksiyalarni NADF N<sub>2</sub> bilan ta'minlash.
2. Kofermentlar (NAD, FAD), nuklein kislotalar sintezida qatnashadigan kerakli pentoza bilan ta'minlash.
3. Fotosintez reaksiyasida ishtirok etish.


## SAXAROZA, LAKTOZA, FRUKTOZA, GALAKTOZA ALMASHINUVI VA UNING NASLIY BUZILISHLARI

Saxaroza, laktoza va mal'toza disaxaridlari ichakda (oshqozon osti bezi fermentlari) saxaraza, laktaza va kal'taza ta'sirida saxaraza, mal'taza fermentlarining sintezlanishi kamayganda saxaroza, mal'toza va lavtozalarning xazmlanishi buziladi. Bu esa sut va sutliovqatlar iste'mol qilganda ich ketish (ponos), qayt qilish kabi hollarni keltirib chiqaradi. Bu nasliy kasallik bo'lib, bunday hollarda yuqoridagi disaxaridlarni va ularni tutuvchi produktarni, jumladan xatto ona sutini bola kundalik raqioniga kiritmaslik lozim. Fruktoza va galaktozalarning asosiy qismi geksokinaza, izomeraza (va boshqa) fermentlar ta'sirida glyukozaqa aylanadi.

Ammo ma'lum miqdor galaktoza va fruktozalar so'rilib, qon bilan jigarga va periferik to'qimalarga o'tadilar. Ular to'qimada maxsus yo'llar bilan almashinib, so'ng glikolitik parchalanishga ko'shi ladi. Masalan, fruktoza quyidagi ikki yo'l bilan parchalanadi:

Birinchi yul – spetsifik bo'lmagan keto-geksokinaza fermenti ta'sirida, ATF ishtirokida fruktoza-6-fosfatga aylanadi va so'ng glikolitik yo'l bilan oksidlanadi.

Ikkinchi yo'l – katta fiziologik ahamiyatga ega bo'lib, bunda fruktoza fosfofruktokinaza fermenti ta'sirida (ATF ishtiroki-da) fruktoza-1-fosfatga aylanadi, bu fruktoza-1-fosfat al'dolaza ta'sirida gliueral'degidi va dioksiacetnsfosfatga parchalanadi, ular ham glikolitik yo'l bilan parchalanadilar:




Agar jigarda fruktoza-1-fosfat al'dolaza fermentining sintezlanishi kamaysa, qonda fruktozaning miqdori ko'payadi va xatto siydik bilan ham ajraladi. Fruktoza-1-fosfatning yig'ilishi jigarga zaxarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada jigar shishadi, splenomegaliya yuz beradi, ba'zan esa sarig' kasalligi yuzaga keladi. Bu irsiy kasallik

hisoblanib, yosh bolalarda uchraydi va fruktozani singdira olmaslik vujudga keladi. Ammo vaqt o'tishi bilan, bola organizmi o'sishi natijasida bu kasallik sekin-asta tuzalib ketishi mumkin. Ungacha esa saxaroza va fruktoza iste'mol qilish man qilinadi.

Galaktoza esa jigarda galaktokinaza ta'sirida fosforlanib (ATF hisobiga) galaktoza-1-fosfat, so'ng u UDF - glyukoza bilan reaksiyaga kirishib (galaktoza-1-fosfaturidiltransferaza fermenti ta'sirida) UDF-galaktozaga aylanadi. Bu esa UDF-glyukoza epimeraza fermenti ta'sirida UDF-glyukoza ga aylanadi.

Bular glikogen, laktoza, uerebrozidlar va glikoaminglikanlar (monosaxaridlar) sintezlanishida qatnashadi:



Glyukoza-1-fosfaturidiltransferazani tug'ma etishmasligi nasliy kasallik galaktozemiya olib keladi. Galaktoza va galaktozo-1-fosfat hisobiga qonda shakar miqdori 11,1-16,6 mmol/l.gacha ko'tariladi. Galaktozemiya aqliy zaiflikka, ko'z gavxari kataraktasiga olib keladi. Bu kasallik bola tug'ilganidan keyin dastlabki kunlarda sut emmay qo'yish, qayt qilish, ich ketishi bilan namoyon bo'ladi. Ko'z gavxarining xira tortib borishi (katarakta) galaktozemiya uchun xarakterlidir. Bolani tarkibida galaktozasi yo'q ovqat bilan ovqatlantirishga o'tish kasallikning hamma ko'rinishlarini batamom bartaraf etadi. Lekin karatakta yuzaga kelgan bo'lsa, endi u bu bilan yo'qolmaydi.

### UGLEVOD ALMASHINUVINING GORMONLAR YORDAMIDA IDORA ETILISHI


Gikogen almashinuvining idora etilishida adrenalin va insulin kata vazifa bajaradi.

To'qimalarning glyukoza bo'lgan talabi oshganda glikogenoliz, ya'ni glikogen parchalanishi tezlashadi. Bunda adrenalinni ajralishi tezlashib, u hujayra membranasidagi adrenalina xos reseptorlar orqali membrnadagi adenilatciklaza fermentini aktivligini oshiradi: aktivlangan adenilatciklaza ATFdan u-AMF hosil bo'lishini tezlashtiradi. u-AMF noaktiv propteinkinazani aktiv proteinkinazaga aylantiradi: bu kam aktiv glikogenfosforilaza «v»ni aktiv – glikogenfosforilazaga «a»ga aylantiradi. Bu vaqtda /g/f «v» proteinkinaza ta'sirida va 4 molekula ATF ishtirokida (4 mol. ADF ajratib) fosforlanadi; fosforlangan g/f «a» aktivdir. G/f «a» glikoliz uchun glyukoza qoldiqlarini tayyorlovchi ferment bo'lib, u 2 xil formada bo'ladi:

1. G/f «a» – aktiv, fosforlangan,
2. G/f «v» – noaktiv, fosforlanmagan.

G/f «a» glikogenni glyukoza-1-fosfatga (N<sub>3</sub>RO<sub>4</sub> biriktirib) aylanishini tezlashtiradi; u esa fosfoglyukomutaza ta'sirida glyukoza-6-fosfatga ta'sirida glyukoza va N<sub>3</sub>RO<sub>4</sub>ga parchalanadi.

SHunday qilib, adrenallinning glikogen parchalanishidagi molekulyar mexanizmi sxematik quyidagicha boradi:




Aksincha, insulin qonda glyukoza miqdorini ko'payib ketmasligini ta'minlaydigan yagona gormondir. Insulin turli to'qimalarning hujayra membranalaridagi maxsus receptorlar bilan birikib, glyukozeni deyarli hamma hujayralar membranasi bilan o'tishini ta'minlaydi.

- glyukokinaza fermentini aktivligini oshiradi va glyukozeni glyukoza-6-fosfatga aylanishini tezlashtiradi;
- glyukoza-6-fosfat allosterik regulyatsiya yo'li bilan glikogensintetaza fermentining aktivligini oshiradi, bu esa glikogen sintezlanishini tezlashtiradi;
- glyukozeni to'qimalarda parchalanishini tezlashtiradi;
- glyukozeni aminokislota va yog' kislotalariga aylanishini tezlashtiradi;
- glyukogenofosforilazaning aktivligini pasaytiradi, chunki uning fosforlanishi ham to'xtaydi. Glikogenoliz ham pasayadi;
- insulin adenilatciklazing aktivligini pasaytiradi (aniqrog'i, ciklik AMFni parchalovchi fosfodiesteraza fermentining aktivligini oshiradi va u  $\alpha$ -AMFni ATPga aylantiradi, parchalaydi). Natijada propekteinkinaza aktiv holatga o'tmaydi va glikogensintetaza «D» noaktiv (fosforlangan) formasi kamayib, glikosintetaza «a» aktiv (fosfordanmagan) formasi miqdori ko'payadi:

Qonda glyukoza miqdori ishsa refleks yo'li bilan markaziy nerv sistemasidagi metabolik markazlar qo'zg'aladi va gipotalamusga (glyukoza miqdorini impul's MNSdan regulyatsiya qiluvchi markazga) berilib, undan parasimpatik nerv tolalariga (h.vagus) o'tadi, so'ng oshqozon osti bezi  $\beta$  - hujayralariga o'tkaziladi, u erda insulin sintezi tezlashadi. Insulin muskul to'qimasida glyukozeni glikogenga aylanishni tezlashtiradi.

Aksincha, qonda glyukoza miqdori kamayganda impul's MNSdan gipotalamus orqali simpatik nerv tolalariga o'tib, buyrak usti bezi mag'iz qismiga boradi va adrenalin gormonining sintezlanishi tezlashadi. Adrenalin esa glikogeni glyukoza parchalanishini tezlashtiradi va qonda glyukoza miqdori oshadi.

Qonda glyukoza miqdori va glyukoza metabolizmining gormonlar ta'sirida regulyatsiyasi sxematik quyidagicha qo'rinishga ega:



- 1 - glyukokortikosteroidlar - aminokislotalardan glyukoza sintezlanishini tezlashtiradi;
- 2 - adrenalin va glyukogen ta'sirida regulyatsiya qilinadi;
- 3 - insulin-turli hujayra membranalarining glyukoza o'tkazuvchanligini kuchaytiradi.

## UGLEVODLAR ALMASHUVINING BUZILISHI QANDLI DIABET

Uglevodlar almashuvi regulatsiyasining buzilishi (insulin garmonining o'tmasligi) qandli diabet kasalligini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu vaqtda:

- giperqlikemiya va glikozuriya - qonda qandning miqdori xatto 1000 mg% dan oshib ketish, hamda siydik bilan glikoza ko'p miqdorda (bir necha yuz gramm) ajralishi mumkin.

- aqetonemiya va aqetonuriya - qonda aqeton, aqetouxsus kislotasi-oksimoy kislotasining miqdori ortib xatto siydik orqali ko'p miqdorda ajraladi. Sog'lom organizmda  $\beta$  - oksimoy va aqetouxsus kislotalari aqetonga aylanadi, balki  $SO_2$ ,  $N_2O$ ga qadar oksidlanib ketadi.

Qonning rN=7,0 va xatto kislotali tomonga (normada qonning rN=7,35-7,4 bo'ladi) so'rilishi yuz berib, bu holatga aqidoz deyiladi.

- oqsilning to'qimalarda parchalanishi tezlashib, azot tutuvchi oxirgi moddalar ham siydik bilan ko'p miqdorda ajraladilar.

- Suv va tuz almashuvi ham buziladi. Chunki, qandli diabet kasalligida avvalo:

1. Glikogen singezi pasayadi, xatto to'xtaj mumkin.  
2. Glikoza-6-fosfatning hujayrada miqdori kamayadi, chunki geksokinaza fermentining aktivligi pasayib, glikoza-6-fosfatazaning aktivligi oshadi.

3. Krebs tsiklining tezligi susayadi.

4. Glikozaning pentozafosfat yo'li bilan oksidlanishi ham kamayadi, chunki glikoza-6-fosfat DG va fosfoglyukonat DGlarning aktivligi pasayadi.

5. Glikozaning yog'ga aylanishi to'xtaydi.

6. Glikoneogenez (aminokislotalarning va yog'larning parchalanishi produktlaridan glikoza sintezlanishi) tezlashadi.

Hulosa qilib aytganda uglerod almashuvini regulatsiyasining buzilishi, uglevodlarnigina emas, aminokislotalar, yog'lar, suv va mineral tuzlar almashuvining buzilishiga olib keladi.

Glikoproteinlar, rpteoglikanlar va glikolipidlarning uglevod qismi va funktsiyalari.

Inson organizmida uglevod-oqsili va uglevod-lipidli birikmalar uchraydi, ular 3 guruhga bo'linadi:

1. glikoproteinlar

2. rpteoglikanlar

3. glikolipidlar

1. Glikoproteinlar murakkab oqsil bo'lib 15% uglevod va 85% oqsildan tashkil topgan. Glikoproteinlarning uglevod qismiga sial kislotasi *N*-aqetilgalaktozamin, galaktoza, mannoza, fruktoza va boshqalar kiradi.

Glikoproteinlar kollagen komplekslari, plazmatik membranalar tarkibida uchraydilar. Deyarli hamma glikoproteinlarning uglevod qismlarida sial kislotalari qatnashib, ular neyramin kislotasining unumi hisoblanadilar:

Normada (sog'lom kishilarning qonida) sial kislotasining miqdori 55-79 mg% yoki 100-195 shartli birlikka teng bo'ladi.

Hulosa qilib aytganda glikoproteinlar (va glikolipidlar) katta ahamiyatga ega va ular qo'yidagi vazifani o'taydilar. Masalan:

1. Ular hujayra membranasida turli gormonlar; mediatorlar viruslar, toksinlar va boshqa fiziologik aktiv moddalar uchun retseptorlik rolini bajaradilar. Ba'zi glikoproteinlarning (hujayralarning) o'zi tuzilishi va hossalariga ko'ra gormon yoki fermentdir.

2. Hujayra yuzasida joylashgan glikoproteinlar hujayralarning o'zaro bir-birlarini topish va immunitet holatini yuzaga kelishini ta'minlaydilar va ular hujayralararo kontakt hosil bo'lishi va bir xil hujayralarni o'zaro biriktiruvchi moddalardir.

3. Eritrotsitlar yuzasida joylashgan glikoproteinlar va glikolipidlar insonlarning qon gruppasini spetsifikligini yuzaga keltiradi va shuning ularni spetsifik antigenlar deyiladi.

Bunda qonning har-bir 4 gruppasi (A,V,N,(0)) tarkibida spetsifik uglevodlar -

*N* - aqetil-D-galaktozamin

*N* - aqetil-D-glikozamin

D - galaktoza,  $\alpha$ -fukozalar bo'lib, ularning miqdori har xil gruppada turlicha bo'ladi. Qon gruppasining spetsifikligini yuqoridagi uglevodlar va ularning miqdori belgilaydi.

4. Bir qancha glikoproteinlar mexanik vazifa bajarib, organlarni va suyuqliklarni harakatini osonlashtiradi. Bularga bo'g'inlardagi sinovial suyuqliklar, oshqozok va ichak muqimlari va boshqalar misol bo'ladi.

5. Glikoproteinlar tayanch va muhofaza vazifasini o'taydilar.

II. Glikolipidlar - uglevod va lipidlardan tashkil topgan birikmalar bo'lib, 3 gruppaga bo'linadilar.

1. Urebrozidlar - lignoerin, urebron vanevron yog' kislotalari bilan galaktoza yoki glikoza birikshidan hosil bo'ladi. Birinchi marta bosh miya tarkibida topilgani uchun ham ularni urebrozidlar deb atalgan.

2. Sul'folipidlar - bular urebrozidlarning sul'fatli unumlari bo'lib, bunda sul'fat galaktozaning 3 «S»ga birikadi. Sul'folipidlar nerv to'qima va hujayralarining membranalari orqali turli kationlarni transport qilishda qatnashadilar.

3. Gangliozidlar - uglevod qismida (boshqa glikolipidlardan farqi) turli monosaxaridlardan tashkil topgan oligosaxaridlar tutadi. (masalan, glikoza-galaktoza *N* - aqetilglikozamin *N* - aqetilneyramin kislotasi). Glikozidlarni molekulyar massasi va komponentlari turlichadir.

III. Proteinglikanlar (mukoproteinlar) yuqori molekulari uglevod va oqsillardan tashkil topgan birikma bo'lib, ular tarkibida uglevod va ularning unumlarini miqdori xattoki 95% etadi. Proteinglikanlar qo'shuvchi to'qimalarning hujayralararo matriksining asosiy substansiyasini hosil qiladilar. (Qo'shuvchi to'qimalarning quruq og'irligini tahminan 30% proteinglikanlardir). Proteinglikanlarning uglevod qismi glyukozaminglikanlar deb nomlanadi. Glyukozaminglikanlar doimo oqsil bilan birikkan holatda bo'ladilar.

## 2. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Surunkali yallig'lanishga uchragan bemorlarda piruvat miqdorini ortish sabablari
2. "Moki" sifat mexanizmlarda ishtirok etuvchi komponentlar
3. Glikoliz fermentlarining sinflari
4. Glikolizning ATF sarfi va ATF hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalari
5. Aerob va anaerob glikolizga xos xususiyatlar
6. Pentozafosfat tsiklining ahamiyati.

## Adabiyotlar

### Asosiy

1. A. YA. Nikolaev «Biologik kimyo». – Toshkent, 1992 y.
2. T. T. Beryozov, B.F. Korovkin «Biologicheskaya ximiya». – Moskva 1990 y.
3. R. A. Sobirova va boshkalar. Biologik kimyo. – T., 2006. (lotin)

### Qo'shimcha

1. A. Leninjer «Osnovy bioximiyi» 1,2,3, tom, Moskva, 1985 y.
2. A. Uayt va boshqalar «Osnovy bioximii», 1,2,3, tom, Moskva, 1981 y.
3. L. S. Strayer «Bioximiya», 1,2,3 tom, Moskva 1985 y.
4. D. Meilr «Bioximiya», 1,2,3 tom, Moskva 1980 y.
5. J. Kryu «Bioximiya» Moskva, 1979 y.
6. E. A. Stroev «Biologicheskaya ximiya» Moskva, 1986 y.
7. A. Xorst «Molekulyarn'ge osnovm patogeneza» Moskva, 1992 y.

## Ma'ruza №8

### Lipidlar almashinuvi va funktsiyasi. Lipidlar metabolizmi

1. Ovqat va organizm lipidlari, ularning ahamiyati.
  2. YOg'larning hazmlanishi va so'rilishi, ularni bolalar organizmidagi o'ziga xosligi.
  3. O't kislotalari va ularning yog'lar hazmlanishi va so'rilishidagi ahamiyati.
  4. Ichak devorida yog'larning resintezi.
  5. Xilomikronlar hosil bo'lishi va lipidlarni qonda tashilishi. Lipoproteinlar tuzilishi, funktsiyasi. Lipoproteinlipazaning ahamiyati.
  6. YOg'larning yog' to'qimalarida metabolizmi va zahiralanishi. Uchgliueridlipaza faollanishining shalola mexanizmi.
- Gliuerin va yog' kislotalarning to'qimalarda oksidlanishi va ularning fiziologik ahamiyati. Go'daklarda qo'ng'ir yogni ahamiyati.
- Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 20-80 gacha
Mashg'ulot shakli	Axborotli ma'ruza.
2. Mavzu rejasi	Odam to'qimasi asosiy lipidlarining tuzilishi va tasnifi. Zahira va protoplazmatik lipidlar. YOg'larning hazmlanishi, o't kislotalarining xazmlanish va so'rilishda ahamiyati. YOg'larning ichak devorida resintezi. Xilomikronlarning hosil bo'lishi va lipidlar transporti. Lipoproteinlipaza. Ichak devorida yog'larni resintezi.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarni organizmda lipidlarning xazmlanishi, surilishi va transporti xakida tushuntirish
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali,ma'ruza,suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik,ma'ruza matni,proektor,kom'pyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

Lipidlar almashinuvi va funktsiyasi.


ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash	

	3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2 – asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar  Tinglaydilar
8-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

Lipidlar kimyoviy tuzilishiga ko'ra turli xil bo'lib, organik eritmalarda eruvchanligi bilan xarakterlanadi, suvda erimaydi. O'rtacha odam organizmiga ozuqa bilan birga har kuni 90 g ga yaqin yog'lar qabul qilinadi. Organizmda lipidlar bir necha funktsiyalarni bajaradi:

- 5) Lipidlar yuqori kalloriyalikni ta'minlaydi. 1 g yog'ning organizmda oksidlanishidan 38,9 kJ yoki 9,3 kkal energiya ajralib chiqadi.
- 6) YOg'larda A, D, E, K – vitaminlar eriganligi sababli organizmning bu vitaminlar bilan ta'minlanganligi lipidlarning organizmga tushishiga bog'liqdir.
- 7) Organizmga yog'lar bilan birgalikda organizmda sintezlanmaydigan ko'p to'yinmagan (essensial) yog' kislotalar tushadi.
- 8) Lipidlar (fosfolipid, glikolipidlar va xolesterin) membrananing komponentlari bo'lib, bar'er vazifasini bajaradi, membrananing o'tkazuvchanligini ta'minlaydi, nerv impul'slarini uzatadi, xujayralararo kontakt va gormonlarning reseptiyasida qatnashadi, membranaga bog'liqlik fermentlar uchun optimal sharoit yaratadi.
- 9) Xolesterin o't kislotalar, steroid gormonlar, vitamin D<sub>3</sub>ning o'tmishdoshi hisoblanadi.
- 10) Prostaglandinlar ko'p to'yinmagan yog kislotalaridan sintezlanib, regulyatorlik funktsiyasini bajaradi.



Lipidlar tasnifi.

Katta odamlarda ovqat tarkibidagi yog'larining parchalanishi, o't kislotalar ajraladigan joy, ingichka ichakning yuqori qismidan boshlanadi.

### YOg'larning hazmlanishi


YOg'lar og'iz boshlig'ida hazm bo'lmaydi. Luqma me'daga tushadi va u erda kislotali muhit yuqori bo'lganligi uchun yog'lar parchalanmaydi. Lipaza uchun optimal muhit rN 5,5-7,5. Go'daklar oshqozonida yog'lar parchalanadi, chunki ular iste'mol qilgan yog'lar sut yog'lari bo'lib, ular emulsiyalangan holatda hamda sut oshqozondagi kislotali muhitni kuchsiz ishqoriy tomonga siljitadi. SHuning uchun go'dak me'dasida lipaza fermenti ishlab chiqiladi va u sut tarkibidagi yog'larni parchalaydi.

Katta yoshdagi odamlarda yog'lar o'n ikki barmoqli ichakda parchalanadi. Me'da osti bezining shirasi o'n ikki barmoqli ichakka quyiladi va uning tarkibida lipaza fermenti bordir. Bu fermentning ta'sir etishi uchun quyidagi sharoitlar bo'lishi zarur: ichak shirasidagi muhit kuchsiz ishqoriy bo'lmoqligi; yog'lar emul'siyalangan holatda bo'lishi lozim. Pankreatik shira tarkibidagi bikarbonatlar oshqozondan tushgan xlorid kislotalarini neytrallaydi. Jigar o'z navbatida kuchli emulgator safroni o'n ikki barmoqli ichakka quyadi. SHuning uchun go'dak me'dasida lipaza fermenti ishlab chiqiladi va u sut tarkibidagi yog'larni parchalaydi.

### YOg'lar hazm bo'lishiga o't kislotalarning ta'siri

O't kislotalar xolan kislotalarining hosilasidir.

DEMO



Холан кислота

Xolan kislotalardan quyidagi o't kislotalar hosil bo'ladi:

- xolat (3,7,12-trioksixolan kislotalari);
- dezoksixolat (3,12-dioksixolan kislotalari);
- xenodezoksixolat (3,7-dioksixolan kislotalari).


O't kislotalar – glikoxolat, glikodezoksixolat, glikoxenodezoksixolat yoki tauroxolat, taurodezoksixolat, tauroxenodezoksixolat turida kon'yugirlangan shaklda qatnashadilar.

O't kislotalarining ta'siri:


1. yog' va suvning yuzasi (sirti) tarang kuchini pasaytirib, yog'larni emul'siya (mayda tomchi shakli)ga aylantiradi;
2. lipaza fermentini faollaydi;
3. o't kislota yog' kislota va monoglyserid bilan miçellalar (kompleks) hosil qilib, ularning so'rilishiga imkoniyat yaratadi.



DEMO




Гликохолат кислота



Таурохолат кислота

O't kislota ichakdagi lipidlarni parchalanishini katalizlovchi pankreatik lipazani aktivatori hisoblanadi. Lipaza ta'sirida triglyseridlar quyidagicha parchalanadi:



O't kislotasining ajralishi buzilganda (o't toshi kasalligi, o't yo'lidagi o'sma) yog'larning hazmlanishi va so'rilishi yomonlashadi va bir qismi axlat bilan chiqib ketadi (steatoreya). YOG'da eruvchi vitaminlarning avitaminozi kelib chiqadi.


Fosfolipidlar parchalanishi fosfolipazalar ta'sirida ro'y beradi. Fosfolipid molekulasidagi gliuerin qoldig'ining birinchi uglerodiga to'yingan yog' kislota birikkan bo'lsa, ikkinchi uglerodiga to'yinmagan yog' kislota birikkan. Gliuerin molekulasining uchinchi uglerod atomiga fosfat kislota qoldig'i, so'ngra azot asosli radikal birikadi.

Fosfolipaza A<sub>1</sub> fosfogliuerid tarkibidagi gliuerin birinchi uglerod atomi va yog' kislota o'rtasidagi efir bog'ini uzadi.

Fosfolipaza A<sub>2</sub> fosfogliuerid molekulasining ikkinchi holatidagi yog' kislotani uzib, lizofosfatid hosil qiladi. Ko'pincha bunday fosfolipaza ilon zahari, qora-qurt zaharida bo'lib, ularning ta'sirida hosil bo'lgan lizofosfatidilxolin eritronitlarning gemoliziga olib keladi.

Fosfolipaza C fosfogliuerid molekulasi tarkibidagi gliuerin qoldig'idagi uchinchi uglerod atomi va fosfat kislota orasidagi bog'ni uzadi.


Fosfolipaza D fosfogliueridning fosfat kislota va azotli asosi orasidagi bog'ni uzadi:



YOg'larning so'rilishi va ichak devorida resintezi

YOg'lar resintezi ichak devorida ro'y beradi. YOg'lar hazmlanishidan hosil bo'lgan yog' kislotasi va gliuerin o't kislotalar bilan miçellalar hosil qilib pinouçitoz yo'li yoki diffuz yo'li bilan enterouçitlarga so'riladi. Ichak devorida so'rilgan gliuerin va yog' kislotalaridan qayta trigliueridlar sintezlanadi va bu reaksiya ketma-ketligi resintez deb nomlanadi. Ichak epiteliy hujayralarida yog'ning resintezi asosan quyidagicha bo'ladi: dastlab yog' kislotasi faollashib açil-KoAga aylanadi, gliuerin 3-fosfogliueringa aylanadi. Ulardan dastlab monogliuerid, so'ng di- va trigliueridlar hosil bo'ladi.

**β-моноацилглицерин (МАГ)    Диацилглицерин (ДАГ)    Триацилглицерин (ТАГ)**



YOg'liq ovqat iste'mol qilingandan so'ng 4-5 soatdan so'ng qonda yog'lar miqdori maksimal darajaga etadi va 10-12 soatdan so'ng yog'lar miqdori me'yoriy darajasiga qaytadi.

Lipoproteinlarning hosil bo'lishi va tashilishi

YOg'lar suvda va organizm suyuqliklarida erimasligi sababli, ularning transporti uchun mexanizm zarur. Bu vazifani esa lipoproteinlar bajaradi.

Odam qoni lipoproteinlarining tarkibi (%)

lipoproteinlar	oqsil	Uchaçilgli- çerinlar	Xolesterin		Fosfoli-pidlar
			efiri	erkin	
Xilomikronlar	2	85	4	2	7
ZJPL	10	50	15	7	18
ZPL	25	7	40	7	21
ZYUL	45	5	5	5	25

Lipoproteinlar ichak shilliq qabati xujayralarida (xilomikronlar va ZJPL), gepatouçitlarda (ZJPL va ZYUL), qon plazmasida (ZPL va ZYUL) hosil bo'ladi.

Xilomikronlar va ZJPL yog'larni qon o'zani bo'ylab tashib berishga xizmat qilsa, ZPL va ZYUL xolesterinni tashib berishga xizmat qiladi.

Ichak xujayralarida hazm mahsulotlaridan sintezlanadigan yog'lar xuddi shu xujayralarning o'zida lipoproteinlarga, asosan xilomikronlar, shuningdek ZJPL ga qo'shilib ketadi. Xilomikronlar bilan ZJPL ichak limfa kapillyarlariga, so'ngra ichak tutqich limfa tomirlari orqali ko'krak limfa yo'liga va u erdan bo'yinturuq venasi orqali umumiy qon oqimiga tushadi. Ovqat hazmi vaqtida qondagi lipoproteinlar miqdori ko'payadi, ba'zan shu qadar ko'payadiki, qon plazmasi oqish tusga kirib qoladi. Lipoproteinlar konsentratsiyasi ovqat eyilganidan 4-5 soatdan keyin eng yuqori darajaga etadi.

Jigarda hosil bo'ladigan yog'lar zichligi juda past lipoproteinlar (ZJPL) ga o'ralib, joylanadi, ular qonga tushadi. Jigar qonga bir kecha-kunduzda 20-50 g yog' chiqarib turadi (ZJPL tarkibida).

**1. Xilomikronlar (XM)** – xilomikronlar tarkibida 80-95% trigliueridlarga (TG), xolesterin – 6%, fosfolipidlar – 7%, oqsillar – 2% ga to'g'ri keladi. U *ekzogen* (oziq-ovqat) trigliueridlarni ichakdan tashuvchi (transport) vositachi bo'lib hisoblanadi. Qon plazmalarida ular lipoproteinlipazalar (LP-lipaza) ta'sirida erkin eterifikatsiyalanmagan yog' kislotalar (EJK) va gliueringacha parchalanadi. LP-lipaza – ekzogen yog'larni to'qimalar tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlovchi fermentdir. Tomir endoteliysida joylashgan LP-lipaza qondagi XM bilan birikib, ularni gliuerin va yog' kislotalargacha gidrolizlaydi va xujayralarga kirishini ta'minlaydi. So'ngra, periferik organlarda energetik substrat sifatida ishlatiladi (yog' kislotalar  $\beta$ -oksidlanishi). Qoldiq xilomikronlar (remnantlar) gepatoцитlarga borib, qon o'zanidan tezda chiqib ketadi: ovqat iste'mol qilinganidan bir-necha soatdan so'ng, ular qon plazmasida topilmaydi.

**2. Zichligi juda past lipoproteinlar (ZJPLP) yoki (pre $\beta$ - lipoproteinlar)** – bular yirik "mo'rt" lipoproteinlar bo'lib 55% TG, 19% xolesterin, 18% fosfolipidlar, 8% oqsillarni o'zida tutadi. Bu sinf lipoproteinlari jigarda sintezlanayotgan endogen trigliueridlarni asosiy tashuvchi shakli bo'lib hisoblanadi. Qonga tushgan ZJPLP ham lipoproteinlipazalar ta'sirida endoteliy tomirlarning ustki qismida paydo bo'ladi. Natijada trigliueridlar gliuerin va yog' kislotalarga parchalanadi. Bundan yog' to'qimasi, miokard va skelet mushaklari energetik substrat sifatida foydalanadi. ZJPLP ning qoldiqlari oraliq zichlikli lipoproteinlarga o'tib, jigardan qon o'zani orqali tashuvchi zichligi past lipoproteinlar orqali (ZPLP) ajralib chiqadi.

**3. Zichligi past lipoproteinlar (ZPLP)** – bu lipoproteinlar juda mayda bo'lakchalardan iborat bo'lib, ularning vazifasi qondagi xolesterinni biriktirib, tashishdan iboratdir. Ularning tarkibida 6% – trigliueridlar, 50% – xolesterin, 20% – fosfolipidlar, 24% – oqsillar bo'ladi. Masalan, xolesterin sintezining 2/3 almashinishi (*endogen xolesterin*) jigarda sintezlanayotgan xolesterin miqdoriga, 1/3 faqat – organizmga tashqi muhitdan tushayotgan ovqat tarkibidagi yog'larga (*ekzogen xolesteringa*) to'g'ri keladi. Ma'lumki, endogen xolesterin sintezini boshqariluvchi kalit fermenti bo'lib, gidroqsil-metil-KoA-reduktaza xizmat qiladi. ZPLP larning so'ngi metabolizmi ikki yo'l bilan boradi:

- gepatoцитlarning maxsus reseptorlari ZPLP me'yorda biriktirib olib, apoprotein V va E ni ZPLP ustki qismiga joylashtiradi. Jigar gepatoцит xujayra qismlari qamrab olib, gidroliz yo'li bilan erkin xolesterin hosil qiladi, yog' kislotalar va oqsillarni utilitatsiya qiladi.
- ZPLP ning erkin radikalli perekisli oksidlanishi. Organizmda erkin radikallarni hosil bo'lishi moddalar almashinuv jarayonida bo'ladi. Ma'lumki, xolesterin, ZPLP yuqori faollikka va turg'un bo'lmagan molekullari engil oksidlanish xususiyatiga ega. Natijada *modifiqirlangan* (oksidlangan) ZPLP lar hosil bo'ladi. Bunda gepatoцитlar V- va E-reseptorlarni yomon sezadi, shuning uchun ZPLP ning katabolizm yo'li fiziologik jarayonlarda to'liq yoritilmagan. Oksidlangan lipoproteinlar makrofaglar bilan qamrab olinib, ko'pik xujayralarni va ateroslerotik pilakchalar (blyashkalar) hosil qiladi. Ana shunday pilakcha kesib ko'rilsa, butunlay deyarli xolesterin efirlaridan iborat bo'lgan bo'tqanoma sariq modda sitilib chiqadi. Natijada pilakchalar yara bo'lib ketishi mumkin, bunday yaralarda biriktiruvchi to'qima yuzaga kelib, chandiq paydo bo'ladi. Unga kal'niy tuzlari o'tirib boradi, tomirlar devorining me'yoriy tarkibi o'zgarib mo'rt bo'lib qoladi, bunda tomirlarning elastiklik xususiyati o'zgaradi va torayib qoladi.

**4. Zichligi yuqori lipoproteidlar (ZYULP)** – juda mayda va zichligi yuqori lipoproteinlardir. Ularning tarkibida 5% – trigliuerid, 24% – xolesterin, 26% – fosfolipidlar, 45% – oqsillardan tarkib topgan. SHuningdek, ularda A-I, A-II va S apoproteinlar bo'lib, antiaterogen xususiyatiga egadir, ular jigarda hosil bo'ladi. Undagi leqitin-xolesterol-aqiltransferaza (LXAT) fermenti ta'sirida xolesteridga aylanadi. ZYULP hosil bo'lish yo'lining boshqa mexanizmi: ZJPL va xilomikronlar lipoproteidlipaza ta'sirida ZYULP ga aylanadi. Bu ferment apo-S-2 tomonidan aktivlanadi. ZYULP qon plazmasida yashash muddati 4 kunga teng va bu lipoproteinlar almashinuvi nefrotik sindromda, gipertrigliueridemiya va uglevodlarga boy bo'lgan ovqat iste'mol qilinganda tezlashadi.

ZYUL jigarda hosil bo'ladi. Undagi LXAT (leqitin-xolesterol-aqil-transferaza) fermenti ta'sirida erkin xolesteridga aylanadi.

ZYUL hosil bo'lish yo'lining boshqa mexanizmi: ZJPL va xilomikronlar lipoprotein lipaza ta'sirida ZYULga aylanadi. Bu ferment apo-S-2 tomonidan aktivlanadi.

ZYUL qon plazmasida yashash muddati 4 kunga teng va bu LP almashinuvi nefrotik sindromda, gipertrigliueridemiya va uglevodlarga boy bo'lgan ovqat iste'mol qilinganda tezlashadi.

ZYUL vazifalari.

1. To'qimalardan xolesterinni olib chiqib ularda uni to'planishiga yo'l qo'ymaydi.
2. To'qimalarning ZPLni yutib olishiga manfiy ta'sir etadi va shu bilan to'qimaga kam xolesterin tushadi.
3. Qondagi xolesterin efirlarini yutish qobiliyatiga ega.
4. Qon tomiridagi trigliueridlar almashinuvida ishtirok etadi.

ZYUL miqdori ortishi quyidagi holatlarda bo'ladi:

1. ayollarda yuqori bo'ladi;
2. estrogenlar ta'sirida oshadi;
3. jismoniy harakatchanlikda;
4. oz al'kogol' iste'mol qilganda;

ZYUL miqdori kamayishi quyidagiholatlarda bo'ladi:

1. erkaklarda past bo'ladi;
2. progesteron ta'sirida;
3. semizlikda;
4. uglevodlar ko'p miqdorda bo'lgan taomlar iste'mol qilganda;
5. qandli diabetda;
6. chekish natijasida.

**Lipoproteinlipaza.** Xilomikronlar bilan ZJPL bir kecha-kunduzda 70-150 g ekzogen (ovqat bilan birga tushadigan) va endogen (jigarda sintezlanadigan) yog'larni organ va to'qimalarga taqsimlab beradi. Turli organlar kapillyarlarining endoteliysida lipoproteinlar yog'larini gidrolizlaydigan lipoproteinlipaza fermenti bor. Lipoproteinlipaza kapillyarlar ichki yuzasining glikozaminoglikanlari bilan birikkan va bevosita qonga tashilib turadi. Lipoproteinlipazaning biriktirish markazi va yog'lar gidrolizi uchun katalitik markazi bor. Gidroliz mahsulotlari xujayraga tushadi, u erda oksidlanishi yoki boshqa metabolizm reaksiyalarida ishtirok etish mumkin. Xilomikronlar va ZJPL asta-sekin triautilgliuerinlardan ajralib borib, ZPLga, shuningdek, ajab emaski ZYUL ga ham aylanadi. Qondagi xilomikronlar bilan ZJPL ning yarim umri 5 soat atrofida. ZPL va ZYUL jigar, ichak, yog' to'qimasi, buyrak, buyrak usti bezlari xujayralariga endoqitoz yo'li bilan yutiladi va lizosomalarda parchalanadi.

### YOg' kislotalarining oksidlanishi

YOg' kislotalarining  $\beta$ -oksidlanishi to'g'risidagi nazariya 1904 yilda F.Knoop tomonidan yaratildi. YOg' kislotalari mitoxondriyada oksidlanadi. Bu jarayon yog' kislotasi molekulasidagi  $\beta$  uglerod atomi oldidagi bog'ning uzilishi va undan ikki uglerodli fragmentning autilg'KoA holida ajralib chiqishi bilan namoyon bo'lgani uchun  $\beta$ -oksidlanish nomini olgan.

YOg' kislotasi uito plazmadan mitoxondriyaga karnitin vositasida tashib o'tiladi. Dastlab yog' kislotasi koenzim-A ishtirokida ATF energiyasi evaziga aktivlashib autil-KoAga aylanadi. Karnitin autil-KoA bilan hosil qilgan kompleks mitoxondriya ichiga oson o'tadi va u erda yana autil-KoA va karnitinga parchalanadi. Autil-KoA mitoxondriyada dastlab autil-KoA degidrogenaza (kofermenti FAD) ta'sirida oksidlanib enoil-KoA hosil bo'ladi; enoil-KoA-gidrataza ta'sirida enoil-KoA suv bilan birikib  $\beta$ -oksiautil-KoA hosil qiladi. Uning  $\beta$ -oksiautil-KoA degidrogenaza (kofermenti NAD) ta'sirida degidrogenlanishi natijasida  $\beta$ -ketoautil-KoA hosil bo'ladi. Tiolaza ta'sirida  $\beta$ -ketoautil-KoA autil-KoA va autilKoga parchalanadi. Hosil bo'lgan autil-KoA dastlab autil KoAdan ikkita uglerodi kamligi bilan farq qiladi va u yana qaytadan bir necha marta  $\beta$ -oksidlanishi orqali autil-KoAga parchalanadi:

Tarkibida n-ta atom uglerod tutuvchi yog' kislota ( $p - 1$ ) marta  $\beta$ -oksidlanib pta autil-KoA hosil bo'ladi. B-oksidlanishning har bir uiklida hosil bo'lgan FADN va NADN<sub>2</sub> hisobiga 5 molekula ATF sintezlanadi. Ana shu asosda har bir molekula yog' kislotaning  $\beta$ -oksidlanishi jarayonida hosil bo'ladigan ATF sonini hisoblash mumkin. Masalan, pal'mitat kislota 7 marta  $\beta$ -oksidlanishi natijasida  $5 \times 7 = 35$ ta ATF va 8 molekula autil KoA hosil bo'ladi. Ularning Krebs halqasida to'liq parchalanishidan  $8 \times 12 = 96$  ATF sintezlanadi. SHunday qilib, bir molekula pal'mitat kislota to'liq parchalanganda  $35 + 96 = 131$  molekula ATF sintezlanadi. YOg' kislota faollanishi uchun sarflangan 1 mol ATF hisobga olinsa, organizm uchun 130 molekula ATF hosil bo'ladi.

*YOg' kislotalarning  $\omega$ -oksidlanishi.*

Iste'mol qilinadigan yog' kislotalaridan araxidon kislotasi alohida o'rin olgan. CHunki bu yog' kislotani to'rt qo'sh bog'i bo'lib, ular  *$\omega$ -holatida joylashgan*. Bu yog' kislotalar endoplazmatik to'rda oksidlanishga uchraydi. Q-holatida joylashgan qo'sh bog' oksidlanib oksiguruhi va so'ng qaytarilish reaksiyasi natijasida karbon guruhi hosil qiladi. Natijada dikarbon aminokislota hosil bo'ladi. Reaksiyani katalizlovchi fermentlar uito xrom R-450, qaytaruvchi sifatida NADFN<sub>2</sub>-uito xrom-s-reduktaza ishtirok etadi.

### Toq sonli yog' kislotalarning oksidlanishi

Juft sonli yog' kislotalar kabi tarkibida uglerod atomlar soni toq bo'lgan yog' kislotalar mitoxondriyada oksidlanadilar. Ammo oxirgi oksidlanish halqasida autil-KoA emas balki propionil-KoA hosil bo'ladi. Mitoxondriyada propionil-KoA sukcinil-KoA ga aylanib Krebs halqasiga kiradi. Reaksiya ketma-ketligi quyidagicha:

SNz-SN2-SO-KoA + SO2 karboqsilaza D-metil-malonilKoA epimeraza (raqemaza) L-metil-malonil-KoA mutaza sukcinil-KoA----Krebs uikli.

### Adabiyotlar

#### Asosiy

1. A.YA Nikolaev «Biologik kimyo». -Toshkent, 1992 y.
2. T.T. Beryozov, B.F. Korovkin «Biologicheskaya ximiya». -Moskva 1990 y.
3. R.A.Sobirova va boshqalar. Biologik kimyo. -T., 2006. (lotin)

### Qo'shimcha

2. A. Leninjer «Основы биохимии» 1,2,3, tom, Moskva, 1985 y.
2. A.Uayt va boshkalar «Основы биохимии», 1,2,3, tom, Moskva, 1981 y.
3. L.S.Strayer «Биохимия», 1,2,3 tom, Moskva 1985 y.
4. D. Мецлер «Биохимия», 1,2,3 tom, Moskva 1980 y.
5. J. Kryu «Биохимия» Moskva, 1979 g.
6. E.A. Stroev «Биологическая химия» Moskva, 1986 y.
7. A. Xorst, «Молекулярные основы патогенеза» Moskva, 1992

### Ma'ruza №9

#### Xolesterin va fosfolipidlar almashinuvi

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 20-80 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza.
3. Mavzu rejasi	Steroidlar funktsiyasi va almashinuvi. Xolesterin boshqa steroidlar o'tmishdoshi sifatida. Xolesterin biosintezi haqida tushuncha. Oksimetil-glutaril-KoAning mevalon kislotagacha qaytarilishi. OMG-reduktaza sintezining xolesterin bilan boshqarilishi. Jigarda xolesterinning zichligi juda past lipoproteinlar tarkibiga kiritilishi va qonda tashilishi; zichligi juda past lipoproteinlarning zichligi past lipoproteinlarga aylanishi; zichligi yuqori lipoproteinlar; xolesterinning o't kislotalarga aylanishi. Xolesterinning o't kislotalariga aylanishi. Organizmdan o't kislotalari va xolesterinning chiqarilishi. Giperxolesterinemiya va uning sabablari. O't tosh kasalligi rivojlanishining mexanizmlari (xolesterinli toshlar). Xenodezoksixolat bilan o't tosh kasalligini davolash. Ateroskleroz biokimyosi. Aterosklerotik plakchalar hosil bo'lish mexanizmi (infiltarion nazariya). Giperxolesterinemiya – aterosklerozning omili sifatida; aterosklerozning boshqa omillari. O'zbekiston Respublikasida ateroskleroz rivojlanishining biokimyoviy o'ziga xos tomonlari. Transport lipoproteinlar tarkibidagi lipidlardan foydalanish; lipoproteinlipaza. Giperliproteinemiya: alimentar, qandli diabet, nevroz, alkohol iste'mol qilishda. Murakkab lipidlar funktsiyasi va almashinuvi. Odam to'qimasi asosiy fosfo- va glikolipidlari: gliuerofosfatidilxolin, fosfatidiletanolamin, fosfatidilserin, sifingolipid lar, gliurolipidlar, glikosfingolipidlar. Bu birikmalarning biosintezi va katabolizmi haqida tushuncha. Fosfo- va glikolipidlar funktsiyasi. Lipid almashinuvining boshqarilishi. Lipid almashinuvining buzilishi. Sfingolipidozlar.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarni fosfo-, glikolipidlar, sterinlar metabolizmi va funktsiyalari bilan tanishtirish
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali,ma'ruza,suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik,ma'ruza matni,proektor,kom'pyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

Xolesterin va fosfolipidlar almashinuvi ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2 – asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar Tinglaydilar
9-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

YOg'lar eg' to'qimasining ixtisoslashgan alohida hujayralarida – adipocitlarda (lipocitlarda) to'planib boradi. YOg' to'qimasi umumiy massasining 90% yaqini eg'lar ulushiga to'g'ri keladi. Eg' hujayrasi hajmining ko'p qismini yupqa nitoplazma qatlami bilan o'ralib turadigan yog' tomchisi tashkil etadi. YOg' hujayrasida yadro, mitoxondriyalar va boshqa hujayra strukturalari bo'ladi. YOg'lar lipoproteidlardan olib kelingan yog' hujayralarining o'zida glyukozadan hosil bo'ladi.

Lipoproteidlarning yog'i lipoproteidlipaza ta'sirida yog' to'qimasi kapillyarlarida parchalanadi. YOg' kislotalari yog' hujayralariga o'tib, bu hujayralarida yana triaigilglicerinlar tarkibiga qo'shilib ketadi: bunda yog' hujayralarida glyukozadan hosil bo'ladigan  $\alpha$ -glicerofosfatdan foydalaniladi.

Depolarda to'planib turgan yog'lar yog' hujayralaridagi lipazalar ta'sirida yog' kislotalar hamda gliceringacha gidrolizlanishi yo'li bilan safarbar bo'ladi. YOg' kislotalari qonga tushib, bu erda al'bumin bilan nokovalent birikmalar hosil qiladi va bu shaklda qon o'zini bo'ylab tashib boriladi. Glicerin erigan holatda tashiladi va asosan jigarda ushlanib qoladi. Jigarda glicerin  $\alpha$ -glicerofosfatga aylanadi. U glyukoneogenez reaksiyasiga kirishishi eki glikoliz reaksiyalari bilan katabolizmning umumiy yo'li reaksiyalarida oksidlanishi mumkin.

Qondagi yog' kislota kontsentratsiyasi katta emas. Barcha qon lipidlarining atigi 1-3% ularning ulushiga to'g'ri keladi, xolos. Qondagi yog' kislotalarning yarim umri ham juda qisqa – atigi 2-4 minut. YOg' kislotalari yog' to'qimasidan ist'emolchi organlarga jadal oqim bo'lib o'tib turadi, degan ma'noni anglatadi. Bu oqim tezligi yuqori bo'lganligidan tashib berilaetgan modda kontsentratsiyasi past bo'lgan taqdirda ham talaygina miqdorda – sutkasiga 150 g atrofida yog' kislotalar etkazib berishini ta'minlaydi.

Adrenalin xuddi glikogeni safarbar etish mahallidagidek mexanizm bilan, ya'ni uAMF sintezini, proteinkinazaning aktivlanishi va lipazaning fosforillanishi o'z ichiga oluvchi ketma-ket reaksiyalar orqali ta'sir ko'rsatib, to'planib turgan yog'larning safarbar etilishini faollashtiradi. Buyrak usti bezlari xromafin to'qimasining o'smalarida – fenoxromotomalar degan kasalikda qondagi adrenalin (shuningdek noradrenalin) kontsentratsiyasi juda ko'payib ketgan bo'ladi; shunga ko'ra bunday kasallar qondagi yog' kislotalar kontsentratsiyasi sog'lom odamlariga qaraganda necha o'n barobar ko'p bo'ladi.

To'planib turgan energetik materialning ikki shakli – glikogen bilan yog'lar – o'z navbati bilan safarbar bo'ladi: ochlikda, jismoniy ish vaqtida birinchi navbatda asosan glikogen zahiralardan foydalaniladi, keyin esa eglar safarbar bo'lishining tezligi asta-sekin ortib boradi. Qisqa muddatli jismoniy nagruzkalar amalda glikogen hisobiga energiya bilan to'la-to'kis ta'minlanadi, uzoq davom etadigan jismoniy xarakterli paytida yog'lar ham sarf bo'lib boradi. Masalan, uzoq masofaga xarakterli paytida mushaklardagi glikogen va qondagi yog' kislotalari miqdorining o'zgarishiga qarab shu to'g'rida fikr yuritsa bo'ladi.

YOg' bosishi, semizlik. Ovqat bilan kiradigan va jigarda sintezlanadigan yog'larning ko'p qismi yog' to'qimasida to'planib borish bosqichida o'tadi. Asosan uglevodli ovqat bilan ovqatlanilganda yog' zapaslari jigarda uglevodlardan yog'lar sintezlanishi hisobiga hosil bo'ladi. Normal bo'lgan odamda yog'lar tana massasining tahminan 15% tashkil etadi. Butunlay ochlik paytida bu zapas 5-7 hafta davomida sarflanadi; ya'ni u glikogen zapaslaridan ko'ra ancha ko'proq vaqtga etadi. Sog'lom odam normal ovqatlanib yurganida organizmda yog' to'qimasidagi yog'lar tinmay yangilanib turadi. Boshqacha aytganday yog' bir vaqtning o'zida va doimiy suratda bir xildagi tezlik bilan to'planib boradi va safarbar bo'lib turadi. Natijada yog' to'qimasidagi yog'lari bir necha kun ichida batamom yangilanib oladi. Uzoq ochlik vaqtida va muntazam jismoniy xarakterli paytida yog'lar safarbar bo'lishining tezligi to'planib borishining tezligidan katta bo'ladi va to'planib turgan yog' kamayib boradi. Aksincha, safarbar bo'lishi tezligi mudom to'planib borishi tezligidan kam bo'lsa, u vaqtda odam semirib uni yog' bosa boshlaydi.

YOg' bosishning hammadan ko'ra ko'p uchraydigan sababi iste'mol qilinadigan ovqat miqdori bilan organizm energiya sarflarining bir-biriga to'g'ri kelmay qolishidir. Odam haddan tashqari ko'p ovqat eydigan mahalda, gipodinamiya paytida va ayniqsa ana shu ikkala omil birga qo'shilganda shu xildagi nomuvofiqlik yuzaga keladi.

Ovqat iste'moli bilan energiya sarfining bir-biriga nechog'lik mos kelishi lozimligi bunday hisobdan ko'rinib turadi: har kuni atigi 3 gr (quruq moddasiga aylantirib hisoblaganda) ortiqcha ovqat eyilganda 10 yil mobaynida tahminan 10 kg atrofida ortiqcha tana massasi to'planib qolgan bo'lur edi. Ochlik, ishtaha va to'qlik hissiga aloqador mexanizmlarning o'zi ana shunday aniqlikni ta'minlab berishi amiri mahol.

Organizmda yog'larning meyoridan ko'p to'planishi kuzatilsa semizlik deb nomlanadi va bu quyidagi holatlarda kuzatiladi:

- 1) alimantar faktor: ist'emol qilingan ovqatning kaloriyasiga nisbatan sarflanayotgan energiya tengligi buzilgan holda. Natijada yog'lar to'planib semizlik vujudga keladi;
- 2) gipotalamus shikastlanganda: ma'lumki yog'lar almashinuvi gormonal boshqaruvga ega va gipotalamus shikastlanganda ishtaha markazi boshqarishi buzilib ochofatlik holatlari kuzatiladi, ko'p ovqat iste'mol qilish semirishga sabab bo'ladi;
- 3) irsiy semizlik; ma'lumki ota-ona semizlikka moyil bo'lsa genetik axborotga ko'ra farzandlari ham moyil bo'ladi. Bu irsiy axborot dominant xususiyatiga ega;
- 4) meyoridan ko'p uglevodlar iste'mol qilish energiya manbai sifatida asosan uglevodlar sarflanib yog'lar zahirasi ortadi. SHu bilan birga uglevodlar iste'mol qilish doimo insulin ishlab chiqarishga majbur qiladi va bu gormon yog'larning zahirada to'planishiga sababchi bo'ladi.

- 5) Qalkonsimon bezning gipofunktsiyasi: qalkonsimon bez ishlab chiqaradigan gormonlar umumiy modda almashinuvini boshqaradi va bu gormon miqdori kamayishi modda almashinuvining susayishiga olib zahira moddalarning to'planishi bilan kuzatiladi.

#### **YOg'lar sarflanishining kuchayishi eki kaxeksiya.**

YOg'lar sarflanishining kuchayishi va organizmning o'ta ozib ketishi *kaxeksiya* deb nomlanadi. Bu holat quyidagi omillarga bog'liq:

A) alimantar omil: ist'emol qilgan ovqat kaloriyasi jihatidan past bo'lib sarflanayotgan energiya yuqori bo'lgan holatlarda;

B) saraton kasalligi rivojlanayotganda; o'sma to'qimasida modda almashinuvi kuchaygan bo'lib butun organizmdan energiya moddalarni tortib oladi, natijada ozib ketishi kuzatiladi.

V) qandli diabetda; modda almashinuvi yuqorida ko'rsatilgan va yog'lar asosan glyukoza sinteziga sarflanadi.

G) gipertireozda: qalkonsimon bez gormonlari asosiy modda almashinuvini kuchaytirib yuboradilar.

YUqorida ko'rib o'tkanimizdek, ATF sinteziga olib keladigan barcha asosiy metabolik jaraenlarning tezligi ATF sarfi tezligi bilan musbat teskari aloqa mexanizm bo'yicha idora etib boriladi: ATF nechog'lik ko'p sarflanadigan bo'lsa, sintezining tezligi shuncha katta bo'ladi (nafas nazorat, glikoliz, ularning idora etish). Organizm tashqi ish bajarish uchun tegishli energiya sarflanmagan paytida ham oziq moddalarni katabolizmga kirita oladigan bir qadar imkoniyatga ega bo'lsa ajab emas. Ana shu mexanizm ortiqcha ovqat iste'mol qilinganida yog' to'planib borishiga yo'l qo'ymasligi mumkin bo'ladi.

Ovqat iste'moli va katabolizmni idora etishda endokrin sistemasi qatnashadi, shu munosabat bilan semirish, yog' bosishi talaygina endokrin kasalliklarning xarakterli belgisidir.

Ovqat bilan xolesterinni tushib turishi va organizmdagi sintezi o'rtasidagi muvozanat, o't kislotalari hamda xolesterinning chiqarib tashlanishi o'rtasidagi muvozanat buziladigan bo'lsa, u holda to'qima hamda qondagi xolesterin kontsentratsiyasi o'zgarib qoladi. Buning eng jiddiy oqibatlarini qondagi xolesterin kontsentratsiyasining ko'tarilishiga (giperxolesterinemiya) bog'liqdir: bunda **ateroskleroz va o't-tosh kasalliklari** bilan og'rib qolish ehtimoli ortadi.

**O't-tosh kasalligida** o't tarkibiy qismlari cho'kib, kristallanib qolishi natijasida o't pufagi eki o't yo'llarida toshlar hosil bo'ladi. O't toshlarning ikki turi tafovut qilinadi: tarkibida 7% ko'ra ko'proq xolesterin bo'ladigan asosan xolesterin toshlari va asosan bilirubin toshlari. Xolesterin toshlari ko'proq barcha bemorlarning tahminan 2/3 qismida uchraydi.

Xolesterin toshlari o'tda uchta fazada mavjud bo'lishi mumkin. SHu fazalarning biri tarkibida xolesterin, o't kislotalari va fosfatidilxolin bo'ladigan aralash miqrellardir. Ikkinchi fazasi o'tdagi suv bilan o'ralib turadigan, miqrellardan tashqarida bo'ladigan suyuq kristalik xolesterin. Uchinchi fazasi qattiq kristalik xolesterin, cho'kma. Suyuq kristalik fazasi turg'un bo'lmaydi: xolesterin undan e miqrellarga eki cho'kmaga o'tib ketishga harakat qiladi. O't kislotalari sintez (eki ekskretsiyasi) kamayishi ehud xolesterin sintezining kuchayishi xolesterinning nisbati olganda ortiqcha bo'lib qolishiga, mavjud miqrellalar o't xolesterinning hammasini o'ziga jo kila olmaydigan holatga olib kelishi mumkin, bunda o't xolesterin bilan to'yinib qoladi. Qattiq kristalik fazasi, ya'ni xolesterinli toshlar xuddi ana shunday sharoitlarda hosil bo'ladi. O'tning dimlanib qolishi, o't pufagi va yo'llarining yallig'lanishi kasalliklari xolesterin cho'kib tushishiga qulaylik tug'diradi.

Oqsil konglomeratlari eki tushgan epiteliy hujayralari kristallanish markazi bo'lib hizmat qiladi, xolesterin shularning ustiga qavat-qavat bo'lib cho'kib tushaveradi. Toshlar ko'pincha navbatlashib eki bir talay, yirik (tovuq tuxumidek keladigan) eki mayda (qum) bo'lishi mumkin. Toshlar o't pufagi va yo'llarining tortishib-qisqarib turishiga, ya'ni spazmga sabab bo'ladi, bu bemorga og'riq hurujlari bo'lib seziladi. Toshlar o't yo'lidan o't oqib o'tishini qiyinlashtiradi, ba'zida esa butunlay to'xtatib qo'yadiki, bu toshlarning yanada tezroq o'sib, kattalanib borishiga olib keladi.

O't-tosh kasalligi davolashning asosiy usuli xozir ham toshlarni xirurgik yo'l bilan olib tashlash deb hisoblanadi. Biroq endilikda davoning boshqa usulni – xolesterin sintaza boshqaruv fermentini GMG-KoA-reduktazani xenodezoksixolat kislotani ingibirlab qo'yadi. Kuniga 1 gr xenodezoksixolat kislotasi (ursodezoksixolat kislotasi) ichib turilganida xolesterin sintezi eki barobar susayib, uning o'tidagi kontsentratsiyasi kamayadi; o't kislotalari kontsentratsiyasi preparat yuborilganligi tufayli organizmning o'z o't kislotalari ko'payib qolishi natijasida, aksincha, ortadi. Bunday sharoitlarda xolesterin cho'kib tushishi to'xtashi bilan bir qatorda mavjud toshlarning erib ketishi ham mumkin bo'lib qoladi; kattaligi no'hatdek keladigan toshlar taxminan yarim yil davomida erib ketadi. Ravshanki, toshlar asosan xolesterindan iborat bo'lsa, ana shu oddiygina davoning bunday usulini qo'llanishi mumkin; bilirubinning erituvchanligi o't kislotalariga bog'liq emas.

**Giperlipoproteidemiya** – qonda lipoproteidlar miqdorini ortishi.

Giperlipoproteidemiya quyidagi xillari kuzatiladi: tug'ma eki oilaviy, alimantar, qandli diabetda, spirtli ichimliklar iste'mol qilganda va nefrozlarda.

**Tug'ma eki oilaviy giperlipoproteidemiya** irsiy kasallik bo'lib lipoproteidlipaza fermenti sintezlanishi buzilgani eki sustligi natijasida kelib chiqadi. Xilomikron yog' kislotasi va gliueringa aylanmaydi. Lipoproteidlipaza

endotelial hujayralar yuzasida membranaga bog'liq shaklda bo'ladi va u erda xilomikron almashinuvini sodir bo'lmaydi. Natijada qonda ZPLP miqdori ortib ketadi.

**Alimentar giperlipoproteidemiya** – yog'liq ovqat iste'mol qilgandan so'ng 1-2 soat o'tgach qonda lipoproteidlar miqdori ortadi. 4-6 soatdan keyin ularning miqdori eng yuqori ko'rsatgichga etadi. Agar odam shu vaqt orasida yana yog'liq ovqat iste'mol qilsa qon tarkibida lipoproteidlar miqdori ancha vaqt davomida meyerga kelmaydi.

**Qandli diabetda giperlipoproteidemiya** – asosan insulin gormoni etishmasligi natijasida hujayralar ichida glyukoza zahirasi etishmay glyukoneogenez reaksiyalari kuchayib ketadi. Glyukoneogenez reaksiyasida glyukoza yog' kislotalaridan qayta sietezlanadi va natijada qonda yog'lar ya'ni lipoproteinlar miqdori ortadi. Kasallar uglevod ovqatlarni iste'mol qila olmaydilar va ularning raqioni asosan yog'liq va oqsilga boy bo'lgan oзуqalardan iborat. Bu holat yanada qonda lipoproteinlar miqdorini ortishiga olib keladi.

**Nefrozlarda giperlipoproteidemiya** – nefroz buyrak kasalligi bo'lib asosan siydik orqali oqsillarning yo'qotishi bilan ro'y beradi. Oqsillar qondagi onkotik bosimni belgilab turadigan modda va bu bosimni saqlash uchun organizm zahiralardan boshqa past molekulyar moddalarni safarbar etadi. SHuning uchun bu kasallikda qonda lipoproteidlar miqdori ortadi.

**Alkohol iste'mol qilganda** kuzatiladigan giperlipoproteidemiya – alkohol iste'mol qilganda organizmga energetik nuqtai nazardan qulay substrat kiritiladi. Etanol NAD kofermenti ishtirokida alkaloiddehidrogenaza ta'sirida sirka kislotasi hosilasiga aylanib undan aqetil-KoA hosil bo'ladi. Ma'lumki, aqetil-KoA qitrat qikliga kirib ko'p miqdorda energiya hosil qiladi. Organizmdagi energiya manbai sifatida iste'mol qilingan yog' kislotalar va trigliueridlarga muhtojlik kamayib ularning qondagi miqdori ortadi.

**Ateroskleroz nazariyalari.** Hozirgi vaqtda bioximiklar tomonidan yaratilgan bir necha ateroskleroz nazariyalari mavjud. SHulardan Anichkovning infiltratsion nazariyasiga binoan «Xolesterinsiz ateroskleroz bo'lmaydi» degan fikr asosida kelib chiqqan. Boshqa nazariyalarga binoan lipoproteinlarning oqsil qismida o'zgarish bo'lib, u organizmlarga yot bo'lgan holda immunologik reaksiyalar kuchayshiga olib keladi (Klimovning autoimmun nazariyasi). Amerikalik olimlar Gol'dsteyn va Braunlar tomonidan yaratilgan nazariyaga binoan ateroskleroz kelib chiqishi dislipoproteidemiya ahamiyati cheksiz. Ushbu nazariyalarga qisqacha to'xtab o'tamiz. Autoimmun nazariya (A.N. Klimov) – odam organizmida autoimmun xossalriga ega bo'lgan ZJPLP eki ZPLP hosil bo'ladi. Bu lipoproteinlarning oqsil qismlariga qarshi antitelo ishlab chiqariladi. Immun kompleksi – antitelo ishlab chiqariladi. Immun kompleksi – antitelo va ZJPLP hosil bo'ladi. Bu esa endotelial hujayralar o'tkazuvchanligini buzilishi va kompleksni tomir devorida to'planishiga sababchi bo'ladi. Arterial qon tomir devorini o'tkazuvchanligi ortishi arteriyaga lipoproteinlar singib kirishiga qulay sharoit tug'diradi.

ZYULP tuzilishi quydagicha bo'lib 7-12 nm diametriga ega va markazida gidrofob yog' qismi va atrofida fosfolipid va globulyar apoproteid qatlami bo'ladi. Bu qatlam zarrachani eruvchanligini ta'minlaydi.

Oqsil qismi 2 xil apoproteidlardan iborat: apo-A va apo-S. Apoproteind Aning apo-A-1 apo-2lar oqsil qismini 90% tashkil etadi. Ular o'zaro aminokislotalar tarkibi bilan farqlanadi, birlamchi va ikkilamchi strukturalari va immunologik xususiyatlari bilan farq qiladi. Apoprotein-A-1 ning molekulyar massasi 28000 va apo-2 ning – 17.000 dal'tonga teng.

**Tanjir kasalligida** butunlay apo-A-1 bo'lmay apo-A-2 esa faqat 6% ni tashkil qiladi. Oqsil qismining 5% apo-S tashkil etadi va ZJPLPni asosiy qismini tashkil etadi.

**Anichkovning infiltratsion nazariyasi** eksperimental hayvonlarda xolesterin ko'p miqdorda kiritilganda ateroskleroz kasalligi keltirib chiqarilgan. Ammo bu xastalik xolesterin berish to'xtagandan so'ng qayta tiklana boshlangan shuning uchun bu nazariya ko'proq tarixiy ahamiyatga ega.

**Gol'dstein va Braunlar nazariyasiga** ko'ra ateroskleroz kelib chiqishiga asosan dislipoproteidemiya ahamiyatga ega. Kapillyarlar endotelial hujayralarning yuzasida maxsus reseptorlari bo'lib, ular ZPLPlarni bog'lab plazmadan hujayraga botib kiradilar. Natijada xolesteringa boy bo'lgan lipoproteid hujayraga uni olib kiradi. Hujayra lizosomalarida ZPLP va xolesterin efilari gidrolizga uchrab erkin xolesterin hosil bo'ladi. Hujayrada to'planib qolgan xolesterin u erdan ZYULP tarkibida olib chiqib ketiladi. Qon tarkibida dislipoproteidemiya vujudga kelganda xolesterin hujayrada to'planib qoladi. Bunga ko'maklashuvchi omillardan biri – yuqori qon bosim. Elektron mikroskop ostida bunday hujayralar «ko'piksion» ko'rinishiga ega bo'ladi. Ortiqcha xolesterinni sarflash uchun hujayralar bo'linishi kuzatilgan ammo bu yanada qon tomirlar toraishiga olib keladi. Ateroskleroz birinchi navbatda yurak ishemik kasalligi bilan kuzatiladi.

**Ateroskleroz kasallikni olib keluvchi havfli omillar** bir necha guruhga taqsimlanadi.

1. **aniqlangan omillar:** dislipoproteidemiya, giperxolesterinemiya, arterial gipertenziya, chekish
2. **tahmin qilinaetgan omillar:** semizlik, emoiional hayajonlash, kamxarakatlik, irsiy omil va boshqalar.

Ateroskleroz va yurak ishemik kasallikni bartaraf etish biokimeviy yo'llar shu omillarga bartaraf berishdan iborat.

**Lipoproteinlar almashinuvining buzilishlarini davolashning asosiy tamoillari:** 10% yog'lar qabul qilishini kamaytirish, ovqat tarkibida to'yingan yog' kislotalar miqdorini amaytirib, to'yinmagan yog' kislotalar




miqdorini hamda kletchatka miqdorini oshirish, margarin va turli yog'larni o'simlik moylari bilan almashtirish, xolesteringa boy ozuqa mahsulotlarini kam ist'emol qilish, osh tuzi miqdorini kamaytirish.

**Ketogenez.** Keton va aqeton tanachalariga aqetosirka,  $\beta$ -oksibutirat va aqetonlar kiradi. Qonda keton tanachalar miqdori juda kam bo'ladi. Keton tanachalar 2 yo'l bilan sintezlanadi. Oz miqdorda  $\beta$ -oksidlanishning oxirgi 4 uglerodli mahsulotidan hosil bo'ladi. Keton tanachalarining asosiy qismi 2 molekula aqetil-KoA ning aqetoaqetiltransferaza fermenti ta'sirida kondensaqiyalanishi natijasida hosil bo'ladi.



Deaqillanish gidroksimetilglutaril-KoA-sintetaza va gidroksimetilglutaril-KoA-liaza fermentlari ta'sirida aqetoaqetat hosil bo'ladi.



Undan  $\beta$ -oksibutiratdegidrogenaza ta'sirida va qaytaruvchi sifatida NADN<sub>2</sub> ishtirokida  $\beta$ -oksibutirat hosil bo'ladi, aqetoaqetatdekarboqsilaz ta'sirida dekarboqsillanishi natijasida esa aqeton hosil bo'ladi.

Qandli diabetda keton tanachalarini qondagi miqdori 20 mmol/l dan ortadi. Hosil bo'lgan aqetoaqetil transferaza ta'sirida aqetoaqetil-KoA aylanadi. Bu reaksiyada bir molekula sukqinil-KoA sarflanib sukqinat hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan aqetoaqetil-KoA HS-KoA va tiolaza ta'sirida 2 molekula aqetil-KoAga aylanib shavelsirka kislotasi bilan qo'shilib utratat hosil qiladi va Krebs halqasiga kiradi. Demak, keton tanachalarini qayta limon halqasiga kirish va oksidlanishi uchun etarli miqdorda shavelsirka kislotasi bo'lishi kerak. Och qolganda, qandli diabetda glyukoza etishmaganligi sababli sukqinat-KoA va shavelsirka kislotasi etishmagani uchun keton tanachalar miqdori qonda ortadi. SHuning uchun qandli diabetni og'ir shaklida, komatoz holatida kasal og'zidan aqeton ishi keladi. Demak, sukqinil KoA va shavelsirka kislotasi etishmasligi keton tanachalari sarflanishi susayadi va qondagi miqdori ortadi. YUrak va skelet mushaklarida keton tanachalar o'ziga mos metabolitlar deb hisoblanadi. Sog'lom odamda keton tanachalar kam hosil bo'ladi va faqat ovqat tarkibida yog'lar uglevodlarga nisbatan ortib ketsa kuzatiladi.

**Ketonemiya** – qonda  $\beta$ -oksibutirat va aqeton miqdori ortishi aytiladi.

**Ketonuriya** – siydikda keton tanachalarining miqdori ortishi aytiladi.

Sog'lom odamda siydikdagi keton tanachalari miqdori 125 mg/100 ml teng. Keton tanachalarning salbiy ta'siri – ular o'rta kuchli kislotasi xossalari ega bo'lib siydikda anion shaklida bo'ladi. Siydik bilan chiqatgan keton tanachalar natriy ionlari bilan bog'lanib chiqadilar. Qonda va boshqa suyuqliklarda ketonlarni ko'payishi aqidoz eki ketoaqidozga olib keladi. Kationlar o'z navbatida suvni organizmdan chiqib ketishiga sababchi bo'ladi va natijada nerv tizimida arefleksiya va koma holati kuzatiladi.

### **Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar:**

#### **«Aql xujumi»**

*Sqenariy:* O'rta bitta mavzu tashlanadi. Talabalar shu mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Kotiba tayinlanadi. O'xshash fikrlar birlashtiriladi. 5-7 daqiqa vaqt beriladi. Oxirida eng qiziqarli fikrlar alohida ajratiladi va baholanadi. Qoniqarsiz baholanmaydi. Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va talabada fikrlash diorasi kengayishi kuzatiladi.

#### **Interaktiv usul savollari:**

6. YOg'larning rezervlanishi va mobilizaqiyasi.
7. Bu jaraenni boshqarilishi.
8. Giperxolesterinemiya va uni aterosklerozni rivojlanishida ahamiyati.
9. O't-tosh kasalligini rivojlanishi va davolash usullari.
10. Keton tanachalar sintezi va parchalanishi.
11. Ketonemiya, ketonuriya.
12. Giperlipidemiya, semirish, sfingolipidozlar.
13. Giperlipoproteinemiyalar.
14. Ateroskleroz nazariyalari.
15. Giperxolesterinemiya va ateroskleroz rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar.

### **Ma'ruza №10**

#### **Oqsillar xazmlanishi. Oqsillar almashinuvining umumiy yo'llari, biogen aminlar**

1. Oqsillar ahamiyati, organizmda ularning dinamik holati. Oqsillarning biologik qiymati, azot balansi, ularni yoshga bog'liqligi.
2. Xlorid kislotasini oshqozonda hosil bo'lishi, ahamiyati va meyoriy ko'rsatkichlari.
3. Oqsillarning hazmlanishi, ekzo- va endopeptidazalar, ularning spetsifikligi. Aminokislotalar so'rilishi. Go'daklarda oqsillar xazmlanishining o'ziga xosligi, bolalarda ovqat allergiyasi.

4. Oqsillarning ichaklarda chirishi va hosil bo'lgan toksik moddalarning zararsizlantirilishi.
5. So'rilgan aminokislotalar taqdiri. Aminokislotalar almashinuvining umumiy yo'llari.
6. Aminokislotalarning transaminlanishi. Transaminazalar. Vitamin V<sub>6</sub> ning kofermentlik funktsiyasi. AIAT va AsAT fermentlar faolligini o'rganishning klinik ahamiyati.

Aminokislotalarning dezaminlanishi. Bevosita va bilvosita oksidlanishli dezaminlanish.

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 20-80 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza.
4. Ma'ruza rejasi	To'qimalardagi aminokislotalar manbai va sarflanish yo'llari umumiy sxemasi. Organizmdagi oqsillarning dinamik holati. Katepsinlar. Azot balansi. Ovqat tarkibidagi oqsil meyori. Oqsillarning biologik qiymati. Oqsil zahiralari. Ovqat tarkibidagi oqsillar aminokislotalar manbaidir. Oqsillarning hazmlanishi. Proteinazalarning substrat spetsifikligi (peptid boqlarini tanlab gidrolizlash). Aminokislotalarning so'rilishi. Hazmlanishni boshqarishning biokimyoviy mexanizmlari: oshqozon-ichak yo'li gormonlari. Ichakda oqsillarning (aminokislotalar) chirishi. Parenteral ovqatlanish. Oshqozon va duodenal shirasini biokimyoviy tekshirishning diagnostik ahamiyati. Oshqozon osti bezi proteinazalari va pankreatitlar. Panreatitni trasilol va boshqa ingibitorlar yordamida davolash. So'rilgan aminokislotalar taqdiri. Xujayra membranalari orqali aminokislotalar transporti. To'qimalarda aminokislotalarning oraliq almashinuvi. Aminokislotalar almashinuvining umumiy yo'llari. Transaminlanish: aminotransferazalar, V <sub>6</sub> vitaminining kofermentlik vazifasi. Aminotransferazalar spetsifikligi. Transaminlanishda qatnashuvchi aminokislotalar; glutamin kislotaning alohida o'rni. Aminokislotalarning bilvosita dezaminlanishi. Aminokislotalar dezaminlanishining biologik ahamiyati. Transaminlanish reaksiyalarining biologik ahamiyati. YUrak infarkti, jigar kasalliklari tashxisida qon zardobida transaminazalarni aniqlash. Aminokislotalarning oksidlanib dekarboqsillanishi; glutamatdegidrogenaza. Aminokislotalarning dekarboqsillanishi. Biogen aminlar: gistamin, serotonin, aminomoy kislota, katexolaminlar, hosil bo'lishi va funktsiyalari. Biogen aminlarning oksidlanishi (aminooksidazalar). Gistaminning allergie reaksiyalar va yallig'lanishni rivojlanishidagi roli. Antigistamin preparatlar.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarga oqsilning ahamiyatini, azot muvozanatini, tana oqsillarining dinamik xolatini, oshqozon shirasining rN miqdorini, umumiy zichlikni, erkin va birikkan HCl, sut kislotani borligi tugrisidagi bilimlarni urgatish. Olingan bilimlarni diagnostikada kullash.
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, proektor, kom'pyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat: savol-javob.

Oqsillar xazmlanishi  
ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2 – asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar
10- yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. YAKunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

**Iste'mol qilinadigan oqsil me'yori**

Azot muvozanatiga erishish odam salomatligini saqlash va uning yuqori ishlash qobiliyatini ta'minlash uchun ovqatlanishda oqsil normasini aniqlash lozim. CHunonchi, katta yoshdagi aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi va o'rtacha jismoniy faoliyati bor odamda energetik sarflanish 12000 kJ bo'lsa, sutkasiga 100-120 g oqsil iste'mol qilish kerak. Mehnat sharoiti o'zgarganda va energetik sarflanish yuqori bo'lsa, ushbu me'yor har bir 2100 kJ hisobiga 10 g ga oshadi. Og'ir jismoniy ish bajaruvchi ishchilar sutkada 130-150 g oqsil iste'mol qilishi lozim. Homiladorlik va laktatsiya paytida, shuningdek, ayrim patologik holatlarda (organizm siydik yoki asit suyuqligi, eksudatlar bilan oqsil yo'qotsa, masalan: nefritlarda, og'ir infeksiyon kasalliklarda, kuyganda, jarohatlanganda va hokazo) oqsilga bo'lgan ehtiyoj keskin oshadi.

YOsh bolalarning oqsilga bo'lgan ehtiyoji birinchi navbatda ularning yoshi va tana og'irligi bilan aniqlanadi. Tananing har bir kg og'irligiga 1,5 g oqsil ko'payib borishi lozimdir (Rubner koeffitsienti). Hattoki, go'dak bolalar ham sutkada 55-72 g oqsil qabul qilinishiga muhtojdir. YOshi ulg'ayishi bilan (12-15 yoshgacha) oqsilning ushbu normasi katta yoshdagi odamning me'yorigacha oshadi. Oqsilga bo'lgan ehtiyoj ma'lum darajada sutkalik raqionning kaloriyaligiga ham bog'liqdir. Ovqatlanish kaloriyasi etarli bo'lmasa, oqsillar birinchi navbatda organizmning energetik ehtiyojlarini qondirish uchun sarflanib, anabolik jarayonlarda foydalanilmaydi.

#### Musbat va manfiy azot balansi

Azot balansi ovqat bilan birga tushgan azot miqdori bilan organizmda chiqarib turiladigan (asosan siydikchil tarkibida) azot miqdori o'rtasidagi farqdir. Katta yoshdagi sog'lom odamda ovqat normal bo'lganida **azot muvozanati** qaror topadi, ya'ni organizmdan chiqariladigan azot miqdori unga tushadigan azot miqdoriga teng bo'lib turadi. Organizm o'sayotgan davrida, shuningdek, holdan toydiradigan kasalliklardan sog'ayib kelinayotgan paytda organizmga tushib turadigandan ko'ra kamroq azot chiqarib turiladi. Bu **musbat azot balansidir**. Odam qariganda, och qolganda va holdan toydiradigan kasalliklar avjida azot tushganidan ko'proq chiqib turadi. Bu **manfiy azot balansidir**.

Kaloriyalarning soni jihatidan etarli bo'lgan raqionda azot muvozanatini saqlash uchun zarur oqsillarning eng kam miqdori 30-50 g ni tashkil etadi. Ammo bu miqdor salomatlik va ish qobiliyati uchun zarur optimumni ta'minlab bermaydi. O'rtacha jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi katta yoshli odam bir kecha-kunduzda 100 g oqsil qabul qilishi kerak.

#### Oqsillarning biologik qiymati

YAxlit organizmni oqsil almashinuvining holati faqat ovqat bilan qabul qilinadigan oqsil miqdoriga bog'liq bo'lmay, balki uning tarkibini sifatiga ham bog'liqdir. Xilma-xil oqsillar turlicha biologik qiymatga egadir. SHunga ko'ra organizmning plastik ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil ovqat oqsillarini iste'mol qilish lozim. Ehtimol, iste'mol qilinadigan ovqat oqsilning aminokislota tarkibi tana oqsillarining aminokislota tarkibiga qanchalik yaqin bo'lsa, bunday oqsillarning biologik qiymati shunchalik yuqoridir. Ammo ovqat oqsilining o'zlashtirilishi darajasi oshqozon-ichak yo'li fermentlari ta'sirida uning parchalanishiga bog'liqdir. Qator oqsil moddalari, masalan: jun, sochlar va boshqalar, tana oqsillarining aminokislota tarkibiga yaqin bo'lishiga qaramay, ovqat oqsili sifatida ishlatilmaydi. CHunki ular ichak proteazalari ta'sirida gidrolizlanmaydi. Go'sht, sut, tuxum oqsillarining biologik qiymati birmuncha yuqoridir, chunki ularning aminokislota tarkibi tana oqsillari aminokislota tarkibiga yaqindir va ichak fermentlari ta'sirida oson parchalanadi.

Oqsillarning biologik qiymati tushunchasi bilan essenqial almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar «tarkibi nima?» degan savol chambarchas bog'langandir. SHuni ta'kidlash kerakki, odam organizmida 20 aminokislotalardan faqat 9 tasigina sintezlanib, ular almashtirib bo'ladigan aminokislotalardir; (uglevodlar va lipidlar almashinuv mahsulotlaridan sintezlanadi), 3 tasi yarim almashinib bo'ladigan (21jadval). Qolgan 8 ta aminokislota organizmda sintezlanmaydi, shuning uchun ular hayotiy muhim, essenqial yoki almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar deyiladi.

#### Biologik qiymati jihatidan aminokislotalarni tasnifi

Almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar	YArim almashtirib bo'ladigan aminokislotalar	Almashtirib bo'ladigan aminokislotalar
Valin	Arginin	Alanin
Leytsin	Tirozin	Asparagin kislotasi
Izoleyuin	Gistidin	Gliuin
Treonin		Glutamin kislotasi
Lizin		Prolin
Metionin		Serin
Fenilalanin		Tirozin
Triptofan		Ijistein
		Ijistin

Ovqat aralashmasida almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalardan birontasi bo'lmasa manfiy azot balansi rivojlanishi, ozib ketish, o'sishdan to'xtash, asab tizimining buzilish holatlari kuzatiladi.

#### Oqsillarning hazmlanishi

Oqsillar va peptidlarni hazmlanishida ishtirok etuvchi proteolitik fermentlar oshqozon-ichak yo'llarida

proferment sifatida sintezlanadi va ajralib chiqadi. Ular nofaoldir va o'zining oqsillarini parchalamaydi.

#### *Me'dada oqsillarni hazmlanishi*

Me'dada oqsillar pepsin proteolitik fermenti ta'sirida hazm bo'lib boradi va bu jarayonda me'da shirasining xlorid kislotasi muhim rol o'ynaydi. Xlorid kislotasi me'da bezlarining qo'shimcha hujayralarida hosil bo'ladi va me'da bo'shlig'iga ajralib chiqadi. Me'da bo'shlig'ida uning konsentratsiyasi 0,16 M (taxminan 0,5% ga) etadi. SHuning hisobiga me'da shirasiga rN qiymati pastdir, ya'ni 1-2 atrofida bo'ladi.

Emadigan yosh bolalarning me'da shirasida sutni ivitadigan renin fermenti bo'ladi.  $Ca^{2+}$  ishtirokida renin sutning erigan kazeinlarini erimaydigan shaklga aylantiradi. Ma'lumki, suyuqliklar me'dada uzoq turmaydi. Sut ivitishning fiziologik ahamiyati uning oqsillari hazm bo'ladigan vaqtgacha me'dada ushlab turishdan iboratdir. Katta yoshli odamlar me'dasida renin bo'lmaydi. Ularda sut kislotali muhit bilan pepsinning birgalikda ta'sir qilishi natijasida ivib ketadi. Me'dada, pepsin ta'sirida, oqsillardan turli xil kattalikda polipeptidlar va ehtimol, uncha ko'p bo'lmagan miqdorda erkin aminokislotalar hosil bo'ladi.

Me'da shirasi rangsiz suyuqlik bo'lib, kuchli kislotali reaksiyaga egadir. Odamda sutkasiga 1,5 litr oshqozon shirasi ajralib chiqadi. Uning tarkibida suv, oqsillar, fermentlar (pepsin, gastriksin, renin, mu'in, gastrin gormoni, xlorid kislotasi, kislotasi muhiti yaratuvchi fosfatlar va qator boshqa moddalar) mavjuddir (22-jadval).

#### **Me'da shirasining tarkibi**

Solishtirma og'irligi	1,006-1,009
rN	1,5-2,0
Suv	99,0-99,2%
Quruq qoldiq	0,8-1,0%
Organik moddalar	0,4-0,5%
Xloridlar (xlorid kislotasi va uning tuzlari)	0,5-0,65%
Umumiy xlorid kislotasi	0,45-0,6%
Erkin xlorid kislotasi	0,2-0,5%
Bog'langan xlorid kislotasi	0,04-0,08%
Oqsil	0,4%

Me'da bezlarining asosiy hujayralarida pepsinning o'tmishdoshi pepsinogen sintezlanadi. Uning molekulyar og'irligi 40000. Pepsinogen polipeptid zanjiri pepsin (molekulyar massasi 34000), pepsin ingibitori (molekulyar massasi 3100) va qoldiq polipeptiddan iborat. Pepsin ingibitori lizinni 8 qoldig'i va argininni 4 qoldig'ini tutgani uchun kuchli asos xususiyatiga egadir. Me'da bezlarining shirasida pepsinogendan 42 ta aminokislota qoldig'ini o'z ichiga oladigan N-uchli qismi ajralib chiqadi. Oldin polipeptid qoldiq ajraladi, so'ng ingibitorini ajralishi kuzatiladi. Qolgan qismining konformatsion tarzda qayta qurilishi natijasida faol markaz yuzaga keladi. Pepsin fermenti hosil bo'ladi. Pepsinogenning pepsinga aylanishi xlorid kislotasi yoki pepsinning ta'siri bilan, ya'ni autokatalitik yo'l bilan borishi mumkin.

#### HCL

Pepsinogen  $\longrightarrow$  pepsin (asta-sekin)  
pepsin

Pepsinogen  $\longrightarrow$  pepsin (tez)

Xlorid kislotasi ishtirokida yuzaga chiqadigan reaksiya asta-sekin boradi. Holbuki, autokatalitik jarayon juda tez o'tadi. SHunday qilib xlorid kislotasi ishtirokida hosil bo'lgan biroq miqdorda pepsin me'da shirasi ajralib chiqqandan keyin ko'p o'tmay pepsinogen qolgan qismining tezgina pepsinga aylanishiga olib keladi.

Pepsin peptid zanjirining ichki peptid bog'larini gidrolizlaydi, bunday peptidgidrolazalar **endopeptidazalar** deb ataladi. SHu munosabat bilan pepsin ta'siri natijasida me'dadagi oqsillar polipeptidlargacha parchalanadi. Pepsin rN 1-2,5 bo'lganda yuqori faollik ko'rsatadi. Pepsin ayniqsa, aromatik aminokislotalar karboqsil gruppasidan hosil bo'lgan peptid bog'larini uzadi. U deyarli barcha tabiiy oqsillarini parchalaydi. Alifatik va dikarbon aminokislotalardan hosil bo'lgan peptid bog'larga sekin ta'sir etadi. Ayrim keratinlar, protaminlar, gistonlar, mukoproteinlar bundan mustasnodir. Pepsin o'zining gidrolitik ta'sirini denaturatsiyaga uchragan oqsillarda ko'rsatadi.

Gastriksin molekulyar massasi bo'yicha pepsinga yaqindir (31500). Uning rN optimumi taxminan 3,5 teng. Gastriksin dikarbon aminokislotalardan hosil bo'lgan peptid bog'larga ta'sir ko'rsatadi. Me'da shirasida pepsin/gastriksin nisbati 4:1 teng. YARA kasalligida uni gastriksin tomonga siljishi kuzatiladi. Me'dada bu 2 proteinazalarni birgalikda ta'siri organizmni turli xil ovqatlanishga moslashtiradi. Masalan: o'simlik va sut mahsulotlari bilan ovqatlanishda oshqozon shirasining kislotali muhitini qisman neytrallashtirishga olib keladi va oqsillarni pepsin ta'sirida emas, balki gastriksin ta'sirida parchalanishiga olib keladi.


Pepsin va gastriksin ta'sirida oqsillar polipeptidlar (albumozlar va peptonlargacha) parchalanadi, oqsillarning asosiy parchalanishi esa ingichka ichakda yuz beradi.

#### **O'n ikki barmoqli ichakda oqsillarning hazm bo'lishi**

O'n ikki barmoqli ichakda oqsillarga va me'dadan o'tgan turli xil kattalikda polipeptidlar pankreatik va ichak shirasining fermentlari ta'sir qiladi. Xususan, oshqozon osti bezining proteolitik fermentlari tripsin, ximotripsin,

karboksipeptidaza A va V lar ta'sirida oqsil va polipeptidlardan turli xil kattalikdagi peptidlar va erkin aminokislotalar hosil bo'ladi.

Me'da osti bezi hujayralarida tripsinogen, ximotripsinogen profermentlari, A va V prokarboksipeptidazalari, proelastaza sintezlanadi. Tripsinogenning faollanishi ichak hujayralari ishlab chiqaradigan enteropeptidaza fermenti ishtirokida o'tadi (68-rasm).



**68-rasm.** Tripsinogenning faollanish mexanizmi

Enteropeptidaza ham proteolitik fermentdir: u tripsinogenning N-uchidagi geksapeptidini ajratadi, shuning natijasida molekula qolgan qismi konformatsiyasi o'zgarib faol markaz yuzaga keladi tripsin fermenti hosil bo'ladi. Me'da osti bezining boshqa hamma profermentlari ham qisman tanlab o'tadigan proteoliz yo'li bilan faol holga keladi, natijada ximotripsin, A va V karboksipeptidazalar, elastaza degan fermentlar hosil bo'ladi.

Tripsin, ximotripsin, elastaza fermentlari endopeptidazalardir, va ma'lum peptid bog'lariga ta'sir ko'rsatadi. Tripsin asosan lizin va arginin aminokislotalarining karboqsil guruhlaridan hosil bo'lgan peptid bog'lariga ta'sir etadi. Ximotripsin tirozin, fenilalanin va triptofan aminokislotalardan hosil bo'lgan peptid bog'lariga nisbatan faoldir. Elastaza esa polipeptid zanjirining lizindan hosil bo'lgan peptid bog'lariga ta'sir etadi. Karboksipeptidaza A rux tutuvchi fermentdir va polipeptid zanjirining C-uchidagi aromatik va alifatik aminokislotalarni gidrolizlaydi. Karboksipeptidaza V esa faqat C-uchidagi lizin va argininni gidrolizlamaydi. Ichak aminopeptidazalari rux yoki marganeç va ristein ta'sirida faollashadi va polipeptid zanjirining N-uchidagi aminokislotalarni gidrolizlaydi. Dipeptidazalar dipeptidlarni gidrolizlaydi, kobalt, marganeç va ristein ta'sirida faollashadi.

Barcha hazm peptidgidrolazalarining birma-bir ta'sir ko'rsatib borishi, oqsillarning aminokislotalargacha to'la parchalanishini ta'minlab beradi. Oqsillarning me'dada qisman hazm bo'lishi keyinchalik ingichka ichakda hazm bo'lishini garchi engillashtirsada, lekin mutlaqo shart deb hisoblanmaydi. Me'da butunlay kesib olib tashlangandan keyin (total rezeksiya qilinganidan so'ng) oqsillar singishining sezilarli darajada izdan chiqmasligi shundan dalolat beradi.

Me'da va ichak hujayralari bez hujayralarida fermentlarning nofaol o'tmishdoshlari hosil bo'lib turishi tufayli ovqatni hazm qiluvchi peptidgidrolazalar ta'siridan saqlanib boradi, bunday ferment o'tmishdoshlari ishlanib chiqqanidan keyingina faol holga o'tadi. Bundan tashqari, fermentlar me'da yoki ichak boshligiga tushar ekan, hujayralarning oqsillariga to'qnash kelmaydi, chunki shilliq parda shilimshiq qatlami bilan, har bir hujayra esa plazmatik membrana tashqi yuzasining peptidgidrolazalar substratlari bo'lib hisoblanmaydigan polisaxaridlar bilan himoyalangan bo'ladi. Biroq me'da va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligida sohasidagi proteinazalar ta'sirida hujayralar emirilib turadi.

**Pankreatit** o'tning (va u bilan infeksiyaning) pankreatik yo'lga o'tishi natijasida rivojlanadigan kasallikdir. Natijada me'da osti bezining proteolitik fermentlari tripsin, ximotripsin, karboksipeptidaza A va V, elastaza va kollagenaza ushbu kasallikda faol holda ajralib chiqib, me'da osti bezi to'qimalarini parchalashi mumkin. SHunga ko'ra to'qimalarni o'z-o'zini parchalanishini oldini olish va davolash maqsadida trasilol, kontrikaldan foydalanadi. Trasilol polipeptid tabiatga ega bo'lgan modda bo'lib, yuqorida qayd etilgan fermentlarning ingibitorlaridir (qora molning quloq oldi bezlaridan olinadi). O'tkir pankreatit, pankreonekroz va surunkali pankreatitni davolashda ishlatiladi.

### Ichakda aminokislotalarning so'rilishi

Oqsil gidrolizining mahsulotlari oshqozon-ichak yo'lidan asosan erkin aminokislotalar ko'rinishida so'riladi. Aminokislotalar so'rilishi maxsus transport tizimlari ishtirokida kechadi. Bu jarayon faol transport bo'lib  $\text{Na}^+$  gradienti bo'lishini talab qiladi va  $\text{Na,K-ATF-aza}$  ishtirokida bo'ladi. Aminokislotalarni tashish uchun taxminan 5 spetsifik transporterlar mavjud:

- neytral alifatik aminokislotalar uchun;
- uiklik aminokislotalar uchun;
- asosiy aminokislotalar uchun;
- kislotali aminokislotalar uchun;
- prolin uchun.

Bunda aminokislota  $\text{Na}^+$  bilan birikkan holda ichak epiteliysi membranasidan o'tadi (simport usuli),  $\text{Na}^+$  esa hujayradan ATF-aza yordamida chiqarilib yuboriladi. Aminokislotalarni ikkinchi tashish usuli  $\gamma$ -glutamyltransferaza fermenti ishtirokida kechadi. Glutation uning kofermenti hisoblanadi. Birinchi bosqichda glutatinning  $\gamma$ -glutamyl qoldig'i tashilayotgan aminokislota bilan birikadi, hosil bo'lgan dipeptid esa hujayra ichiga o'tadi. Ikkinchi bosqichda dipeptiddan erkin aminokislotalarni ajralishi kuzatiladi, glutatinning esa resintezlanadi.


Ichakda juda oz miqdorda dipeptidlar va gidrolizmanmagan oqsillarni pinoqtoz yo'li bilan so'rilishi kuzatiladi va hujayra lizosomalari ta'sirida gidrolizlanadi. CHaqaloqlarda proteolitik fermentlar faolligining sustligi va ichak shilliq qavatining o'tkazuvchanligining yuqoriligi nativ oqsillarni so'rilishi va shuning natijasida organizmning sezuvchanligini oshishi kuzatiladi. Bu esa ovqat allergiyasini kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

### Ichakda aminokislotalarning chirishi va jigarda chirish mahsulotlarini zararsizlantirilishi


Ma'lumki, ichak mikroorganizmlari o'zlarining o'sishi uchun ovqat bilan ma'lum bir aminokislotalarning bo'lishiga muhtojdir. Ichak mikroflorasida hayvonlar to'qimasi fermentlaridan farq qiluvchi fermentlar sistemasi yig'indisi mavjud bo'lib, ovqat aminokislotalarining xilma-xil o'zgarishlarini katalizlaydi (shu jumladan, odam organizmiga xos bo'lmagan, xususan, chirishlik, parchalanish). SHu tufayli ichakda aminokislotalar parchalanishini zaharli moddalari fenol, indol, krezol, skatol, vodorod sulfid, metilmerkaptan hamda organizm uchun zaharli bo'lmagan birikmalar spirtlar, aminlar, yog' kislotalari, ketokislotalari, oksikislotalari va boshqalar hosil bo'lishi uchun optimal sharoit vujudga keladi. Ichak mikroorganizmlari faoliyati ta'sirida aminokislotalarning bu kabi o'zgarishlariga ichakda oqsillarning chirishi deb ataladi. CHunonchi, oltingugurt tutuvchi aminokislotalarning (histin, histein va metionin) ichakda asta-sekin va to'la parchalanishi natijasida vodorod sulfid ( $N_2S$ ) va metilmerkaptan ( $CH_3SH$ ) hosil bo'ladi. Diaminokislotalar ornitin va lizin, dekarboqsillanish jarayoniga uchrashi natijasida tegishli aminlar hosil bo'ladi putrescin va kadaverin.

Aromatik aminokislotalar fenilalanin, tirozin va triptofanning bakterial dekarboqsillanishidagi tegishli aminlar feniletilamin, parooksifeniletilamin (yoki tiromin) va indoliletilamin (triptamin) hosil bo'ladi. Ichak mikroblarining fermentlari, ushbu jarayondan tashqari, uiklik aminokislotalar yon zanjirlarini parchalashi natijasida (xususan, tirozin va triptofanni) tegishli zaharli moddalar: krezol va fenol, skatol va indol hosil bo'ladi.

Zaharli moddalar (krezol, fenol, skatol, indol) darvoza venasi orqali so'rilgandan so'ng jigarga tushadi va sulfat kislotasi yoki glyukuronat kislota bilan kimyoviy birikib, zararsiz juft kislotalar hosil bo'ladi (masalan, fenolsulfat kislota yoki skatolsulfat kislota). Ushbu kislotalar esa siydik bilan ajralib chiqadi. Jigarda arilsulfatransiraza va UDFglyukuroniltransferaza fermentlari bo'lib sulfat kislota qoldig'ini uning bog'langan shakli 3-fosfoadenozin-5-fosfosulfatdan (FAFS) hamda glyukuronat kislota qoldig'ini uning bog'langan shakli uridildifosfoglyukuronat kislotadan (UDFGK) yuqorida ko'rsatilgan zaharli moddalarga o'tkazilishini katalizlaydi. Indol (skatol kabi) dastlab indoqsilgacha oksidlanadi (skatol skatoqsilgacha), so'ngra bevosita FAFS yoki UDFGK bilan fermentativ reaksiyaga kirishadi. CHunonchi, indol efirsulfat kislota ko'rinishida bog'lanadi. Uning kaliyli tuzi hayvon indikani deb atalib, siydik bilan ajralib chiqadi. Odam siydigida indikan miqdoriga qarab ichakda oqsillar chirish tezligi va jigarning funktsional holati haqida xulosa qilish mumkin.




Klinikada ko'pincha jigarning funktsiyasi va uning zaharli moddalarni zararsizlantirish rolini aniqlash uchun benzoat kislota qabul qilingandan so'ng gippur kislotasi hosil bo'lishi va siydik bilan ajralib chiqish tezligi bo'yicha xulosa qilish mumkin.



### Aminokislotalarning safarbarligi

Hujayra ichida va qon zardobida doimiy erkin aminokislotalar fondi mavjud va u aminokislotalarni kirish va ishlatilish tezligidan dalolat beradi.



69-rasm. Aminokislotalar metabolizmi


Erkin aminokislotalar fondi ekzogen (ozuqa) oqsillar parchalanishidan, endogen oqsillar parchalanishidan va yangitdan sintezlangan aminokislotalardan hosil bo'ladi (69-rasm).

Aminokislotalar ichakdan so'rilib, darvoza venasi orqali jigarga o'tgandan so'ng, ularning anchagina qismi qon orqali butun organizmga tarqalib turli fiziologik maqsadlarda foydalanishdan tashqari, bu organda qator o'zgarishlarga uchraydi. Jigarda aminokislotalar tananing xususiy oqsillari va qon plazmasi oqsillari sintezidan tashqari, maxsus azot tutuvchi birikmalar purin va pirimidin nukleotidlari, kreatin, siydik kislotasi, NAD va boshqalar sintezida foydalaniladi. Jigar, shu bilan birga, almashtirib bo'ladigan aminokislotalar sintezi va transaminlanish tufayli azotni qayta taqsimlash yo'li bilan organizmda erkin aminokislotalarning balanslangan fondini ta'minlaydi.

So'rilgan aminokislotalar birinchi navbatda, to'qima oqsillari, fermentlar, gormonlar va boshqa biologik faol birikmalar sintezi uchun qurilish materiali sifatida foydalaniladi. Aminokislotalarning bir qismi parchalanishga uchrashi natijasida oqsillar almashinuvining oxirgi mahsulotlari ( $SO_2$ ,  $N_2O$ ,  $NH_3$ ) hosil bo'ladi va energiya ajralib chiqadi.

### To'qimalararo aminokislotalarning almashinuvi

Ovqat iste'mol qilmagan paytda qon zardobida aminokislotalar miqdorini muvozanatda ushlab turish ularni to'qimalardan chiqishiga bog'liq. Bunda asosan mushak to'qimalari muhim rol o'ynaydi, ular aminokislotalarning 50%dan ziyodini etkazib beradi, jigarda esa siydikchil sintezi fermentlari mavjud. SHuning uchun jigar va buyrak qonda aminokislotalar muvozanatini saqlashda va ularni yangilanishida muhim rol o'ynaydi (70-rasm).



70-rasm. Postrezorbsion fazada aminokislotalarni to'qimalararo almashinuvi

**Mushaklardan** ajralib chiqayotgan aminokislotalarning 50% dan ziyodini alanin va glutamininga to'g'ri keladi, qondan mushaklar asosan serin, histein va glutaminni oladi.

**Jigar va ichaklar** qon zardobidan asosan alanin va glutaminni so'rib oladi, bunda agar jigar faqat alaninni yutsa, ichaklar glutaminni qabul qiladi. Ichaklarda esa alanin va ammiak ajraladi. Ichki a'zolar serinni ham qabul qiladi.

**Buyraklar** asosan serin va ozroq alaninni qonga ajratadi, o'zlari esa glutamin, prolin va gliçinni qabul qiladi.

**Miya to'qimasi** qon zardobidan asosan valin, leyçin va izoleyçinlarni so'rib oladi (mushak va jigarga nisbatan 4 marotaba ko'p).

Alanin asosiy glikogen aminokislota hisoblanadi, jigarda esa alanin va serindan glyukozani hosil qilish xususiyati o'ta yuqoridir. SHuning uchun, mushak va jigar orasida glyukoza-alanin tiikli aminokislotalar va uglevodlar almashinuvida muhim rol o'ynaydi

Oqsillarga boy ovqat iste'mol qilgandan so'ng mushaklar asosan 60% tarqoq zanjirli aminokislotalarni qabul qiladi

SHunday qilib, tarqoq zanjirli aminokislotalar azot metabolizmidagi muhim rol o'ynaydi: ovqat iste'mol qilmagan paytda ular miya to'qimasida energetik manba hisoblanadi, ovqatlangandan so'ng mushaklarda esa energiya va azot manbai hisoblanadi.

#### Aminokislotalar katabolizmi

Aminokislotalarning oxirgi mahsulotlarga parchalanish yo'llarini 3 guruhga bo'lish mumkin:


1. Aminokislotalarning  $\text{NH}_2$ -guruhini o'zgarishi bilan (dezaminirlanish va trasaminirlanish).

- 1 Aminokislotalarning uglerod skeletini o'zgarishi bilan.
- 2 Aminokislotalarning  $\text{COOH}$ -guruhini o'zgarishi bilan


(dekarboqsillanish). 1- va 3-yo'llar umumiy, 2-esa spetsifik yo'llari hisoblanadi.

#### Aminokislotalarning dezaminlanishi

Bu jarayonda aminokislotaldagi amin guruhi ( $-\text{NH}_2$ ) ammiak ( $\text{NH}_3$ ) shaklida ajralib chiqadi. Aminokislotalar dezaminlanishining 4 ta turi mavjud.



- 1 Qaytarilish yo'li bilan dezaminlanish.
- 2 Hidrolitik dezaminlanishi.
- 3 Molekulararo dezaminlanish.




4. Oksidlanish yo'li bilan dezaminlanish.

Ko'rinib turibdiki, ammiakdan tashqari dezaminlanishda yog' kislotasi, oksi kislotasi, to'yinmagan yog' kislotasi va ketokislotasi hosil bo'ladi. Ammo odam va hayvon to'qimalarida ko'pincha oksidlanish yo'li bilan dezaminlanish sodir bo'lib, ikki xil bo'ladi: bevosita va bilvosita (transdezaminirlanish).

**Bevosita oksidlanishli dezaminlanish.** Bu jarayon peroksisomalarda joylashgan L- va D-aminokislotalar oksidazalari ishtirokida boradi. L-aminokislota oksidazalari koferment sifatida FMN,






D-aminokislota oksidazalari esa FAD tutadi. Reaksiya quyidagicha kechadi.

Birinchi bosqichda iminokislota, ikkinchi bosqichda esa ketokislota hosil bo'ladi va  $\text{NH}_3$  ajralib chiqadi. Oksidazalarning qaytarilgan kofermentlari bevosita kislorod bilan oksidlanishi mumkin, natijada vodorod peroksid hosil bo'ladi. U esa katalaza ta'sirida suv va kislorodga parchalanadi. Oksidazalarni dezaminlovchi degidrogenazalar ham deb yuritiladi.

SHuni ham takidlash kerakki, L-aminokislotalar oksidazalari D-aminokislotalar oksidazalariga qaraganda faolligi pastroqdir; ularning ta'sir etish pH optimumi 10 ga teng, bunday rN qiymati esa fiziologik sharoitda bo'lmaydi. Taxminlarga ko'ra, L-aminokislotalarning bir qismi ichak bakteriyalarining izomerazalari ta'sirida D-aminokislotalarga aylanib so'ngra to'qimalarda dezaminlanishga uchraydi. Umuman olganda bevosita oksidlanish yoli bilan dezaminlanish amin guruhi o'zgarishida kam o'rin egallaydi.

**Bilvosita oksidlanishli dezaminlanish.** Aminokislotalar dezaminlanishining asosiy yo'li transdezaminlanish yoki bilvosita dezaminlanishdir. Bu jarayon ham 2 bosqichdan iborat bo'lib, I bosqichi transaminlanish deyiladi va bu bosqichda glutamat hosil bo'ladi (har




qanday aminokislota, masalan:  $\alpha$ -ketoglutarat bilan reaksiyaga kirishsa), II bosqichi esa aynan shu glutamatning bevosita oksidlanish yo'li bilan dezaminlanishidir.

Ushbu reaksiyani glutamatdegidrogenaza katalizlaydi. Glutamatdegidrogenaza to'qimalarida juda keng tarqalgan fermentdir. Koferment sifatida NAD (yoki NADF) saqlaydi. SHuni ta'kidlash kerakki, glutamatning dezaminlanishi ham ikki bosqichda o'tadi: birinchi (anaerob) bosqichda glutamat degidrogenlanishi natijasida oraliq mahsulot iminoglutarat hosil bo'ladi; ikkinchi bosqichda esa iminoglutarat  $\alpha$ -ketoglutarat va ammiakka parchalanadi (fermentsiz). Reaksiya qaytardir; hosil bo'lgan  $\text{NH}_3$ ,  $\text{NADF.H}_2$  ishtirokida  $\alpha$ -ketoglutaratning qayta aminlanishida foydalanilishi mumkin, natijada glutamat hosil bo'ladi.

#### *Aminokislotalarning transaminlanishining ahamiyati va ishtirok etuvchi koferment*

YUqorida ta'kidlaganimizdek, transaminlanish bu transdezaminlanishning birinchi bosqichidir. Aminokislotalarning transaminlanishida har qanday aminokislotaldagi amin ( $-\text{NH}_2$ ) guruhi (ammiak hosil bo'lmasdan)  $\alpha$ -ketokislotalga o'tadi. Amin guruhining akveptori ko'pincha  $\alpha$ -ketoglutarat, piruvat va oksaloasetatdir. Transaminlanish reaksiyalarini transaminazalar yoki (amino-transferazalar) katalizlaydi. Misol tariqasida yuqorida keltirilgan alanin va asparaginat kislotaning  $\alpha$ -ketoglutarat bilan transaminlanish reaksiyasi.

Ahamiyati ikkala reaksiyada ham yangi kislotalar piruvat va oksaloasetat va yangi aminokislota glutamat hosil bo'ladi. Glutamat esa, yuqorida takidlaganimizdek, bevosita oksidlanish yo'li bilan dezaminlanishga uchraydi. Transaminaza fermentlari kofermenti bo'lib, vitamin  $\text{V}_6$  ning unumi fosfopiridoksal yoki piridoksat hisoblanadi (FP, yoki PF).



**Gepatitda va miokard infarktida transaminazalarning aniqlashning ahamiyati.** Transaminazalarning keng tarqalganligi va ularning a'zo va to'qimalardagi yuqori faolligi, shuningdek ushbu fermentlar faolligining qonda kamligi turli a'zolarining organik va funktsional jarohatlanishida qator transaminazalar miqdorining qon zardobida aniqlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Klinik maqsadlar uchun ayniqsa, AIT va AST fermentlarining faolligini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Xususan, AIT faolligi hepatitlarda, ayniqsa (infektsion hepatitda) qon zardobida sekin-asta oshib boradi (surunkali xususiyatga egadir). Normada AIT faolligi 1 ml zardobni 37°C da 1 soat inkubatsiya qilganda piruvatni 0,16-0,68 mk moliga tengdir.

Miokard infarktida esa, AsT faolligi qon zardobida 3-5 soatdan so'ng keskin oshadi (20-30 marta). Birinchi sutkaning oxirida ikkala transaminazalar faolligi maksimumga etadi. 2-3 kundan keyin esa kasallik asoratsiz o'tsa, fermentlar faolligi normaga qaytadi. Normada AST faolligi 1 ml zardobni 37°C da 1 soat inkubatsiya qilganda piruvatni 0,1-0,45 mk moliga to'g'ri keladi. AIT faolligining o'rtacha oshishi miokard infarktida ham kuzatiladi. SHunga ko'ra qon zardobida ikkala transaminaza faolligini aniqlash va de Ritis koeffitsientini (AST/AIT) hisoblash muhim diagnostik test hisoblanadi. Normada AIT/AST nisbati 1,33-0,40 ga tengdir. Infektsion hepatitda AST/AIT kamayadi, infarktida esa keskin oshadi.

### Ma'ruza №11

#### Ammiakni zararsizlantirish. Aminokislotalar almashinuvining spetsifik yo'llari

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 20-80 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza.
5. Ma'ruza rejasi	<p>Azot almashinuvining oxirgi mahsulotlari: ammoniy tuzlari va siydikchil. Organizmda ammiakning asosiy manbalari. Ammiakning zararsizlanishi: glutamin va karbamoilfosfat sintezi, ketoglutaratning qayta aminlanishi. Glutamin – qator birikmalar sintezida amid guruhining donori sifatida. Buyrak glutaminazasi; ammoniy tuzlarining hosil bo'lishi va chiqarilishi. Ornitin tsiklining fumar va asparagin kislotalar almashinishi bilan bog'liqligi; siydikchil azot atomlarining manbalari. Siydikchil sintezi va chiqarilishining buzilishi. Giperammonemiya; irsiy, jigar cirrozi va katabolik holatlarda. Serin va gliyin almashinuvi. Bir uglerodli guruhlarining hosil bo'lishi. Transmetillanish. Metionin va S-adenozilmetionin. Kreatin, adrenalin, fosfatidilxolinlar sintezi; DNKning metillanishi; yot moddalar, dori moddalarning metillanishi. Tetragidrofolat kislota va bir uglerodli guruhlarining tashilishi. Gomoqisteinining metillanishi. Folat kislota etishmovchiligining belgilari. Folat kislota antivitaminlari. Sul'fanilamid preparatlarining bakteriostatik ta'siri. Antimetabolitlar haqida tushuncha. Fenilalanin va tirozin almashinuvi. Fenilketonuriya: biokimyoviy mexanizmi, kasallik belgilari, oldini olish usullari, tashxisi va davolash. Alkaptonuriya. Al'binizm. Parkinsonizmda tirozin almashinuvining buzilishi. Gomoqistinuriya, gistidinemiya i</p>

	aminokislotalar almashinuvining boshqa irsiy buzilishlari.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Aminokislotalarni to'qimalarda oralik almashinuvini, aminokislotalarni uzlashtirish yullarini urgatish. Dezaminlanish, transaminlanish reaksiyalarini diagnostikadagi ahamiyati.
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, proektor, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat: savol-javob.

ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2 – asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar Tinglaydilar
11- yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

Aloxida aminokislotalar almashinuvini bilish turli xil biologik faol moddalar (adrenalin, kreatin, xolin, DNK sintezi) hosil bo'lish mexanizmini, yot moddalar va gormonlarni zararsizlantirishda transmetillanish reaksiyalari xamda bu jarayonida metionin, folat kislotasi va vitamin V<sub>12</sub> ahamiyatini tushintirish. Aminokislotalar almashinuvining to'g'ma kasalliklar (fenilketouriya, alkaptanuriya, al'binizm, gistidinemiya) rivojlanishi va tashxisida ahamiyatiga tushuncha berish. Bu bilimlarga ega bo'lish bo'lajak umumiy amaliyot shifokori uchun kalassiklarni aniqlashda va tashxis qo'yishda kerak.


### 5. Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik

Aminokislotalarning speçifik yo'llari metabolizmini bilishda talabalarning bioorganik kimyo, anatomiya, fiziologiya, gistologiya bo'yicha egallagan bilimlariga asoslanadi. Ushbu bilimlar patologik fiziologiya, patologik anatomiya, farmakologiya, terapiya, xirurgiya, gastroenterologiya, endokrinologiya, kardiologiya yo'nalishlarida kerak bo'ladi.

#### Aminokislotalarning dekarboqsillanishi

Aminokislotalar karboqsil guruxining SO<sub>2</sub> ko'rinishida ajralish jarayoniga dekarboqsillanish deyiladi. Ushbu jarayon natijasida hosil bo'ladigan maxsulotlar **biogen aminlar** deb atalib, ko'pgina fiziologik ta'sir ko'rsatadi.





**Allergik reaksiya sodir bo'lishida biogen omillar axamiyati. Antigistamin dori-darmonlar.** Organizmga ba'zi antigen moddalar (oqsil tabiatli, polisaxaridli antigenlar, bir qancha dorilar) tushganda organizmning sensibilizatsiyalashgan xolati (darxol yuzaga chiqadigan turdagi o'ta sezuvchanlik xolati) rivojlanadi. O'sha antigenning o'zi bir necha minut davomida organizmga yana tushadigan bo'lsa, bu – gistamin shokining deyarli aniq nusxasidan iborat bo'lgan o'tkir reaksiya boshlanishiga olib keladi (anafilaktik va allergik reaksiyalar). Bu reaksiyalar mexanizmi semiz xujayralardagi gistamin ajralib chiqishini o'z ichiga oladi, bu xujayralardan gistamin ularning yuzasida antigen-antitana ta'siri yuzaga kelishi natijasida ajralib chiqadi.

Ushbu reaksiyalarni oldini olish va davolashda antigistamin preparatlaridan foydalaniladi: sanorin, pipol'fen, dimedrol, glyukokortikoidlar va boshqalar.

**Serotonin hosil bo'lishi va axamiyati.** Serotonin 5-oksitriptofanning dekarboqsillanishidan (aromatik aminokislotalar dekarboqsilazasi ta'sirida) hosil bo'ladi:

Serotonin yuqori aktivlikka ega bo'lgan biogen amindir.

- u qon tomirlarni toraytiradi va arterial qon bosimni oshiradi;
- tana temperaturasini, nafas olishni, buyrak fil'tratsiyasini boshqarishda ishtirok etadi;
- MNS da nerv jarayonlarida mediator hisoblanadi;
Mushak qisqarish kimyoviy mexanizmini tushuntirishi bo'yicha ko'p gipotezalar taklif etilgan. Ularni hammasi uchun umumiy bo'lib, katabolizm davrida ajralayotgan kimyoviy energiyaning mexanikka aylanishi hisoblanadi.

Mushak qisqarishi o'z ichiga 3 aspektin oladi:

1. Energetik.
2. Morfologik (mushak tolalarini mikro- va submikrostrukturasi o'zgaradi).
3. Biofizik-kimyoviy energiya mexanik energiyaga tranformatsiya qilinadi.

Miozin qisqarish funktsiyasi va ATF-aza faolligiga ega. Aktin rN ni saqlanishida rol o'ynaydi (rN ning fiziologik holatida qisqarish reaksiyasining optimal darajasi kuzatiladi). Aktin bundan tashqari tayanch vazifani bajaradi, miozin molekulari struktur holatining o'zgarishi qisqarish yoki taranglashish mexanik samarasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. G. Xakslil ta'limoti bo'yicha morfologik aspektlarni tushuntirish ko'pchilik tomonidan tan olinadi. Unga asosan mushak qisqarganda ingichka protofibrillalarning qalinligi bo'yicha siljishi ro'y beradi, I soha qisqaradi, Z disklar yaqinlashadi, ya'ni sarkomer qisqaradi. Mushak qisqarishi energetikasida ATF qatnashadi. Hozirgi vaqtda ATF ning mushak qisqarishi va bo'shshishida energiya manbai ekanligi to'liq isbotlangan.

### Bir valentlik ion va kal'uiy ioni gradientining mushak qisqarishidagi roli

Nerv impul'si ta'sirida mionevral plastinkada aetilxolin ajraladi, u mushak tolasi membranasining  $Na^+$  va  $K^+$  ionlari uchun o'tkazuvchanligini oshiradi va ularning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Bu esa  $Na^+$  va  $K^+$  ning mushak tolasi ichi va tashqarisida konsentratsion gradientining o'zgarishiga olib keladi. Mushak avval kimyoviy energiyaning elektrik va osmotik energiyaga aylantiradi va buning natijasida qisqarish apparati faol holatga keladi. Mushak qisqarishining vujudga kelishida xujayrada kal'uiy konsentratsiyasining o'zgarishi muhim rol o'ynaydi. Nerv impul'si qabul qilingandan keyin sarkoplazmatik retikulum membranasining o'tkazuvchanligi tez o'zgaradi va  $Ca^{+2}$  ionlari sarkoplazmaga chiqadi. Bunda sodir bo'ladigan mushak qisqarishi miofibrillalarning  $Ca^{+2}$  konsentratsiyasi  $10^{-5} - 10^{-6}$  M da bo'lganda ATF bilan bog'lanish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Aktomiozin sistemasining  $Ca^{+2}$  ionlariga "sezuvchanligi" aktin iplarida troponin oqsilining mavjudligi bilan bog'liqdir. Kal'uiy troponin bilan bog'lanadi va uning molekulasida konformatsion o'zgarishlar vujudga keladi, bu esa troponin-tropomiozin kompleksining aktin tarmoqida harakatlanishiga olib keladi va aktin faol markazlari bloklanadi, miozin bilan birikish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Xakslil va Xanson ma'lumotlari bo'yicha, miofibrillalar qisqarganda aktin iplari miozin iplari bo'yicha siljiydi, ya'ni iplar qisqarmaydi, balki biri ikkinchisi yuzsida "sirpanadi", bu esa mushak qisqarishining molekulyar

mexanizmida muhim zvenodir. Aktin iplarining miozin iplari bo'yicha harakatlanishida iplar orasidagi miozin molekulasi boshchalaridan vaqtincha hosil bo'ladigan ko'ndalang ko'prikchalar muhim rol o'ynaydi. Miozin iplarining aktin bilan bog'lanishi miozin molekulasi boshchasing faqatgina burilishi bilan bormasdan balki uning ma'lum masofaga yaqin joylashgan aktin ipi tomon siljishi bilan boradi. Mushak 2 fazali funktsiyasi (qisqarish-bo'shshish)  $Sa^{+2}$  ionlari miqdorining dinamikasiga bog'liq. Kal'uiy kontsentratsiyasi kamayganda erkin tropomiozin aktin faol markazini berkitadi va natijada aktomiozin hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Bu mushak bo'shshishining asosiy sababidir.

$Sa^{+2}$  ionlari tarkibiga Sa-bog'lovchi oqsil – kal'uikestin kirgan sarkoplazmatik retikulum va T-sistema strukturalari bilan bog'lanishi natijasida bo'shshagan mushakda sarkoplazmada  $Sa^{+2}$  ionlarining kontsentratsiyasi minimal ( $10^{-7}M$ ). Xujayra ichidagi Sa miqdorining boshqarilishi ATF ga bog'liq ravishda sarkoplazmatik retikulumda amalga oshiradi va energiya talab etadigan transport sistemasi bilan bog'liq. U retikulumning  $Mg^{+2}$ - $Sa^{+2}$ ATF-aza ta'sirida ATF parchalanishida ajralib chiqadigan energiya hisobiga boradi. Bu ferment faolligi  $Sa^{+2}$  ionlarining kontsentratsiyasi  $10^{-8}$ - $10^{-6}M$  bo'lganda namoyon bo'ladi.

Kal'uiy kontsentratsiyasining mushak xujayralari ichida ortishi sarkoplazmatik retikulum va T-sistema membranasi orqali o'tkazilishini faollashtiradi va Sa ning depolanishi ortadi, aktomiozin kompleksining ATF-aza faolligi ingibirlanadi va stasionar holat vujudga keladi.

Bu holatdan mushak qo'zg'alishning yangi impul'si bilan chiqariladi, natijada retikulumdan kal'uiy chiqariladi va aktomiozin kompleksining ATF-azasi faollanadi. Hidroliz davrida ATF-aza (mol.og'irligi 100000) molekulaya og'irligi 55000 va 45000 bo'lgan 2 fragmentga parchalanadi. Molekulyar og'irligi 55000 bo'lgan fragment sarkoplazmatik membrananing tashqi tomonida joylashgan, 45000 mol.og'irlikka ega bo'lgan fragment esa membrananing lipid qavatiga membrana orqali kanal hosil qilib botgan. ATF-zaning uzoq vaqt gidrolizida 55000 mol.og'irlikka ega bo'lgan fragment 30000 va 20000 mol.og'irlikka ega bo'lgan kichik fragmentlarga parchalanadi. 20000 mol.og'irlikka ega bo'lgan fragment kanal «to'sig'i» rolini o'ynaydi va unga  $Sa^{+2}$  ionlari kirishini nazorat qiladi. 30000 mol.og'irlikli fragment esa Sa ionlarini kanal bo'yicha harakatlanishini energiya bilan ta'minlaydi. Natriy nasosga o'xshab bu mexanizm kal'uiy nasosi deb ataladi.

#### **Mushakning ekstraktiv moddalari**

Skelet mushagida qator muxim azot tutuvchi ekstraktiv moddalar saqlanadi: adenil nukleotidlari (ATF, ADF, AMF), adenil qatoriga kirmaydigan nukleotidlar, kreatinfosfat, kreatin, kreatinin, karnozin, anzerin, erkin aminokislotalar va boshqalar.

Kreatin va kreatinfosfat azotiga mushak oqsil bo'lmagan azotining 60% to'g'ri keladi. Ular mushak qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy jarayonlarda qatnashadilar. Kreatin asosan jigarda sintezlanadi va qon orqali mushakka olib boriladi. U erda kreatin fosforlanib, kreatinfosfatga aylanadi.

Karnozin va anzerin V.S. Gulevich tomonidan ochildigan bo'lib, imidazol saqlovchi peptiddir. Karnozin va anzerin charchash natijasida pasaygan mushak qisqarishining amplitudasini oshiradi. Ular mushak xujayrasi ion nasoslari ishining samaradorligini kuchaytiradi. Mushaklarda erkin aminokislotalardan glutamat va uning amidining kontsentratsiyasi eng yuqoridir.

Boshqa azot saqlovchi moddalar – siydikchil, siydik kislotasi, adenin, guanin, ksantin va gipoksantin mushak to'kimasida ko'p bo'lmagan miqdorda uchraydi.

Azotsiz moddalardan mushakda quyidagilar bo'ladi: glikogen, glyukoza va geksozafosfat qoldiqlari, sut kislotasi, piruvat va boshqa karbon kislotalar. Mushak to'qimasida neytral yog'lar va xolesterin, noorganik tuzlar va mikroelementlar uchraydi.

#### **Skelet va yurak mushaklarida energetik almashinuv**

Mushaklarning qisqarishi va bo'shshishi uchun energiya ATF sifatida bo'ladi. Zahira energiya ko'p bo'lmagan miqdordagi ATF va kreatinfosfat holatida bo'ladi. Bu zahira 10-12 sek.ga etadi. Mushak beto'xtov ishlaganda 40-50 sek.dan keyin glikogenning anaerob parchalanishi eng yuqori bo'ladi, 60-70 sek.dan keyin ishlayotgan mushakka  $O_2$  transporti ortishi hisobiga aerob jarayonlar ustun turadi. Mushak tolasini ko'p miqdorda o'ragan mitoxondriyalarda aerob parchalanish natijasida ATF hosil bo'ladi. ATF ning resintezi ADF ning kreatinfosfat bilan transfosforlanishi hisobiga boradi. Ushbu reaksiyalarni kreatinkinaza fermenti katalizlaydi:



ATFning bunday resintezi yo'li juda tez va samaralidir.

Kreatinfosfatning mushakdagi zahirasi ko'p emas, shuning uchun ATF asosan glikoliz va to'qima nafas olish jarayonida hosil bo'ladi. Mushak to'qimasida kreatinfosfat faqat energiya manbai bo'lmasdan, balki to'qima nafas olishi va oksidlanuvchi fosforlanish davrida hosil bo'luvchi makroergik fosfat bog'larni transport rolini bajaradi. Yurak mitoxondriyasi matriksida sintezlangan ATF ichki membrana orqali spetsifik ATF-translokaza ishtirokida ichki membrana tashqi tomonida joylashgan mitoxondrial kreatinkinaza izofermenti faol markaziga o'tkaziladi: membrana aro bo'shliqda magniy ionlari ishtirokida muhitda kreatin bo'lganda uchlamchi ferment-substrat kompleksi - kreatinkinaza-ATF- $Mg^{+2}$  hosil bo'ladi, u keyin kreatinfosfat va ADF- $Mg^{+2}$ ga parchalanadi.

Kreatinfosfat mitoplazmaga chiqadi va ADF ning refosforlanishida miofibrilladagi kreatinkinaza reaksiyasida ishlatiladi. Mushak bir meyarda ishlaganda o'zining energetik sarflarini aerob metabolizm hisobiga amalga oshiradi, ko'p ishlaganda esa glikolitik yo'l bilan energiya bilan ta'minlanadi. Muskulda umumiy ATF miqdori muskul massasining 1g ga taxminan 5 mkmol' ni tashkil etadi. ATF sintezi to'xtaganida bu miqdor taxminan 1 sekundli ishga etadi. Bundan 1g muskulga har sekunda 5 mkmol' atrofida ATF sintezlanib turishi kerak degan xulosa kelib chiqadi. Mana shunga asoslanib, tanadagi muskullarning 1/3 qismi (taxminan 10 kg muskul)

ishga tushadigan va ish 10 minut davom etadigan bo'lsa, shu vaqt ichida 1,5 kg atrofida ATF sintezlanishini (va xuddi shunchasi ADFga aylanishini) hisoblab chiqish mumkin. Bu raqam taxminiy bir kattalik bo'lib, ko'p darajada ishning jadalligiga bog'liq bo'ladi.

YUrak muskuli bir kecha-kunduzda 100000 martadan ko'ra ko'proq qisqarib, 7200 l atrofida qonni haydab beradi. Miokard tuzilishi va xossalari jihatidan qizil skelet muskullariga o'xshaydi. YUrak muskulidagi energiya almashinuvining xususiyati uning tabiatan butunlay deyarli aerob bo'lishidir. YUrak mushagida ATF va kreatinfosfatning miqdori skelet mushagiga nisbatan kam, ATF ning sarflanishi esa yuqori. SHuning uchun miokardda ATF ning resintezi skelet mushagiga nisbatan jadalroq boradi. YUrak mushagi uchun energiyaga boy fosforli birikmalarning hosil bo'lish yo'li bo'lib, kislorodni sarflanishi bilan bog'liq bo'lgan oksidlanuvchi fosforlanish hisoblanadi. SHuning uchun ham yurak mushagi kislorodning etishmovchiligiga juda sezgir.


Skelet mushagiga nisbatan yurak mushagidagi modda almashinuvining o'ziga xos tomoni bo'lib, unda yog' kislotalarining oksidlanishi hisoblanadi. YUrak mushagida yog' kislotalarining oksidlanishi uchun 65-70%, uglevodlarning oksidlanishi uchun esa 30-35% kislorod sarflanadi. Olein kislota miokardda juda yaxshi oksidlanadi.

### Mushak patologiyalarida biokimyoviy o'zgarishlar

Mushak distrofiyasi va denervatsiyasida miofibrillar va ba'zi sarkoplazmatik oqsillarning, shuningdek mioal'buning, miqdori keskin kamayadi. ATF va kreatinfosfat konsentratsiyasi, karnozin va anzerin miqdori pasayadi. Mushak to'qimasining parchalanishi bilan bog'liq bo'lgan rivojlanuvchi mushak distrofiyalarida mushak fosfolipid tarkibida o'zgarishlar kuzatiladi: fosfatidilxolin va fosfatidiletanolamin konsentratsiyasi keskin kamayadi, sfingomielin va lizofosfatidilxolin ko'payadi. E-avitaminoz davrida, muskullar denervatsiyalanganida, qimirlashi chegaralanganida (gips quyilganda), paylar kesilganida muskul tolalari zo'r berib parchalanadi. E-avitaminozda muskullar atrofiyasi muskul lizosomalari membranalarining peroksid ishtirokida lipidlar oksidlanishi mahsulotlari bilan zaralanishiga bog'liq, chunki antioksidant (vitamin E) bo'lmaganida bunday oksidlanish ancha faol holda boradi.

Mushak to'qimasi patologiyalari uchun kreatin metabolizmining o'zgarishi va uning siydik bilan ko'p miqdorda chiqarilishi (kreatinuriya) xos bo'lib hisoblanadi, uning miqdori bir kecha kunduzda 2g ga boradi. Miopatiyasi bo'lgan kasallarda kreatinuriya kreatinning skelet mushagida ushlanib turishi va fosforlanishining buzilishi natijasidir. Kreatinfosfat sintezi buzilgan bo'lsa, kreatinin hosil bo'lmaydi va uning miqdori siydikda keskin pasayadi. Kreatinuriya va kreatin sintezi buzilishi natijasida siydikning kreatin ko'rsatkichi keskin ortadi.

Biriktiruvchi to'qima organizmning butun tanasi bo'yicha taqsimlangan bo'lib, u tog'ay, pay, boylam, suyak matriksida bo'ladi, u buyrak jomi, siydik kanallari sohasida joylashadi, tomirlarni fiksatsiya qiladi; jigar va mushak kabi parenximatuz a'zolarda xujayralar aro bog'lovchi moddaning asosini tashkil etadi. Biriktiruvchi to'qimaning mexanik va ushlab turuvchi vazifasi xujayra tashqarisidagi erimaydigan iplar hisobiga amalga oshiriladi, ular matriksga botib turuvchi yuqori polimer birikmalardan tashkil topgan bo'lib, asosiy modda deb yuritiladi. Erimaydigan iplar va eruvchan matriksning sinteziga javobgar xujayralar – xondroцит va fibroblastlardan tashqari makrofag, semiz xujayralar va kam miqdorda differentsiyalanmagan turdagi xujayralar biriktiruvchi to'qima xujayralariga kiradi.




### Kollagen

Biriktiruvchi to'qimaning erimaydigan iplari odam organizmida eng ko'p tarqalgan oqsil – kollagendan tarkib topgan. U oqsillar umumiy miqdorining 25-33% ni, tana og'irligining taxminan 6% ni tashkil etadi. Kollagen tarkibidagi aminokislotalarning 1/3 qismini gliuin, prolin va gidroksiprolin 21%, alanin esa 11% ni tashkil etadi.



Biriktiruvchi to'qimani elektron mikroskop yordamida o'rganish unda fibrillalardan tuzilgan kollagen tolalarining mavjudligini ko'rsatdi. Fibrillalar diametri 5 dan 200 nm gacha bo'lgan uilindr shakliga ega. Kollagen fibrillalari tropokollagen birliklaridan tashkil topgan. Turli to'kimalardan ajratilgan tropokollagenlar tarkibi bilan farq qilsada, lekin ularning hammasida gliyin ko'p va 5-oqsilizin, 3-, 4-oksiprolin saqlaydi.


Tropokollagen molekulasini 1,5 nm kenglik va 300 nm uzunlikka ega, molekulyar og'irligi 300000. Uchta subbirlikdan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri taxminan 1000 aminokislota saqlovchi polipeptid zanjirdir. Alohida zanjir zich chapga o'ralgan spiral bo'lib, bir o'ramda 3 aminokislota qoldig'ini saqlaydi, uchta zanjir o'ngga buralgan kabelga o'xshaydi. YOn zanjirlardagi peptid bog'lari o'rtasida -S=O··NH- vodorod bog'larining hosil bo'lishi hisobiga mustaxkamlanadi. Ma'lum to'qimalarga xos bo'lgan kollagenning to'rt turi topilgan, ular molekulasini tashkil etgan tropokollagen aminokislota tarkibi bilan farqlanadi. I tur kollagen ikki xil  $\alpha 1$  (I) va  $\alpha 2$  zanjirlardan tashkil topgan. Qolgan 3 tur kollagenlar bir xil 3 zanjirdan iborat -  $\alpha 1$  (II),  $\alpha 1$  (III),  $\alpha 1\alpha$  (IV). I tur kollagen – teri, suyak, boylamlarda, II tur – tog'ayda, III tur – embrion terisi, qon tomir devorlarida, IV tur – biriktiruvchi membranalarda uchraydi.



Kollagen fibrillari oxir-oxir va yon-yon bog'langan tropokollagen molekularidan hosil bo'lgan. Kollagen yuqori molekulasini o'tmishdosh prokollagen holatida sintezlanadi. U tropokollagen 3 zanjirining N- va S-oxirlarida qo'shimcha aminokislotalar saqlaydi. I tur kollagenning pro- $\alpha 1$  va pro- $\alpha 2$  zanjirlari polisomalarda sintezlanadi, u erda prolin va lizin qoldiqlari gidroqsillanadi.

### Elastin

Elastin biriktiruvchi to'qimaning ikkinchi asosiy oqsili. Kollagendan farqli ravishda qaynatganda jelatina hosil qilmaydi. Uning aminokislota tarkibi kollagendan farqlanadi. Elastin tolalari katta bo'lmagan deyarli sferik molekularning qattiq ko'ndalang bog'lar bilan bog'lanishi natijasida qurilgan. Lizin ishtirokida ko'ndalang bog'larning 2 turi aniqlangan. To'rtta lizin qoldiklaridan desmozin va izodesmozin deb atalmish birikmalar hosil bo'ladi. Ular ko'pincha 2 peptid zanjir o'rtasida hosil bo'ladi, lekin 3 yoki 4 peptid zanjirlardagi lizin qoldiqlaridan ham hosil bo'lishi mumkin. Avval 3 lizin qoldig'i E-al'degidgacha oksidlanadi, keyin esa to'rtinchi lizin qoldig'i bilan kondensatsiyalanadi va natijada desmozin yoki izodesmozin hosil bo'ladi. Desmozin va izodesmozin ko'ndalang bog'lar hosil qilishda qatnashadi. Ko'ndalang bog'lar hosil qilishda lizinnorleyuqin ham qatnashadi.




Nativ elastik iplari tripsin yoki ximotripsin ta'sirida hazmlanmaydi, lekin pepsin ta'sirida pN 2 da sekin gidrolizlanadi. Oshqozon osti bezida proelastaza ishlab chiqariladi. U tripsin ta'sirida elastazaga aylanadi va alifatik aminokislota karboqsil guruhi hosil qilgan peptid bog'larini gidrolizlaydi.

## Proteoglikanlar


Biriktiruvchi to'qima xujayradan tashqari moddasini proteoglikanlar hosil qiladi va to'qima quruq massasining 30% ni tashkil etadi. Bular yuqori molekulyar og'irlikka ega bo'lgan polianion moddalar bo'lib, katta miqdorda turli heteropolisaxarid yon zanjirlarini tutadi. Polipeptid o'zan bilan kovalent bog'langan. Oddiy glikoproteidlardan farqli ravishda proteoglikanlar 95% gacha uglevodlarni saqlaydi. O'z xususiyatlari bo'yicha oqsillardan ko'ra polisaxaridlarga ko'proq o'xshaydi. Proteoglikanlar polisaxarid guruhlarini proteolitik ferment ta'sir etib ajratib olish mumkin. Bu guruhlarni avval mukopolisaxaridlar deb atalar edi. Hozir ularni glikozaminoglikanlar deyiladi, chunki ularni hammasi glyukozamin yoki galaktozaminni saqlaydi.

### Glikozaminoglikanlar (mukopolisaxarlar)

Glikozaminoglikanlarni 6 asosiy sinfi tafovut etiladi: gialuronat kislota, xondroitin-4-sul'fat, xondroitin-6-sul'fat, dermatan sul'fat, keratansul'fat I va II, geparan sul'fat va geparin. Bu glikozaminoglikanning qaytariluvchi disaxarid birligi. Molekula og'irligi  $10^5$  dan  $10^7$  gacha. Ko'pchilik to'qimalarda kam miqdorda uchraydi, lekin proteoglikan agregatlarini hosil qilishda muhim struktur rol o'ynaydi. Keng tarqalgan glikozaminlar – xondroitin-4-sul'fat va xondroitin-6-sul'fat N-asetilgalaktozamin 4- yoki 6-gidroqsil guruhida sul'fat efrining joylashishi bilan farqlanadi. Molekula og'irligi  $1.10^4$  –  $6.10^4$ , ko'pchilik preparatlar polidispers hisoblanadi. Turli to'qimalardan ajratilgan preparatlarning sul'fatlanish darajasi turlicidir. To'qimalarda xondroitin-4-sul'fat yoki xondroitin-6-sul'fat, yoki ularni aralashmasi bo'ladi. Qaytariluvchi disaxarid birliklardan tuzilgan zanjir polipeptid o'zandagi serin bilan kovalent bog'langan. Bunda ko'shimcha fragment bo'lib trisaxarid galaktozil – galaktozil-kislota hisoblanadi.



A. Гиалуроновая кислота



B. Олигосахарид из иммуноглобулина IgG



B. Различные типы олигосахаридов в гликопротеинах

Bu glikozaminoglikanlar xondroitinsul'fatlardan farqli ravishda ular molekulasida L-iduron kislota bo'ladi va quyidagi qaytariluvchi disaxarid birliklardan iborat. Qaytariluvchi birlikda ko'p bo'lmagan miqdorda iduron kislota o'rniga glyukuron kislota bo'lishi mumkin. Bu glikozaminlar xondroitinsul'fatlardagi kabi polipeptid o'zan bilan bog'langan.

Keratansul'fat I va II quyidagi qaytariluvchi disaxarid birlikka ega. Lekin ular bir-biridan uglevodlarni umumiy miqdori bilan farqlanadi va turli to'qimalarda uchraydi. Ko'z shox qabatidan ajratilgan keratansul'fat I fukoza, sial kislotasi va mannozani ham saqlaydi. Qaytariladigan birliklardan tuzilgan uning oligosaxarid zanjiri polipeptid o'zani bilan qon zardobidagi glikoprotendlarga o'xshab N-asetilglyukozaminil-asparaginil bog' yordamida bog'langan. Tog'ay va suyaklardan ajratilgan keratansul'fat II disaxarid birlikka kiruvchi uglevodlardan tashqari N-asetilglyukozamin, fukoza, sial kislota va mannozani saqlaydi. Keratansul'fat II aminosaxarid zanjiri oqsil bilan serin yoki treonin orqali N-asetilgalaktozamin bilan O-glikozid bog' hosil qilish orqali bog'langan.

Geparin ko'pchilik xujayralarni yuzasida bo'ladi, u shuningdek semiz xujayralarni xujayra ichi komponenti hamdir. Uni qaytariluvchi disaxarid birligi quyidagi strukturaga ega.

Ba'zi glyukozamin qoldiqlar N-sul'fat guruh o'rniga N-asetil saqlaydi. Geparansul'fat o'xshash disaxarid birliklardan iborat, lekin ko'proq N-asetil, kamroq N-sul'fat guruhlarni saqlaydi va O-sul'fatlanish darajasini pastligi bilan xarakterlanadi. Dermanatsul'fat kabi D-glyukuron kislota o'rniga oz miqdorda iduron kislota saqlashi mumkin. Geparin muhim antikoagulyantdir.

### Glikozaminoglikanlar biosintezi

Proteoglikanlarni oligosaxarid fragmentlari glikoziltransferazalarni ketma-ket ta'siri natijasida sintezlanadi. Bu fermentlar nukleotid-uglevoddan monosaxaridlarni tegishli akuentor – boshqa uglevod yoki polipentidagi

aminokislota qoldig'iga o'tkazilishini katalizlaydi. Oligosaxarid qism bosqichma-bosqich, har gal 1 ta qoldiqqa uzayadi. Xondroitinsul'fat biosintezida 6 xil glikoziltransferaza va 1 ta sul'fotransferaza qatnashadi. Glikozillash sekretor xujayralarni gol'dji apparatida vujudga keladi. Ribosomadan ajralgan proteoglikanni polipeptid zanjiri endoplazmatik retikulum kanallari bo'yicha gol'dji apparatiga o'tadi, u erda membranalar bilan bog'langan tranferazalar ketma-ket oligosaxarid guruhlarni sintezini boshlaydi. Sintezlangan molekularlar gol'dji apparatidan xujayra plazmatik membranasi sohasiga o'tadi va xujayradan chiqariladi.

To'qimadan ajratilgan proteoglikanlar proteoglikan agregatlari deb ataladi. Ularning asosiy qismini proteoglikan subbirligi tashkil etadi. Gialuron kislotasi va bog'lovchi oqsil umumiy massaning 1% ni tashkil etadi. Polipeptid o'zan proteoglikan subbirligining o'zagi hisoblanadi. Proteoglikan agregatlari tuzilishi bo'yicha shetkaga o'xshaydi. Proteoglikan subbirligi elektrostatik bog'lanishlar hisobiga kollagen bilan bog'lanadi.

#### **Proteoglikanlar funktsiyasi**

Turli proteoglikanlar polivalent anionlar bo'lib, o'ziga kationlarni tortadi va bog'lab oladi.  $K^+$  va  $Na^+$  ionlari ham mustahkam bog'langanligi uchun ularning ion xususiyatlari namoyon bo'lmaydi. Barcha proteoglikanlar agregatsiyaga moyil, bu jarayon polivalent kationlar, masalan  $Ca^{2+}$  ta'sirida kuchayadi. Uzun zanjirlar, ayniqsa gialuron kislotasi zanjirlari, betartib o'ralib, katta masofani egallaydi va ular asosan suv bilan to'ldirilgan. Bu joyga past molekularlar yoki ionlar kirishi mumkin, lekin katta molekularlar (masalan, al'bumin) kira olmaydi.

Gialuron kislotasi eritmalari yuqori yopishqoqlik xususiyatiga ega bo'lib, bo'g'imlarda surkovchi modda vazifasini bajaradi. Revmatik kasallarda bo'g'im suyuqligi yopishqoqligining o'zgarishi proteoglikanlar strukturasi o'zgarish natijasidir. Proteoglikanlar tashqi bosim ta'sirida suvning harakatlanishiga qarshilik ko'rsatadi va to'qimalarga elastiklik, siqilishga nisbatan chidamlilik beradi. Ular molekulyar elaklar sifatida funktsionallanadi, yirik ionlarni harakatlanishini chegaralaydi, proteoglikan domenlari orasiga al'bumin va immunoglobulin hajmiga ega bo'lgan molekularning kirishiga qarshilik ko'rsatadi.

Gialuron kislotasi morfogenezda ishtirok etib, embriogenezda mezenximal xujayralarning agregatsiyasini boshqaradi. YOshga bog'liq holda xujayralarda proteoglikanlar tarkibi o'zgaradi. To'qimalarda keratansul'fatlar kontsentratsiyasi hayot davomida ortadi, lekin tog'ay va umurtqalar aro disklarda xondroitin sul'fat, shuningdek terida gialuron kislotasi miqdori kamayadi. Turli yoshlarda organizmga o'sish gormoni kiritilsa, proteoglikanlar sintezi va ularning tarkibi yosh organizmnikidek bo'ladi. O'sish gormonining ta'siri somatomedin orqali amalga oshiriladi va bunda tog'ay xujayralarining proliferatsiyasi tezlashadi va proteoglikanlarga sul'fatlarning kiritilishi stimullanadi. Testosteron ta'sirida qator to'qimalarda (yurak klapani, teri) gialuron kislotasi sintezi tezlashadi. Revmatizm yoki artrit bilan jarohatlangan bo'g'im sinovial suyuqligida gialuron kislotaning miqdori meyoridan ko'p, lekin depolimer kiritilganda gialuron kislotaning repolimerlanishi kuzatiladi va uning de novo sintezi keskin pasayadi. Qandli diabetda infeksiyalarga moyillik, yaralar bitishining pasayishi, tomirlar degeneratsiyasining tezlashi organizmning mukopolisaxaridlarni sintezlash qobiliyatining pasayishi bilan bog'liqdir.

#### **Qarilik va ba'zi patologik holatlarda biriktiruvchi to'qimalardagi biokimyoviy o'zgarishlar**

Qarilikda biriktiruvchi to'qimada suv va asosiy moddaning tolaga nisbati kamayadi. Bu koeffitsientning pasayishi kollagen miqdorining ortishi va glikoproteinlar kontsentratsiyasining pasayishi hisobiga bo'ladi. Birinchi navbatda gialuron kislotasi miqdori kamayadi. Kollagenning fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgaradi (kollagen eruvchi fraksiyalari pasayadi, molekularlar ichidagi ko'ndalang bog'lari soni va mustahkamligi ortadi, elastikligi va bo'kish xususiyati pasayadi, kollagenazaga rezistentligi rivojlanadi va h.k.). Kollagen olalarning struktur stabiligi, ya'ni birik to'qima fibrillarining etilish jarayoni kuchayadi. Qarilikda metabolik jarayonlarni o'zgarishi natijasida kollagenning molekulyar strukturasi o'zgaradi.

Biriktiruvchi to'qimaning ko'p o'zgarishlari orasida kollagenozlar asosiy o'rinni egallaydi. Ular uchun biriktiruvchi to'qima struktur tarkibiy qismlarining o'zgarishi o'ziga xos bo'lib hisoblanadi (tola, xujayra, xujayra aro asosiy modda). Kollagenozlarga revmatizm, revmatoid artrit, sistemali qizil bo'richa, sistemali sklerodermiya, dermatomiozit va tugunchali perezartrit kiradi. Kollagenozlarning kelib chiqishida asosiy bo'lib infeksiyon-allergik nazariya hisoblanadi. Revmatoid artritli kasallarda yallig'lanish jarayonining faoligini aniqlash uchun qon zardobida glikoproteinlar miqdorini aniqlashdan keng foydalaniladi.

Revmatik artrit biriktiruvchi to'qimaning sistemali kasalligi bo'lib, kollagen va proteoglikanlar almashinuvining o'zgarishi bilan kechadi. SHuning uchun glikozaminlar miqdorini qon zardobida aniqlash muhim diagnostik ahamiyatga egadir. Bu maqsadda qon zardobida DNK va RNK miqdori ham aniqlanadi. Kollagenozlarda interfibrillar modda – proteoglikan va kollagen bo'lmagan oqsillarning metabolizmi keskin o'zgaradi. Geksozamin va gialuron kislotalar miqdori ortadi, kollagen bo'lmagan oqsillar to'planadi. Kollagen tolalarning parchalanishi kuchayishi kuzatiladi. Faol revmatik jarayonda kollagen fibrillarini destruktivitasining ortishi kollagen va oksiprolin saqlovchi yirik peptidlarning qon zardobida paydo bo'lishiga olib keladi. Natijada kollagenozda erkin oksiprolin va kichik peptidlar bilan bog'langan peptidlarning ekskretsiyasi kuzatiladi (oksiptrolinning siydik meyorda ajralishi 15 mg/sutka). Uning miqdorining ortishi revmatik jarayon faolligiga to'g'ri proporsional va uning mezonini bo'lishi mumkin. Oksiprolinning kollagenozlardagi ekskretsiyasi glyukokortikosteroid preparatlari bilan meyorlanadi.

#### **Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar:**

##### **«Aql xujumi»**

*Suenariy:* O'rta bitta mavzu tashlanadi. Talabalar shu mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Kotiba tayinlanadi. O'xshash fikrlar birlashtiriladi. 5-7 daqiqa vaqt beriladi. Oxirida eng qiziqarli fikrlar alohida

ajratiladi va baholanadi. Qoniqarsiz baholanmaydi.

Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va talabada fikrlash diorasi kengaishi kuzatiladi.

**Interaktiv usul savollari:**

26. Biriktiruvchi to'qimadagi oqsillar xaqida tushuncha bering.
27. Biriktiruvchi to'qima oqsillari tarkibidagi aminokislotalarning o'ziga hosligi.
28. Glikoaminoglikanlar va proteoglikanlarning biologik vazifalari hakida tushuncha bering.
29. Biriktiruvchi to'qimalar qanday tuzilgan?
30. Biriktiruvchi to'qimalarni birlamchi va fazoviy qurilishining tarkibiy qismi nimalardan iborat?
31. Avitaminoz «S» belgilari qanday xarakterlanadi?
32. Kollagen tolalari hosil bo'lish nimaga bog'lik?
33. Oksiprolinuriyani organizmda paydo bo'lishi sabablari nimalarga bog'lik?

**Ma'ruza №18.**

**Nerv to'qimasi biokimyosi**

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 20-80 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza.
Mavzu rejasi	Nerv to'qimasi kimyoviy tarkibi. Mielin membranalar: tarkibi va tuzilishining o'ziga xosligi. Nerv to'qimasida energetik almashinuv; glyukoza aerob parchalanishining ahamiyati. Pirouzum kislota almashinuv va polinevritlar. Nerv impul'si hosil bo'lishi va o'tkazilishining biokimyosi. Sinaptik o'tkazishlarning molekulyar mexanizmlari. Mediatorlar: aqetilxolin, katexolamin, serotonin, gamma-aminomoy kislota, glutamat kislota, gistamin. Ruhiiy kasalliklarda biogen aminlar almashinuvining buzilishi. Katexolaminlar o'tmishdoshlari va monoaminooksidaza ingibitorlarini depressiv holatlarni davolashda yo'llash. Miyaning fiziologik faol peptidlari.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarga nerv to'qimasi kimyoviy tarkibi. Mielin membranalar: tarkibi va tuzilishining o'ziga xosligi. Nerv to'qimasida energetik almashinuv; glyukoza aerob parchalanishining ahamiyati. Pirouzum kislota almashinuv va polinevritlar. Nerv impul'si hosil bo'lishi va o'tkazilishining biokimyosi haqida tushuncha berish
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, ma'ruza,suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik,ma'ruza matni,proektor,kom'pyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

Nerv sistemasi biokimyosi  
ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2 – asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slyadalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar Tinglaydilar
18- yakun iy bosqich (10 daqiqa)	1. YAKunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

**Nerv to'qimasi**

Odam miyasida  $10^{10}$ - $10^{11}$ neyron bo'ladi.Har bir neyrodendritlari va aksonlar yordamida talaygina boshqa neyronlar bilanbog'langandir; odam bosh miyasidagi neyronlararo tutashmalar soni  $10^{13}$ - $10^{14}$  taga boradi deb belgilangan.Dendritlar bilan aksonlarni ham qo'shib hisoblaganda, neyron yuzasining yarmidan

ko'ra ko'prog'ini sinapslar egallagan. Akson nerv hujayrasini effektor hujayralar bilan ham bog'lab turadi. Dendritlar bilan aksonlar nerv impul'sini o'tkazish uchun xizmat qiladi.

Nerv tolalari mielin parda bilan o'ralgan, bu pardani periferik nerv sistemasida shvann hujayralari, miyada gliya hujayralari hosil qiladi. Mielin parda SHvann yoki gliya hujayralari plazmatik membranasining unumidir: membrana ikki buklangan bo'lib, aksonni gir aylantirib, ko'p marta o'rab turadi.

Lipid	miqdori	Lipid	Miqdori
Xolesterin	27,7	Sfingomielinlar	7,9
Urebrozidlar	22,7	Fosfatidilserinlar	4,8
Fosfatidil-etanolaminlar	15,6	Plazmalogenlar	12,3
Fosfatidil-xolinlar	11,2		

Mielin parda quruq moddasining massasiga nisbatan olganda 70 % lipidlardan va 30% oqsillardan iborat. Akson membranasining nerv impul'sini yuzaga keltiruvchi asosiy qurollari natriy nasosi va ionlarni o'tkazuvchi ikki xil kanal- natriy kanallari bilan kaliy kanallaridir. Mana shu uchala moslamaning xar biri maxsus oqsillardan tuzilgan mustaqil struktura birligidir. Funktsional jihatdan uchala moslama bir – biriga bog'langan. Natriy nasosi ionlarini tashqariga, Kaliy ionlarini esa ichkariga haydab, ATF energiyasi hisobiga membrananing ikkala tomonidan shu ionlar konsentratsiyasining farqini hosil qiladi.

***Tinchlik potentsialini hosil qiladigan asosiy ionlar***  
***/taxminiy konsentratsiyalar/***

ion	Konsentratsiyasi, mmol/l		ion	Konsentratsiyasi, mmol/l	
	ichida	tashqarisida		ichida	Tashqarisida
Na+	10	145	HCO <sub>3</sub> -	10	25
K+	150	5	A-*	155	5
Cl+	5	120			

Nerv impul'sining sinapsdan o'tishi.

Sinapsda akson uziladi va impul's ma'lum bir modda- mediatorning diffuzlanishi yo'li bilan boshqa hujayraga o'tadi. Asetilxolin bilan noradrenalinning mediatorlik funktsiyalari boshqalaridan ko'ra xshiroq o'rganilgan. Bitta neyron sinapslarida mediator sifatida qanday bo'lmasin bitta moddadan- asetilxolin, noradrenalin vv boshqalardan foydalaniladi.

Biriktiruvchi to'qima

Erimaydigan iplar va eruvchan matriksning sinteziga javobgar xujayralar

Biriktiruvchi to'qimani barcha turlari, ularni morfologik farqlariga qaramasdan, umumiy yagona prinsip asosida tuzilgan

Kollagen

Biriktiruvchi to'qima organizmning butun tanasi bo'yicha taqsimlangan riktiruvchi to'qimaning erimaydigan iplari odam organizmida eng ko'p tarqalgan oqsil – kollagen tarkib topgan. U oqsillar umumiy miqdorining 25-33%ni, tana og'irligining taxminan 6%ni tashkil etadi. Kollagen tarkibidagi aminokislotalarning 1/3 qismini gliyin, prolin va gidroksiprolin 21%, alanin esa 11%ni tashkil etadi.

*Kollagenning to'rt turi tafovut etiladi*

***Kollagen fibrillari oxir-oxir va yon-yon bog'langan tropokollagen molekulalaridan hosil bo'lgan. Kollagen yuqori molekulyar o'tmishdosh prokollagen holatida sintezlanadi.***

Elastin biriktiruvchi to'qimaning ikkinchi asosiy oqsili. Kollagen farqli ravishda qaynatganda jelatina hosil qilmaydi. Uning aminokislota tarkibi kollagen farqlanadi. Elastin tolalari katta bo'lmagan, deyarli sferik molekulalarning qattiq ko'ndalang bog'lar bilan bog'lanishi natijasida qurilgan. Lizin ishtirokida ko'ndalang bog'larning 2 turi aniqlangan.

To'rtta lizin qoldiqlaridan desmozin va izodesmozin deb atalmish birikmalar hosil bo'ladi.


Biriktiruvchi to'qima xujayradan tashqari moddasini proteoglikanlar hosil qiladi va to'qima quruq massasining 30% ni tashkil etadi. Bular yuqori molekulyar og'irlikka ega bo'lgan polianion moddalar bo'lib, katta miqdorda turli geteropolisaxarid yon zanjirlarini tutadi. Polipeptid o'zan bilan kovalent bog'langan.

Oddiy glikoproteidlardan farqli ravishda proteoglikanlar 95% gacha uglevodlarni saqlaydi. O'z xususiyatlari bo'yicha

oqsillardan ko'ra polisaxaridlarga ko'proq o'xshaydi.

**Proteoglikanlarning biologik vazifalari:**

Fibronektin molekulasida bitta oqsil molekulasining glutamin qoldig'i bilan ikkita oqsil molekulasining lizin qoldig'i o'rtasidagi reaksiyani katalizlab, ularni bir-biri bilan choklab qo'yadigan ferment – transglutaminazani biriktirib olish markazi bor:



Transglutaminaza fibronektiniga birikib olganidan keyin fibronektin molekulalarini bir-biriga, kollagenga va boshqa oqsillarga ko'ndalang choklar bilan choklab qo'yadi. O'z-o'zidan yig'ilish vujudga kelish yo'li bilan paydo bo'ladigan strukturalar shu usulda mustahkam kovalent bog'lar bilan o'rnashib qoladi.

Biriktiruvchi to'qimada o'zgarishlar kollagenozlarda kuzatiladi. Revmatizm, revmatoid artrit, sistemali qizil bo'richa, sistemali sklerodermiya, dermamiyozit va tugunchali pearingrit kollagenozlarga kiradi.

Tashxis qo'yish uchun kon zardobida glikoproteidlar, oksiprolin aniqlanadi.

Meyorda siydik bilan bir sutkada 15-20 mg oksiprolin ajraladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Berezov T.T. Biologicheskaya ximiya, 2007, Moskva, Izd-vo Meditsina.

Vavilova T.P., Evstaf'eva O.L. Biologi cheskaya ximiya v voprosax i otvetax, 2005, VEDI.

Zubairov D.M. idr. Rukovo dstvo k laboratornym zanyatiyam po biologicheskoy ximii. 2005, Geotar-Media.Severin

E.S. Bioximiya, 2007, Geotar-Media.

Zubairov D.M. Bioximiya. Testy, 2007. Geotar-Media.

Severin E.S. Bioximiya. Testy i zadachi. 2007, VEDI.

Sultanov R.G., Xolmuxamedova N.M. Bioximiyadan amaliy mashg'ulotlar, 1995.

Sabirova R.A., Abrorov A.A., Inoytova F.H., Aripov A.N. Biologik kimyo, 2007.

Byshhevskiy A.SH. i soavt. Bioximii cheskie sdvigi i ix ochenka v diagno stike patologi cheskih sostoyaniy, 2002.Marshall V.Dj. Klinicheskaya bioximiya, 2002.

Severin E.S., Nikolaev A.YA. Bioximiya. Kratkiy kurs s uprajneniyami i zadachami, 2005.

Nikulin B.A. Posobie po klinicheskoy bioximii, 2006. Geotar-Media.

Aripov A.I. i soavt. Rukovodstvo po klinicheskoy laboratornoy diagnostike, 2007.

#### Amaliy mashg'ulotlar

#### MAVZU: OQSILLARNING QURILISHI, XUSUSIYATI VA VAZIFALARI

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -4 soat	Talabalar soni : 10-13 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
Mashg'ulot rejasi	1.Biokimyo fanining nredmeti va vazifasi. 2.Oqsillar vazifalari, to'qima va a'zolarning oqsil tarkibi. 3.Oqsillarning aminokislota tarkibi. 4.Oqsillarning birlamchi qurilishi, birlamchi qurilishining turli tumanligi. 5.Oqsillar birlamchi qurilishini ularning bajaradigan vazifasi bilan bog'likligi
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarga umumiy amaliyot shifokori tayyorlashda biologik kimyoning axamiyati va roli xakida tushuncha berish.Oksillar konformatsiyasini urganish asosida talabalarga oksillar funktsiyasini va ularning turli natologik xolatlarda uzgarishini tushuntirish.
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, amaliy mashgulot,suxbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik, amaliy mashgulot,laboratoriya jixozlari,kom'pyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqqa)	1.Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2.Talabalarni mashgulotga tayyorgarligini tekshirish 3. Davomatni nazorat kilish	
1. Mavzuga kirish (20 daqiqqa)	1. Mavzu buyicha ukuv mazmunini tayyorlash 2. Amaliy mashgulot taqdimot silaydalarini tayyorlash 3, Vaziyatli masalalar echish 4. Test echish	
2 – asosiy bosqich	1. Talabalarni kichik guruxlarga bulib mavzu buyicha savollar	Kichik guruxlarga

(130 daqiqa)	beradi. 2.Kurgazmali mlakatlardan foydalanadi. 3.Slydalar,mul'timediyalarni namoyish qilish 4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi,faol ishtirokchi talabalarni ragbatlantiradi va umumiy baxolaydi. 5.Laboratoriya ishi bajaradi.	bulinadilar Tomosha kiladilar. Katnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar.
19- yakuniy bosqich (20 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

### Mashg'ulot bayoni:

Biologik kimyo – tirik organizmlar tarkibiga kiruvchi moddalarning kimyoviy tabiati, ularning uzgarishi, shuningdek bu uzgarishlarning a'zo va to'qimalar faoliyati bilan boglik xolda urganadigan fan deb xisoblanadi.

Tekshiriluvchi ob'ektga boglik xolda biokimyoni shartli ravishda odam va xayvon, usimliklar, imkroorganizmlar va biokimyoga boglig xolda buladi. Modda almashinuvi va metabolizm-organizmda kechadigan barcha kimyoviy reaksiyalar yigindisidir, ularning tirik sistemasining turgunligi va uz-uzini xosil kilishga yunaltilgandir.

Xayvonlar va odam organizmi ovkat maxsulotlar kabul kilishga extiyojdir, suv va mineral komponentlardan tashkari murakkab organik tarkibga ega bulgan oksil, yog, uglevodlarni kabul kilishi kerak. Biologik kimyoning asosiy vazifasi molekulyar darajada zaminiy, umumbiologik masalalarni xal etishdan iborat. Insonning ekosistemaga boglik muommasini xal etishi, ularni na fakat tushunishi, balki ulardan muxofaza kilish, ulardan foydanala olish kerak.

Biologik kimyo fani yunalishi va tabiiyotda tutgan urniga karab uch bulimdan iborat.

- Statik biologik kimyo - tirik organizm tarkibiga kiruvchi moddalarning kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini urganadi.

- Dinamik biologik kimyo - organizmga moddalarning kabul kilinganidan boshlab oxirgi maxsulotlar shaklida chikarib yuborilishidagi barcha uzgarishlarni urganadi.

- Funktsional biokimyo - a'zo va to'qima funktsiyalariga boglik ravishda ularda kechadigan kimyoviy jarayonlarni tekshirish.

Biologik kimyoning barcha bulimlari uzaro uzviy boglangan va zamonaviy biokimyoning kislmlari xisoblanadi.

Oksillar vazifalari, a'zo va to'qimalarning oksili tarkibi tushunchasi shundan iboratki organizmdagi barcha biologik jarayonlar oksillarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Oksillar yukori molekullali azot saklovchi organik moddalar bulib, aminokislotalardan tashkil tongandir. Ular turli-tuman vazifalarni bajaradi, juda engil va noziklik bilan amalga oshiriladi. Tabiiy oksillar 20 xil aminokislotalardan tashkil tongan. Bu aminokislotalar turli boglar bilan ketma-ketlik boglanishi mumkin va juda katta turli oksillarni xosil kiladi. IIolinentid zanjirda 20 xil aminokislotalarning turli joylashishlarida uzoro boglanishi juda katta ulchovlar bilan belgilanadi.

Oksillarning tirik tibatdagi muxim rolini xisobga olib, shuningdek oksillarning tirik organizmning deyarli massasining yarmini tashkil etishi va kator ajoyib xususiyatlarga ega bulishi, oksil strukturasi va vazifasini tushunish biologik va tibbiyot uchun muxum muommalarni echishda asos bulishi, tibbiyot institutlarida biokimyo kursini urganish sinfi organik moddalardan boshlanishni takozo etadi.

Tirik organizmlar uchun xos bulgan turli-tuman juda kun vazifalarni oksillar bajaradi, biz ularning ba'zilari bilan kursni urganish davomida tanishamiz. Boshka sinf bionolimerlariga xos bulmagan oksillarning asosiy va ma'lum darajada yuksak bulgan biologik vazifalarini sanab utamiz:

6. Katalitik vazifasi – bu vazifasida barcha biologik katalizatorlar ferment oksil tabiatiga egadir. Xozirgi vaktida 2100 dan oksil tabiatli fermentlar ma'lumdir. Oksillarning bu vazifasi yuksak bulib, biologik tarmogidagi kimyoviy reaksiyalar tezligini aniklab beradi.

7. Ozika vazifasi – Bu vazifani zaxira oksillar amalga oshiradi,ular xomilaning rivojlanishi uchun ozika manbai buladi, masalan: tuxum oksili (oval'bumin) bunga misol buladi. Sutning asosiy oksili kazein xam ozika vazifasini bajaradi. Boshka kator oksillardan shubxasiz organizm aminokislota manbia sifatida foydanaliladi, ular uz navbatida modda almashinish jarayonini boshkaruvchi biologik faol moddalarning utmishdoshi xisoblanadi.

8. Tashish (transnort) vazifasi – Konning nafas vazifasi, xususan kislorodning tashilishi eritrotsitlar oksili gemoglobin molekulasi yordamida amalga oshiriladi. Limidlarning tashilishida kon zardobining al'bumin oksillari ishtirok etadilar. Boshka kon zardobi oksillari yoglar, mis, temir, tiroksin, vitamin A bilan kompleks xosil kiladilar va ularni nishon-a'zolariga etkazib berishlarini taminlaydi.

9. Ximoya vazifasi – Organizmda asosan ximoya vazifasini immun sistema bajaradi, u organizmga tushgan bakteriya, toksin yoki viruslarga karshi ximoya oksil tanachalarini sintezini taminlab beradi.

10. Kiskarish vazifasi –Mushakning kiskarish va bushashish jarayonida juda kun oksillar ishtirok etadi. Lekin bu muxum jarayonda asosiy rol'ni aktin va miozin oksillari mushak to'qimasining maxsus oksillari bulib xisoblanadi.

11. Kurilish (struktura) – Kurilish vazifani bajaruvchi oksillar odam organizmdagi boshka oksillarga nisbatan uz mikdori jixatidan birinchi urinni egallaydi. Ularga briktiruvchi to'qima kollageni, soch, tirnok va teridagi keratin, kon temir devoridagi elastin va boshkalar kiradi. Uglevod va limidlar bilan oksillarning xosil kilgan tunlami katta axamiyatga ega.

12. Boshkarish (gormonal) vazifasi – Organizmdagi moddalar almashinuvi turli mexanizmlar yordamida oshkariladi. Bu boshkaruvda ichki sekretniya bezlarida ishlab chikariladigan gormonlar asosiy urinni egallaydi. Kunchilik gormonlar oksil yoki polinentid tabiatiga egadirlar (ginofiz, oshkozon osti bezi gormonlari).

Lekin bu sanab utilgan oksillarning vazifalari bajaradigan barcha vazifasi emas. Biz fakat ularning asosiyilariga tuxtalib utdik xolos. Organizmda oksillarning bajaridigan vazifaliri juda kun xilmi-xildir.

Odam va xayvonlar to'qima va a'zolari oksillarga juda boydir. Kunchilik bu oksillar suvda yaxshi eriydi, lekin togay, soch, tirnok, suyak to'qimasidan ajratilgan suvda erimaydigan ba'zi organik moddalar xam oksillar guruxiga kiritilgan, chunki ular uzining kimyoviy tarkibi buyicha mushak to'qimasi, kon zardobi, tuxum oksillariga yakin.

Oksillar mushak, unka, kora talok, buyrak kuruk massasining 70-80%ni, odam tanasining kuruk vaznining 45%ni tashkil etadi. Xayvon to'qimalaridan farkli ravishda usimliklarda xam oksillar saklanadi.

Oksillarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi va xususyatlarini urganish uchun odatda ularni suyuq to'qimalar yoki oksilga boy bulgan xayvon a'zolaridan, masalan kon zardobi, sut, mushak, jigar, teri, soch, va tirnokdan ajratiladi. Kuruk moddaga nisbatan xisoblanganda oksillarning elementar tarkibi kuyidagilardan iborat:50-54% uglerod (S), 21-23% kislorod (O), 6,5-7,3% vodorod (N), 15-17% azot (N) va 05% gacha oltingugurt (S), birikmalaridan iboratdir. Ba'zi oksillar tarkibida oz mikdorda fosfor, temir, margents, magniy, yod va boshkalar uchraydi.

Oksillarning aminokislota tarkibi: Oksillarda odatda 20 ta xar xil aminokislotalatoniлади. Bir uzunlikdagi nentidlar xam, agar ular aminokislotalari tarkibi jixatidan fark kiladigan bulsa, xar xil moddalardir.

Aminokislotalar tarkibini aniklash uchun oksillar gidroliz kilinadi. Aminokislotalarning ba'zilari oksillarda kunrok, ba'zilari kamrok uchraydi. Masalan, glitsin trintofanga karaganda 10 baravar kunrok uchrab turadi: oksillardagi xar bir ming aminokislota koldiklaridan taxminan 70 tasi glitsin ulushiga, taxminan 7 tasi trintofan ulushiga tugri keladi. Kolgan aminokislotalar oksillarda nechogli kun tonilishiga karab oralik xolatni egallaydi va navbatdagi katorni xosil kiladi: (alanin ~ valin ~ leytsin ~ serin)>(glutamat kislota ~ glutamin ~lizin ~ arginin ~ prolin)>(asparaginat kislota ~ asparagin ~ izoleytsin ~ treonin ~ fenilalanin)>(tiolzin ~ tsistein ~ metionin ~ gistidin). Kunchilik oksillar aminokislotalari tarkibi jixatidan bir-biridan juda xam keskin fark kilmaydi. Birok ixtisoslashgan ba'zi oksillar borki, ularning aminokislotalari tarkibi aloxida buladi. Masalan, biriktiruvchi to'qima asosiy oksili kollagenning 1/3 kismi glitsin koldiklaridan tuzilgan bulsa, 1/5 kismiga yakini prolin bilan oksimrolinga tugri keladi. Xromosomalarda taxminan 1/3 kismi lizin bilan arginin koldiklaridan tuzilgan gistonlar degan oksillar bor.

Tirozin bilan trintofan ul'trabinafsha nurlarni yutadi, bunda 280 nm dagi nurlar xammadan kun yutiladi. Eritmalardagi oksillar konsentratsiyasini ulchashning snektrofotometrik metodi tsunga asoslangan.

Tirik organizmning barcha to'qimalari oksillardan iborat bulganligi uchun ularni kurilishini urganish aloxida etiborga egadir. Oksillar kurilishiga kura birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va turtlamchi oksillarni tafavut kilinadi. Avvalom bor oksillarning birlamchi kurilishini va birlamchi kurilishining turli tumanligiga tushuncha



kiritamiz. Oksillarning birlamchi kurilishining tushunchasi shundan iboratki polimentid zanjirida aminokislotalarning ketma-ket tartib bilan joylanishuvini uz ichiga oladi. Oksillarning birlamchi kurilishida aminokislotalarning ketma-ketligini boglab turuvchi nentid bogi shitirok etadi, aminokislotalar polimentid zanjir kurilishini stabillovchi kovolent bog nentid bogi bulib xisoblanadi. Oksillarning kurilishi aminokislotalardan iborat bulganligi uchun polimentid zanjiridagi N-oxirgi aminokislotalarni aniklash «Senger» va «Edmon» usullari bilan aniklanadi, polimentid zanjir S-oxiridagi aminokislotalarni aniklash «Fermentativ va Akabor usuli deb kiritilgan

Oksillarning birlamchi struktura deb aminokislotalarni polimentid zanjirida ketma-ket joylanish tartibiga aytiladi.

Oksilning birlamchi struktura aminokislotalarning sifat va mikdoriga boglik buladi, birlamchi struktura asosini netid boglari tashkil etadi.

Netid boglarining uziga xos xususiyatlari bulib ya'ni ulardagi xamma atomlar boglari bir tekislikda buladi. Ular ikki xil shaklda ya'ni keto xamda enol shakllarida buladi.

Undan tashkari aminokislotalar tsis- va trans- izomer shaklda xam uchraydi. Fazoda aminokislotalar uz aro vodorod bogi xosil kilish xossasiga ega. Oksil molekulasida polimentid zanjirining -NN<sub>2</sub> tutgan oxiriga N oxiri va -SOON tutgan oxiriga esa S-oxiri deb ataladi.

Oksilning birlamchi strukturasi bir tur ichida uning funksional snetsifikligini xam belgilaydi. Masalan, ikkita neyrogormonning strukturasi takkoslaymiz; vazopressin va oksitotsin. Ularning funksional vazifasi turlichi.

Vazopressin- buyraklar orkali suv ajralib chikishini kamaytiradi va mayda arterial tomirlar tonusini oshiradi.

Oksitotsin - a'zolardagi sillik mushaklar tonusini oshiradi, ayniksa bachadon mushagi, xamda sut ajralib chikishini amalga oshiradi. Bu ikki gormonning birlamchi strukturasi fark 3-8 xolatlarida kuzatiladi, oksitotsin molekulasida 3 urinda izoleytsin, 8 da leytsin aminokislota joylashgan buladi. Vazopressin molekulasida 3 urinda fenilalanin, 8 da arginin aminokislota joylashgan buladi. Kursatilgan aminokislotalar ketma-ketligidagi farqlar vazopressin va oksitotsinning snetsifik fiziologik ta'sirini belgilaydi.

Netid bog ancha muloyim bulib, zanjir ichida ruy beradigan uzaro ta'sirlar natijasida u muayyan fazoviy strukturani (konformatsiyasini) tashkil etadi. Oksillar uch ulchovli strukturasi modda kristali orkali utayotgan rentgent nurlarining difraktsiyasi va interferentsiyasiga asoslangan. Molekulalar, demak, shu molekulalarga kiruvchi atomlar xam, kristalda muxum bulib kolgan xolatni egallaydi. Rengent nurlari kristal orkali utib borayotganida elektronlarga yutiladi, bunga shu elektronlar uzi ikkilamchi tartibda nur sochuvchilar bulib koladi. Ikkilamchi nurlar xamma yunalishlar buylab bir teks sochilib turadi, lekin interferentsiya natijasida ba'zi yunalishlarda ular zurayib koladi. Kristal orkasiga kuyilgan fotonlyonkada uni ishlab, ochirilgandan keyin, sochilmagan nurlar dastasidan markazda yorug tushib, korayib kolgan dog toniladi. usha markaz atrofida xar xil darajada koraygan boshka kungina doglar ma'lum tartibda joylashgan buladi. Anashu doglarning joylashuvi va nechogli kuyukligi elektronlar tudalarlarining kristalda tarkalishiga boglik buladi. Lektronlar tudalar atomlarda bulganligidan doglarning joylanishuviga boglik deb aytish mumkin. Ana shunday rentgenogrammalarning bir kanchasidan foydalanib turib, kristaldagi xar bir atom xolatini, demak oksil molekulasidagi aminokislotalar koldiklarining fazoda olgan joyini xam xisoblab chikish mumkin.

Oksillar molekulasining shakli va fazoviy strukturasi xususiyatlari jixatidan oksillar ikki guruxga bulinadi; globulyar va fibrilyar oksillarga bulinadi.

Globulyar oksillar-tuzulishi jixatidan shakli kalta va sferik yoki ellinsoid shakilgan yakin. Globulyar oksillar vazifasiga kura bekiyos darajada xilma -xildir.

Denaturatsiya natijasida molekulasida dumaloq kontoksimon shakldan cho'zilib insimon shaklga aylanadi va oqsillar agregatsiyaga uchraydi. Agregatlar o'zaro birikib, katta agregatga aylanib cho'kmaga tushadi. Denaturatsiyalovchi ta'sirini to'xtatilsa ba'zi oqsillar qisman yoki umuman o'z tabiiy holiga (nativ holiga) qaytadi. Bunday holat oqsilni renaturatsiyasi deyiladi.

Bunga ribonukleaza oqsili misolida kuzatish mumkin.

Denaturatsiyadan keyin ma'lum vaqt o'tishi bilan ribonukleaza fermenti kislorod ta'sirida o'zining boshlang'ich aktivligiga ega bo'ladi va bunda disul'fid bog'lari o'z holiga qaytadi. Oqsil denaturatsiyasini oldini olish uchun fermentlarni ajratib olish va saqlash nast temperaturada olib boriladi. ( $0^{\circ}-4^{\circ}S$ ).

Oqsillarning denaturatsiyaga uchrashdan saqlash uchun turli ximiyaviy moddalar qo'llaniladi (oddiy shakar, glitserin, organik moddalar).

Oqsillarning hayvonlar to'qimasidan makroorganizmlardan maxsus usullar yordamida ajratib olinadi.

1. Oqsillarning ajratib olishda gomogenizatsiya usuli.

Oqsillar hayvonlar to'qimasidan makroorganizmlardan ajratib olish uchun avvalo to'qimalar yaxshilab maydalaniladi, ya'ni gomogenizatsiyalanadi. Bunda hujayra strukturasi buziladi oqsillar eritmaga o'tadi. Gomogenizatsiya qilish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi.

8. CHinni havonchada to'qimani qum bilan ezish (maydalash).

9. Potter - El'vegay gomogenizatorida maydalash.

10. SHarsimon tegirmonchalarda maydalash.

11. Kuchli ravishda muzlatib keyin, eritish yo'li bilan.

12. Ul'tratovush ta'sirida maydalash.

13. Bosim ta'sirida (muzlatilgan to'qimani mayda teshikli no'lat to'rdan o'tkazish).

14. Azot gazi yordamida (azot gazini bosim ostida to'yintiriladi keyin keskin bosim nasaytiriladi.

Natijada azot hujayrani oson narchalab oqsilni eritmaga o'tkazadi.).

YUqoridagi usullar bilan hosil qilingan gomogenatdan oqsillarni ajratib olish uchun ekstraksiya usulidan foydalaniladi. Olingan gomogenatni 8-10% li tuz eritmasida eritiladi. Oqsillarni ekstratsiyalash uchun ko'nincha ma'lum rN ega bo'lgan, bufer eritmalaridan, organik erituvchilaridan va ionsiz detergentlardan foydalaniladi. Bu maqsadda organik moddalardan ko'ndan beri ishlatib kelinadigan eritmalar. Glitserinning suvdagi eritmasi, sahar oza eritmasi, limon kislotasi va borat bufer aralashmalar, tris-bufer eritmalaridan foydalaniladi.

Qon zardobi oqsilini ajratish uchun etil snirti, atseton, butil snirti ta'sirida cho'ktiriladi. Gomogenatdan toza holda oqsillarni olish uchun har xil detergentlar ishlatiladi. Ular oqsil yog' kompleksini va oqsil-oqsil bog'larini yaxshi narchalaydi. Oqsillarni (fermentlarni) tozalashda mitoxondriya biomembranasi bilan yoki hujayra organoidlari bilan mustahkam birikadigan modda triton X-100, natriy dodetsilsul'fat va natriy dezoksiholat ishlatiladi.

Bu detergentlar oqsil-oqsil komplekslarini narchalaydi va oqsillarning to'rtlamchi strukturasi buzadi.

Oqsillarni ekstraksiya qilingandan so'ng ekstraktni tsentrifugalash yordamida to'qima elementlaridan tozalaniladi va eritmaga o'tgan oqsillarni fraktsiyalash yo'li bilan ajratiladi. Hozirgi paytda quyidagi usullar bilan oqsillar fraktsiyalarga ajratiladi: tuzlar ta'sirida cho'ktirish.

Issiqlik ta'sirida denaturatsiyalash usuli organik erituvchilar yordamida cho'ktirish, xromatografiya, gel'fil'tratsiya, elektroforez, ul'tratsentrifugalash usullari bilan oqsillar fraktsiyalari ajratiladi.

Oqsillarni ishqoriy va ishqoriy er metall tuzlari ta'sirida cho'ktirib fraktsiyalanganda ular o'z xossalari saqlab qoladi, chunki dializ yoki gel'fil'tratsiya usuli bilan oqsil cho'kmasidan tuzlar ajratib olinsa oqsil eritmaga o'tadi. Bu usul biologik aktivlikka ega bo'lgan fermentlarni ajratib olishda katta ahamiyatga egadir.

Klinik laboratoriyalarda qon zardobiga globulin oqsillarni ajratib olishda ammoniy sul'fatni yarim to'yingan eritmasi yordamida al'bumin oqsillarni esa to'la to'yingan eritma ta'sirida cho'ktirib ajratib olinadi. Tuzlar bilan oqsilni cho'ktirishda oqsilning tabiiy tuzlarning konsentratsiyasi hamda eritmani rN va temperaturada ahamiyatga ega bo'ladi.

YUqori molekulyar moddalar tarkibidagi kichik-kichik molekulyar moddalarni yarim o'tkazgich membranalar yordamida ajratish usuliga dializ deyiladi.

Dializ usuli kolloid zarrachalarni yarim o'tkazgich membranalardan o'tmasligiga asoslangan. YArim o'tkazgich membranalar kolloid, tsellofan pergament qog'ozlari misol bo'ladi.

Inson va hayvon organizmidagi buyrakdagi Boumen - SHumlyanskiy kansulasining nardalari ham yarim o'tkazguvchidir. Dializ uchun ishlatiladigan asbobni dializator deyiladi. Oddiy dializator sifatida kolloid va tsellofan qonchasi ishlatiladi. Cho'ktirib ajratilgan oqsil cho'kmasini kolloid yoki tsellofan xaltachasiga solinadi va xaltacha distillangan suv solingan idishga tushiriladi. Bunda vaqt o'tishi bilan xaltacha ichidagi kichik molekulyar moddalar (tuzlar) xaltacha tashqarisidagi distillangan suvga chiqadi. Oqsil esa yarim o'tkazgich narda teshikchalaridan o'tolmaydi va xaltacha ichida qoladi. Oqsillar aralashmasini ion almashuvchi adsorbtsiyalovchi xromatografiya, gel'fil'tratsiyalash va afinn xromatografiya yordamida ham fraktsiyalarga ajratiladi.

A) ion almashuv xromatografiyasi.

Bu usulda ikki xil ion almashtiruvchi adsorbentlar sifatida ishlatiladi.

Kuchli va kuchsiz asosli anion almashtiruvchilar. Bularga nolistol va tsellyuza hosilalari kiradi.

Kation almashtiruvchi nolistrollarga sul'fat birikmalari va karboksilmetiltsellyuza kiradi.

Ion almashtiruvchi moddalar kollonkaga uzun shisha naycha solib kuchsiz kislotasi yoki asos bilan yuviladi. So'ngra oqsil eritmasi o'tkaziladi. Bunda oqsil molekulyar anion yoki kation grunmalarga bo'linishi natijasida oqsillarni tuzlarning turli rN li eritmasi yordamida ajratib olinadi.

b) Adsorbtsion xromatografiya.

Bu usulda adsorbent sifatida aktivlangan ko'mir va alyumin oksidi ishlatiladi. Adsorbent kolonkaga solinib, erituvchi quyiladi va oqsil eritmasi solinadi, bunda oqsil adsorbent bilan birikadi. So'ngra oqsil fraktsiyalari turli rN li bufer eritmalar yordamida ajratib olinadi.

Oqsillarning fraktsiyalarga ajratishda taqsimlanuvchi xromatografiya usulidan foydalaniladi. Taqsimlanish xromatografiyasi adsorbtsion xromatografiyani turi bo'lib, adsorbent sifatida xromatografiya qog'oz, kraxmal, silikagel' va boshqalar ishlatiladi.

v) Gel' xromatografiyasi.

Bu usulda har xil gellar ishlatiladi, masalan: dekstrindan tayyorlangan, turli markadagi sefadekslar, dekstrin - yuqori molekulyar glyukoza qoldiqlaridan tarkib tongan nolimer moddadir, uni ishqoriy muhitda enixlogridin

bilan reaksiyaga kiritilsa gel hosil bo'ladi. Poliakrilamid gelini hosil qilish uchun suvda yaxshi eriydigan monomer akrilamid olib bu funktsional reagentlar ishtirokida polimerlashtiriladi.

Oqsillarni molekulari katta yoki kichikligiga qarab gelxromatografiya kolonkasiga gel to'ldirilib undan oqsillar aralashmasi o'tkazilsa avvalo kichik molekularlik oqsillar gel g'ovaklari orqali, gel zarrachasining ichiga kirib diffuziyalanadi.

Yirik molekularlik oqsillar bu g'ovakchadan o'tolmaydi, ular zarrachaning tashqarisida qoladi va eritma bilan kolonkadan oqib chiqadi.

#### g) Afinn xromatografiya.

Bu xromatografiya usuli quyidagi printsirlarga asoslangan bo'ladi: ajratib olinishi lozim bo'lgan oqsilga snetsifik bo'lgan modda Z-ligandda erimaydigan M moddasiga mustahkam qilib biriktiriladi. SHunday qilib, tayyorlangan MZ-adsorbent xromatografiya kolonkasiga solinadi va u orqali oqsil aralashmasi o'tkaziladi. Bunda R oqsili snetsifik adsorbent bilan birikadi. MZ+P=MZP. So'ngra kolonka yaxshilab yuviladi va birikkan R-oqsilining birikmasini dissotsiatsiya qiluvchi eritma bilan ajratib kolonkadan chiqariladi.

Elektroforez usuli. Bu usul bo'yicha oqsillar elektr maydonida har xil harakatlanish tezligiga asoslanib fraktsiyalarga bo'linadi. Fil'tr qog'ozida o'tkaziladigan elektroforez usuli yordamida inson qon zardobidagi oqsillarni 6 fraktsiyaga ajratish mumkin. Qog'ozda o'tkaziladigan elektroforezdan tashqari hozirgi vaqtda kraxmal geli, noliakrilamid va tsellyulozada oqsillarni elektroforez yordamida fraktsiyalarga bo'lish va ajratish mumkin.

Fil'tr qog'ozi o'rniga yuqorida ko'rsatilgan moddalar oqsil elektroforezda ishlatilgan qon zardobi oqsillarini ko'prok fraktsiyalarga ajratish mumkin. Masalan: kraxmal gelida 10 ta, noliakrilamid gelida 18 ta oqsil fraktsiyalari olish mumkin. Elektroforez yordamida ajratilgan oqsilni aniqlash uchun qog'oz va gellar bromfenol yoki 10 amid qora bo'yog'i bilan va boshqa oqsil bilan rang beruvchi reaktivlar bilan ishlanadi.

#### 4. Amaliy ko'nikmalarni bajarish bo'yicha xarakat algoritmlarini namoyish etish:

##### Oqsillar issiqlik ta'sirida cho'ktirish

№	Tadbir	Bajarilmadi	To'liq va to'g'ri bajarildi
1.	Tajriba uchun 5 ta probirka olinadi	0	15
2.	1nchi probirkaga 5 tomchi tuxum oqsili 1% eritmasi solinadi	0	15
3.	2nchi probirkaga 5 tomchi tuxum oqsilining eritmasi va 1 tomchi sirka ikslotaning 1% eritmasi solinadi	0	15
4.	3nchi probirkaga 5 tomchi tuxum oksili 1% eritmasi va sirka kislotasi 1% eritmasi solinadi	0	15
5.	4nchi probirkaga 5 tomchi tuxum oqsilining 1% eritmasi va sirka kislotasining 1% eritmasi, 2 tomchi natriy xlorning to'yingan eritmasidan solinadi	0	15
6.	5nchi probirkaga 5 tomchidan tuxum oqsili 1% eritmasi, sirka kislotasi to'yingan eritmasidan va 2 tomchi natriy gidroksid 10% eritmasi solinadi	0	15
7.	Olingan natijalarga qarab xulosa qilinadi.	0	10

#### 5. Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi nedogogik texnologiyalar

##### «Qor bo'ron»

Stsenariy: Talabalar 2 guruxga bulinadi urtaga bitta mavzu tashlanadi. Talabalar shu mavzu buyicha uz fikrlarini bildiradilar. Xar bitta tugri javob doskaga kor parchasi sifatida belgilab boriladi. Eng kun kor parchasi yig'gan gurux golib buladi va yukori ball oladi.

##### Interaktiv usul savollari:

1. Oqsil eritmasini kislotali yoki ishqorli muhitda uzoq vaqt davomida qaynatish qanday o'zgarishlarga sabab bo'ladi? O'zgarishlarni qanday usul bilan o'rganish mumkin?

2. Biokimyo laboratoriyalarida biologik suyuqliklar tarkibidagi oqsillarni aniqlash uchun ko'nincha kontsentrlangan nitrat kislotasi ishlatiladi, sababi nimada?

3. Oqsillarning eruvchanligi nimaga bog'liq. Javobingizni asoslang.

4. Oqsillarning kolloid xususiyati deganda nimani tushunasiz? Bu oqsillarni xususiyatida qanday o'z aksini tonadi va buni organizm uchun ahamiyati nimada?

5. Oqsillarning shakli nimaga bog'liq? Oqsillar shaklini ular kimyoviy xossasiga va funktsiyasiga ta'siri qanday?

6. Glu-Arg-Liz-Val-Asn polimentidining zaryad yig'indisi rN muhiti 7,0 da nechaga teng? Bu pentidning zaryadi yig'indisi rN 7,0 dan kichik va 7,0 dan katta bo'lganda qanday o'zgaradi?

7. Pro-Liz-Tir-Gln-Tri va Ala-Ser-Glu-Asn-Met polimentidi zaryadi rN=7,0 yoki 7< yoki >7 bo'lganda IENlarni aniqlang.

8. Oqsil denaturatsiyasi uning fizik-kimyoviy xossalari qanday namoyon bo'ladi?

### 6. Vaziyatli masalalar:

1. O'roqsimon xujayrali anemiya bilan og'riqan bemorning gemoglobini elektroforezda qaysi tomonga (anod, katod) xarakatlanadi. Sog'lom kishining gemoglobinichi?

2. Oqsillar aminokislota tarkibi o'rganilganda uning tarkibida ko'p miqdorda asosiy xossaga ega aminokislotalar aniqlandi. Ushbu oqsillar elektr mayjonida qaysi zaryad tomon xarakatlanadi? Nordon-kislota aminokislotalar bo'lsachi?

### 7. Testlar

1. Genarin xayvon organizmida quyidagi vazifani bajaradi:

A. nay va togaylar uchun tsementlovchi vazifasini

B. ossifikatsiya jarayonida katnashadi

V. linonroteinlinaza aktivatori va kator fermentlar ingibitori\*

G. transport vazifasini bajaradi

D. struktura vazifasini bajaradi

2. Eritmada gemoglobin borligini quyidagi reaksiya yordamida aniklash mumkin:

A. biuret B. Pauli V. Damkevich G. Feling

D. benzidin sinamasi\*

3. Oksillarni ajratib olish va tozalashda kullaniladigan 5 xil xromatografiya usulini kursating:

A. adsorbtsiyalash\* B. ekstrakttsiyalash

V. tuzlash G. taksimlash\* D. ionalmashinuv\*

E. issik denaturatsiya J. afin xromatografiya\*

Z. elektroforez I. gel' xromatografiya\*

K. kristallash

4. Oksillarni kichik molekulari birikmalardan tozalashning 4 usulini kursating:

A. dializ\* B. ekstrakttsiyalash

V. gel' xromatografiya\*

G. tuzlash D. kristallash\*

E. issik denaturatsiya

J. ionalmashinuv xromatografiyasi

Z. ul'trafil'trlash\*

5. Oksillar denaturatsiyasida yukotiladigan 3 xususiyatni kursating:

A. eruvchanlik\* B. elektroforetik kuzgaluvchanlik\* V. biologik aktivlik\*

G. dializlanish D. amfoterlik

E. birlamchi kurilish

6. Uchlamchi kurilishni stabillovchi 4 tur nokovalent boglarni kursating:

A. elektrostatik tortishuv\*

B. vodorod\* V. gidrofob\*

G. dinol-dinol alokalar\* D. pentid

E. disul'fid J. nsevdomentid

Z. gidrat

7. Ba'zi-bir oksillar bir necha subbirliklardan tashkil tongan. Masalan, gemoglobin.

A. U nechta subbirlikdan iborat?

A) 4ta\*, b) 8ta, v) 2ta, s) 6ta, e) 5ta

8. Xar bir subbirlik nechta atom kislorodni biriktirishi mumkin?

A) 4ta, b) 3ta, v) 2ta, s) 1ta\*, e) 5ta

9. Kislorodni subbirlik bilan birikishi keyingi kislorod atomining birikishiga kandy ta'sir etadi?

f. tezlashtiradi\*

g. sekinlashtiradi

h. ta'sir etmaydi

i. boshka kislorod birikmaydi

j. tormozlaydi

10. Ontogenezda va ba'zi kasalliklarda gemoglobinning turli shakllari uchraydi.

A. XbF asosan kimlarda uchraydi?

f. xomilada\*

g. keksa kishilarda

h. kasal odamlarda

i. katta kishilarda

j. togda yashovchilarda

11. XbF ning kislorodga moyilligi XbAga nisbatan kandy?

f. kuchli\*

g. bir xil

h. past

i. uzgaruvchan

j. kuchsiz

12. XbF va XbA bir-biriga nisbatan kandy oksillar?

f. izofunksional\*

g. antogonist

h. bir xil protomerli

i. turli vazifani bajaruvchi

j. nolifunksional

13. Oksillar konformatsiyasining kooperativ uzgarishiga mansub

oligomer oksillariga

fakat konfermentlariga

fakat kofaktorlariga

protomer oksillariga

fakat gemoglobin oksiliga#

14. Katalitik oksillar guruxiga mansub

tripsin

fibrinogen

globin

keratin

insulin#

15. Kiskaruvchi oksillarga kiradi

aktin

onsin

ferritin

kreatin

ximozin#

16. Oksillar denaturatsiyalanishida

birlamchi kurilish uzgaradi

kovalent boglar uzgaradi

fakat ikkilamchi kurilish uzgaradi

birlamchi ikkilamchi kurilish buziladi

ikkilamchi uchlamchi turtlamchi kurilish uzgaradi#

17. Denaturatsiyani vujudga keltiruvchi omillarga

nimalar kirmaydi

ishkoriy va ishkoriy er metali tuzlari

mineral va organik kislotalar

yukori xarorat

ogir metali tuzlar



- Suvda eritilishi#
18. Oksillarda uz ligandini tonib oladigan markaz uchlamchi kurilish darajasida aminokislotalar radikalining uzaro yaqinlashuvidan tashkil tongan kismi ketma-ket joylashgan aminokislotalardan iborat kism oligomer oksillarda protomerlarning komplementar kislardan iborat allosterik fermentlarni effektorlarni biriktiradigan kism fermentni substrat biriktiradigan kismi#
19. Oksillarning izoelektrik nuqtasini aniqlash mumkin rN metr bilan elektrofarez fotoelektrokolometr bilan gel'fil'tratsiyalash erdamida ul'tratsentrofugada#
20. Oksil molekullari shaklini aniqlash usuli rentgenostruktur analiz lyuministsentziyalash bilan refraktometrlash fotoelektrokolorimetrlash spektrofotometrlash#
21. Oksillarining kolloid xolatini belgilaydi zarrachalarni ulchami molekulyar ogirliги molekulasining shakli zaryadlanganliги protomerlar soni#
22. Sof oksillarni ajratib olish usullari ogir metall tuzlari bilan chuktirish ul'tratsentrofugalash gel'fil'trlash xromotografiya tuzlash#
23. Oksillarni dializlash oksillarning past molekullali moddalardan tozalash oksillarni fraktsiyalash oksillarni mustaxkam birikkan protetik guruxlardan tozalash murakkab oksillardan oddiy oksillarni ajratish oligomer oksillarni protomerlarga ajratish#
24. Elektroferez usuli erdamida aniqlanadi oksildagi protomerlar soni oksil molekulasining tozaligi oksilning izoelektrik nuqtasi oksilning molekulyar ogirliги oksil miqdori#
25. Elektroferez jarayonida xammasidan avval xarakat kiladi:
- i.
- A. al'buminlar\*B. al'fa1 - globulinlar  
V. al'fa2 - globulinlar  
G. betta – globulinlar  
D. gamma - globulinlar
26. Keratinlar eng kuni miqdorda mavjud:  
A. suyaklarda  
B. toqaylarda  
V. kuz shox pardasida  
G. paylarda  
D. sochlarda\*
27. Oksillar tarkibiga kiruvchi 5 almashinmaydigan aminokislotalarni kursating:  
A. valin\*B. metionin\*  
V. triptofan\*  
G. fenilalanin\*  
D. treonin\*  
E. alanin  
J. serin  
Z. glitsin  
I. tirozin  
K. aspartat
28. Oksillarni tarkibiga kiruvchi 5 aromatik aminokislotalarni kursating:  
A. tirozin\*B. fenilalanin\*  
V. triptofan\*  
G. gistidin\*  
D. prolin\*  
E. aspartat  
J. glutamat  
Z. leytsin  
I. izoleytsin  
K. tsistein
29. Alifatik guruxga mansub 5ta aminokislotalarni kursating:  
A. glitsin\*B. prolin  
V. oksiprolin  
G. serin  
D. alanin\*  
E. valin\*  
J. gistidin  
Z. leytsin\*  
I. lizin  
K. izoleytsin\*
30. Gemoglobinning birlamchi strukturasi uzgarishi natijasida uroksimon anemiya kasalligi vujudga keladi. Uroksimon anemiyada gemoglobinning kaysi subbirliklarida uzgarish kuzatiladi?
- e.  $\beta$  – subbirlikda\*
  - f.  $\alpha$  – subbirlikda
  - g.  $\alpha$  va  $\beta$  subbirlikda
  - h. al'fa va gamma subbirliklarda
31. Uroksimon anemiya kasalligi  $\beta$ -subbirlikdagi kandy uzgarish natijasi
- f. birlamchi kurilishdagi uzgarishlar natijasi\*
  - g. 4-chi kurilishning tashki muxit omillari ta'sirida buzilishi
  - h. 3-chi kurilish tarkibidagi boglar uzilishi
  - i. 2-chi kurilishni buzilishi
32. Uroksimon anemiyada birlamchi kurilishda kandy uzgarish sodir buladi?
- e. gemoglobin dezoksigenatsiyalanib, suvda erimaydigan xolatga utadi va eritrotsitni deformatsiyalaydi, N-oxirida 6 urindagi glutamin urniga valin keladi\*
  - f. S-oxiridagi aminokislota almashgan
  - g. gemoglobin 4-chi strukturasi uzgarish buladi
  - h. gemoglobin A dan gemoglobin S ga aylanadi

#### 8. Nazorat savollari:

1. Oqsillarning molekulyar shakli va og'irligini qanday aniqlaniladi?
2. Oqsillarni kolloid xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Oqsillarni erishi nimaga bog'liq va cho'ktirishni qanday turlarini bilasiz?
4. Oqsillar denaturatsiyasi va renativatsiyasi nimalarga bog'liq?
5. Tuzlash, gel'fil'tratsiya, dializ usullarini tushuntiring.
6. Xromatografiya turlarini ayting.

#### 9.. Joriy baxolash mezonlari

86-100%

Talaba Oksillarning fizik-kimyoviy xususiyatlari: molekulyar massasi, eruvchanliги,

	chuktirish usullari, shakli kolloidlik xususiyatlari, izoelektrik nuktasi, viologik materiallarni gomogenlash, Oksillarni ekstraksiya qilish usullarini, Oksillarni uzaro va kichik molekulyar moddalardan tozalash metodlari tugrisida anik tushunchalar bersa, amaliy mashgulotni tugri bajarsa va amaliy mashk'ulot bayonnomalari, ma'ruza matnlari bulsa.
71-85,9%	Talaba mazkur savollarga tulik javob bersa, nazariy masalalarni yaxshi talkin kilsa, ammo javob berishda ayrim jiddiy bulmagan kamchiliklar uchraganda. Ma'ruza matnlari tulik va tartibli bulganda. Amaliy ish bayonnomalari anik xulosalanganda.
55-70,9%	Talaba Oksillarni fizik kimyoviy xususiyatlari, Oksillarni ajratish, tozalash usullarini bayon qilishda jiddiy xatolarga yul kuyilsa. Laboratoriya mashguloti tulik bajarilib, lekin matnlarni va bayonnomalarni tuzishda ayrim kamchiliklari uchraganda. Ma'ruza larda tulik bulganda.
55% past	Talabaga mavzuga oid savollar berilganda juda kam bilimga ega bulsa, amaliy mashgulotni bajarishda va bayonnomada xatoliklarga yul kuysa, ma'ruza matnlari bulmasa.

## 11. Tarqatma materiallar

- 
- 1 variant
1. Oqsil eritmasini kislotali yoki ishqorli muxitda uzoq vaqt davomida qaynatish qanday o'zgarishlarga sabab bo'ladi? O'zgarishlarni qanday usul bilan o'rganish mumkin?
  2. Biokimyo laboratoriyalarida biologik suyuqliklar tarkibidagi oqsillarni aniqlash uchun ko'pincha kontsentrangan nitrat kislotasi ishlatiladi, sababi nimada?
- 2 variant
1. Oqsillarning eruvchanligi nimaga bog'liq. Javobingizni asoslang.
  2. Oqsillarning kolloid xususiyati deganda nimani tushunasiz? Bu oqsillarni xususiyatida qanday o'z aksini tonadi va buni organizm uchun axamiyati nimada?
- 3 variant
1. Oqsillarning shakli nimaga bog'liq? Oqsillar shaklini ular kimyoviy xossasiga va funktsiyasiga ta'siri qanday?
  2. Glu-Arg-Liz-Val-Asn polipeptidining zaryad yig'indisi rN muxiti 7,0 da nechaga teng? Bu peptidning zaryadi yig'indisi rN 7,0 dan kichik va 7,0 dan katta bo'lganda qanday o'zgaradi?
- 4 variant
1. IPro-Liz-Tir-Gln-Tri va Ala-Ser-Glu-Asn-Met polipeptidi zaryadi rN=7,0 yoki 7< yoki >7 bo'lganda IENlarni aniqlang.
  2. Oqsil denaturatsiyasi uning fizik-kimyoviy xossalarida qanday namoyon bo'ladi?
- 5 variant
1. rN-7 bo'lganda Ser-TSis-Glu-Tir-Asn keltirilgan peptidlar Val-Arg-Fen-Tir-Gln ning eruvchanligi qanday?
  2. Oqsillarni tuzlash va dializning axamiyatini ayting.
- 6 variant
1. Xromatografiya usuli nimaga asoslangan? Xromatografiya turlarini ayting.
  2. Val-Glu-Ala, Ley-Asn-Arg peptidlari rN-7 bo'lganda elektron maydonigi xarakati yo'nalishini taqqoslang (katod yoki anodga).

## 12. Adabiyotlar

### Asosiy

1. A.YA Nikolaev «Biologik kimyo». -Toshkent, 1992 y.
2. T.T. Beryozov, B.F. Korovkin «Biologicheskaya ximiya». -Moskva 1990 y.
3. R.A.Sobirova va boshqalar. Biologik kimyo. -T., 2006. (lotin)

### Qo'shimcha

1. A. Leninjer «Osnovy bioximiya» 1,2,3, tom, Moskva, 1985 y.
2. A.Uayt va boshqalar «Osnovy bioximii», 1,2,3, tom, Moskva, 1981 y.
3. L.S.Strayer «Bioximiya», 1,2,3 tom, Moskva 1985 y.
4. D. Metsler «Bioximiya», 1,2,3 tom, Moskva 1980 y.
5. J. Kryu «Bioximiya» Moskva, 1979 g.
6. E.A. Stroev «Biologicheskaya ximiya» Moskva, 1986 y.

## MAVZU: NUKLEIN KISLOTALAR QURILISHI

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2soat	Talabalar soni : 10-13 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
Mashg'ulot rejasi	1.Nuklein kislotalari: DNK, RNK. Xujayralarning asosiy nukleotidlari. 2.Nuklein kislotalarning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi qurilishlari. 3.Nuklein kislotalarning snetsifiklik koeffitsienti. 4.Nuklein kislotalarning denaturatsiyasi va renativatsiyasi. DNK-DNK, DNK-RNK duragaylash. 5.Xromatin, ribosoma, nukleosomalar tuzilishi va ularning oqsil sintezidagi ahamiyati.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	nuklein kislotalar (DNK, RNK), ularning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi strukturalari haqida tushuncha berish nuklein kislotalarning turlarga xosligi, hujayra asosiy nukleotidlar haqida tushuncha berish nuklein kislotalar denaturatsiyasi va renativatsiyasi
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, amaliy mashgulot,suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik, amaliy mashgulot,laboratoriya jixozlari,kom'pyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1.Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2.Talabalarni mashgulotga tayyorgarligini tekshirish 3. Davomatni nazorat kilish	
1. Mavzuga kirish (20 daqiqa)	1. Mavzu buyicha ukuv mazmunini tayyorlash 2. Amaliy mashgulot taqdimot silaydalarini tayyorlash 3, Vaziyatli masalalar echish 4. Test echish	
2 – asosiy bosqich (130 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruxlarga bulib mavzu buyicha savollar beradi. 2.Kurgazmali nlatatlardan foydalanadi. 3.Slaydalar,mul'timediyalarni namoyish qilish 4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi,faol ishtirokchi talabalarni ragbatlantiradi va umumiy baxolaydi. 5.Laboratoriya ishi bajaradi.	Kichik guruxlarga bulinadilar Tomosha kiladilar. Katnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar.
22- yakuniy bosqich (20 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

**Nazariy qism**

Nuklein kislotalari yuqori molekularlik va murakkab qurilishiga ega bo'lgan, hayot uchun eng muhim organik birikmalardir. Tirik organizmlar uchun xos bo'lgan irsiy belgilarni saqlash, ularni o'z avlodlariga o'tkazish, organizmlarni turga xosligi va ularni asosida yotgan oqsillar biosintezi kabi asosiy xususiyatlar nuklein kislotalar faoliyati bilan bog'liqdir.

1668 yili SHveysariyalik olim F.Misher o'lgan leykotsitlar «yiring» yadrolari tarkibida azot va fosfor moddalari saqlangan, kislota xususiyatga ega bo'lgan yangi organik modda ajratib olib, uni nuklein kislota - yadro kislotalari deb atadi. Keyinchalik bu modda barcha hayvon, o'simlik va mikroorganizmlar tarkibida uchraydigan asosiy organik moddalardan biri bo'lib chiqdi. Nuklein kislotalarni ajratib olish uchun odatda katta yadro saqlovchi materiallardan foydalaniladi. Bu jihatdan eng qulay timus bezi, achitqi, taloqdir. Achitqi va timusdan ajratib olingan nuklein kislotalari tarkibini solishtirish oqibatida bir-biridan farqlanuvchi ikki xil nuklein kislotalari bo'lishi aniqlandi. Timusdan olingan nuklein kislotalari tarkibida adenin, guanin, tsitozin, timin azot asoslari, karbonsuv, dezoksiriboza va fosfor kislotalari; achitqi nuklein kislotalari tarkibida esa adenin, guanin,

tsitozin, uratsil, riboza va fosfor kislotasi borligi aniqlandi. Bu moddalar tarkibidagi karbonsuvga qarab ular dezoksiribonuklein kislotasi - DNK va ribonuklein kislotasi RNK deb ataladi. Faqat 1940 yillardagina bu ikki xil nuklein kislotalar, hayvon, o'simlik va mikroorganizmlar hujayralari tarkibida ham albatta bo'lishi kerak bo'lgan moddalar ekanligi aniqlandi.

Nuklein kislotalarini kislotalik yoki fermentativ gidroliz qilish natijasida, fosfodiefir bog'lari o'zilib nuklein kislotalarining monomerlari mononukleotidlar hosil bo'ladi. Mononukleotidlarni to'la gidrolizi oqibatida esa azot asoslari, pentozalar va fosfat kislotalari hosil bo'ladi. DNK to'liq parchalanganda azot asoslaridan adenin, guanin, (no'rin asosi unumlari), tsitozin, timin (nirimidin asosi unumlari), uglevod dezoksiriboza va fosfor kislotasi hosil bo'ladi. RNK dan azot asoslari unumlari - adenin, guanin, tsitozin, uratsil, uglevod - riboza na fosfor kislotasi hosil bo'ladi.

Nuklein kislotalarini qurilishini o'rganishning oson usuli sxema bo'yicha to'la gidroliz mahsulotlaridan yuqoriga qarab nuklein kislotalarini ko'rib chiqishdir. Har bir azot asosi avval uglevod pentozaga bilan birikadi. Bu mahsulotlarni umumiy nomini nukleozid deyiladi.

Adenin + riboza — Adenozin nukleozidi

Guanin + riboza — Guanozin nukleozidi

TSitozin + riboza — TSitidin nukleozidi

Uratsil + riboza — Uridin nukleozidi

DNK tarkibida i - riboza o'rnida 6 - dezoksiriboza, uratsil o'rnida timin bo'lganligi uchun undagi nukleozidlarni, dezoksiguanozin, dezoksitsitidin, dezoksitimidin deb ataladi.

Har bir nukleozidni pentozasini 5 uglerod atomiga fosfor kislotasi birikishi natijasida nukleozidlardan nukleotidlar hosil bo'ladi. Nukleotidlarni nomlanishi nukleozidlar nomiga fosfor kislotasini qo'shishi bilan hosil qilinadi.

Adenozin + N<sub>3</sub>RO<sub>4</sub> - Adenozin 5 monofosfat (AMF)

Guanozin + N<sub>3</sub>RO<sub>4</sub> - Guanozin 5 monofosfat (GMF)

TSitidin + N<sub>3</sub>RO<sub>4</sub> - TSitidin 5 monofosfat (TSMF)

Uridin + N<sub>3</sub>RO<sub>4</sub> - Uridin 5' monofosfat (UMF)

DNK tarkibidagi nukleotidlar dezoksi AMF, dezoksi GMF, dezoksi TSMF, dezoksi TMF deyiladi. Tirik organizmlar to'qimalari tarkibida bu nukleotidlarni ADF, GDF, TADF, UDF, TDF, GTF, TSTF, UTF, ATF, TTF shakllari ham bo'lib ular energiyaga boy bog'lar saqlab, makroergik birikmalar deb ataladi. Nukleotidlar organizmda ba'zi fermentlarning kofermentlari tarkibiga ham kiradi. Nuklein kislotalari tarkibida esa ular monofosfatlar holatida bo'ladilar.

Nuklein kislotalari qurilmasida uchta darajadagi qurilish - birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi qurilishlar tafovut qilinadi.

DNK va RNK ni tashkil etgan polinukleotid zanjirdagi nukleotidlarni ketma-ketlik bilan joylanish tartibi ularning birlamchi qurilishi deyiladi. DNK va RNK lar birlamchi qurilishini printsini bir xildir. Yuqorida aytilgandek (nukleotidlar bir-biri bilan 8,5 fosfodiefir kovalent bog'i orqali birikkan bo'lib, har bir polinukleotid zanjirining ikkita uchi 3 va 5 uchi bo'ladi. Demak, polinukleotid zanjiri qutbli bo'lib, u 5-3 va 3-5 yo'nalishida bo'lishi mumkin, faqat ba'zi bir virus va bakteriyalar DNK va RNK larni halkalik qurilishiga ega bo'ladi. Nuklein kislotalarining birlamchi qurilishi ularni asosini tashkil qilib, ikkilamchi va uchlamchi qurilishlar ham birlamchi qurilish orqali belgilanadi.

DNK da nukleotid so'zlari bilan yozilgan irsiy axborotlar, oqsillar sintezi orqali belgilar sifatida yuzaga chiqariladi. Bunda DNK ni bitta oqsilni sintez qilishini belgilaydigan qismiga qurilish geni deb ataladi. Bitta DNK molekulasida bir necha yuzlab genlar o'z lokusida joylashgan bo'ladi. Bu genlarning o'rta hisobda 98% i oqsil sintezini belgilaydigan qurilish genlaridir, 2% esa t-RNK, r-RNK larni va DNK dan ko'chirma olish RNK sintezi jarayonini boshqarishda qatnashuvchi protomer va onerorlar genlaridir.

Hozirgi vaqtda deyarlik hamma t-RNK va ba'zi bir r-RNK larni birlamchi qurilishi aniqlangan. Turli xildagi t-RNK zanjirlarida 75 dan 90 tagacha nukleotidlar saqlanadi. Yuqori molekulari 65 r-RNK va 185 r-RNK molekularida 1200-1500 nukleotidlar bo'lishi aniqlangan. DNK molekulasi juda ham ulkan bo'lganligi uchun, hozirgi vaqtda faqat ularni ba'zi qismlariningina, masalan, galaktoza, laktoza, trintofan oneronlarining birlamchi qurilishi aniqlangan. Har xil manbalardan olingan DNKlarning nukleotid tarkibini o'rganish shuni ko'rsatadiki, Har bir organizmni o'zi uchun har akterli bo'lgan 4 xil nukleotidlar ketma-ketligi bilan belgilanadigan DNK tarkibi bo'ladi. SHu organizmni tarkibiga kirgan somatik hujayralarning barcha xillarida DNK tarkibi bir xil bo'lib, bu umr bo'yi saqlanib qoladi, chunki butun bir organizmni tashkil qiluvchi hamma hujayralar bitta uruglanish natijasida hosil bo'lgan tuxum hujayrasi -zigotaning koniyalaridir, hujayralarning har xil vazifalarni bajarishga ixtisoslashuvi esa, har bir hujayrada shu hujayra uchun zarur bo'lgan genlar ishlab, qolganlari tormozlanishidir.

DNK molekulasini tekshirish oqibatida 1949 yili CHargaff quyidagi qonuniyatlarini ochdi. Buni fanda CHargaff qoidalari deyiladi. Bu qoidaga asosan DNK molekulasida:

5. no'rin nukleotidlarining yig'indisi, nirimidin nukleotidlarining miqdoriga tengdir: A + G = TS + T

6. Adenin miqdori timinga, tengdir: A = T

7. Guanin miqdori tsitotinga tengdir: G = TS

8. 6-aminogruppa saqlovchi azot asoslari 6-keta gruppacha saqlovchi azot asoslari miqdoriga tengdir: G + T = A. + TS

A + T miqdori G + TS miqdoriga teng emas. Bu qoidadan DNK molekulasida no'rin asoslari nirimidin asoslari bilan birikishi kerakligidan tashqari adenin molekulasi albatta timin bilan 1-guanin molekulasi esa tsitozin bilan birikadi degan xulosa kelib chiqadi. Bu qoida ochilishi arafasida M.Uilkins DNK molekulasi litiy to'zi molekulasini rentgen nurlari difraktsiyasi usuli orqali o'rganib DNK molekulasi fazoviy qurilishi har 0,34 nm masofada davriy ravishda qaytarilishini ochdi. YUqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar va chuqur rentgen qurilish analizlari asosida 1953 yili Dj. Uotson va F. Krik DNK ikkilamchi qurilishini modelini taklif qiladilar.

Model keyinchalik qo'sh sniral nomini oldi. Qo'sh sniralning 1953 yili ochilishi biologiya tarixida ulkan bir burilishdir. U hozirgi molekulyar biologiyaga asos solib yuqori ahamiyatga ega bo'lgan bioximiyaviy va genetik xarakterdagi tekshirishlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu modelga asosan DNK molekulasi o'ng tomonlama burilgan qo'sh zanjirlik sniraldir. Dj. Uotson va F. Krikni modeliga asosan DNK molekulasi bir o'k atrofida o'ng tomonlama burilib sniral hosil qilgan ikki nolinukleotid zanjiridan tashkil tongan birikmadir. Bu ikki nolinukleotid zanjiri bir o'q atrofida antiparallel, ya'ni bir zanjir 3-5, ikkinchisi 5-3' yo'nalishida joylashgan bo'ladi.

Bir o'q atrofida antiparallel joylashgan bu ikki zanjir azot asoslari o'rtasida hosil bo'lgan vodorod bog'lari hisobiga ushlanib turiladi. Bunda bir zanjirdagi adenin azot asosi ikkinchi zanjirdagi timin bilan ikkita vodorod bog'i, guanin esa tsitozin bilan uchta vodorod bog'i hisobiga birikadi. Demak, qayerda adenin bo'lsa, qarshisida timin, qayerda guanin bo'lsa qarshisida tsitozin joylashgan bo'ladi. Bu CHargaff qoidalarini to'g'riligini isbotidir. DNK molekulasida azot asoslarining bunday joylanishini komplementarlik to'ldirish printsini deyiladi. Bu printsin bir DNK molekulasidan o'ziga o'xshagan ikkinchi DNK ni hosil bo'lishi renlikatsiya, DNK dan RNK hosil bo'lishi transkripsiya va i-RNK asosida oqsil sintez bo'lishidagi translyatsiya matritsa printsinini belgilochi faktordir. Bu ikki nolinukleotid qo'sh sniralli aniq bir fazoviy qurilishida bo'lib, bunda azot asoslari qo'sh sniralning ichki qismida karbon suv va fosfor kislotasi qoldiqlari esa tashqi tomonida joylashgan bo'ladi. DNK sniralining har bir buramasi 10 nukleotid qoldig'idan tashkil tongan bo'lib, uning o'lchami 3,4 nmga teng keladi, ya'ni har bir nukleotidning balandligi 0,34 nmdir.

DNK molekulasining ikkilamchi qurilishini turg'unligi ikki nolinukleotid zanjirlaridagi komplementar joylashgan azot juftlari o'rtasidagi vodorod bog'lari hisobigagina emas, balki yana zanjir ichki qismida g'uyoki taxlangan tangachalarga o'xshab joylashgan, azot asoslari o'rtasida hosil bo'lgan van-der-val's bog'lari hisobiga ham ushlanib turiladi.

DNK ning uchlamchi qurilishi qo'sh sniral ba'zi qismlarini yanada kuchliroq buralishi hisobiga hosil bo'ladi. Buni DNK molekulasi molekulasi suyer snirali deyiladi. Bunday suyer sniral qurilishi DNK molekulasini xromosomalarda tejamli joylanishini ta'minlaydi. CHO'zilganda 8 sm atrofida bo'lgan DNK molekulasi suyer sniral buralish hisobiga xromosomalark tarkibida 5 mm gacha kichrayadi.

RNK bir inlik molekula bo'lib, uni asosiy qismi ribosomada, bir qismi tsitonlasmada erigan holda (t-RNK) va yadroda joylashgan bo'ladi, yadroda joylashgan RNK ning asosiy qismi yadrochada joylashadi. Ma'lumki, yadro tarkibida ko'rinadigan yadrocha, xromatinda sintezlanayotgan RNK va u asosida shakllanayotgan ribosomadir. SHuning uchun hujayra bo'linayotgan davrda xromatinlar ishlayotganligi uchun yadro tarkibida yadrocha bo'lmaydi. Har bir RNK DNK dagi ma'lum bir genniig ko'chirmasidir, faqat bu ko'chirmada dezoksiriboza o'rnini riboza, timin o'rnini uratsil egallaydi. DNK va RNK ni bir-biriga solishtirib quyidagilarni ko'rish mumkin: 1. DNK molekulasida irsiy axborotlar, ya'ni oqsillar birlamchi qurilishining rejasi saqlanadi, va bu axborotlar nasldan naslga o'tkaziladi. RNK lar esa shu axborotlar asosida oqsillarni sintez qiladi. 2. DNK asosan hujayra yadrosida, RNK esa ribosoma, tsitonlasmada va yadroda joylashgan bo'ladi. 3. DNK molekulyar og'irligi bir necha yuz millionlarga teng bo'lsa, RNK unda saqlanuvchi yuzlab genlarning bittasini ko'chirmasi bo'lganligi uchun unga nisbatan ancha kichik (million atrofida va undan kichik) bo'ladi. 4. DNK molekulasi ikkita antiparallel joylashgan nolinukleotid zanjiridan, RNK esa bitta nolinukleotid zanjiridan tashkil tongan. 5. DNK tarkibi adenin, guanin, tsitozin, timin, dezoksiriboza o'rnini kislotasidan tashkil tongan bo'lsa, RNK da dezoksiriboza o'rnini riboza, timin o'rnida uratsil bo'ladi.

RNK nolinukleotid zanjirida nukleotidlarning ketma-ket joylanish tartibi RNK ning birlamchi qurilishi deyiladi. Nukleotidlar bir-biri bilan fosfodiefir bog'i (3-5) orqali birikadi. RNK xillarining ikkilamchi va uchlamchi qurilishlari DNK singari bir tartibli bo'lmay, ularning har biri o'ziga xos ikkilamchi, uchlamchi qurilishga ega bo'ladi. X,ar bir i-RNK xromatin tarkibidagi DNK molekulasida saqlanayotgan bitta oqsilni birlamchi qurilishini rejasi yozilgan genning ko'chirmasidir. Organizmdagi har bir oqsil o'z i-RNK si asosida hosil bo'ladi. Organizmda oqsillarni turi ko'nligi va ular turli molekulyar og'irlikka ega bo'lganliklari uchun i-RNK ning ham turlari ko'p bo'lib molekulyar og'irliklari ham turlichadir. i-RNK ning ikkilamchi qurilishi ba'zi qismlari sniral hosil qilgan, ba'zi qismlari chiziksimon tuzilgan shaklga egadir; Sniral hosil bo'lishi bir nolinukleotid zanjiridagi bir-biriga komplementar bo'lgan qismlar orasida hosil bo'ladi.

i-RNK ning uchlamchi qurilishi g'altakka o'ralgan inga o'xshaydi. Bu shaklni egallashni alohida transport oqsili - informofer ta'minlaydi. i-RNK, hosil qilinishi kerak bo'lgan oqsilni planini DNK dan ribosomalarga etkazadi.

T-RNKlar tsitonlasmada erigan holda joylashganligi uchun eruvchan RNK deb ham ataladi. Ular oqsil sintezlanadigan joy ribosomalarga aminokislotalarni tashib beradi. Organizmda 20 xil aminokislotasi bo'lib, umumiy hisobda 61 ta ma'noli kod bo'lganligi uchun t-RNK ning xili ham kamida 61 ta bo'ladi. CHunki t-RNK da har bir kodga komplementar uchta nukleotid saqlovchi antikodon qismi bo'ladi. Kodlarning umumiy soni 64 ta bo'lib, shundan uchta ma'nosiz koddir, ya'ni uchta kodga to'g'ri keladigan antikodonlik t-RNK

bo'lmaydi. t-RNK ning ikkilamchi qurilishi "beda bargi" shakliga o'xshagan bo'lib, uning quyidagi tugun "qovuzloq" qismlari tafovut etiladi.

1. Aktseptor qismi (tugagan qism). Bu qism turta nukleotid qoldig'idan tuzilgan bo'lib, uning oxirgi 3 ta nukleotidi (TSTA) t-RNK ning hamma xillarida bir xildir. Bunda oxirgi A nukleotidning 3-ON grunasi bo'sh bo'lib, unga aminokislotalar karboksil grunasi orqali birikadi. SHuning uchun bu qismni t-RNK ni aktseptor qabul qiluvchi qismi deyiladi.

2. Antikodon tuguni. Bu tugun asosan ettita nukleotid qoldig'i hisobiga shakllanadi. Biroq bu tugunni uchida har bir t-RNK uchun snetsifik bo'lgan uchta nukleotid qoldig'i qismi antikodon bo'ladi. t-RNK antikodon i-RNK kodoni bilan komplementarlik printsini asosida birikadi. Ana shu printsin oqsillarni asosini birlamchi qurilishini belgilovchi aminokislotalarni qay tartibda joylashishi kerakligini belgilaydi.

6. Isevdouradil tuguni. Ettita nukleotid qoldig'idan tashkil tongan bo'lib uni tarkibida psevdouridil kislotasi bo'ladi. Bu tugun t-RNK ni ribosoma bilan birikishini ta'minlaydi.

7. Digidrouridin tuguni. U odatda 8-12 nukleotid qoldig'idan tashkil tongan bo'lib, uni tarkibida albatta digidrouridin qatnashadi, tugun t-RNK ga aminokislotani snetsifik birikishini kataliz kiluvchi ferment aminoatsil t-RNK sintetaza bilan birikish uchun kerak deb taxmin qilinadi.

8. Qo'shimcha tugun, uni o'lchami nukleotid tarkibi, har xil t-RNK da turlicha bo'lib, vazifasi hali aniq emas.

t-RNK uchlamchi qurilishi tugunlarini van-der-val's bog'lari hisobiga molekula tanasi atrofida buralishi oqibatida qo'lni tirsakdan bukilgan qismi shakliga kirishidir. r-RNK ning ikkilamchi qurilishi bir zanjirning snirallashgan va ularni biriktirib turuvchi snirallashmagan qismlarining ketma-ket joylashish natijasida vujudga keladi. Uni uchlamchi qurilishi esa ribosomaning skeleti bo'lib tayoqsimon yoki tuguncha shaklida bo'ladi. Tashqi tomondan unga ribosoma oqsillari suqulib kirgan bo'ladi.

Oqsillar xususiyatini o'rganishdan bizga ma'lumki fazoviy qurilishiga ega bo'lgan yuqori molekularli moddalar ana shu qurilishni ta'minlab turgan kuchsiz bog'larni uzuvchi sabablar ta'sirida denaturatsiyaga moyidirlar. Nuklein kislotalarini ikkilamchi va uchlamchi qurilishini ta'minlab turuvchi azot asoslari orasidagi vodorod bog'lari va gidrofob bog'larni uzilishi ularni denaturatsiyasiga sabab bo'ladi. Nuklein kislotalari denaturatsiyasi ularni eritmasini 70-100°S gacha qizdirish, kuchli kislotalilik va ishqoriy muhit hosil qilish, siydikchil qo'shish oqibatlarida vujudga keladi. Bunda vodorod va gidrofob bog'larini uzilishi natijasida ularga xos bo'lgan fazoviy qurilish buziladi. DNK ning ikki zanjiri bir-biridan ajralib ketadi va ular tartibsiz kontokcha shaklini oladi. Nuklein kislotalari 260 nm to'lkin uzunligida eng yuqori ontik zichlikka ega bo'ladi, chunki bunda azot asoslari mutlok nur yutish qobiliyatiga ega bo'ladi. Denaturatsiyaga uchragan nuklein kislotalarini zichligi nativ holatdagidan yuqori bo'ladi. SHuning uchun ularni nurni yutishi ham o'rtacha 1,5 marotaba kuchlirok bo'ladi. Denaturatsiyaga uchragan nuklein kislotalarini 260 nm to'lkin uzunlikda yutish qobiliyatini bunday oshishini gipoxram effekti deyilib, undan qizdirish davomida bo'layotgan denaturatsiya jarayonini kuzatishda foydalaniladi.

#### Amaliy qism.

#### Amaliy ko'nikmalarni bajarish bo'yicha xarakat algoritmlarini namoyish etish: Achtqi gidrolizati tarkibidagi nukleonroteidlarning tarkibiy qismiga sifat reaksiyalari

№	Tadbir	Bajarilmadi	To'liq va to'g'ri bajarildi
	Gidrolizat laborant tomonidan tayyorlanadi. Nukleonroteinlar gidrolizga uchragan vaqtda – oqsil, murin va nirimidin asoslari, fosfat kislota, riboza va dezoksiriboza xosil qiladi.		
1.	Oqsil borligini biuret reaksiyasi yordamida aniqlash		
A	I'robirka olinadi	0	5
B	I'robirkaga 5 tomchi gidrolizat solinadi	0	5
V	10 tomchi biuret reaktivi solinadi	0	5
G	Eritma ko'k-binafsha rangga kiradi	0	5
2.	I'urin asoslariga "kumush ko'zgu" reaksiyasi		
A	I'robirkaga 10 tomchi gidrolizat solinadi	0	5
B	1 tomchi konts.ammiak gidrolizat ustiga solinadi	0	5
V	1% kumush nitrat eritmasi 5 tomchi solinadi	0	5
G	I'robirka shtativda qoldiriladi	0	5
3.	Riboza va dezoksiribozani aniqlash (Trommer reaksiyasi)		
A	I'robirkaga 10 tomchi gidrolizat solinadi	0	5
B	Gidrolizatga 1-3 tomchi biuret reaktivi solinadi	0	5
V	I'robirka snirtovkada qizdiriladi	0	5
G	Riboza oksidlanadi va Si <sup>++</sup> esa Si <sup>++</sup> gacha	0	5

	qaytariladi. Qo'ng'ir-qizg'ish cho'kma xosil bo'ladi		
4.	Fosfat kislotani molibden reaksiyasi yordamida aniqlash		
A	Itrobirkaga 20 tomchi molibden reaktivi solinadi	0	5
B	2-3 tomchi gidrolizat tomizilib, bir necha minut qaynatiladi	0	5
V	Eritma sariq rangga kiradi	0	5
G	Ish natijalari xulosa tarzida davtarga yoziladi	0	5

### Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi nedogogik texnologiyalar

«Dumalok stol atrofida» usuli

*Talabalarga vazifa yozilgan bir varakdan kogoz tarkatiladi. Far bir talaba shu kogozga uzining javobini yozadi va yonidagi talabaga beradi. Eamma uzining javobini yozadi, sungra muxokama kilnadi. Notugri javoblar chizib tashlanadi, tugri javoblarning soniga karab talabalrning bilimi baxolanadi*

Vazifalar namunasi

1. Nuklein kislotlar (DNK, RNK), ularning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi strukturalari haqida tushuncha bering

2. Nuklein kislotalarning turlarga xosligi, hujayra asosiy nukleotidlar haqida tushuncha bering

3. Nuklein kislotalar denaturatsiyasi va renativatsiyasi

#### Vaziyatli masalalar

1. i-RNK 4 ta tsistrondan iborat bo'lsa oqsil molekulasiining polinrentid zanjirlari soni nechtaga teng?

2. Bemor organizmida yallig'lanish jarayoni avj olmoqda. Buni to'xtatish uchun antibiotiklardan foydalaniladi. Ular qanday ta'sir ko'rsatadi?

3. Oqsil polinrentid zanjiri tarkibiga 300 ta aminokislota kirgan bo'lsa, kod soni nechtaga teng? Javobingizni asoslab bering.

4. Xujayraga tushgan kuchli kimyoviy birikma ta'sirida DNK zanjirining bir tomonidagi azotli asos tushib qolgani kuzatildi. Bunday o'zgarishni reparatsiya sistemalari tuzatish mumkinmi? Azot asoslari ikki zanjirdan barbobar tushib qolgan bo'lsachi?

#### Testlar

1. Nuklein kislotalarning organizmdagi 3 asosiy vazifasini kursating

- a) Irsiy axborotni saklash
- b) Kurilish
- c) Irsiy axborotni uzatish
- d) Irsiy axborotlar realizatsiyasi
- e) Katalitik vazifasi.

Gormonal vazifasi.

2. DNK va RNK molekulasining xar ikkoviga xos bulmish 4 birikmani kurasting.

- f) Fosfat kislota
- g) Uratsil
- h) adenin
- i) Timin
- j) Guanin
- k) Riboza
- a) TSitozin
- b) Dezoksiriboza

3. Nuklein kislotalarga kiruvchi 5 xil asosiy murin va pirimidin nukleozidlarni kursating.

- a) Adenozin
- b) adenin
- c) Guanin
- d) Guanozin
- e) TSitidin
- f) TSitozin
- g) TSitidin
- h) Uratsil
- i) Uridin
- j) Timidin

4. DNKni eng kup tutuvchi 3 ta organellani kursating.

- a) YAdro
- b) Lizosoma
- c) Mitoxondrii
- d) Xloronlast
- e) TSitonlazma
- f) Biomembranalar.

5. RNKning 3 xilini kursating.

- a) TSitonlazmatik
- b) Infarmatsion
- c) Mikrosomal
- d) Ribosomal
- e) Mitoxondrial
- f) Transnort

6. Nuklein kislotalar ayrim komponentlariga xos asosiy 3 xil funktsiyani kursating:

- g) A. kofaktorlik funktsiyasi\*
- h) B. kurilish funktsiyasi
- i) V. katabolitik funktsiyasi
- j) G. allosterik modulyator\*
- k) D. gormonal funktsiyasi
- l) E. energiyani akkumulyatsiyalovchi transformatsiyalovchi tashuvchi\*

7. Xam DNK xam RNK tarkibiga xos 3 xil murin va pirimidin asoslarini kursating:

- m) A. adenin\*
- n) B. timin
- o) V. guanin\*
- p) G. uratsil
- q) D. psevdouridin
- r) E. tsitozin\*

8. DNK va RNK molekulasining xar ikkoviga xos bulmish 4 birikmani kursating: A. fosfat kislotasi\*

- s) B. uratsil
- t) V. adenin\*
- u) G. timin
- v) D. guanin\*
- w) E. riboza
- x) J. tsitozin\*
- y) Z. dezoksiriboza

9. Nuklein kislotalar turga oid xususiyatlarga ega.

A. Bir turning turli to'qimalaridan olingan DNK...

- a. bir xil nukleotid tarkibga ega\*
- b. xar xil nukleotid tarkibga ega
- c. irsiy uzgarishlarda farkanmaydi
- d. yashash muxitiga boglik ravishda uzgargan buladi

10. Turning nukleotid tarkibi... uzgarmaydi

- a. ontogenezda
- b. ozuka mikdori va tarkibi ta'sirida
- c. iklim ta'sirida
- d. barchasi\*

11. Ontogenezda nukleotid tarkibining uzgarmasligi asosida yotuvchi sabab CHargoff koidaga tugri keladi.

- a.  $A=T, G=C, A+G=T+C, A+T=C+G^*$
- b.  $A=T, G=C, A+G \neq T+C, G/C=1$
- c.  $A+T=G+C, A=T, G=C, A/T=1$
- d. barchasi tugri

12. Ba'zi omillar ta'sirida DNK molekulasi uzgarishga uchraydi.

A. Ularni denaturatsiyasi asosida nima yotadi?

- a. DNK zanjiri snirallashining kamayishi
- b. DNK zanjirining narchalanib ketishi
- c. DNK zanjir azot asoslari orasidagi vodorod boglarining uzilishi\*
- d. DNK zanjirining erishi

13. U kanday omillar ta'sirida amalga oshirilishi mumkin?

- a. xarorat 30 S°
- b. xarorat 80-90 S° da rN ning ekstremal darajalarida\*
- c. ekzo- va endonukleazalar ta'sirida
- d. kuchli ishkor ta'sirida

14. Renaturatsiya kachon vujudga keladi?

- a. azot asoslarining komplementar tortishuvida
- b. gidrofob kuchlar
- c. t va rN ni fiziologik kursatgichlarga olib kelish
- d. barchasi tugri\*

15. Genetik kodning 4 asosiy belgisini kursating

- a) trinlet
- b) tugma
- c) uzluksiz
- d) universal
- e) tetranlet
- f) xaetda orttirilgan
- g) uzlukli
- h) organizmlar uchun universal emas

16. Translyatsiyaning 3 asosiy boskichini kursating

- a) initsiatsiya
- b) elongatsiya
- c) termieatsiya



- d) renlikatsiya
- e) transkripsiya
- f) izomerizatsiya

17. Translyatsiyaning elongatsiya boskichiga mansub 3 etarni kursating

- a) aa tRNK ning ribosoma aminoatsil kismiga birikishi
- b) aa rRNK ning sintezlanishi
- c) nentidil transferaza jaraeni
- d) aminoatsil adenilatnm sintezlanishi
- e) nentidil translokaza jaraeni
- f) nolinentid zanjirining ribosomasidan ajralib chikishi

18. Xromatin tarkibiga kiruvchi 5 tur oksillarni kursating:

- a) N1\*v)0N2A\*,g)N2B\*d)N3\*
- b) N4\*,s)N1A,e)N1V,i)N2
- c) N3A,j)N3V

19. DNKning yadroda joylashuvida nukleosomalar axamiyatga ega.

A.«nukleosoma»ga ta'rif bering

- a. nukleotidlardan iborat tana birligi
- b. yadroning asosiy struktura birligi
- c. xromatinning struktura birligi\*
- d. nuklein kislot va oksillar yigindisi

20. Uning xosil bulishi...

- a. DNKni zich taxlash uchun asos yaratadi\*
- b. gistonlarni ajratadi
- c. xujayra bulinishida ma'lumotni utkazib beradi
- d. barchasi tugri

21. Uning tarkibida:

- a. gistonli oksillar va RNK
- b. 8ta gistonli oksillar va DNK ini\*
- c. globulinli oksillarga DNK uralgan
- d. gistonli va gistonli bulmagan oksillar

22. Nukleosomalar DNK va gistonlarni uralishidan xosil buladi.

A. Gistonlarga kiradi:

- a. N1; N2; N3; N4
- b. N1; G-1; N2; G-2
- c. N1; N2A; N2V; N3; N4\*
- d. NN; NG; NF; N1; XS

23. Ularning oddiy oksillardan farkini kursating.

- a. 10% gacha alanin va glutamin
- b. 25% gacha arginin va lizin\*
- c. 50% gacha aspartat va tirozin
- d. 100% gacha fenilalanin va

lizindan iborat

24. Bu aminokislotalarning xususiyatlari?

- a. arginin va lizin (+) zaryad tutib, DNK (-) zaryad tutadi va uralishga asos yaratadi\*

- b. arginin va lizin DNK bilan vodorod bog xosil kiladi
- c. DNK giston kompleks ion boglar bilan stabilashishni ta'minlaydi
- d. DNK fakat shu

aminokislotalar bilan boglanmaydi

25. Xujayraning bulinishi, irsiy belgilarni nasldan naslga utkazishda DNK biosintezi aloxida urin tutadi.

A. Uning kaday turlari mavjud?

- a. konservativ
- b. konservativ, yarim konservativ
- c. konservativ, yarim konservativ, dismersion\*
- d. konservativ va konservativ bulmagan

26. Konservativ usul bilan DNK biosintezi kaday organizmlar uchun xos?

- a. viruslar
- b. prokariotlar\*
- c. eukariotlar
- d. usimliklar

27. Konservativ usuldagi DNK biosintezi kaday xodisa kuzatiladi?

- a. xosil bulgan kiz zanjirlari asosida butunlay yangi DNK xosil buladi
- b. kiz zanjirlarning biri ona zanjirdan 2-si yangi sintezlangan buladi
- c. ona DNK asosida yangi kiz DNK sintezlanadi va bir zanjirda fakat ona DNK 2 chi zanjirda fakat yangi sintezlangan kiz DNK xosil buladi\*
- d. ona DNK nobud bulishi bilan xarakterlanadi

28. Kodonlarning vazifasi kuyidagilar ketma-ketligini shifrlash:

- A. murin asoslarini
- B. nukleoziduchfosfatlarni
- V. nukleozidmonofosfatlarni
- G. aminokislotalar\*
- D. mirimidin asoslarini

29. Oksil biosintezi boshlanishi, bu:

- A. matritsani xosil bulishi\*
- B. initsiatsiya kompleksini xosil bulishi
- V. elongatsiya
- G. aminotsil-tRNKni xosil bulishi
- D. terminatsiya

30. Translokatsiya - bu:

- A. ribosomalarni mRNK buylab bir "kadamga" siljishi\*
- B. mRNKni bir "kadam" siljishi
- V. RNK biosintezi mustakil boskichi
- G. DNK biosintezi mustakil boskichi
- D. oksil biosintezi mustakil boskichi,

31. Oksil biosintezi kuyidagi aminokislot boshlab beradi:

- A. treonin
- B. metionin\*
- V. lizin
- G. arginin
- D. alanin

32. Prokariot xujayralar ribosomasi va uning subbirlklariga xos sedimentatsiya kursatkichlari:

- A. 80, B. 70\*, V. 60, G. 50\*, D. 40, E. 30\*

YOG'lar resintezi ichak devorida ro'y beradi. YOG'lar hazmlanishidan hosil bo'lgan yog' kislota va gliçerin o't kislotalar bilan miçellalar hosil qilib pinoçitoz yo'li yoki diffuz yo'li bilan enteroçitlarga so'riladi. Ichak devorida so'rilgan gliçerin va yog' kislotalaridan qayta trigliçeridlar sintezlanadi va bu reaksiya ketma-ketligi resintezi deb nomlanadi. Ichak epiteliy hujayralarida yog'ning resintezi asosan quyidagicha bo'ladi: dastlab yog' kislota faollashib açil-KoAga aylanadi, gliçerin 3-fosfogliçerina aylanadi. Ulardan dastlab monogliçerid, so'ng di-va trigliçeridlar hosil bo'ladi.

**β-моноацилглицерин (МАГ) Диацилглицерин (ДАГ) Триацилглицерин (ТАГ)**



Yog'liq ovqat iste'mol qilingandan so'ng 4-5 soatdan so'ng qonda yog'lar miqdori maksimal darajaga etadi va 10-12 soatdan so'ng yog'lar miqdori me'yoriy darajasiga qaytadi.

Lipoproteinlarning hosil bo'lishi va tashilishi

Yog'lar suvda va organizm suyuqliklarida erimasligi sababli, ularning transporti uchun mexanizm zarur. Bu vazifani esa lipoproteinlar bajaradi.

Odam qoni lipoproteinlarining tarkibi (%)

lipoproteinlar	oqsil	Uchayilglicerinlar	Xolesterin		Fosfolipidlar
			efiri	erkin	
Xilomikronlar	2	85	4	2	7
ZJPL	10	50	15	7	18
ZPL	25	7	40	7	21
ZYUL	45	5	5	5	25

Lipoproteinlar ichak shilliq qabati xujayralarida (xilomikronlar va ZJPL), gepatonitlarda (ZJPL va ZYUL), qon plazmasida (ZPL va ZYUL) hosil bo'ladi.

Xilomikronlar va ZJPL yog'larni qon o'zani bo'ylab tashib berishga xizmat qilsa, ZPL va ZYUL xolesterinni tashib berishga xizmat qiladi.

Ichak xujayralarida hazm mahsulotlaridan sintezlanadigan yog'lar xuddi shu xujayralarning o'zida lipoproteinlarga, asosan xilomikronlar, shuningdek ZJPL ga qo'shilib ketadi. Xilomikronlar bilan ZJPL ichak limfa kapillyarlariga, so'ngra ichak tutqich limfa tomirlari orqali ko'krak limfa yo'liga va u erdan bo'yinturuq venasi orqali umumiy qon oqimiga tushadi. Ovqat hazmi vaqtida qondagi lipoproteinlar miqdori ko'payadi, ba'zan shu qadar ko'payadiki, qon plazmasi oqish tusga kirib qoladi. Lipoproteinlar konzentrayasi ovqat eyilganidan 4-5 soatdan keyin eng yuqori darajaga etadi.

Jigarda hosil bo'ladigan yog'lar zichligi juda past lipoproteinlar (ZJPL) ga o'ralib, joylanadi, ular qonga tushadi. Jigar qonga bir kecha-kunduzda 20-50 g yog' chiqarib turadi (ZJPL tarkibida).

**Lipoproteinlipaza.** Xilomikronlar bilan ZJPL bir kecha-kunduzda 70-150 g ekzogen (ovqat bilan birga tushadigan) va endogen (jigarda sintezlanadigan) yog'larni organ va to'qimalarga taqsimlab beradi. Turli organlar kapillyarlarining endoteliysida lipoproteinlar yog'larini gidrolizlaydigan lipoproteinlipaza fermenti bor. Lipoproteinlipaza kapillyarlar ichki yuzasining glikozaminoglikanlari bilan birikkan va bevosita qonga tashilib turadi. Lipoproteinlipazaning biriktirish markazi va yog'lar gidrolizi uchun katalitik markazi bor. Gidroliz mahsulotlari xujayraga tushadi, u erda oksidlanishi yoki boshqa metabolism reaksiyalarida ishtirok etish mumkin. Xilomikronlar va ZJPL asta-sekin triayilglicerinlardan ajralib borib, ZPLga, shuningdek, ajab emaski ZYUL ga ham aylanadi. Qondagi xilomikronlar bilan ZJPL ning yarim umri 5 soat atrofida. ZPL va ZYUL jigar, ichak, yog' to'qimasi, buyrak, buyrak usti bezlari xujayralariga endoqitoz yo'li bilan yutiladi va lizosomalarda parchalanadi.

**Amaliy qismi**

**Mavzuga doir bajariladigan laborator ishlar:**

**O't kislotalariga sifat reaksiyasi (Petten-Kofer).**

No	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	Probirkaga 10-20 tomchi koncentrlangan sul'fat kislotasi solinadi	0	20
2.	O't suyuqligi bir tomchi yangi tayyorlangan shakar eritmasi bilan aralashtirilib sul'fat kislotasi ustiga probirka devori bo'yicha solinadi.	0	20
3.	Eritmalar oralig'ida (bo'linish chegarasida) qizil-binafsha halqa hosil bo'lishi kuzatiladi (bu o't kislotasi cho'kmasidir).	0	20
4.	Olingan natijalar taxlili va xulosa.	0	40
	Jami		100

**2.O't kislotalarning oshqozon osti bezi lipaza fermenti faolligiga ta'siri.**

№	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	3ta probirka tayyorlanadi	0	10
2.	Ularning 2tasi tekshiruv, 1tasi nazorat tajriba uchun ishlatiladi. Probirkalarga suyuqliklar jadvalga binoan solinadi.	0	20
3.	Tayyorlangan inkubation aralashma suyuqliklari yaxshilab aralastiriladi.	0	10
4.	Har qaysi probirkadan 2 ml aralashma titrlash uchun stakanchalarga olinadi.	0	10
5.	Stakanchalarga 1-2 tomchi fenolftalien eritmasi qo'shib och pushti rang hosil bo'lguncha natriy gidroksid eritmasida titrlanadi.	0	10
6.	Qolgan aralashma 38-40°Sli termostatga joylashtiriladi va har 15, 30, 90 daqiqada aralashmalardan 2 ml stakanga olinib, natriy gidroksid eritmasida titrlanadi. Titrlash vaqti va sarflangan natriy gidroksid miqdori 2-jadvalga yoziladi.	0	10
7.	Lipazaning ta'siri boshlanishidan oldin olingan birinchi titrlashning natijasi keyingi titrlash natijasidan ayiriladi.	0	10
8.	Olingan natijalar asosida egri chiziq chiziladi, absyissa o'qiga vaqt (daqiq), ordinata o'qiga esa sarflangan natriy gidroksid miqdori bilan ifodalangan lipaza faolligi keltiriladi. O't ishtirokida va o't suyuqligisiz aniqlangan lipaza faolliklari solishtiriladi.	0	10
9.	Olingan natijalar taxlili va xulosa.	0	10
	Jami		100

1-jadval

Suyuqlik aralashmalari	1-tajriba	2-tajriba	Nazorat
1:10 suyultirilgan sut, ml	10,0	10,0	10,0
Me'da osti bezining gliuzerinli eritmasi, ml	1,0	1,0	1,0
O't suyuqligi, ml	-	1,0	1,0
Distillangan suv, ml	1,0	-	1,0

2 -jadval

Inkubatsiya vaqti, daqiqalarda	Titrlash uchun sarflangan natriy gidroksid, ml		
	1-tekshiruv o't suyuqligisiz	2-tekshiruv o't suyuqligi bilan	Nazorat
15			
30			
90			

**Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar:**

**«Miya xujumi»**

*Syenarioy:* O'rta bitta mavzu tashlanadi. Talabalar shu mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Kotiba tayinlanadi. O'xshash fikrlar birlashtiriladi. 5-7 daqiq vaqt beriladi. Oxirida eng qiziqarli fikrlar alohida ajratiladi va baxolanadi. YOmon baxo berilmaydi. Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va talabada

**Interaktiv usul savollari:**

34. Lipidlarni sinflanishi.
35. Organizmda lipidlarning manbaalari.
36. Lipidlarni funktsiyalari.
37. YOsh bolalarda va kattalarda oshqozon-ichak traktida lipidlarni xazm bo'lishi, fermentlar.
38. Hazm bo'lishida o'tning ahamiyati. O't kislotalarni asosiy funktsiyalari.
39. Steatoreya rivojlanish sabablari.
40. Lipoproteinlarni turlari, tuzilishi, xosil bo'lishi.

41. Lipoproteinlarning funktsiyalari, aterogen va antiaterogen lipoproteinlar.
42. Xilomikronlar va ZJPL biosintezi. Lipoproteinlipaza ta'sir etish mexanizmi.
43. Xilomikronemiya, V-lipoproteinemiya sabablari.

### Vaziyatli masalalar:

1. Nahorda bemordan tekshiruv uchun qon olingan. Tekshirish natijasida triaqliglyceridning miqdori 3,0 mmol/l ekanligi aniqlangan. Xolesterin miqdori meyoriy darajada. Qon zardobi loyqa, muzlatgichda saqlanganda yuza qabatida yog' kislotalari to'planadi.

A) Lipidlar almashinuvida qanday o'zgarishlar mavjudligini tushunish uchun lipoproteidlarning qaysi fraksiyasini aniqlash kerak?

B) Lipidlar almashinuvida bunday o'zgarishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablarni ko'rsating.

### Testlar

1. Ut kislotasining vazifasi
  - egllarni emulsiyalash\$
  - lipazani faollash\$
  - baktereoid ta'siri\$
  - xolesterin surilishini ta'minlaydi\$
  - eg kislotalari surilishini ta'minlaydi#
2. Eglarning transport shakllari
  - xilomikronlar\$
  - kichik zinchlikdagi lipoproteidlar\$
  - juda kichik zichligdagi lipoproteidlar\$
  - yukori zichlikdagi lipoproteidlar\$
  - giperlipoproteidlar#
3. Xilomikronlar tarkibidagi triglyceridlarni parchalashini
  - katalizlaydi
  - lipoproteidlipaza\$
  - fosforilaza\$
  - monoglyceridlipaza\$
  - diglyceridlipaza\$
  - fosfolipaza#
4. Kaysi modda steroid tabiatga ega emas?
  - xolesterol\$
  - vitamin D3\$
  - ut kislotalar\$
  - jinsiy gormonlar\$
  - vitamin A#
5. Inson organizmi uchun egga bulgan sutkalik talabni kursating:
  - 150-200 gr\$ 80-90 gr\$ 450-500\$ 110-120\$ 50-60#
6. Tabiatda eng kup tarkalgan va ovkat bilan eng kup mikdorda kiradi
  - gan lipidlarni kursating:
  - triaqliglycerollar\$
  - xolesterin\$
  - glikolipidlar\$
  - fosfolipidlar\$
  - sfgolipidlar#
7. Triaqliglycerollarning organizmdagi asosiy vazifasi nimadan iborat?
  - xaroratni saklash\$
  - energetik\$
  - ximoya\$
  - erituvchilik\$
  - plastik#
8. Lipidlarning transport shakllariga kiradi:
  - XM, 3JPLP, 3PLP, 3YULP\*
  - miuellalar 3JPLP, 3PLP, 3YULP
  - 3PLP, 3YULP, XM
  - miuellalap, XM

9. O't kislotalar ishtirokida qanday jarayonlar kechadi:

- lipazning faollanishi\*
- lipoproteidlipazaning faollanishi
- glycerinni so'rilishi
- qisqa uglerod zanjirli yog' kislotalarini so'rilishi

10. Almashtirib bulmaydigan yog kislotalar:

- \*linolat, linolenat, araxidonat
- stearin, palmitat, moy
- araxidonat, gidroksimoy, mevalonat
- palmitat, stearinat, linolenat

11. Miuellalar xosil buladi:

- \*ichak bushligida
- ichak devorida
- kukrak limfa yulida

upkada

12. Ut kislotalar ishtirokida qanday jarayonlar kechadi:

- \*lipazning faollanishi
- lipoproteidlipazaning faollanishi
- glycerinni surilishi

kiska uglerod zanjirli yog kislotalarini surilishi

13. YOG'larning xazmlanishi va so'rilishida o't kislotalar muxim rol o'ynaydi.

- A. yog'larni parchalaydi
- B. yog' kislotalarni neytrallaydi
- V. ichakka tushgan yog'larni emulsiya qiladi\*
- G. ichakda yog'lar parchalanishini tormozlaydi
- D. ichakda yog'lar emulsiyalanishini tormozlaydi

14. YOG'larning xazmlanishi va so'rilishida o't kislotalar muxim rol o'ynaydi.

- A. yog'larga ta'sir ko'rsatmaydi
- B. ciklopentanopergidrofenantrenlarga ta'sir etadi
- V. lipoproteidlipazani ingibirlaydi
- G. pankreatik lipazani faollashtiradi\*
- D. tripsinni faollashtiradi

15. YOG'larning xazmlanishi va so'rilishida o't kislotalar muxim rol o'ynaydi.

- A. pepsinni faollashtiradi
- B. glikozaminglikanlar xazmlanishiga ta'sir etadi
- V. yog' kislotalar va monoglyceridlar so'rilishida ishtirok etadi\*
- G. uglevodlarning ichakda so'rilishini ta'minlaydi
- D. oqsillar xazmlanishiga ta'sir ko'rsatadi

16. Ichakda fosfolipidlar xazmlanishida fosfolipaza A1 dan tashqari yana 3 ferment ishtirok etadi.

- I. Ulardan biri:
  - A. fosfataza
  - B. lipaza
  - V. monoglyceridlipaza
  - G. fosfolipaza A2\*

D. digliçeridlipaza  
 17. Ichakda fosfolipidlar xazmlanishida fosfolipaza A1 dan tashqari yana 3 ferment ishtirok etadi.  
 II. Ikkinchisi:  
 A. fosfolipaza S\*B. fosfolipaza A1  
 V. fosfolipaza A2G. fosfolipaza K  
 D. peptidaza  
 18. Ichakda fosfolipidlar xazmlanishida fosfolipaza A1 dan tashqari yana 3 ferment ishtirok etadi.  
 III. Uchinchisi:  
 A. fosfolipaza KB. fosfolipaza D\*  
 V. karboksipeptidazaG. proteinkinaza  
 D. fosfataza  
 19. Fosfogliçeridlar tarkibiga gliçerindan tashqari yana 3 ta birikma kiradi.  
 I. SHulardan birinchisi  
 A. aminokislota B. oqsil V. glevod  
 G. yog' kislotalar\*D. nukleoprotein  
 20. Fosfogliçeridlar tarkibiga gliçerindan tashqari yana 3 ta birikma kiradi.  
 II. Ikkinchisi  
 A. fosfat kislota\* B. nuklein kislota  
 V. aminokislota G. xlorid kislota  
 D. sirka kislota  
 21. Fosfogliçeridlar tarkibiga gliçerindan tashqari yana 3 ta birikma kiradi.  
 III. Uchinchisi:  
 A. nukleotidlar B. azot tutuvchi birikmalar\*  
 V. nuklein kislota G. aminokislota  
 D. fosfat kislota  
 22. FL gidrolizida ishtirok etuvchi fermentlar:  
 \*fosfolipazlar A1, A2, S, D  
 fosforilazalar  
 fosfatazalar  
 lipoproteidlipazalar  
 23. Ut kislotalari vazifasiga nima kirmaydi?  
 A) Pankreatik lipazani aktivlashtirish  
 B) YOglarni emulgirash  
 V) Oshkozonda XCl paydo bulishini kuchaytirish  
 G) YOg kislotalari bilan komplekslar yaratish  
 D) YOg kislotalarining surilishida ishtirok etish  
 24. Eng anik javobni tanlang: ovkat yoglarining funkuiyasi kaday?

A) Energiya manbai  
 B) Lipidlarning sintezi uchun uglerod atomlarini utkazuvchi  
 V) YOg kislotalarining manbai  
 G) YOgda eruvchi lipidlarning surilishda ishtirok etishi  
 D) Xammasi tugri  
 25. 1 g yogning oksidlanishida kancha kkal energiya xosil buladi?  
 A) 4,1B) 9,3V) 5,8G) 1,0D) 7,3  
 26. YArim tuyinmagan yog kislotalari:  
 A) OleinB) Stearin  
 V) Moy G) AraxidonD) Pal'mitin  
 27. Uchgliçeridlarning asosiy funkuiyasi:  
 A) PlastikB) EnergikV) Ximoya  
 G) TermoregulyaiiyaD) Eruvchanlik  
 28. Steroidlarga birikmalarga kiradi.  
 A. gangliozidlar  
 B. ciklopentanopergidrofenantrenlar  
 V. buyrak usti bezining gormonlari\*  
 G. kortikotropinD. gonadotropin  
 29. Steroidlarga birikmalarga kiradi..  
 A. kortikotropinB. gangliozidlar  
 V. jinsiy gormonlar\*  
 G. tireotropin D. lipotropinlar  
 30. Steroidlarga birikmalarga kiradi..  
 A. fosfolipidlarB. glikolipidlar  
 V. araxidon kislotsiG. o't kislotalari \*  
 D. gangliozidlar  
 31. Pankreatik lipazani faollaydi.  
 Ut kislota  
 Enterokinaza  
 Xlorid kislota  
 Ut pigmentlari  
 Tripsin.  
 32. YOglarning transport shakllari  
 Xilomikronlar  
 Kichik zichlikdagi lipoproteinlar  
 Juda kichik zichlikdagi lipoproteinlar  
 yukori zichlikdagi lipoproteinlar  
 giperlipoproteinlar

### Joriy baholash mezonlari

№	O'zlashtirish (%) va ballarda	Talabning bilim darajasi
1.	86-100	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'liq javob berdi. Lipidlarning tuzilishini va vazifasini biladi. Ahamiyati haqida mustaqil va mantiqan fikrlay oladi. Situaçion (vaziyatli) savollarga o'qituvchi yordamida javob beradi, ularning mohiyatini tushunadi. Interaktiv o'yinlarda aktiv va ijodiy qatnashadi. Ko'rgazmali zamonaviy informativ qo'llanmalarni yoki oxirgi adabiyotlardan yoki 7-10tagacha internet ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yuqori sifatli referatlarni tayyorlay oladi. Laboratoriya ishlarini bajarishda olgan bilimlarini qo'llaydi.
2.	71-85	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'liq javob berdi. Lipidlarning tuzilishi va vazifasini, hazmlanishi va so'rilishini biladi. Situaçion savollarga javob berishda kiynaladi. Interaktiv o'yinlarda aktiv va ijodiy qatnashadi. Ko'rgazmali zamonaviy informativ qo'llanmalarni yoki 3-4 tagacha oxirgi adabiyotlardan yoki internet ma'lumotlarni o'z ichiga olgan referatlarni tayyorlay oladi. Laboratoriya ishlarini bajarishni biladi.



3	56-70	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'liq javob bermadi. Situation (vaziyatli) savollarga javob berishda qiynaladi. Interaktiv o'yinlarda sust qatnashadi. Lipidlarning qurilishini biladi. Axamiyati haqida fikrlay olmaydi. Lipidlarning hazmlanishi va so'rilishida o't kislotalarning ahamiyatini ko'rsatishda qiynaladi.
---	-------	--

#### Nazorat uchun savollar

1. Ovqat tarkibidagi va inson organizmidagi lipidlarni ko'rsating.
2. Lipidlar qanday tasniflanadi?
3. Lipidlarning hazmlanishi oshqozon-ichak traktining asosan qaysi qismida kechadi?
4. YOg'larning hazmlanishida o't kislotalari qanday ahamiyatga ega?
5. YOg'larning so'rilishi qanday sodir bo'ladi?
6. Lipoproteinlar qanday sinflarga bo'linadi?
7. Lipoproteinlipaza qanday ahamiyatga ega?

#### Tarkatma materiallar

Testlar, vaziyatli masalalar

#### Adabiyotlar

##### Asosiy

1. Berezov T.T., Korovkin B.F. Biologicheskaya ximiya, 2004
2. Nikolaev A.YA. Biologicheskaya ximiya, 2004
3. Kushmanova O.D., Ivchenko G.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1983
4. Aleynikova T.L., Rubцова G.V. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1988
5. Sultanov R.G., Xolmuxamedova N.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii , 1996(uzb)
6. Sabirova R.A., Abrorov A.A., Inoytova F.H., Aripov A.N. Biologik kimyo, 2007.

##### Qo'shimcha

1. Lenindjer A. Bioximiya , 1,2,3 tom 1990.
2. Meñler D. Bioximiya , 1,2,3 tom 1980
3. Strayer L. Bioximiya , 1,2,3 tom 1985
4. Stroeв E. A. Bioximiya .1986
5. Uayt i dr. Bioximiya .1981
6. Sultanov R G. , Ibragimov U.K. Sbornik bioximicheskix pokazateley organizma cheloveka, 1995
7. Xorst A. Molekulyarnaya osnovy patogeneza bolezney. 1982
8. Ко́льман YA., Rem K. - G.Naglyadnaya bioximiya, 2000
9. Informacion texnik vositalar: kinofil'mlar, elektron darslik, komp'yuter, kodoskop, slaydlar, tarqatma materiallar.
10. [www.tma.uzsi.net](http://www.tma.uzsi.net).
11. Bioximiya. Kratkiy kurs s uprajneniyami i zadachami. Severin E.S., Nikolaev A.YA, 2002.
12. Bioximiya. Severin E.S., 2004.

#### Mavzu: Lipidlarning oralik almashinuvi

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -4 soat	Talabalar soni : 10-13 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	1.YOg'larni to'planishi, safarbarlanishi, boshqarilishi. 2.Uglevodlardan yog'larning hosil bo'lishi. 3.YOg' kislotalarining tashilishi, oksidlanishi, ahamiyati. 4.Gliçerinning oksidlanishi. 5.YOg' kislotalarning sintezi. 6.YOg' kislotalar almashinuvining idora etilishi.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	lipid metabolizmdagi asosiy jaraenlariga tushuncha berish;Eglarni tuplanib borish va safarbar etilishi yullari to'grisida tushuncha berish;Eg kislotalarini biosintez reaksiyalarini tushuntirib berish;Fosfolipidlarni va glikolipidlarni, membrana strukturaviy komponentlarini axamiyati xakida tushuncha berish; xujayra ichi lipoliz mexanizmi xakida bilim berish;lipidlarni oralik almashinuvida ishtirok etuvchi fermentlarining axamiyatini tushuntirib berish

Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, amaliy mashg'ulot, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, amaliy mashg'ulot, laboratoriya jixozlari, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat: savol-javob.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1. Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish 3. Davomatni nazorat kilish	
1. Mavzuga kirish (20 daqiqa)	1. Mavzu buyicha ukuv mazmunini tayyorlash 2. Amaliy mashg'ulot taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Vaziyatli masalalar echish 4. Test echish	
2 – asosiy bosqich (130 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruxlarga bulib mavzu buyicha savollar beradi. 2. Kurgazmali plakatlardan foydalanadi. 3. Slaydalar, multimediyalarni namoyish qilish 4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni ragbatlantiradi va umumiy baxolaydi. 5. Laboratoriya ishi bajaradi.	Kichik guruxlarga bulinadilar Tomosha kiladilar. Katnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar.
36- yakuniy bosqich (20 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi


### Nazariy kism

Lipidlar, glikogen kabi, asosiy zahira energetik material hisoblanadi. Ular davomiy va sifatli zahira energetik material hisoblanadi. YOGlar zahirasi ochlikda 5-7 haftagacha organizmni energiya bilan ta'minlab turadi, glikogen esa atigi 1 sutkaga etadi. Agar organizmga tushaetgan eglar organizm e'tijidan ortik bo'lsa, ular apidoqitlarda zahiralanadi. SHu bilan birga tushaetgan uglevodlarning taxminan 30% eglar sifatida zahiralanishi mumkin lipidlarni tashilishi:


- xilomikronlar – ular ekzogen eglarni tashiydi;
- ZJPLP – ular jigarda glyukozadan sintezlangan endogen trigliueridlarni tashiydi;
- Eg xujayralarda glyukozadan sintezlanishi mumkin;

Birinchi va ikkinchi xollarda lipoproteinlar tarkibidagi lipidlar LP-lipaza ta'sirida gidrolizlanib, xujayraga eg kislotalar kirib uchirilgiiueridlar sintezida ishtirok etadi. Bunda eg kislotalar KoA bilan faollanib, tioefirlar hisoblanadi, s'ng gliuerolfasfat bilan birikadi.

T'kimalarda trigliueridlar gliuerin va eg kislotalardan sintezlanadi. Dastlab gliuerolkinaza ta'sirida gliuerin ATF evaziga fosforillanadi va gliuerol-3-fosfat hosil bo'ladi.




Eg t'kimasi va muskullarda, gliuerolkinaza fermentining juda past faolligi tufayli gliuerol-3-fosfatni hisoblanishi asosan glikoliz glikogenoliz reaksiyalari bilan bogliq. SHu anikki glyukozaning glikolitik parchalanishi jaraenida dioksiacetofosfat hisoblanib, s'ngra mitoplazmada NADga bogliq gliuerolfosfatdegidrogenaza ishtirokida dioksiacetofosfatdan gliuerol-3-fosfat hisoblanadi.



Demak, uchañilgliçeridlar sintezi uchun albatta glyukoza talab kilinadi, chunki glikolizda dioksiacetofosfat 3osil b°ladi. Insulin eg 3ujayralar membranasi glyukoza uchun (metabolitlar uchun) °tkazuvchanligini oshirib, uchañilgliçeridlar sintezini kuchaytiradi.

Keyingi boskichda gliçerol-3-fosfat ikki molekula faol eg kislotasi (açil-KoA) bilan birikib fosfatid kislotasi 3osil b°ladi. Undan fosfatidatfosfataza ta'sirida fosfat kislotasi koldigi ajralishi natijasida 3osil b°lgan digliçeridga yana bir molekula açil-KoA birikishi natijasida trigliçerid 3osil b°ladi.

**DEMO**



Ўjayradagi eglarning parchalanishi.


Ўjayra ichidagi eglarning va shu jumladan adipocitlardagi eglarning parchalanishi gormonal boshkaruviga ega. Adrenalin (3ayajonlanish gormoni), glyukagon va shunga °xshash gormonlar 3ujayra yuzasidagi receptor bilan boglanadi. Natijada gormon-receptor kompleksi 3osil b°ladi. Receptor gormon bilan birikib uni molekulasida konformacion °zgarishga sezuvchan b°lib, faol shaklga °tadi. Faollangan adenilatcikliklaza 3ujayra ichida ATF molekulasidan ciklik AMP (цAMP) 3osil kiladi. цAMP 3ujayra ichida erkin xarakatlanuvchi b°lganligi tufayli proteinkinaza fermentini faollaydi. Bu ferment °z navbatida 3ujayra ichidagi trigliçeridlipaza fermentini fosforillaydi va faol shaklga °tkazadi. Ўjayra ichidagi eglar gliçerin va eg kislotalargacha parchalanadi.

Gliçerin suvda eruvchi modda b°lgani uchun kon orkali jigarga boradi va glyukoneogenezda ishtirok etadi. Eg kislotalar esa konda albuminlar bilan kompleksi 3osil kilib turli a'zo va t°kimalarga borib oksidlanadi.


Adipocit membranalarida katexolamin va insulin uchun 2xil receptorlar mavjud. Lipolizni kuchaytiruvchi omillarga kiradi: glyukagon, tiroksin, adrenalin, kortizol, STG, AKTG, gormonlari, shuningdek stress, sovuq, mexanik ish, ochlik. Lipolizni pasaytiruvchi omillar: prostaglandinlar, nikotin kislotasi, insulin.

**YOG' KISLOTALARINING OKSIDLANISHI** mitoxondriyalarda kechadi, 1904 yilda Knop tomonidan ochilgan va yog' kislotalarining β-oksidlanishi deb ataladi, chunki oksidlanishga yog' molekulasidagi β-uglerod atomi uchraydi va har bir ciklda bir molekula açetil-KoA ajralib chiqadi.


1. YOG' kislotalarning faollanishi xujayra citoplazmasida açil-KoA-sintetaza fermenti yordamida Mg<sup>2+</sup> ionlari ishtirokida quyidagi sxema bo'yicha boradi:



2) Fallashgan yog' kislotalar (açil-KoA) mitoxondriya ichiga karnitin yordamida o'tkaziladi



Açil-KoA mitoxondriya membranasi orqali karnitin bilan o'tkaziladi, bundan keyin matriksdagi KoA-SH bilan almashinadi.




Hosil bo'lgan acil-KoA 2 ta uglerod atomiga qisqaradi va yana  $\beta$ -oksidlanishga uchraydi. Bu jarayon yog' kislotalari to'liq acetyl-KoA gacha parchalanganuncha boradi:

Oksidlanish davrida hosil bo'lgan  $FADH_2$  va  $NADH_2$  nafas zanjiriga uzatiladi, acetyl-KoA esa –Krebs tsikliga. Bunda hosil bo'lgan ATF miqdorini quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

a) toq uglerodli yog' kislotalarining oksidlanishi. Ularning oksidlanishida oxirgi bosqichda 1 molekula acetyl-KoA va 1 molekula propionil-KoA hosil bo'ladi, u keyin sukcinil-KoA ga aylanadi:

**SN3SN2-CO-S-KoA**

**propionil-KoA-karboksilaza**



b) qo'sh bog'li yog' kislotalarning oksidlanishi davrida qo'sh bog' enolizatsiya bosqichiga to'g'ri kelsa, oksidlanish to'yingan yog' kislotalarning oksidlanishi bilan bir xil kechadi. Agarda qo'sh bog' TRANS- holatida va o'z joyida bo'lmasa, unda ferment  $\square^{3,4}\text{-nis-}\square^{2,3}\text{-trans-enoil-KoA-izomeraza}$  ta'sir etadi, u qo'sh bog' joylanishini siljitatadi va uning konfiguratsiyasini o'zgartiradi.

To'yinmagan	yog'	kislotalarning	oksidlanish	tezligi	to'yinganlardan	tezroq:
STEARIN	(C18, barcha)	bog'lar	to'yingan)	–nisbiy	tezlik	– 1
OLEIN	(S18,		1)		–	11
LINOL	(S18,		2)		–	114
LINOLEN	(S18,		3)		–	170
ARAXIDON (S20, 4) – 200						


**YOg' kislotalar oksidlanishining balansi.** Uglerod atomi  $S=n$  bo'lgan yog' kislotalari 1 molekulasiga  $17(n/2) - 6$  molekul ATF hosil bo'ladi (palmitinovaya,  $n=16$ ), daet 130 molekul ATF. YOg' kislotalarning energetik qiymati (45 molekula ATF kapron kislota oksidlanganda,  $S=6$ ) uglevodlarga nisbatan (glyukoza oksidlanganda 38 mol ATF) yuqori. Lekin, acetyl-KoA molekulari Krebs tsiklida oksidlanganida etarli darajada oksaloacetat talab etiladi, uning manbai bo'lib uglevodlar hisoblanadi. SHunday qilib, yog'lar uglevodlar alangasida yonadi.

#### Jigarda eg kislotalarni sintezi.

Eg kislotalarni bosh eki asosiy sintezi  $^3$ ujayralarning  $^1$ itozolida  $^0$ tadi, kurilish materiali b $^0$ lib esa, mitoxondriyadan kelib k $^0$ shiluvchi acetyl-KoA  $^3$ isoblanadi. Acetyl-KoA eg kislotalarni  $\beta$ -oksidlanishi va piruvatning oksidlovchi dekarboksillanishi jaraenida mitoxondriyalarda  $^3$ osil b $^0$ ladi.

Acetyl-KoA - mitoxondrial membrana orkali  $^1$ itozolga o'ta olmaydi. SHuning uchun acetyl-KoA  $^1$ itozolga o'tishi uchun oksaloacetat bilan birikadi.

$^1$ itozolda nitrat NS-KoA va ATF bilan birikadi va oksaloacetat va acetyl-KoA ga parchalanadi. Oksaloacetat malatgacha qaytariladi.




Mitoxondriyalarda asosan eg kislotalarni zanjiri uzayadi. SHunday qilib  $^1$ itozolda asosan palmitin kislotalari sintezlanadi, ekzogen eg kislotalardan eki palmitindan mitoxondriyalarda esa 18,20,22 uglerodli atomlarga ega

b<sup>o</sup>lgan kislotalar 3<sup>o</sup>sil b<sup>o</sup>ladi. Eg kislotalarni va eglarni biosintezini kuchayishi uglevodli ovkatlanishdan keyin kuzatiladi. Eg kislotalarni sintezi uchun zarur b<sup>o</sup>lgan a<sup>u</sup>etil koldiklari  $\dot{u}$ tozolga oksaloa<sup>u</sup>etat erdamida mitoxondriyadan kelib tushadi.

Q<sup>u</sup>tratti kon<sup>u</sup>entra<sup>u</sup>iyasi oshib ketishi a<sup>u</sup>etil-KoA-karboksilazani aktivlashtiradi, bu malonil-KoAni kon<sup>u</sup>entra<sup>u</sup>iyasini kuchayshiga va eg kislotalarni sintezini boshlanishiga olib keladi.

Malonil-KoA kon<sup>u</sup>entra<sup>u</sup>iyasini kamayishi mitoxondriyaga eg kislotalar uchun y<sup>o</sup>l ochib beradi, bunda ularni oksillanishi va keton tanachalarga aylanishi boshlanadi.

Eg kislotalar sintetazasi deb ataladigan mul<sup>u</sup>tiferment kompleks, a<sup>u</sup>il tashuvchi oksil (ATO) boglangan 6ta fermentdan iborat, koferment sifatida NADFN<sub>2</sub> saqlaydi. NADFN<sub>2</sub> 50%ga pentozofosfat  $\dot{u}$ ikli reaksiyalarda 3<sup>o</sup>sil b<sup>o</sup>ladi, kisman boshqa reaksiyalarda, masalan:




A<sup>u</sup>iltashuvchi oqsil pal<sup>u</sup>mitatsintetaza kompleksi markazida joylashga va 2 SN-gruppaga ega:

1. markaziy, 4-fosfopantotenat bilan bog'langan (malonil-KoAni bog'laydi).
2. Periferik,  $\dot{u}$ istein qoldig'iga tegishli (a<sup>u</sup>etil-KoAni bog'laydi).

YOg' kislotalar sintezidagi birinchi reaksiya – bu a<sup>u</sup>etil-SoAning karboksillanishi va malonil-SoAga aylanishi. Reaksiya a<sup>u</sup>etil-SoA-karboksilaza bilan katalizlanadi, uning kofermenti biotin. So'ngra 6 reaksiyadan iborat  $\dot{u}$ ikllar qaytariladi. Bu jarayonni pal<sup>u</sup>mitatsintetaza kompleksi – polifunk<sup>u</sup>ional oqsil boshqaradi – u ferment bo'lib, bitta polipeptid zanjirga ega, ikki domenda joylashga. Ikkala domen o'z tarkibida aktiv markazlarga ega, ular galma-gal  $\dot{u}$ ikldagi reaksiyalarni katalizlaydi. A<sup>u</sup>il<sup>u</sup> guruhlari pantotenat kislota saqlovchi domenlardan biri bilan bog'lanadi, malonil guruhlari boshqa domendagi  $\dot{u}$ istein qoldig'i bilan bog'lanadi. Jarayon ini<sup>u</sup>ia<sup>u</sup>iyasidan keyin kondensa<sup>u</sup>iya reaksiyasi yordamida  $\beta$ -ketoa<sup>u</sup>il-ferment ishtirokida, uzayuvchi yog' kislota molekulasini hosil bo'ladi, pal<sup>u</sup>mitat sintetaza domenlarining biri bilan tioefir bog'i yordamida ushlanib turadi. Kovalent bog'langan substrat galma-gal fermentning aktiv markazi bilan bog'lanib, tegishli o'zgarishlarga uchraydi. Sintezning navbatdagi  $\dot{u}$ ikli yangi molekula malonil-SoAning domen faol markazidagi SH-guruhi bilan bog'lanishidan boshlanadi. 6 reaksiyadan iborat  $\dot{u}$ ikl zanjirdagi uglerod atomlari sonini 2ga uzaytiradi. Zanjirdagi uglerod atomlari soni 16ga etganda tioefir bog'i gidrolizlanadi va pal<sup>u</sup>mitat ajralib chiqadi.

Pal<sup>u</sup>mitat sintezi tenglamasi (7  $\dot{u}$ ikl):



Qaytarilish reaksiyalari zarur bo'lgan NADPX glyukozaning pentozofosfat yo'li bilan oksidlanishida hosil bo'ladi. Ko'pchilik yog' kislotalar pal<sup>u</sup>mitatga nisbatan uzun uglevodorod zanjirga ega, to'yinmagan bog'lar saqlashi mumkin. Demak, ular sintezi uchun elonga<sup>u</sup>iya va desatura<sup>u</sup>iya fermentlarining ishtiroki zarur. Bu fermentlarning faolligi endoplazmatik to'ra bilan bog'liq, ba'zida mitoxondriyada ham kechishi mumkin.

**Jigarda yog' kislotalar sintezi va oksidlanishining boshqarilishi.** YOg' kislotalar sintezining ular oksidlanishiga almashinuvi hazmlanish davrida postabsorbtiv holatga almashinishga bog'liq bo'ladi va boshqaruv mexanizmlari yordamida amalga oshiriladi. Malonil-SoAni hosil bo'lish reaksiyasi yog' kislotalar sintezi va oksidlanishidagi kalit reaksiya hisoblanadi. Hazmlanish davrida  $\dot{u}$ tozolda q<sup>u</sup>tratti miqdori ko'payadi, u mitoxondriyadan a<sup>u</sup>etil qoldiqlarini o'tkazuvchisi hisoblanadi. Q<sup>u</sup>tratti a<sup>u</sup>etil-SoA-karboksilazaning allosterik aktivatori, malonil-SoA sintezini tezlashtiradi va, natijada, yog' kislotalar sintezini. Malonil-SoA o'z navbatida yog' kislotalarni  $\dot{u}$ tozoldan mitoxondriyaga o'tkazilishida qatnashuvchi a<sup>u</sup>il-karnitil-transferazani ingibirlaydi. SHunday qilib, hazmlanish davrida malonil-SoA miqdorining ko'payishi yog' kislotalar sintezini "boshlaydi" va ularning  $\beta$  – oksidlanishi, keton tanachalar sintezini "to'xtatadi". A<sup>u</sup>etil-SoA-karboksilaza uzun zanjirli a<sup>u</sup>il-SoA ta'sirida ham ingibirlanadi, ular to'planganda, eterifikasiya reaksiyasiga kirib ulgurmaydi. Bu oxirgi mahsulot bilan ingibirlanishga misol bo'ladi.

Jigarda yog' kislotalar metabolizmining allosterik boshqarilishi

Allosterik boshqarishdan tashqari a<sup>u</sup>etil-SoA-karboksilaza faolligi gormonlar yordamida ham nazorat qilinadi. Adrenalin va glyukagon sAMR miqdorini va proteinkinaza faolligini oshirish orqali a<sup>u</sup>etil-SoA-karboksilazani fosforillaydi va faol bo'lmagan holatga o'tkazadi. Bu gormonlar fosforilirlanish yo'li bilan ham yog' to'qimasidagi lipazani faol holatga o'tkazadi. Natijada, yog' kislotalar sintezi to'xtaydi, trigliueridlar mobiliza<sup>u</sup>iyasi, yog' kislotalar oksidlanishi va keton tanachalar sintezi boshlanadi.

#### Amaliy qismi

#### Mavzuga doir bajariladigan laborator ishlar:

#### KON ZARDOBIDAGI ERKIN EF KISLOTALARNI ANIKLASH

Kon tarkibida 640—880 mmol/l (640—880 mkg ekv/l) erkin yog kislotalari buladi. YAngi tugilgan chakaloklar organizmidagi yoglar (trian<sup>u</sup>igliuerid) tarkibida kupincha pal<sup>u</sup>mitin va pal<sup>u</sup>mitoolein kislota buladi, linolen kislota esa kamrok buladi. SHu bilan katta yoshdagi odam yoglaridan farqlanadi. CHakaloklar kon zardobida bir yoshdan oshgan bolalar va kattalarga nisbatan erkin yog kislotalar mikdori kuprok buladi. Bu esa ulardagi yoglarning parchalanishi va organizmning energiyaga bulgan ex.tiyojini kondiradi.

CHakalshushr va katta yoshdagi odam organizmidagi yoglarning tarkibi 1 va xususiyati		I	
YOR tarkibi	CHakaloklarda	Kattalarda	Olein Pal'mitin
kislota	68,0	90,0	
kislota	29,0	8,0	
Stearin kislota	3,0		2,0
g YOrlarning erish nuktasi °S	43		17,5
Yod mikdori	43>4		65 Q

K, andli diabet kasalligida, organizmga adrenal yuborilgandan keyin va uzok muddat och kolganda erkin yog kislotalar mikdori me'yoridan ortik bulishi kuzatiladi. Erkin yog kislotalar albuminlar bilan boglangan x,olda tashiladi. K,onda glyukoza va insulin mikdori ortganda u kamayadi.

**Tekshiriluvchi material:** kon zardobi.

**Reaktivlar:** pal'mitin kislotaning doimiy eritmasi (25,6 mg<sup>l</sup> pal'mitin kislota xloroformda eritilib, hajmi 100 ml gacha etkaziladi. 1 ml eritma tarkibida 0,256 mg pal'mitin kislota buladi) xloroform, mis reaktivi (reaktivlarning tayyorlanishiga karang) natriy dietiltiokarbomatniig (butanolda xaydalgan) 0,1% li eritmasi.

**Kerakli anjomlar:** sentrifuga, FEK va kyuvetalar, koikogi zich berkiladigan probirkalar, sentrifuga probirkalari, 1 va 5 ml li ulchov iipetkalari, shisha tayokchalar.

**Bajariladigan ish tartibi.** K.OPKORI zich berkiladigan probirkalarning biriga 0,5 ml kon zardobi, ikkinchi-siga 1 ml xloroformda eritilgan pal'mitin kislota solinadi. Tekshiruv probirkasiga 5 ml, doimiy standart eritma solingan probirkaga esa 4,5 ml xloroform solib, barcha probirkalarga 2,5 ml dan mis reaktivi kuyiladi. Vir yula nazorat tajriba probirkalari tayyorlanadi: 5 ml xloroformga 2,5 ml „mis reaktivi solinadi. Probirkalar berkitilib 3 dakika chaykatiladi. Sungra eritmalar sentrifuga probirkalariga utkaziladi va dakikasiga 3000 marta aylanadigan sentrifugada 15 dakika aylantiriladi. Probirkalardagi suyuqliklar 3 kavatga ajraladi: xloroform, oksil va suv. YUKoridagi suv kavat (faza) mis reaktivining ortikcha mikdorini tutadi. Bu kavat asta-sekin olib tashlanadi. Oksil parda devor tomon suriladi, xloroform kismi 'esa boshka probirkalarga olinadi. Шу xloroform kavatida yog kislotalar erigan buladi. Xloroform tutgan probirka- larga 0,5 ml 0,1% li dietiltiokarbomatning natriyli tuzidan va butanoldagi eritmasidan kuyiladi va ara-lashtiriladi. Tekshiruv va doimiy-standard eritmalar yashil nur fil'tri karshisida 5 mm li kyuvetalarda nazorat eritmalar bilan solishtirilgan x,olda kolorimetr-lanadi.

Erkin yog kislota mikdori kuyidagi tenglamaga binoan xisoblanadi.

$$\frac{E_{\text{текширув}} \cdot 1000}{E_{\text{донний}} \cdot 0,5} \text{ мкмоль/л}$$

**Natijalarni rasmiylashtirish.** Natijalar daftarga yoziladi va tegishli xulosa chikariladi.

65- jadval K,on zardobidagi yoglarning yoshga k,arab uzgarishi			
YOR frakciyalari	YAngi	Kichik yosh-	
Katta yosh-turilgan larda	dagi bola-	dagi bola-bolalarda	
Umumiy yoglar g/l	2700—4700	4000—6000	
4500—7000 Neytral yoglar g/l		900—1500	
1700	500—3000	Erkin yog kislotalar mekv/l	1,2
0,6	0,6	Fosfatidlarning fosfori g/l	30 — 50
50—75	65—900	Fosfatidlar g/l	750—
1250	1250—1900	1600—2250	Leçitin g/l
600—1000	1000—1500	1300—1800	Umumiy xolesterin, mg
	40—130	100—180	120—200
efiri % xisobida	35—60	65	70
xolesterin % x, isobida	65 — 40	35	30
xolesterin fosfatidlar nisbati	0,7-^1,0	Taxmin, 1,0	Taxmin, 1,0

#### Qon zardobidagi umumiy lipidlarning aniqlash usuli.

№	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq bajardi to'g'ri
---	--------	--------------------	------------------------

1.	Probirkaga qon zardobiga (0,1 ml tekshiruv) konu. sulfat kislota (5,0 tekshiruv va nazorat tajribaga) va distillangan suv (0,1 nazorat )qo'shiladi	0	20
2.	Probirkadagi suyuqlik aralashtiriladi va 10 daqiqaga suv xammomiga joylashtiriladi	0	20
3.	Sovutilgach 0,2 ml gidrolizat quruq probirkaga olinadi va ustiga 3ml fosforvanilin solib 45 daqiqa xona haroratida qoldiriladi.	0	20
4.	Xosil bo'lgan rangli eritmaning zichligi nazorat eritmasi qarshisida yashil nur filstrida kolorimetrlanadi.	0	40
5.	Olingan natijalar taxlili va xulosa.		
	Jami		100

**Mashgulotda qullaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar:  
«O'rgimchak ini» usulini qo'llash**

Talabalarga mavzu bo'yicha savollar tuzish uchun vaqt beriladi. Talabalar doira bo'lib o'tirishadi. Ishtrokchilarning biriga koptokcha qilib o'ralgan ip beriladi, u xoqlagan talabaga o'zi tayyorlagan savolni berib, koptokchani topshiradi (javobni o'zi bilishi shart), ipning uchini o'zida olib koladi. Koptokchani olgan talaba savolga javob beradi. Savolga noto'g'ri javob berilsa, koptokcha savol bergan talabaga qaytariladi va u uni boshqa talabaga uzatadi. Savolga to'g'ri javob bergan talabaga o'z savolini boshqa ishtrokchiga berish xuquqi beriladi, ya'ni koptokcha uzatiladi. Bu musobaqa hamma ishtrokchilar «o'rgimchak iniga» o'ralguncha davom etadi. Oxirgi talaba qo'lidagi koptokchani birinchi savol bergan talabaga uzatadi va savolini unga beradi. Bu hol chigal echilguncha davom etadi.

**Vaziyatli masalalar.**

- 1) Nima uchun ateroskleroz bilan ogrigan bemorga kasalxoxadan chikayotganda, shifokor unga dietaga amal kilishni buyurgan. Uning tarkibini tushuntiring.  
Javob: Ateroskleroz kasalligi bilan kasallangan bemorning iste'mol kiladigan ovkatining tarkibida uglevodlar va xayvoxlar yogi kam mikdorda bulganligi va kletchatkaning mikdori kupligini kursatgan.
- 2) Semirgan bemorni sanatoriyadan chikarishidan oldin unga dietolog ovkat bilan birga tvorog eyishni va nimaga asoslanib uni buyurgan?  
Javob: Tvorog tarkibida lipotropik omillarning mikdori kupligi.
- 3) Semirgan va yurak-kon tomir sistemasi kasallangan bemorga kandy dieta va rejim buyuriladi?  
Javob: YOglar sintezi xisobiga fosfolipid sintezini aktivlashtirish uchun lipotropik omillarga boy dietani buyurgan. Oksidlanish-kaytarilish jarayonini aktivlashtirish uchun suvda eriydigan vitaminlarni va toza xavoda jismoxiy mashk bajarishni buyurgan. Ichakning evakuatsiox va motor aktivlashtirish uchun va ozik-ovkat maxsulotlarning kaloriyasini pasaytirish va kletchatkaga boy maxsulotlar mavjud.

**Testlar**

- 1.YOg kislotalarning biosintezi kaerda kechadi?  
A) YAdroda  
B) Iitoplazmada  
V) MembranadaG) Mitoxondriyada  
D) Mikrosomada
- 2.YOg kislotalar sintezida ishlatiladigan kaytaruvchisini kursating:  
A) FADN<sub>2</sub> B) NADN<sub>2</sub>  
V) NADFN<sub>2</sub>G) FMNN<sub>2</sub>D) KN<sub>2</sub>
- 3.Kaysi aminokislotalarning etishmasligi jigarni yogli infilytraçiyasiga sabab bulishi mumkin?  
A) TriptofanB) Glutamat  
V) MetioninG) TirozinD) Treonin
- 4.Xolesterin, keton tanachalar va yog kislotalarning umumiy sintez metabolitini tanlang:  
A) Malonil-KoA B) Anetil-KoA  
V) Aqil-KoA G) Fosfat kislota  
D) Gliçerin.
5. Staynberg "Lipolitik shalola" mexanizmida ishtirok etuvchi fermentlari:  
1.Birinchisi:  
A. Adenilatçiklaza\* B. Fosfodiesteraza  
V. Izomeraza G. Gliçeraldegidkinaza  
D. Glyukokinaza
6. Staynberg "Lipolitik shalola" mexanizmida ishtirok etuvchi fermentlari P. Ikkinchisi:  
A. galaktokinaza  
B. glikogensintetaza  
V. proteinkinaza\*  
G. fruktoza-1-fosfataçdolaza  
D. geksoza-1-fosfaturidiltransferaza
- 7.. Staynberg "Lipolitik shalola" mexanizmida ishtirok etuvchi fermentlari SH. Uchinichisi:  
A. Enolaza B. Trigliçeridlipaza\*  
V. Liporoteidlipaza  
G. Aqetil-KoA D. Açdolaza
- 8.. Zaxira eglarni safarbar etish katnashuvida gormonlar ishtirok etadi:  
A. Katexolaminlar\*B. AKTGV. Somatotropin  
G. ProstaglandinlarD. Sterinlar
- 9.Organizmde kaysi vaktde yog kislotalar sintezi jadallashadi:  
\*ovkatlarnishdan sung gkoza mikdorini ortishida glyukoza mikdorini kamayishida glyukogon sekreçiyasini kuchayishida adrenalin sekreçiyasini susayishida
- 10.Konda erkin yog kislotalar birikadi:  
\*alçbuminlar bilan betta-globulinlar bilan alça-globulinlar bilan gamma-globulinlar bilan
- 11.Eg kislotalarining - oksilanishi ketadi mitoxondryalardaSribosomalarda\$ itoplazmada\$lizasomalarda\$yadroda#

12. Eg kislotalarini mitoxondriyalarda membranasidan ichkariga utkazadi karnitin\$limon kislotasi\$ATF aza\$ permeaza\$translokaza#
13. Palmitin kislotasining acetil KoA gacha oksidlanishida xosil buladi  
35 molekula ATF\$100 molekula ATF\$  
131 molekula ATF\$10 molekula ATF\$  
96 molekula ATF#
14. Palmitin kislotaning tulik oksidlanishida xosil buladi  
12 molekula ATF\$96 molekula ATF\$  
35 molekula ATF\$130 molekula ATF\$  
24 molekula ATF#
15. Acetil KoA ni mitoxondriyadan citoplazmaga utish shakli  
citrat\$oksaloacetat\$malat\$laktat\$  
piruvat#
16. Eg to`qimalarida lipolizni boshlab beruvchi ferment  
triglyceridlipaza\$fosfolipaza\$  
monoglyceridlipaza\$diglyceridlipaza\$  
fosfolipaza A#
17. Eg to`qimalarida triacylglyceridlar lipolizini kuchaytiruvchi gormonlar  
adrenalin\$tirosin\$noadrenalin\$  
glyukagen\$insulin#
18. Eglarning depollanishini kuchaytiruvchi gormon  
insulin\$glyukagen\$tirosin\$  
adrenalin\$noadrenalin#
19. Resintez natijasida xosil bulgan xilomikronlar kaerga etib boridi lar.  
jigarda va eg to`qimasiga\$  
me`dagi\$ upkaga\$ mushakka\$  
ingichka ichakka#
20. Kaysi gormon eglarning zaxiralanishini kuchaytaradi.  
ketogen\$ tirosin\$ insulin\$  
glikolipidlar\$ proteidlar#
21. Kaysi ferment zaxiradagi eglar sarflanishini boshlab beradi.  
monoglyceridlipaza\$  
triglyceridlipaza\$  
fosfolipaza A/2\$  
diglyceridlipaza\$  
fosfolipaza#
22. Eg kislotalarining acil Ko Agacha aktivlanishi kaerda boradi?  
citoplazmada\$ mitoxondriyada\$  
golji kompleksida\$  
endoplazmatik turda\$  
lizosomalarda#
23. Stearin kislotasi kaerda sintezlanadi?  
citoplazmada\$ golji kompleksida\$  
ribosomada\$ mitoxondriyada\$  
lizosomalarda#
24. Alimantar giperlipidemiya yog`li ovqat is`emol qilgandan necha soatdan so`ng kuzatiladi:  
4-5 soat\* 2-3 soat 1-2 soat 6-8 soat
25. Beta lipoproteinlar deb nomlangan fraktsiyani kursating?  
ZPLP\$ ZJPLP\$ ZYULP\$ xilomikronlar\$  
albumin bilan kompleksda#
26. Neytral eg`larning 3 xilini ko`rsating:  
A. Fosfolipidlar B. Monoglyceridlar\*  
V. Glikolipidlar G. Diglyceridlar\*  
D. Xolesterin E. Triglyceridlar\*
27. Lipidlarning 5 ta asosiy sinflarini ko`rsating:  
A. Fosfatidilxolin B. Neytral eg`lar\*  
V. Kardiolipin G. Plazmalogenlar  
D. Fosfoglyceridlar\* E. Sfginoglyceridlar\*  
J. Steroidlar\* Z. Fosfatidiletanolaminlar  
I. Fosfatidilserin K. Mo`mlar\*
28. Fosfoglyceridlarining 5 ta asosiy guruhlarini ko`rsating:  
A. Mo`mlar B. Fosfatidilxolin\*  
V. Sterinlar G. Steridlar  
D. Fosfatidiletanolamin\*  
E. Fosfatidilserin\* J. Acetalfosfatid\*  
Z. Xolesterin I. Kardiolipin\*  
K. Pirofosfat
29. YOG` kislotalar sintezini jigarda boshqaruvchi kalit fermentlar va ularning regulyatorlarini ko`rsating:  
A. acetilKoA-karboksilaza\*  
B. karnitin-aciltransferaza\*  
V. citrat, oksaloacetat va malonil-KoA miqdori\*  
G. acil-KoA-degidrogenaza  
D. citratsintetaza  
E. glycerin miqdori
30. Lipoliz jarayonini faollantiradigan gormon va lipoliz jarayonidagi kalit fermentlarni ko`rsating:  
A. Triglyceridlipaza\* B. Adrenalin\*  
V. Glyukagon\* G. Noradrenalin\*  
D. Tri- i diglyceridlipaza E. STG  
J. Insulin Z. TTG
31. Organizmdagi yog`larning deposi hisoblangan 3 a`zoni ko`rsating:  
A. teri osti yog` qabati\* B. charvi\*  
V. buyrak atrofidagi yog` qabati\*  
G. Taloq D. buyrak E. qon tomirlari
- 32/. Lipidlar ahamiyatining 4 tomonini ko`rsating:  
A. Energetik\* B. Gormonal funktsiya  
V. A, D, E, K vitaminlar bilan ta`minlaydi\*  
G. Vitamin S manbai D. Plastik\* E. Transport funktsiya J. Organizm tana haroratini saqlashda qatnashadi\* Z. Katalitik funktsiya

#### Joriy baxolash mezonlari

No	Uzlashtirish (%) va ballarda	Talabning bilim darajasi
----	------------------------------	--------------------------



1	86-100	Talaba mavzu bo'yicha o'kituvchining bergan savollariga to'g'ri va anik javob beradi. Eglarni tuplanib borish va safarbar etilish mexanizmini biladi. Eg kislotalarni biosintez reaksiyalarini mustakil ravishda ezadi. Lipidlarni membrana strukturaviy komponentlarni axamiyati xakida mustakil va mantikan fikrlay oladi. Interaktiv uyinlarda aktiv va ijodiy katnashadi. Kurgazmali zamona-viy informativ kulanmalarni yoki oxirgi adabiyotlardan yoki 7-10tagacha internet ma'lumotlarni uz ichiga olgan yukori sifatli referatlarni tayyorlay oladi. Laboratoriya ishlarni bajarishda olgan bilimlarini ko'llaydi.
2	71-85	Talaba mavzu bo'yicha o'kituvchining bergan savollariga to'liq javob berdi. Lipidlarning oralik almashinuvi mexanizmini biladi. Situaçion (va-ziyatli) savollarga javob berishda kiynaladi. Interaktiv uyinlarda aktiv va ijodiy katnashadi. Kurgazmali zamonaviy informativ k'llan-malarni yoki 3-4 tagacha oxirgi adabiyotlardan yoki internet ma'lumotlarni uz ichiga olgan referatlarni tayyorlay oladi. Laboratoriya ishlarni bajarishni biladi.
3	56-70	Talaba mavzu bo'yicha o'kituvchining bergan savollariga to'liq javob bermadi. Lipidlarning almashinuvi mexanizmini o'kituvchi yordamida aytadi. Axamiyati xakida fikrlay olmaydi. Situaçion (va-ziyatli) savollarga javob berishda kiynaladi, ularning mohiyatini tushunmaydi. Laboratoriya ishi natijasini talkin kilishda kiynaladi.

#### 10. Nazorat uchun savollar

1. Eglarni yigilish manbaalarini aytib bering?
2. Zaxiradagi eglarni axamiyati nimadan iborat?
3. Zaxiradagi lipidlarni safarbar etilishini boshkarilishini kursatib bering?
4. Eg kislotalarni biosintezining kaysi reaksiyalaridan iborat?
5. SHu proçessni boshkarilishi.
6. Glyukoza oksidlanishi pentozofosfat ciklining axamiyati?
7. Fosfolipidlarning tuzilishi.
8. Fosfolipidlarning funkçiyasi.
9. Glikolipidlarning tuzilishi.
10. Glikolipidlarning funkçiyasi.

#### Tarkatma materiallar

Testlar, vaziyatli masalalar

#### Adabiyotlar

##### Asosiy

1. Berezov T.T., Korovkin B.F. Biologicheskaya ximiya, 2004
2. Nikolaev A.YA. Biologicheskaya ximiya, 2004
3. Kushmanova O.D., Ivchenko G.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1983
4. Aleynikova T.L., Rubçova G.V. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1988
5. Sultanov R.G., Xolmuxamedova N.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii , 1996(uzb)
6. Sabirova R.A., Abrorov A.A., Inoytova F.H., Aripov A.N. Biologik kimyo, 2007.

##### Qo'shimcha

1. Lenindjer A. Bioximiya , 1,2,3 tom 1990.
2. Meçler D. Bioximiya , 1,2,3 tom 1980
3. Strayer L. Bioximiya , 1,2,3 tom 1985
4. Stroeve E. A. Bioximiya .1986
5. Uayt i dr. Bioximiya .1981
6. Sultanov R G. , Ibragimov U.K. Sbornik bioximicheskix pokazateley organizma cheloveka,1995
7. Xorst A. Molekulyarnaya osnovy patogeneza bolezney. 1982
8. Kolyman YA., Rem K. - G.Naglyadnaya bioximiya, 2000
9. Informaçion texnik vositalar: kinofilmlar, elektron darslik, komp'yuter, kodoskop, slaydlar, tarqatma materiallar.
10. [www.tma.uzsi.net](http://www.tma.uzsi.net).
11. Bioximiya. Kratkij kurs s uprajneniyami i zadachami. Severin E.S., Nikolaev A.YA, 2002.

**Mavzu: Fosfolipidlar va steroidlar almashinuvi**

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -4 soat	Talabalar soni : 10-13 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
Mashg'ulot rejasi	1.Organizmning asosiy fosfo- va glikolipidlari, ularning vazifalari. 2.Fosfo- va glikolipidlar biosintezi, katabolizmi. 3.Sterinlar va steridlar. Xolesterin va uni organizmdagi ahamiyati, biologik vazifasi. 4.Xolesterin va aqetosirka kislotasi biosintezi, ularni boshqarilishi. 5.Xolesterinni qonda tashilishi, LXAT fermentining ahamiyati
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	fosfolipidlar va glikolipidlar biosinteziga tushuncha berish;fosfolipidlar va glikolipidlar katabolizmini mohiyatiga to'g'risida tushuncha berish; xolesterinni funkuiyalari va ahamiyatini tushuntirib berish;xolesterinni biosintezi haqida tushuncha berish;LXATni xolesterin almashinuidagi ahamiyati haqida bilim berish.
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, amaliy mashgulot,suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik, amaliy mashgulot,laboratoriya jixozlari,kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.



Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1.Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2.Talabalarni mashgulotga tayyorgarligini tekshirish 3. Davomatni nazorat kilish	
1. Mavzuga kirish (20 daqiqa)	1. Mavzu buyicha ukuv mazmunini tayyorlash 2. Amaliy mashgulot taqdimot silaydalarini tayyorlash 3, Vaziyatli masalalar echish 4. Test echish	
2 – asosiy bosqich (130 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruxlarga bulib mavzu buyicha savollar beradi. 2.Kurgazmali plakatlardan foydalanadi. 3.Slaydalar,multimediyalarni namoyish qilish 4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi,faol ishtirokchi talabalarni ragbatlantiradi va umumiy baxolaydi. 5.Laboratoriya ishi bajaradi.	Kichik guruxlarga bulinadilar Tomosha kiladilar. Katnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar.
37- yakuniy bosqich (20 daqiqa)	1. YAKunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

**Nazariy qismi**

Fosfolipidlar hujayra membranasining asosiy strukturaviy komponenti hisoblanadi. Ular 2 xil asosiy guruhlarga bo'linadi: gliuerofosfolipidlar va sfingofosfolipidlar.

Gliuerofosfolipidlar fosfatid kislotasi xosilalari hisoblanib, gliuerin, 2 yog' kislotasi qoldig'i, azot asosi va fosfor kislotasi qoldig'idan tashkil topgan.


**DEMO**

R<sub>1</sub> va R<sub>2</sub> – yog' kislotasi qoldiqlari; R<sub>3</sub> – azot tutuvchi radikal.

Asosiy gliçerofosfolipidlarga kiradi:

- fosfatidilxolin (membraning asosiy fosfolipidi)


**DEMO**



Фосфатидилхолин (лецитин)

- fosfatidiletanolamin (membraning asosiy fosfolipidi), bu ikkala fosfolipid bir-biri bilan metabolik bog'liqlikda va biologik membranalar lipid qo'shqavatining asosini tashkil qiladi.


**DEMO**



Фосфатидилэтаноламин (кефалин)

- fosfatidilserin, uning miqdori yuqoridagilarga qaraganda anchagina kam va fosfatidiletanolamin sintezida qatnashadi.


**DEMO**



Фосфатидилсерин

- fosfatidilinozitol azot asoslari o'rniga 6g'atomli spirt – inozitolni tutadi. Ular nafaqat struktur funkciya, balki ikkilamchi messendjerlik vazifasini bajaradi va xujayrada fosfat guruhi almashinuvida qatnashadi.

**DEMO**




Фосфатидилинозитол

**Sfingolipidlar** 3 guruhga bo'linadi:


- Sfingomielinlar hayvon va o'simlik xujayralarida keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa nerv to'qimalarida kshp uchraydi. Ular 1 molekula yog' kislotasi, 1 molekula to'yinmagan ikkiatomli aminospirt sfingozin, 1 molekula azot tutuvchi biriksa va fosfor kislotasi qoldig'idan iborat.

**DEMO**



- Ba'zi sfingomielinlar, masalan miya to'qimasi va taloqdan ajratilgan sfingomielinlarda digidrosfingozin uchraydi.

**DEMO**



- Цереброзидlar geksoza, yog' kislotalardan lignoserin, nevron va cerebron kislotalardan iborat. Asosan ular nerv to'qimalarining mielin qobig'ini tashkil qiladi.



— Gangliozydlar yog' kislota, sfingozin, D-glyukoza, D-galaktoza va N-asetilglyukozamin yoqi N-asetilneyramin kislotadan iborat. Ular asosan miyaning kulrang moddasida, nerv va glial xujayralar, hamda plazmatik membranalarda uchraydi.


**Fosfolipidlar biosintezi va katabolizmi.** Fosfolipidlar membranadagi lipidlarning 47-50 hajmiy ulushini tashkil etadi. Fosfolipidlarning o'tmishdoshlari diaçilgliçerin va ЦДФ xosilalari (ЦДФ-xolin, ЦДФ-etanolamin). Fosfolipid va trigliçerid biosintezi oraliq mahsuloti – fosfatid kislota. Fosfatid kislota gliçerindan va dioksiaçeton fosfatdan hosil bo'ladi. Fosfolipidlar sintezi asosan jigarda bo'ladi, o'sha erdan ular qonga o'tadi va qondan to'qimalarga etkaziladi. Fosfolipidlar sintezi membranalarining yangilanishi bilan bog'liq bo'lib 2 yo'l bilan kechadi.

**Birinchisi:** fosfatid kislota ЦТФ bilan birikib ЦДФ-diaçilgliçerinni xosil qiladi. U esa serin yoki inozit bilan bog'lanib FS yoki FI ga aylanishi mumkin. Serinning dekarboksillanishi FEA ni xosil bo'lishiga, uni S-adenozilmetionin, TGFK va metilkobalamin ishtirokida metillanishi FX ni xosil bo'lishiga olib keladi.

**Ikkinchisi:** Xolin ЦТФ bilan birikib ЦДФ-xolinni xosil qiladi, u esa diaçilgliçerin bilan reaksiyaga kirishib FX xosil qiladi. Sintezlangan fosfolipidlar uito plazmadagi lipid tashuvchi oqsil bilan birikib membrana tashiladi va uni tarkibiga kiradi. Xolin, ЦТФ, serin, inozit, piridoksальfosfat, folat kislota va metionin miqdorini xujayrada ortishi FL va TG sintezi uchun umumiy substratga konkurençiyaga olib kelib, FI sintezini kuchaytiradi. SHuning uchun bu moddalar lipotrop omillar deb ataladi va yog'lar zahirlanishini to'xtatadi.

Glikolipidlar miya to'qimalarida va boshqa to'qimalarda joylashgan bo'lib, ular biologik membrana funkçiyalarda muxim vazifa bajarishadi. Glikolipid vakillaridan glikosfingolipidlar hisoblanadi. Bu çeramid xosilasi bo'lib, monosaxaridlarni oshig'i bilan bitta eki bir qancha qoldig'i eg' kislotasi va sfingozinidir. Gangliozydlar tuzilishi oddiy, ularni tarkibiga sial kislotasi kiradi. Xullas, gangliozydlar tarkibida D-galaktoza, N-asetilgalaktozamin va N-asetilneyramin kislotasi topilgan.

Geteropolisaxaridlar glikoziltransferaza fermentlari ishtirokida sintezlanadi. Glikogensintetaza (glyukoziltransferaza) ham shu fermentlar jumlasiga kiradi. Nukleoziddifosfat qandlar – UDF-glyukoza tarzidagi birikmalar monosaxarid qoldiqlari donorlari bo'lib hizmat qiladi. Glikolipidlar sintezi birinchi monosaxarid qoldig'ining çeramidga kelib birikishidan, masalan, mana bunday boshlanadi:




Bu reaksiyani N-asetilgalaktozamin transferazasi katalizlaydi: bu ferment monosaxarid donoriga ham, akçeptoriga ham spetsifikdir. So'ngra ikkinchi monosaxarid kelib birikadi:




Bu o'rinda boshqa ferment – galaktaziltransferaza ishga tushadi, bu ham monosaxarid donoriga bo'lsin, akçeptoriga bo'lsin, spetsifikdir. Keltirilgan shu ikkita reaksiya V antigen sintezining boshidir. Bu sintez poeniga etishi uchun har xil substrat spetsifiklikka ega bo'lgan yana bir necha transferazalar kerak bo'ladi.

Glikoziltransferazalar fermentlarning juda katta bir gruppasi bo'lib, xilma-xil geteropolisaxaridlar shu fermentlar erdamida hosil bo'ladi. Geteropolisaxaridlar sintezi garcha matritça sintezlari jumlasiga kirmasa ham, natijasi shu jihatdan o'rtash bo'lib chiqadiki, yuzaga keladigan polimerlardagi monomerlar ixtieriy tarzda joylashmasdan, balki aniq belgilangan tartibda joylashgan bo'ladi. Glikolipidlar faqat membranalarda va asosan plazmatik membrana glikolipidlari va glikoproteinlarining uglevodli qismi xamisha membraning tashqi yuzasida bo'ladi va hujayralararo moddaga tarqalib turadi. Plazmatik membrana uglevodlari oksillar uchun spetsifik ligandlar rolini ado etib boradi. Ular ma'lum oqsillar kelib birikadigan tanib olish qismlarini hosil qiladi; kelib birikkan oqsil hujayraning funkçional xolatini o'zgartirishi mumkin.

**Fosfo- va glikolipidlar parchalanishi.** Fosfolipid va glikolipid sintezi bilan birgalikda ularning parchalanishi ham kuzatiladi Fosfolipidlarni parchalanishini to'qimadagi fosfolipazalar A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub>, S va D katalizlaydi.





Turli kasalliklarda (timektomiya,  $\text{SSL}_4$  va geliotrin bilan intoksikasiya, gepatit, ishemik kasallik va boshqalarda) fosfolipidlarni ko'pto'yinmagan eg' kislotalarni peroksid oksidlanishi (POL) kuchayadi.

Glikolipidlarni parchalanishi glikozidaza – gidrolaza ferment ishtirokida boradi. Bularga bir necha ferment va sialidaza kiradi. Sialidaza ferment glikolipid tarkibidan sial kislotani ajratib oladi va natijada sial kislotasini yo'qotib qo'ygan glikolipidlar va glikoproteinlar (asialoglikoproteinlar) molekulari hosil bo'lib jigarda ushlanib qoladi va shu erda parchalanadi. Jigarning ba'zi kasalliklarda uning bu funktsiyasi buziladi va qondagi asialoglikoproteinlar kontsentratsiyasi ko'payib ketadi: sog'lom odamning 1 ml qon plazmasida 1 mkgdan 5 mkggacha asialoglikoproteinlar bo'lsa, gepatit, jigar uirrozi, raki singari kasalliklarda 2-3 barobar ko'payib ketadi.

Qondagi asialoglikoproteinlar kontsentratsiyasini o'lchash usullaridan jigar kasalliklari diagnostikasi hamda davoning nechog'lik naf beraetganini tekshirib borish uchun foydalaniladi. Organizmdagi barcha moddalar singari, glikolipidlar bilan glikoproteinlarning geteropolisaxaridlari ham uzluksiz yangilanib turadi. Geteropolisaxaridlar almashinuvida ishtirok etuvchi fermentlarning irsiy etishmovchiligida bu polisaxaridlar hujayrada to'planib qoladi – glikozidoz (glikolipidoz) boshlanadi.

Glikozidozlarning ko'pgina shakllari bor. Bunday kasalliklar aksari geteropolisaxaridlarni parchalaydigan fermentlar – glikozidazalar nuqsoniga aloqador bo'ladi. Geteropolisaxaridlardagi turli glikozid bog'larini gidrolizlaydigan glikozidazalarning bir nechatasi ma'lum. Bu fermentlar asosan lizasomalarda joylashgan. Glikozidlar ko'pincha xaetning dastlabki haftalardan boshlab namaen bo'ladi va odatda bola rivojlanishining keskin izdan chiqishi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday kasallar uzoq umr ko'rmaydi. Ko'pincha, yosh go'dakligida o'lib ketadi. Glikozidozlar har yuz ming kishiga taxminan bittadan uchrab turadi.

Organizmdagi barcha steroidlarning asosiy qismi xolesterin ulushiga to'g'ri keladi.

Odam to'qimalarida taxminan 140 g yaqin xolesterin bor. Xolesterin 2ta vazifani bajaradi:

- hujayra membranasi tarkibiga kiradi
- o't kislotasi, steroid gormonlarda, vitamin  $\text{D}_3$  tarkibida bo'ladi.

Organizmning xolesterin fondi ovqat xolesterini va organizmning o'zida xolesterin sintezlanishi hisobiga yuzaga keladi. Odam tarkibida xolesterin kam bo'ladigan o'simlik ovqatlari bilan ovqatlaniganida xolesterin sintezi asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Organizmning xolesterin fondi: ovqat xolesterini

organizmning o'zida xolesterin sintezlanishi hisobiga (endogen xolesterin – 2,8 g 1 sutkada)

Bir sutkada organizmda 1 g gacha xolesterin sintez qilinadi. Xolesterin gepatoitda 80% va ichak hujayrasida 10% sintez qilinadi. Xolesterin sintezini ta'minlovchi asosiy substrat aqetil-KoAning aqetil qoldiqlaridir. Bu jarayon 35dan ortiq ferment reaksiyalarni o'z ichiga olgan 3 bosqichdan iborat:

- 1) aqetil-KoA dan mevalon kislotaning hosil bo'lishi.
- 2) Mevalon kislotadan skvalenning hosil bo'lishi.
- 3) Skvalenning ciklizatsiyasidan lanosterin, so'ngra xolesterin hosil bo'lishi.

Xolesterin biosintezini uitozolda kechadi va aqetil-KoA dan yig'iladi. Oramiq metabolit bo'lib  $\beta$ -oksi- $\beta$ -metilglutaril-SoA xisoblanadi, uning NADFN ishtirokida qaytarilishi mevalonat kislotani xosil bo'lishiga olib keladi. Xolesterin sintez tezligi ovqat bilan tushayotgan xolesterin miqdoriga bog'liq. 1 sutkada 2-3 g xolesterin qabul qilish xolesterinning endogen sintezini to'xtatadi. Xolesterin sintezining tezligi manfiy teskari aloqa mexanizmi bo'yicha idora etiladi. Idora etishning asosiy nuqtasi mevalonat kislotasi hosil bo'lish reaksiyasi – xolesterin sintezi yo'lining birinchi xos reaksiyasidir: xolesterin GMG-KoA-reduktazani ingibirlab, uning sintezini susaytirish maxallalarda uning o'z xolesterini deyarli butunlay sintezlanmay qo'yadi.

Xolesterin biosintezini boshqarilishi:

- boshqarilish GMG-KoA-reduktaza fermenti orqali kesadi.
- Xolesterin sintezi sutkalik ritmiga ega:
- Kunduziga nisbatan kechasi sintez jadal kechadi.
- Insulin va tireoid gormonlar GMG-KoA-reduktazani faollashtiradi.
- Ochlikda, tireoidektomiya, glyukagon va glyukokortikoidlar GMG-KoA-reduktaza faolligini susaytiradi.

Gepatoitlar va ichak hujayralarning alohida roli shundan iboratki, bularda o'z ehtiyojlari uchunina emas, balki «chetga chiqarish» uchun ham xolesterin sintezlanib turadi. Bunday hujayralarda qon oqimiga tushib turadigan lipoproteidlar hosil bo'ladi. Lipoproteidlarda xolesterin va xolesterin efilrlari bor. Erkin xolesterin yuzadagi fosfolipid yakka qavat (monoqavat) tarkibiga kiradi va shu qavatning integral qismi bo'lib hisoblanadi: xolesterin molekulari fosfolipid molekularining gidrofob uchlari orasidan joy oladi. Xolesterin efilrlari lipoproteid zarrasining yadrosida turadi; ular yuza qatlam bo'lib, saf tortib turolmaydi. Qonda lipoproteidlar xolesterin bilan o'rin almashadi, ayniqsa ZPLP va ZYULP o'rtasida faol boradi: lipoproteid zarralari bir-biri bilan to'qnash kelganida xolesterini bitta zarradan ikkinchisiga diffuziyalanib o'tadi. Bunday almashinuvi tabiatan ikki tomonlama bo'ladi-yu, lekin umuman olganda boshqa hamma lipoproteidlardan ZYULga ko'proq xolesterin o'tib turadi. CHunki ZYULP da xolesterinni eterifikatsiyasi lequtin-xolesterin-aqil-transferaza (LXAT) ta'siri ostida kuzatiladi. LXAT fosfotidilxolinning  $\beta$ -holidan xolesteringa aqil qoldig'ini o'tishini katalizlaydi. LXAT ZYULPni yuqori qatlamida joylashgan, hosil

bo'lgan xolesterin efilari bo'lakni ichiga kira boshlaydi, buning oqibatida bu qatlamda xolesterin konçentraciyasini kamaytiradi va boshqa lipoproteidlardan xolesterin kirishi uchun joy bo'shatadi.

Hujayralar bilan lipoproteinlar o'rtasida xolesterin bilan almashinib borish mexanizmi turli organlar hujayralardagi xolesterin gomeostazini saqlab turadi: ZYUL erdamida hujayralarda ortiqcha xolesteringa ehtiej ortgan mahalda (masalan, hujayralarning o'sishi va bo'linishi paytida, unda yangi membranalar yuzaga kelishiga xolesterin sarflanib turadi) hujayralarni xolesterin bilan ta'minlab boradi.

#### Amaliy qismi

Mavzuga doir bajariladigan laborator ishlar:

#### 2. Tuxum sarig'idan leutin va kefalinni ajratib olish.

№	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	havoda quritilgan 1 g tuxum sarig'i qaytar sovutgich o'natilgan probirkaga solinadi	0	20
2.	Ustiga 5 ml etil spirti quyib 70-75°Sgacha isitilgan suv xammomiga joylashtiriladi	0	20
3.	Probirkadagi suyuqlik qaynagandan boshlab, vaqti-vaqti 10 daqiqa davomida chayqatiladi.	0	20
4.	Probirkadagi eritma qog'oz filtri orqali toza probirkaga o'tkaziladi.	0	40
5.	Olingan natijalar taxlili va xulosa.		
	Jami		100

#### 3. Leutin va kefalinlarni gidrolizlash.

№	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	Probirkaga 1-2 ml spirtli ekstrakt quiladi.	0	20
2.	1-2 ml sul'fat kislotasi eritmasi quyiladi.	0	20
3.	Eritma 10-15 daqiqa qaynab turgan suv xammomida qizdiriladi.	0	20
4.	Probirka sovutilgach buyum shisha oynachasiga kichik gidrolizat olinadi va ustiga yod eritmasini 1 tomchisi tomiziladi.	0	20
5.	Mikroskop ostida ko'riladi (ko'ng'ir rangli kristallar xosil bo'ladi).		20
6.	Olingan natijalar taxlili va xulosa.		
	Jami		100

#### Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar:

##### «Aql xujumi»

Sınenariy: O'rtaga bitta mavzu tashlanadi. Talabalar shu mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Kotiba tayinlanadi. O'xshash fikrlar birlashtiriladi. 5-7 daqiqa vaqt beriladi. Oxirida eng qiziqarli fikrlar alohida ajratiladi va baholanadi. Qoniqarsiz baholanmaydi. Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va talabada fikrlash kengaishi kuzatiladi.

##### Interaktiv usul savollari:

44. Xolesterin, keton tanachalar va eg' kislotalarning umumiy sintez metaboliti.
45. Xolesterin parchalanishidan hosil bo'lmaydigan ohirgi mahsulotlar.
46. Fosfolipidlarni biosintezi.
47. Xolesterin biosintezi.
48. Odam qon lipoproteidlarining fizik-kimeviy xossalari va tarkibi.
49. Glikolipidozlarning turlari.
50. Xolesterinning transportida lipoproteinlarning ahamiyati
51. LXAT fermentini ahamiyati.
52. Sterin va steridlarning ahamiyati va funkciyasi. Bu jaraenda jigarning vazifasi.

##### Vaziyatli masalalar:

1. Eksperimetal va klinik sharoitida jinsiy gormonlar ateroskleroz va miokard infarkti oldini oluvchi dori sifatida ishlatiladi.
  - A) Moddalar almashinuvida jinsiy gormonlarni ta'sir mexanizmini tushuntiring.
  - B) Bu davolash turini sababi nimada?
2. Giperxolesterinemiyaga laeqatli bemorning ovqat tarkibidagi uglevodlarni o'rtacha miqdorini iste'mol qilish giperxolesterinemik krizga olib keladi. SHifokor bemorga tvorogni tavsiya qilgan.

- A) SHifokor nimaga asoslanib bu dietani buyurdi?  
 B) Tvorog tarkibida qaysi omillar ko'p miqdorda saqlanadi?  
 3. Ateroskleroz bilan kasalxonaga bemor tushdi. SHifokor unga chiqaetganda dieta buyurdi.  
 A) Uning tarkibini asoslab bering.  
 B) Buyurilgan davolash turini qaysi sabablariga tayangan holda buyurildi?

### Testlar

1. Xolesterinni sintezi 3 etapda boradi.  
 1. Birinchi bosqichda faol aqetatdan sintezlanadi... :  
 A. mevalonat kislotasi B. butirat  
 V. aqetooqil-KoA  
 G.  $\beta$ -oksi- $\beta$ -metilglutaril-KoA  
 D. aqeton
2. Xolesterinni sintezi 3 etapda boradi  
 2. Ikkinchi bosqichda undan hosil bo'ladi... :  
 A.  $\beta$ -metilglutaril-KoA B. aqetil-KoA  
 V. skvalen\* G. Fumarat D. aqetat
3. Xolesterinni sintezi 3 etapda boradi  
 3. Uchinchi bosqichda undan sintezlanadi... :  
 A. aqetooqil-KoA B. testosteron  
 V. Interferon G. aqetil-KoA  
 D. xolesterin\*
4. Xolesterin oksidlanishining oxirigi maxsuloti:  
 A) Ut kislotalari B) YOg kislotalari  
 V) Tiroksin G) Vitamin V<sub>12</sub>  
 D) Mineral kislotasi
5. OMG-KoA reduktazani aktivligini tarmoklovchi kislotasi:  
 A) Xolein B) Tauroxolein  
 V) Dezoksixolein G) Litoxolein  
 D) Lipodezoksixolein
6. Xolesterin parchalanishidan xosil buladigan oxirigi maxsulotni kursating:  
 A) SO<sub>2</sub> va N<sub>2</sub>O B) Ammiak V) Siydikchil  
 G) Ut kislotalar D) Aqetil-KoA
7. Xolesterindan nima xosil bulmaydi?  
 A) YOg kislotalar B) Ut kislotalar  
 V) Vitamin D<sub>3</sub> G) Steroid gormonlar  
 D) Membraning strukturaviy kismi
8. Organizmda xolesterinning asosiy kismi ishlatiladi:  
 \*biomembranalar shakillanishida  
 xilomikronlar xosil bulishida  
 ut kislotalar sintezida  
 katexolaminlar xosil bo'lishida
9. Organizmda xolesterin katnashmaydi  
 vitamin D<sub>3</sub> sintezida\$  
 steroid garmonlari sintezida\$  
 xujayra membranasi kurilishida\$  
 ut kislotalari sintezida\$  
 dipidlarning xazmlanishida#
10. Xolesterin sintezini boshlovchi substrat  
 aqetil KoA\$ aqil KoA\$ piruvat\$  
 qitrat\$ sukqinal KoA#
11. Xolesterin sintezini kalit fermenti  
 oksimetilglutarin -KoA-reduktaza\$  
 aqetil KoA-aqetiltransferaza\$  
 oksimetilglutaril-KoA-sintetaza\$  
 ketoaqil -APB-reduktaza\$  
 ketoaqil -APB-degidrataza#
12. Xolesterinning asosiy miqdori kaerda sintezlanadi.  
 buyraklarda\$ jigarda\$ teri osti eg kavatida\$  
 ichak epiteliysida\$ kon tomir devorida#
13. Xolesterin va keton tanachalari sintezining umumiy boshlangich modda  
 sini kursating.  
 Malonil-Ko A\$ Aqetil -Ko A\$ Sukqinil-KoA\$  
 Aqetosirka kislotasi\$ Aqetooqetil-Ko A#
14. Organizmda sintezlanadigan xolesterinning miqdori nimaga boglik.  
 ut kislotalari miqdoriga\$  
 jinsiy gormonlar miqdoriga\$  
 kortikosteroidlar miqdoriga\$  
 ekzogen xolesterin miqdoriga\$  
 membrana xolesterini miqdoriga#
15. Organizmda xolesterin almashinuvining oxirigi maxsulotlari organizmdan kaday kelib chikib ketadi.  
 jinsiy gormonlar\$ ut kislotalari\$  
 ter bilan\$ eg bezlari orkali\$  
 nafas orkali#
16. Organizmda xolesterin ishtirokida nima sintezlanmaydi.  
 ut kislotalari\$ qerebrozidlar\$  
 biomembranalar\$ jinsiy gormon\$  
 vitamin/d3#
17. Xolesterin, keton tanachalar va eg kislotalarning umumiy sintez meqabolitini kursating:  
 malonil Ko A\$ aqetil Ko A\$  
 aqil Ko A\$ fosfat kislotasi\$ gliqerin#
18. Kaysi modda steroid tabiatga ega emas?  
 xolesterol\$ vitamin D3\$ ut kislotalar\$  
 jinsiy gormonlar\$ vitamin A#
19. Xolesterin miqdori ortib ketganda kaysi ferment ingibirlanadi?  
 aqil Ko A-karboksilaza\$  
 OMG-Ko A-reduktaza\$ aqilkarnitintransferaza\$  
 fosforilaza\$ to`qima lipazasi#
20. Xujayra ichiga tushgan xolesterin nimaga sarflanmaydi?  
 membrana lipidkomponentlarining yangilanishiga\$  
 eg kislotalar xosil bulishiga\$  
 ut kislotalar xosil bulishiga\$  
 vitamin D3 biosinteziga\$  
 steroid gormonlar biosinteziga#
21. Kaerda xolesterin juda kam miqdorda buladi?  
 tuxum sarigida\$ gusht tarkibida\$ jigarda\$  
 miya to`qimasida\$ usimlik maxsulotlarida#
22. "Xolesterinsiz ateroskleroz bulmaydi" degan fikrni aytgan olimni kursating:  
 N.N.Anichkov\$ F.Knoop\$ A.Lenindjer\$  
 A.N.Klimov\$ G.Krebs#
23. Qon zardobida umumiy xolesterinning meyoriy miqdorini ko'rsating:  
 150-250 mg/dl\* 50-60 mg/dl 500-600 mg/dl  
 120-130 mg/dl
24. Xolesterinni eruvchang holatga o'tkazuvchi o't kislotasini ko'rsating:  
 xenodezoksixolat\$  
 dezoksixolat

- litoxolat  
Xolat
25. Xolesterinning 2ta vazifasini ko'rsating:  
A. membrananing lipid komponenti\*  
B. boshqa steroidlarning o'tmishdoshi\*  
V. membrananing asosiy qurilish materiali  
G. membrana orqali steroidlar o'tishini taminlaydigan kanallar hosil qiladi
26. Keton tanachalaridan qaysi ikki a'zolar foydalanadi:  
A. mushak\* B. buyrak\* V. jigar, mushak  
G. nafas, hazm a'zolari
27. Jigarda sintezlanuvchi keton tanachalarni ko'rsating:  
A. acetilKoA \* B. acetil\*  
V. beta-oksibutirat\* G. butanon  
D. uksus E. acetil KoA
28. O't kislotalarning lipidlarni hazmlanishi va so'rilishidagi 3 ahamiyatini ko'rsating:  
A. Tripsinni faollaydi  
B. Pankreatik lipazani faollaydi\*  
V. Lipaza sintezini kuchaytiradi  
G. Eg'larni emulsialaydi\*  
D. Oshqozonda eg' hazmlanishini yaxshilaydi
- E. Hazmlangan eg' mahsulotlar so'rilishini ta'minlaydi\*  
29. Staynberg "Lipolitik shalola" mexanizmidagi ishtirok etuvchi 3 xil fermentni ko'rsating:  
A. Adenilatuklaza\* B. Fosfodiesteraza  
V. Proteinkinaza\* G. Enolaza  
D. Trigliceridlipaza\* E. Lipoteidlipaza
30. Zichligi bilan farqlanuvchi qon lipoproteinlarning 4 xilini ko'rsating:  
A. Xilomikronlar\* B. Glikolipidlar  
V. ZJPL\* G. Fosfatidilxolin D. ZPL\*  
E. Xolesterin J. Lipidlar Z. ZYUL\*
31. Lipolizni kuchaytiruvchi 4 gormonni ko'rsating:  
A. katexolaminlar\* B. insulin  
V. jinsiy gormonlar\* G. vazopressin  
D. paratgormon E. somatotrop gormoni\*  
J. tiroksin\* Z. kortizol
32. Xolesterin sintezining 3 bosqichini ko'rsating:  
A. acetil KoA dan – mevolan\*  
B. mevolan dan – skvalen\*  
V. skvalen dan – xolesterin\*  
G. beta-oksibutirat dan beta-oksi-beta-metilglutaril  
D. beta-oksi-beta-metilglutaril dan 5-fosfomevolan  
E. jinsiy gormonlardan xolesterin

### Joriy baholash mezonlari

No	O'zlashtirish (%) va ballarda	Talabning bilim darajasi
1.	86-100	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'g'ri va aniq javob beradi. YOg'larni to'planib borish va safarbar etilish mexanizmini biladi. Lipidlarni almashinuvini buzilish mexanizmi to'g'risida mustaqil va mantiqan fikrlay oladi. Situacion (vaziyatli) savollarga aniq javob beradi, ularning mohiyatini tushunadi. Interaktiv o'yinlarda aktiv va ijodiy qatnashadi. Ko'rgazmali zamonaviy informativ qo'llanmalarni yoki oxirgi adabiyotlardan yoki 7-10tagacha internet ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yuqori sifatli referatlarni tayyorlay oladi. Laboratoriya ishlarni bajarishda olgan bilimlarini qo'llaydi.
2	71-85	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'liq javob berolmay. Lipidlar almashinuvining buzilish mexanizmini biladi. Situacion (vaziyatli) savollarga javob berishda qiynaladi. Interaktiv o'yinlarda aktiv va ijodiy qatnashadi. Ko'rgazmali zamonaviy informativ qo'llanmalarni yoki 3-4 tagacha oxirgi adabiyotlardan yoki internet ma'lumotlarni o'z ichiga olgan referatlarni tayyorlay oladi. Laboratoriya ishlarini bajarishni biladi.
3	56-70	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'liq javob bermadi. Lipidlarning almashinuvini buzilish mexanizmini o'qituvchi yordamida aytadi. Ahamiyati haqida fikrlay olmaydi. Situacion (vaziyatli) savollarga javob berishda qiynaladi, ularning mohiyatini tushunmaydi. Laboratoriya ishi natijasini talqin qilishda qiynaladi.

### Nazorat uchun savollar

- Asosiy fosfolipidlar va glikolipidlar, ularning funktsiyalari?
- Organizmda fosfolipidlar va glikolipidlar biosintezi. Bu jarayonda jigarning vazifasi?
- Organizmda fosfolipidlar va glikolipidlar katabolizmini ko'rsatib bering?
- Sterinlar va steroidlarni ahamiyati va ularni funktsiyalari?
- Xolesterinni ahamiyati va funktsiyasi.



16. Xolesterinni biosintezi?
17. Xolesterinning transportida lipoproteidlarning ahamiyati.
18. LXAT fermentining ahamiyati.
19. Qonda xolesterinni transporti.
20. Xolesterinni biosintezini boshqarilishi.

### Tarkatma materiallar

Testlar, vaziyatli masalalar

### Adabiyotlar

#### Asosiy

1. Berezov T.T., Korovkin B.F. Biologicheskaya ximiya, 2004
2. Nikolaev A.YA. Biologicheskaya ximiya , 2004
3. Kushmanova O.D. , Ivchenko G.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1983
4. Aleynikova T.L., Rubцова G.V. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1988
5. Sultanov R.G., Xolmuxamedova N.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii , 1996(uzb)
6. Sabirova R.A., Abrorov A.A., Inoytova F.H., Aripov A.N. Biologik kimyo, 2007.

#### Qo'shimcha

1. Lenindjer A. Bioximiya , 1,2,3 tom 1990.
2. Meitler D. Bioximiya , 1,2,3 tom 1980
3. Strayer L. Bioximiya , 1,2,3 tom 1985
4. Stroeв E. A. Bioximiya .1986
5. Uayt i dr. Bioximiya .1981
6. Sultanov R G. , Ibragimov U.K. Sbornik bioximicheskix pokazateley organizma cheloveka, 1995
7. Xorst A. Molekulyarnaya osnovы patogeneza bolezney. 1982
8. Kольman YA., Rem K. - G.Naglyadnaya bioximiya, 2000
9. Informacion texnik vositalar: kinofilymlar, elektron darslik, kompyuter, kodoskop, slaydlar, tarqatma materiallar.
10. [www.tma.uzsi.net](http://www.tma.uzsi.net).
11. Bioximiya. Kratkiy kurs s uprajneniyami i zadachami. Severin E.S., Nikolaev A.YA, 2002.
12. Bioximiya. Severin E.S., 2004.

### Mavzu: Lipidlarning almashinuvini boshqarilishi va buzilishi

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -4 soat	Talabalar soni : 10-13 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	1.YOg'larning jamg'arilishi, safarbarlanishi va almashinuvining buzilishi. YOg' bosish, semirish, giperlipidemiya, sfingolipidozlar. 2.Giperxolesterinemiya, ateroskleroz kasalligi paydo bo'lishining biokimyoviy asoslari. 3.O't-tosh kasalligining biokimyoviy asosi va davolash. 4.Aцetilsirka kislotasi va keton tanachalarining qandli diabet va ochlikda biosintezi, ketonuriya va ketonemiya.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	eg'larni to'planishi va mobilizatsiyasi, uni boshqarilishi; giperxolesterinemiya va uni ateroskleroz rivojlanishida ahamiyat o't-tosh kasalligi rivojlanishining biokimyoviy asoslari;o't-toshkasalligini davolash usullari;etonemiya, ketonuriya, giperlipidemiya, semirish, sfingolipidozlar.
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, amaliy mashg'ulot,suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik, amaliy mashg'ulot,laboratoriya jixozlari,компьютер
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
--------------------	-----------------	-------------------

vaqti.		
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1. Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2. Talabalarni mashgulotga tayyorgarligini tekshirish 3. Davomatni nazorat kilish	
1. Mavzuga kirish (20 daqiqa)	1. Mavzu buyicha ukuv mazmunini tayyorlash 2. Amaliy mashgulot taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Vaziyatli masalalar echish 4. Test echish	
2 – asosiy bosqich (130 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruxlarga bulib mavzu buyicha savollar beradi. 2. Kurgazmali plakatlardan foydalanadi. 3. Slaydalar, multimediyalarni namoyish qilish 4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni ragbatlantiradi va umumiy baxolaydi. 5. Laboratoriya ishi bajaradi.	Kichik guruxlarga bulinadilar Tomosha kiladilar. Katanashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar.
38- yakuniy bosqich (20 daqiqa)	1. YAKunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

### Nazariy qismi

YOg'lar eg' to'qimasining ixtisoslashgan alohida hujayralarida – adipocitlarda (lipocitlarda) to'planib boradi. YOg' to'qimasi umumiy massasining 90% yaqini eg'lar ulushiga to'g'ri keladi. Eg' hujayrasi hajmining ko'p qismini yupqa mitoplazma qatlami bilan o'ralib turadigan yog' tomchisi tashkil etadi. YOg' hujayrasida yadro, mitoxondriyalar va boshqa hujayra strukturalari bo'ladi. YOg'lar lipoproteidlardan olib kelingan yog' hujayralarining o'zida glyukozadan hosil bo'ladi.

Lipoproteidlarning yog'i lipoproteidlipaza ta'sirida yog' to'qimasi kapillyarlarida parchalanadi. YOg' kislotalari yog' hujayralariga o'tib, bu hujayralarida yana triacilglicerol tarkibiga qo'shib ketadi: bunda yog' hujayralarida glyukozadan hosil bo'ladigan  $\alpha$ -glicerofosfatdan foydalaniladi.

Depolarda to'planib turgan yog'lar yog' hujayralaridagi lipazalar ta'sirida yog' kislotalar hamda gliceringacha gidrolizlanishi yo'li bilan safarbar bo'ladi. YOg' kislotalari qonga tushib, bu erda albumin bilan nokovalent birikmalar hosil qiladi va bu shaklda qon o'zini bo'ylab tashib boriladi. Glicerol erigan holatda tashiladi va asosan jigarda ushlanib qoladi. Jigarda glicerol  $\alpha$ -glicerofosfatga aylanadi. U glyukoneogenez reaksiyasiga kirishishi ekin glikoliz reaksiyalari bilan katabolizmning umumiy yo'li reaksiyalarida oksidlanishi mumkin.

Qondagi yog' kislota kontsentratsiyasi katta emas. Barcha qon lipidlarining atigi 1-3% ularning ulushiga to'g'ri keladi, xolos. Qondagi yog' kislotalarning yarim umri ham juda qisqa – atigi 2-4 minut. YOg' kislotalari yog' to'qimasidan ist'emoilchi organlarga jadal oqim bo'lib o'tib turadi, degan ma'noni anglatadi. Bu oqim tezligi yuqori bo'lganligidan tashib beriladigan modda kontsentratsiyasi past bo'lgan taqdirda ham talaygina miqdorda – sutkasiga 150 g atrofida yog' kislotalar etkazib berishini ta'minlaydi.

Adrenalin xuddi glikogeni safarbar etish mahalladagidek mexanizm bilan, ya'ni cAMP sintezini, proteinkinazaning aktivlanishi va lipazaning fosforillanishi o'z ichiga oluvchi ketma-ket reaksiyalar orqali ta'sir ko'rsatib, to'planib turgan yog'larning safarbar etilishini faollashtiradi. Buyrak usti bezlari xromafin to'qimasining o'smalarida – fenoxromonitomalar degan kasallikda qondagi adrenalin (shuningdek noradrenalin) kontsentratsiyasi juda ko'payib ketgan bo'ladi; shunga ko'ra bunday kasallar qondagi yog' kislotalar kontsentratsiyasi sog'lom odamlariga qaraganda necha o'n barobar ko'p bo'ladi.

To'planib turgan energetik materialning ikki shakli – glikogen bilan yog'lar – o'z navbati bilan safarbar bo'ladi: ochlikda, jismoniy ish vaqtida birinchi navbatda asosan glikogen zahiralardan foydalaniladi, keyin esa eglar safarbar bo'lishining tezligi asta-sekin ortib boradi. Qisqa muddatli jismoniy nagruzkalar amalda glikogen hisobiga energiya bilan to'la-to'kis ta'minlanadi, uzoq davom etadigan jismoniy xarakterli paytida yog'lar ham sarf bo'lib boradi. Masalan, uzoq masofaga xarakterli paytida mushaklardagi glikogen va qondagi yog' kislotalari miqdorining o'zgarishiga qarab shu to'g'rida fikr yuritsa bo'ladi.

YOg' bosishi, semizlik. Ovqat bilan kiradigan va jigarda sintezlanadigan yog'larning ko'p qismi yog' to'qimasida to'planib borish bosqichida o'tadi. Asosan uglevodli ovqat bilan ovqatlanilganda yog' zapaslari jigarda uglevodlardan yog'lar sintezlanishi hisobiga hosil bo'ladi. Normal bo'lgan odamda yog'lar tana massasining tahminan 15% tashkil etadi. Butunlay ochlik paytida bu zapas 5-7 hafta davomida sarflanadi; ya'ni u glikogen zapaslaridan ko'ra ancha ko'proq vaqtga etadi. Sog'lom odam normal ovqatlanib yurganida organizmda yog' to'qimasidagi yog'lar tinmay yangilanib turadi. Boshqacha aytganday yog' bir vaqtning o'zida va doimiy suratda bir xildagi tezlik bilan to'planib boradi va safarbar bo'lib turadi. Natijada yog' to'qimasidagi yog'lari bir necha kun ichida batamom yangilanib oladi. Uzoq ochlik vaqtida va muntazam jismoniy xarakterli paytida yog'lar safarbar bo'lishining tezligi to'planib borishining tezligidan katta bo'ladi va to'planib turgan yog' kamayib boradi. Aksincha, safarbar bo'lishi tezligi mudom to'planib borishi tezligidan kam bo'lsa, u vaqtda odam semirib uni yog' bosa boshlaydi.

YOg' bosishning hammadan ko'ra ko'p uchraydigan sababi iste'mol qilinadigan ovqat miqdori bilan organizm energiya sarflarining bir-biriga to'g'ri kelmay qolishidir. Odam haddan tashqari ko'p ovqat eydigan mahalda, gipodinamiya paytida va ayniqsa ana shu ikkala omil birga qo'shilganda shu xildagi nomuvofiqlik yuzaga keladi.

Ovqat iste'moli bilan energiya sarflarining bir-biriga nechog'lik mos kelishi lozimligi bunday hisobdan ko'rinib turadi: har kuni atigi 3 gr (quruq moddasiga aylantirib hisoblaganda) ortiqcha ovqat eyilganda 10 yil mobaynida tahminan 10 kg atrofida ortiqcha tana massasi to'planib qolgan bo'lur edi. Ochlik, ishtaha va to'qlik hissiga aloqador mexanizmlarning o'zi ana shunday aniqlikni ta'minlab berishi amiri mahol.

Organizm yog'larning meyoridan ko'p to'planishi kuzatilsa semizlik deb nomlanadi va bu quyidagi holatlarda kuzatiladi:

- 6) alimantar faktor: iste'mol qilingan ovqatning kaloriyasiga nisbatan sarflanayotgan energiya tengligi buzilgan holda. Natijada yog'lar to'planib semizlik vujudga keladi;
- 7) gipotalamus shikastlanganda: ma'lumki yog'lar almashinuvi gormonal boshqaruvga ega va gipotalamus shikastlanganda ishtaha markazi boshqarishi buzilib ochofatlik holatlari kuzatiladi, ko'p ovqat iste'mol qilish semirishga sabab bo'ladi;
- 8) irsiy semizlik; ma'lumki ota-ona semizlikka moyil bo'lsa genetik axborotga ko'ra farzandlari ham moyil bo'ladi. Bu irsiy axborot dominant xususiyatiga ega;
- 9) meyoridan ko'p uglevodlar iste'mol qilish energiya manbai sifatida asosan uglevodlar sarflanib yog'lar zahirasi ortadi. SHu bilan birga uglevodlar iste'mol qilish doimo insulin ishlab chiqarishga majbur qiladi va bu gormon yog'larning zahirada to'planishiga sababchi bo'ladi.
- 10) Qalkonsimon bezning gipofunktsiyasi: qalkonsimon bez ishlab chiqaradigan gormonlar umumiy modda almashinuvini boshqaradi va bu gormon miqdori kamayishi modda almashinuvining susayishiga olib kelib zahira moddalarning to'planishi bilan kuzatiladi.

#### **YOg'lar sarflanishining kuchayishi eki kaxeksiya.**

YOg'lar sarflanishining kuchayishi va organizmning o'ta ozib ketishi kaxeksiya deb nomlanadi. Bu holat quyidagi omillarga bog'liq:

A) alimantar omil: iste'mol qilgan ovqat kaloriyasi jihatidan past bo'lib sarflanayotgan energiya yuqori bo'lgan holatlarda;

B) saraton kasalligi rivojlanayotganda; o'sma to'qimasida modda almashinuvi kuchaygan bo'lib butun organizmdan energiya moddalarni tortib oladi, natijada ozib ketishi kuzatiladi.

V) qandli diabetda; modda almashinuvi yuqorida ko'rsatilgan va yog'lar asosan glyukoza sinteziga sarflanadi.

G) gipertireozda: qalkonsimon bez gormonlari asosiy modda almashinuvini kuchaytirib yuboradilar.

YUqorida ko'rib o'tkanimizdek, ATF sinteziga olib keladigan barcha asosiy metabolik jaraenlarning tezligi ATF sarfi tezligi bilan musbat teskari aloqa mexanizm bo'yicha idora etib boriladi: ATF nechog'lik ko'p sarflanadigan bo'lsa, sintezining tezligi shuncha katta bo'ladi (nafas nazorat, glikoliz, uqrat uqikli idora etish). Organizm tashqi ish bajarish uchun tegishli energiya sarflanmagan paytida ham oziq moddalarni katabolizmga kirita oladigan bir qadar imkoniyatga ega bo'lsa ajab emas. Ana shu mexanizm ortiqcha ovqat iste'mol qilinganida yog' to'planib borishiga yo'l qo'ymasligi mumkin bo'ladi.

Ovqat iste'moli va katabolizmni idora etishda endokrin sistemasi qatnashadi, shu munosabat bilan semirish, yog' bosishi talaygina endokrin kasalliklarning xarakterli belgisidir.

Ovqat bilan xolesterinni tushib turishi va organizmdagi sintezi o'rtasidagi muvozanat, o't kislotalari hamda xolesterinning chiqarib tashlanishi o'rtasidagi muvozanat buziladigan bo'lsa, u holda to'qima hamda qondagi xolesterin konsentratsiyasi o'zgarib qoladi. Buning eng jiddiy oqibatlari qondagi xolesterin konsentratsiyasining ko'tarilishiga (giperxolesterinemiya) bog'liqdir: bunda **ateroskleroz va o't-tosh kasalliklari** bilan og'rib qolish ehtimoli ortadi.

**O't-tosh kasalligida** o't tarkibiy qismlari cho'kib, kristallanib qolishi natijasida o't pufagi eki o't yo'llarida toshlar hosil bo'ladi. O't toshlarning ikki turi tafovut qilinadi: tarkibida 7% ko'ra ko'proq xolesterin bo'ladigan asosan xolesterin toshlari va asosan bilirubin toshlari. Xolesterin toshlari ko'proq barcha bemorlarning tahminan 2/3 qismida uchraydi.

Xolesterin toshlari o'tda uchta fazada mavjud bo'lishi mumkin. SHu fazalarning biri tarkibida xolesterin, o't kislotalari va fosfatidilxolin bo'ladigan aralash miqellalardir. Ikkinchi fazasi o'tdagi suv bilan o'ralib turadigan, miqellalardan tashqarida bo'ladigan suyuq kristalik xolesterin. Uchinchi fazasi qattiq kristalik xolesterin, cho'kma. Suyuq kristalik fazasi turg'un bo'lmaydi: xolesterin undan e miqellalarga eki cho'kmaga o'tib ketishga harakat qiladi. O't kislotalari sintez (eki ekskretsiyasi) kamayishi ehud xolesterin sintezining kuchayishi xolesterinning nisbati olganda ortiqcha bo'lib qolishiga, mavjud miqellalar o't xolesterinning hammasini o'ziga jo kila olmaydigan holatga olib kelishi mumkin, bunda o't xolesterin bilan to'yinib qoladi. Qattiq kristalik fazasi, ya'ni xolesterinli toshlar xuddi ana shunday sharoitlarda hosil bo'ladi. O'tning dimlanib qolishi, o't pufagi va yo'llarining yallig'lanishi kasalliklari xolesterin cho'kib tushishiga qulaylik tug'diradi.

Oqsil konglomeratlari eki tushgan epiteliy hujayralari kristallanish markazi bo'lib hizmat qiladi, xolesterin shularning ustiga qavat-qavat bo'lib cho'kib tushaveradi. Toshlar ko'pincha navbatlashib eki bir talay, yirik (tovuq tuxumidek keladigan) eki mayda (qum) bo'lishi mumkin. Toshlar o't pufagi va yo'llarining tortishib-qisqarib

turishiga, ya'ni spazmga sabab bo'ladi, bu bemorga og'riq hurujlari bo'lib seziladi. Toshlar o't yo'lidan o't oqib o'tishini qiyinlashtiradi, ba'zida esa butunlay to'xtatib qo'yadiki, bu toshlarning yanada tezroq o'sib, kattalanib borishiga olib keladi.

O't-tosh kasalligi davolashning asosiy usuli hozir ham toshlarni xirurgik yo'l bilan olib tashlash deb hisoblanadi. Biroq endilikda davoning boshqa usulni – xolesterin sintaza boshqaruv fermentini GMG-KoA-reduktazani xenodezoksixolat kislotani ingibirlab qo'yadi. Kuniga 1 gr xenodezoksixolat kislotasi (ursodezoksixolat kislotasi) ichib turilganida xolesterin sintezi ikki barobar susayib, uning o'tidagi konsentratsiyasi kamayadi; o't kislotalari konsentratsiyasi preparat yuborilganligi tufayli organizmning o'z o't kislotalari ko'payib qolishi natijasida, aksincha, ortadi. Bunday sharoitlarda xolesterin cho'kib tushishi to'xtashi bilan bir qatorda mavjud toshlarning erib ketishi ham mumkin bo'lib qoladi; kattaligi no'hatdek keladigan toshlar taxminan yarim yil davomida erib ketadi. Ravshanki, toshlar asosan xolesterindan iborat bo'lsa, ana shu oddiygina davoning bunday usulini qo'llanishi mumkin; bilirubinning erituvchanligi o't kislotalariga bog'liq emas.

**Giperlipoproteidemiya** – qonda lipoproteidlar miqdorini ortishi.

Giperlipoproteidemiya quydagi xillari kuzatiladi: tug'ma ekin oilaviy, alimantar, qandli diabetda, spirtli ichimliklar iste'mol qilganda va nefrozlarda.

**Tug'ma ekin oilaviy giperlipoproteidemiya** irsiy kasallik bo'lib lipoproteidlipaza fermenti sintezlanishi buzilgani ekin sustligi natijasida kelib chiqadi. Xilomikron yog' kislotasi va gliueringa aylanmaydi. Lipoproteidlipaza endotelial hujayralar yuzasida membranaga bog'liq shaklda bo'ladi va u erda xilomikron almashinuvi sodir bo'lmaydi. Natijada qonda ZPLP miqdori ortib ketadi.

**Alimantar giperlipoproteidemiya** – yog'liq ovqat iste'mol qilgandan so'ng 1-2 soat o'tgach qonda lipoproteidlar miqdori ortadi. 4-6 soatdan keyin ularning miqdori eng yuqori ko'rsatkichga etadi. Agar odam shu vaqt orasida yana yog'liq ovqat iste'mol qilsa qon tarkibida lipoproteidlar miqdori ancha vaqt davomida meyerga kelmaydi.

**Qandli diabetda giperlipoproteidemiya** – asosan insulin gormoni etishmasligi natijasida hujayralar ichida glyukoza zahirasi etishmay glyukoneogenez reaksiyalari kuchayib ketadi. Glyukoneogenez reaksiyasida glyukoza yog' kislotalaridan qayta sintezlanadi va natijada qonda yog'lar ya'ni lipoproteinlar miqdori ortadi. Kasallar uglevod ovqatlarni iste'mol qila olmaydilar va ularning rationsi asosan yog'liq va oqsilga boy bo'lgan ozuqalardan iborat. Bu holat yanada qonda lipoproteinlar miqdorini ortishiga olib keladi.

**Nefrozlarda giperlipoproteidemiya** – nefroz buyrak kasalligi bo'lib asosan siydik orqali oqsillarning yo'qotishi bilan ro'y beradi. Oqsillar qondagi onkotik bosimni belgilab turadigan modda va bu bosimni saqlash uchun organizm zahiralardan boshqa past molekulyar moddalarni safarbar etadi. SHuning uchun bu kasallikda qonda lipoproteidlar miqdori ortadi.

**Alkogol iste'mol qilganda** kuzatiladigan giperlipoproteidemiya – alkogol iste'mol qilganda organizmga energetik nuqtai nazardan qulay substrat kiritiladi. Etanol NAD kofermenti ishtirokida alkogoldehidrogenaza ta'sirida sirka kislotasi xosilasiga aylanib undan asetil-KoA hosil bo'ladi. Ma'lumki, asetil-KoA uqrat uqkligiga kirib ko'p miqdorda energiya hosil qiladi. Organizmdagi energiya manbai sifatida iste'mol qilingan yog' kislotalar va trigliueridlarga muhtojlik kamayib ularning qondagi miqdori ortadi.

**Ateroskleroz nazariyalari.** Hozirgi vaqtda bioximiklar tomonidan yaratilgan bir necha ateroskleroz nazariyalari mavjud. SHulardan Anichkovning infiltratsion nazariyasiga binoan «Xolesterinsiz ateroskleroz bo'lmaydi» degan fikr asosida kelib chiqqan. Boshqa nazariyalarga binoan lipoproteinlarning oqsil qismida o'zgarish bo'lib, u organizmlarga yot bo'lgan holda immunologik reaksiyalar kuchayishiga olib keladi (Klimovning autoimmun nazariyasi). Amerikalik olimlar Golsdsteyn va Braunlar tomonidan yaratilgan nazariyaga binoan ateroskleroz kelib chiqishi dislipoproteidemiya ahamiyati cheksiz. Ushbu nazariyalarga qisqacha to'xtab o'tamiz. Autoimmun nazariya (A.N. Klimov) – odam organizmida autoimmun xossalriga ega bo'lgan ZJPLP ekin ZPLP hosil bo'ladi. Bu lipoproteinlarning oqsil qismlariga qarshi antitelo ishlab chiqariladi. Immun kompleksi – antitelo ishlab chiqariladi. Immun kompleksi – antitelo va ZJPLP hosil bo'ladi. Bu esa endotelial hujayralar o'tkazuvchanligini buzilishi va kompleksni tomir devorida to'planishiga sababchi bo'ladi. Arterial qon tomir devorini o'tkazuvchanligi ortishi arteriyaga lipoproteinlar singib kirishiga qulay sharoit tug'diradi.

ZYULP tuzilishi quydagicha bo'lib 7-12 nm diametriga ega va markazida gidrofob yog' qismi va atrofida fosfolipid va globulyar apoproteid qatlami bo'ladi. Bu qatlam zarrachani eruvchanligini ta'minlaydi.

Oqsil qismi 2 xil apoproteidlardan iborat: apo-A va apo-S. Apoproteind Aning apo-A-1 apo-2lar oqsil qismini 90% tashkil etadi. Ular o'zaro aminokislotalar tarkibi bilan farqlanadi, birlamchi va ikkilamchi strukturalari va immunologik xususiyatlari bilan farq qiladi. Apoprotein-A-1 ning molekulyar massasi 28000 va apo-2 ning – 17.000 dal'tonga teng.

**Tanjir kasalligida** butunlay apo-A-1 bo'lmay apo-A-2 esa faqat 6% ni tashkil qiladi. Oqsil qismining 5% apo-S tashkil etadi va ZJPLPni asosiy qismini tashkil etadi.

**Anichkovning infiltratsion nazariyasi** eksperimental hayvonlarda xolesterin ko'p miqdorda kiritilganda ateroskleroz kasalligi keltirib chiqarilgan. Ammo bu xastalik xolesterin berish to'xtagandan so'ng qayta tiklana boshlangan shuning uchun bu nazariya ko'proq tarixiy ahamiyatga ega.

**Golsdstein va Braunlar nazariyasiga** ko'ra ateroskleroz kelib chiqishiga asosan dislipoproteidemiya ahamiyatga ega. Kapilyarlar endotelial hujayralarning yuzasida maxsus reseptorlari bo'lib, ular ZPLPlarni bog'lab plazmadan hujayraga botib kiradilar. Natijada xolesteringa boy bo'lgan lipoproteid hujayraga uni olib kiradi.

Hujayra lizosomalarda ZPLP va xolesterin efilari gidrolizga uchrab erkin xolesterin hosil bo'ladi. Hujayrada to'planib qolgan xolesterin u erdan ZYULP tarkibida olib chiqib ketiladi. Qon tarkibida dislipoproteinemiya vujudga kelganda xolesterin hujayrada to'planib qoladi. Bunga ko'maklashuvchi omillardan biri – yuqori qon bosim. Elektron mikroskop ostida bunday hujayralar «ko'piksimon» ko'rinishiga ega bo'ladi. Ortiqcha xolesterinni sarflash uchun hujayralar bo'linishi kuzatilgan ammo bu yanada qon tomirlar toraishiga olib keladi. Ateroskleroz birinchi navbatda yurak ishemik kasalligi bilan kuzatiladi.

**Ateroskleroz kasallikni olib keluvchi havfli omillar** bir necha guruhga taqsimlanadi.

3. **aniqlangan omillar:** dislipoproteidemiya, giperxolesterinemiya, arterial gipertenziya, chekish
4. **tahmin qilinaetgan omillar:** semizlik, emotsional hayajonlash, kamxarakatlik, irsiy omil va boshqalar.


Ateroskleroz va yurak ishemik kasallikni bartaraf etish biokimeviy yo'llar shu omillarga bartaraf berishdan iborat.

**Lipoproteinlar almashinuvining buzilishlarini davolashning asosiy tamoillari:** 10% yog'lar qabul qilishini kamaytirish, ovqat tarkibida to'yingan yog' kislotalar miqdorini amaytirib, to'yinmagan yog' kislotalar miqdorini hamda kletchatka miqdorini oshirish, margarin va turli yog'larni o'simlik moylari bilan almashtirish, xolesteringa boy ozuqa mahsulotlarini kam ist'emol qilish, osh tuzi miqdorini kamaytirish.

**Ketogenez.** Keton va aqeton tanachalariga aqetosirka,  $\beta$ -oksibutirat va aqetonlar kiradi. Qonda keton tanachalar miqdori juda kam bo'ladi. Keton tanachalar 2 yo'l bilan sintezlanadi. Oz miqdorda  $\beta$ -oksidlanishning oxirgi 4 uglerodli mahsulotidan xosil bo'ladi. Keton tanachalarining asosiy qismi 2 molekula aqetil-KoA ning aqetoaqetiltransferaza fermenti ta'sirida kondensaqiyalanishi natijasida xosil bo'ladi.



Deaqillanish gidroksimetilglutaril-KoA-sintetaza va gidroksimetilglutaril-KoA-liaza fermentlari ta'sirida aqetoaqetat xosil bo'ladi.



Undan  $\beta$ -oksibutiratdehidrogenaza ta'sirida va qaytaruvchi sifatida NADN<sub>2</sub> ishtirokida  $\beta$ -oksibutirat hosil bo'ladi, aqetoaqetatdekarboksilaz ta'sirida dekarboksillanishi natijasida esa aqeton hosil bo'ladi.

Qandli diabetda keton tanachalarini qondagi miqdori 20 mmol/l dan ortadi. Hosil bo'lgan aqetoaqetil transferaza ta'sirida aqetoaqetil-KoA aylanadi. Bu reaksiyada bir molekula sukqinil-KoA sarflanib sukqinat hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan aqetoaqetil-KoA XS-KoA va tiolaza ta'sirida 2 molekula aqetil-KoAga aylanib shavelsirka kislotasi bilan qo'shilib uqtrat hosil qiladi va Krebs halqasiga kiradi. Demak, keton tanachalarini qayta limon halqasiga kirish va oksidlanishi uchun etarli miqdorda shavelsirka kislotasi bo'lishi kerak. Och qolganda, qandli diabetda glyukoza etishmaganligi sababli sukqinat-KoA va shavelsirka kislota etishmagani uchun keton tanachalar miqdori qonda ortadi. SHuning uchun qandli diabetni og'ir shaklida, komatoz holatida kasal og'zidan aqeton ishi keladi. Demak, sukqinil KoA va shavilsirka kislota etishmasligi keton tanachalari sarflanishi susayadi va qondagi miqdori ortadi. YUrak va skelet mushaklarida keton tanachalar o'ziga mos metabolitlar deb hisoblanadi. Sog'lom odamda keton tanachalar kam hosil bo'ladi va faqat ovqat tarkibida yog'lar uglevodlarga nisbatan ortib ketsa kuzatiladi.

**Ketonemiya** – qonda  $\beta$ -oksibutirat va aqeton miqdori ortishi aytiladi.

**Ketonuriya** – siydikda keton tanachalarining miqdori ortishi aytiladi.

Sog'lom odamda siydikdagi keton tanachalari miqdori 125 mg/100 ml teng. Keton tanachalarning salbiy ta'siri – ular o'rta kuchli kislota xossalriga ega bo'lib siydikda anion shaklida bo'ladi. Siydik bilan chiqatgan keton tanachalar natriy ionlari bilan bog'lanib chiqadilar. Qonda va boshqa suyuqliklarda ketonlarni ko'payshi aqidoz eki ketoaqidozga olib keladi. Kationlar o'z navbatida suvni organizmdan chiqib ketishiga sababchi bo'ladilar va natijada nerv tizimida arefleksiya va koma holati kuzatiladi.

### Amaliy qismi

#### Mavzuga doir bajariladigan laborator ishlar:

#### Qon zardobi tarkibidagi umumiy xolesterinni Pьka usuli bilan aniqlash.

№	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	Quruq va toza probirkaga 2 ml ishchi reaktiv solinadi	0	20
2.	Ustiga devor bo'ylab 0,1 ml qon zardobi qo'shiladi	0	20
3.	Probirkadagi suyuqlik 10-12 marta chayqatiladi va 37°S li termostatga 20 daqiqaga joylashtiriladi	0	20

4.	Nazorat tajribasi uchun quruq probirkaga 2 ml ishchi reaktiv solinadi va yuqoridagi ish tartibi o'tkaziladi	0	20
5.	Eritmaning rang zichligi nazorat tajribasi qarshisida, qizil nur fil'tr to'liq uzunligidagi FEK da ko'riladi	0	20
6.	Olingan natijalar taxlili va xulosa.		
	Jami		100

### Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar:

#### «Aql xujumi»

Skenariy: O'rta bitta mavzu tashlanadi. Talabalar shu mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Kotiba tayinlanadi. O'xshash fikrlar birlashtiriladi. 5-7 daqiqa vaqt beriladi. Oxirida eng qiziqarli fikrlar alohida ajratiladi va baholanadi. Qoniqarsiz baholanmaydi. Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va talabada fikrlash diorasi kengashi kuzatiladi.

#### Interaktiv usul savollari:

1. YOg'larning rezervlanishi va mobilizatsiyasi.
2. Bu jaraenni boshqarilishi.
3. Giperxolesterinemiya va uni aterosklerozni rivojlanishida ahamiyati.
4. O't-tosh kasalligini rivojlanishi va davolash usullari.
5. Keton tanachalar sintezi va parchalanishi.
6. Ketonemiya, ketonuriya.
7. Giperlipidemiya, semirish, sfingolipidozlar.
8. Giperlipoproteinemiyalar.
9. Ateroskleroz nazariyalari.
10. Giperxolesterinemiya va ateroskleroz rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar.

#### Vaziyatli masalalar:

1. Giperxolesterinemiya moyil bo'lgan bemor giperxolesterinemik krizga tushdi.  
A) Ovqat tarkibi nimadan tashkil bo'lgan?  
B) Giperxolesterinemik krizga tushish sababi nimada?
2. Bemorga jinsiy gormon buyurilgan. Sababi ateroskleroz va infarkt miokardaning ogoxlantiruvchi rivojlanishini aniqlash uchun.  
A) Qaysi gormonlar buyurildi?  
B) Bu gormonlar mexanizmi qanday?
3. Bemorning jigarida surunkali patologik lipidlarning so'rilishi buzilgan.  
A) Qanday shunga o'xshash gipovitaminozlar bemorningholatini emonlashtirdi?  
B) Ta'sir mexanizmini tushuntirib bering.

#### Testlar

1. Qandli diabetda va ochlikda qonda keton tanachalarning darajasi oshadi. Keton tanachalarga 3 birikma kiradi.  
1. Birinchisi:  
A. sirka kislotasi B. fosfor kislotasi  
V. folat kislotasi G. dioksiacetone  
D. aqetoaqetat\*
2. Qandli diabetda va ochlikda qonda keton tanachalarning darajasi oshadi. Keton tanachalarga 3 birikma kiradi.  
2. Ikkinchisi:  
A.  $\beta$ -oksimoy kislotasi\* B. sirka kislotasi  
V.  $\beta$ -aminomoy kislotasi G. butirat  
D. oksaloaqetat
3. Qandli diabetda va ochlikda qonda keton tanachalarning darajasi oshadi. Keton tanachalarga 3 birikma kiradi.  
3. Uchinchisi:  
A. aqetil-KoA B.  $\beta$ -ketoaqetil-KoA V. aqeton\*  
G. aqil-KoA D. butanol
4. Lipid almashinuvi buzilganda turli xil kasalliklar rivojlanadi. Ulardan biri oilaviy giperlipidemiya.  
1. Berilgan patologiyaning asosiy xossalari ko'rsating:  
A. giperproteidemiya B. glyukozuriya  
V. Albuminuriya  
G. ekzogen (alimentar) giperlipidemiya\*  
D. giperqlikemiya
5. Lipidlar almashinuvi buzilishida turli xil kasalliklar kelib chiqadi. U lardan biri - oilaviy giperlipidemiya.  
. Bu kasallikni keltirib chiqaradigan asosiy sabab  
A. xilomikronlar sintezining buzilishi  
B. zichligi yukori lipoproteidlar kupayishi  
V. qonda xilomikronlar sarflanishining buzilishi\*  
G. qonda oqsil miqdorining kamayishi  
D. zichligi past lipoproteidlar ko'payishi
6. Lipidlar almashinuvi buzilishida turli xil kasalliklar kelib chiqadi. U lardan biri - oilaviy giperlipidemiya.  
Kasallikni kelib chiqish molekulyar mexanizmi  
A. lipaza faolligini ortishi  
B. xilomikron sintezi buzilishi  
V. zichligi yukori lipoproteidning kamayishi  
G. qonda lipidlar kamayishi  
D. lipoproteidlipaza faolligining pasayishi\*
7. Ut-tosh kasalligini oldini olish va davolash u-n hozirgi vaktida kup kullanaetgan chorani kursating?  
egli ovkat eyish\$ xolesteringa boy ovkat eyish\$ oksilli ovkatni kup eyish\$ ma'lum vakt ovkat emaslik\$ xenodezoksixolat kislotani kabul kilish#
8. Ateroskleroz chakiruvchi xavfli omillarga nima kirmaydi?  
egli ozuka\$ stress\$ jismoniy xarakat\$

- giperxolesterinemiya\$ bilmayman#
9. Ochlik va qandli diabetda qon zardobida keton tanachalar miqdorini ortishi bog'liq:  
 a) aqetil-KoA miqdorini keskin ortishi\*  
 b) gliuerin miqdorini ortishi  
 c) aminokislotalar miqdorini ortishi  
 d) yog' kislotalar miqdorini pasayishi
10. Ketonemiya va ketonuriyaga xos asosiy hastaliklar:  
 A. qandli diabet\* B. ochlik\* V. ateroskleroz  
 G. gepatit
11. Organizmda aqetil-KoA ishlatilish 4 yo'lini ko'rsating:  
 A. yog' kislotalar sintezi\* B. glyukoza sintezi  
 V. Krebs xalqasida oksidlanishi\*  
 G. keton tanachalar sintezi\* D. xolesterin sintezi\* E. to'yinmagan yog' kislotalar sintezi  
 J. glikogen aminokislotalar sintezi  
 Z. katexolaminlar sintezi
12. Zahira eg'larni safarbar bo'lishini kuchaytiruvchi 4 xil fiziologik omilni ko'rsating:  
 A. Badanning sovqotishi\*B. Badanning qizishi  
 V. Stress\* G. Depressiya D. Adinamiya  
 E. Jismoniy mexnat\* J. To'qlik Z. Ochlik\*
13. Eg'lar so'rilishi va hazmlanishining buzilishiga sababchi bo'luvchi 3 ta patologik holatni ko'rsating:  
 A. Ichakka pankreatik shira tushmasligi\*  
 B. Oshqozon shirasining ko'p ishlanishi  
 V. Ichakka o't suyuqlig'ining tushmasligi\*  
 G. Ichakka pankreatik shirasining ko'p miqdorda tushishi  
 D. Oshqozon ichak yo'llari yallig'lanishi\*  
 E. Oshqozonda xlorid kislota sintezi pasayishi
14. YOg'larning ichakda xazmlanishiga ahamiyati yo'q:  
 A. o't kislotalarini B. xlorid kislotalari  
 V. Bikarbonatlarni G. sovunlashni  
 D. o't pigmentlarni\*
15. O't-tosh kasalligiga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablarga kirmaydi:  
 A. o't kislotalari miqdorini kamayishi  
 B. o'tda fosfolipidlarni kamayishi  
 V. giperxolesterinemiya  
 G. o'tda xolesterinni ko'payishi  
 D. o't kislotalarini ko'payishi\*
16. Jigarda xosil buluvchi 3 keton tanacha  
 A. aqetoaqetat B. aqeton G. beta-oksibutirat  
 D. aqetilKoA E. butanon V. sirka
17. Keton tanachalaridan kaysi ikki a'zolar foydalanadi  
 A. mushak B. buyrak V. jigar, mushak  
 G. nafas, xazm a'zolari
18. Sfingolipidozlarning 4 xilini kursating:  
 A. Goshe kasalligi B. Tey-Saks kasalligi  
 V. Fabri kasalligi G. Faber kasalligi  
 D. Xere kasalligi J. Giris kasalligi  
 Z. Kari kasalligi I. Polens kasalligi
19. Lipoproteinlarning sintezlanadigan 3 xil joyini kursating:  
 A. XM, 3JPL - enterocitlarda  
 B. 3JPL, 3YUL - gepatocitlarda  
 V. 3PL, 3YUL - kon plazmasida  
 G. XM, 3JPL - gepatocitlarda
- D. 3JPL, 3YUL, XM - enterocitlarda  
 I. barchasi kon plazmasida
20. Xolesterin sintezining 3 boskichini kursating  
 A. aqetil KoAdan - mevolanat  
 V. mevolanadan -skvalen  
 B. skvalendan - xolesterin  
 G. beta-oksibutiratdan betta-oksi-beta-metilglutaril  
 D. betta-oksi-beta-metilglutarildan 5-fosfomevolanat  
 I. jinsiy gormonlardan xolesterin
21. Xolesterinning 2ta vazifasini kursating  
 A. membrananing lipid komponenti  
 B. boshka steroidlarning utmishdoshi  
 V. membrananing asosi kurilish materiali  
 G. membrana orkali steroidlar utishini taminlaydigan kanallar D. xosil kiladi
22. YOg kislotalar sintetazasining 2 xil xususiyati:  
 A. Multiferment bulib, 6 fermentdan iborat  
 B. Fermentlar aqiltashuvchi oksil bilan boglangan  
 V. domen 1da 3ta, domen 2da 4ta, domen 3da 1ta fermeni bor  
 G. M-domenda APB, E polreduktaza, N domenda LDG, AsAT fermentlar bor
23. Xilomikronlarning kimyoviy tarkibini kursating  
 A. 2 % oksil B. 7% fosfolipid  
 V. 8% xolesterin G. 80%dan kup trigliuerid  
 D. 5% oksil I. 12% fosfolipid  
 E. 7% xolesterin N. 76%trigliuerid
24. Gliuerofosfolipidlar va neytral yoglar sintezida ishtirok etuvchi 4 xil moddani kursating:  
 A. gliuerin V. aqilKoA B. digliuerid  
 T. fosfatid kislota I. fosfor kislota  
 M. trigliuerid G. fosfatidil xolin  
 D. fosfatidil serin
25. Organizmdagi yoglarning deposi xisoblangan 3 a'zoni kursating  
 A. teri osti yog kabati B. charvi V. buyrak atrofidagi yog kabati G. talok D. buyrak  
 I. kon tomirlari
26. YOg depolaridan yoglarni mobilizatsiya kiluvchi gormonlarni kursating  
 A. adrenalin B. noradrenalin V. somatostatin  
 G. kaltsiferol
27. Organizmda xolesterindan xosil buladigan moddalarni kursating  
 A. ut kislotalari B. vitamin D V. steroid gormonlar  
 G. tiroksin D. glyukagon I. fermentlar
28. Xolesterinni organizmdan chikarish yullari  
 A. ut kislotalari xolida B. koprostanol  
 V. teri epiteliyasi tushganda G. nafas chikarganda  
 D. organizmdan chikarilmaydi I. buyrak orkali
29. Organizmda xolesterin sintezlanadigan asosiy joylar  
 A. jigar B. ingichka ichak devori V. teri  
 G. biriktiruvchi to'qima D. eritrocitlar  
 I. suyak to'qimasi
30. Organizmda sintezlanmaydigan kup tuyenmagan eg kislotalari  
 A. linol B. linolen V. araxidon G. nervon  
 D. eruk I. olein
31. Sfingolipidlarga kiradi  
 A. sfingomielin B. cerebrozid V. gangliozid  
 G. plazmalogen D. kardiolipin I. leqitin

32. Tok ut kislotalariga kiradi  
A. xolat kislotasi V. dezoksixolat kislotasi  
B. xenodezoksixolat kislotasi

G. glikoxolat kislotasi  
D. taurodezoksixolat kislotasi  
I. glikoxenodezoksixolat kislotasi

#### Joriy baxolash mezonlari.

86-100%	Talaba yoglarning tuplanish va safarbar etilishi jarayonining boshkarilishi, giperxolesterinemiya, ateroskleroz, ut tosh kasalligi ketanemiya, ketoxuriya, giperlipidemiya, semirish, sfingolipidoz kasalliklari tugrisida erkin tushuntirib bersa, laboratoriya ishini bexato bajarsa, xulosalar chikara olsa, ma'ruza matnlari yukori sifatda mavjud bulsa.
71-85,9%	Talaba yoglar almashinuvining boshkarilishi, lipidlar almashinuvining buzilishlari tugrisida yaxshi sifatli javob bersa, amaliy mashg'ulotni bajarishda ishtirok etsa ma'ruza matnlari tulik bulsa.
55-70,9%	Talaba yoglar almashinuvining boshkarilish, lipidlar almashinuvining buzilishlari tugrisida gapirganda xatoliklarga yul kuysa, amaliy ishni bajarishda passiv katnashsa, bayonnomasi bulsa, lekin ma'ruza matnlari bulmasa.
55% past	Lipidlar almashinuvining boshkarilishi va buzilishlari tugrisida juda sayoz bilimga ega bulsa, amaliy ishni va bayonnomasini sifatli bajararsa ma'ruza daftari bulmasa.

#### Nazorat uchun savollar

21. Giperxolesterinemiya va uni rivojlanishi.
22. Ateroskleroz va uni rivojlanishi.
23. O't-tosh kasalligi va uni rivojlanishi.
24. Ketonemiya, ketonuriyalarni rivojlanishi.
25. YOg' kislotalarni almashinuvining buzilishi.
26. Sfingolipidozlar va ularning sabablari.
27. Lipidlarning almashinuvini buzilishining biokimioviy asoslari.
28. Qondagi asosiy lipoproteidlar va ularning lipid almashinuvining buzilishidagi ahamiyati.
29. Xolesterin va fosfolipid biosintezini buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar.
30. Lipid almashinuvining bilish klinikadagi ahamiyati.

#### Tarkatma materiallar

Testlar, vaziyatli masalalar

#### Adabiyotlar

#### Asosiy

1. Berezov T.T., Korovkin B.F. Biologicheskaya ximiya, 2004
2. Nikolaev A.YA. Biologicheskaya ximiya, 2004
3. Kushmanova O.D., Ivchenko G.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1983
4. Aleynikova T.L., Rubцова G.V. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1988
5. Sultanov R.G., Xolmuxamedova N.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii , 1996(uzb)
6. Sabirova R.A., Abrorov A.A., Inoytova F.H., Aripov A.N. Biologik kimyo, 2007.

#### Qo'shimcha

1. Lenindjer A. Bioximiya, 1,2,3 tom 1990.
2. Mejler D. Bioximiya, 1,2,3 tom 1980
3. Strayer L. Bioximiya, 1,2,3 tom 1985
4. Stroeve E. A. Bioximiya . 1986
5. Uayt i dr. Bioximiya . 1981
6. Sultanov R.G., Ibragimov U.K. Sbornik bioximicheskix pokazateley organizma cheloveka, 1995
7. Xorst A. Molekulyarnaya osnovy patogeneza bolezney. 1982
8. Kolyman YA., Rem K. - G.Naglyadnaya bioximiya, 2000
9. Informatsion texnik vositalar: kinofilymlar, elektron darslik, kompyuter, kodoskop, slaydlar, tarqatma materiallar.
10. [www.tma.uzsi.net](http://www.tma.uzsi.net).
11. Bioximiya. Kratkiy kurs s uprajneniyami i zadachami. Severin E.S., Nikolaev A.YA., 2002.
12. Bioximiya. Severin E.S., 2004.

**MAVZU: OQSIL ALMASHINUVI. OQSILLARNI SO'RILISHI VA XAZMLANISHI**



Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -4 soat	Talabalar soni : 10-13 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
Mashg'ulot rejasi	Oqsillarning axamiyati, azot muvozanati va oqsillarning biologik qiymati. Tana oqsillarining dinamik holati. 2.Oqsillarning oshqozon-ichak yo'llarida hazmlanishi va so'rilishi. 3.Normal va patologik oshqozon shirasi. Oshqozon shirasining oqsillarni hazmlanishidagi ahamiyati. 4.Oqsillarni ichakda chirishi va chirish mahsulotlarini zararsizlantirish. 5.Oqsillarning tur va to'qima spetsifikligi. 6.So'rilgan aminokislotalarning taqdiri. Aminokislotalar katabolizmning umumiy yo'llari
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Organizmda oqsillar axamiyati, o'ziga xos funktsiyasi xususiyatlari haqida talabalarga tushuncha berish ularni oshqozon-ichak yo'llarida parchalanishi, so'rilishi va ichakda mikroorganizmlar ta'sirida chirishi, me'da ichak kasalliklarni kelib chiqish mexanizmi, turli patologik xolatlarda ularning o'zgarishga uchrashishini, shuningdek diagnostikasi hamda davolash yo'llarini tushuntirish.
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, amaliy mashgulot,suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik, amaliy mashgulot,laboratoriya jixozlari,компьютер
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1.Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2.Talabalarni mashgulotga tayyorgarligini tekshirish 3. Davomatni nazorat kilish	
1. Mavzuga kirish (20 daqiqa)	1. Mavzu buyicha ukuv mazmunini tayyorlash 2. Amaliy mashgulot taqdimot silaydalarini tayyorlash 3, Vaziyatli masalalar echish 4. Test echish	
2 – asosiy bosqich (130 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruxlarga bulib mavzu buyicha savollar beradi. 2.Kurgazmali plakatlardan foydalanadi. 3.Slaydalar,multimediyalarni namoyish qilish 4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi,faol ishtirokchi talabalarni ragbatlantiradi va umumiy baxolaydi. 5.Laboratoriya ishi bajaradi.	Kichik guruxlarga bulinadilar Tomosha kiladilar. Katsnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar.
39- yakuniy bosqich (20 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

**Nazariy qism**

**Iste'mol qilinadigan oqsil me'yor**

Azot muvozanatiga erishish odam sog'ligini saqlash va uni yuqori ishlash qobiliyatini ta'minlash uchun ovqatlanishda oqsil normasini bilish zarurdir. CHunonchi, katta yoshli aqliy mexnat bilan shug'ullanuvchi va o'rtacha jismoniy yuklamasi bor odam, energetik sarflanish 12000 kJ bo'lsa, sutkasiga 100-120 g oqsil iste'mol qilish kerak. Mexnat sharoiti o'zgarganda va energetik sarflanish yuqori bo'lsa, ushbu meyor xar bir 2100 kJ xisobiga 10g ga oshadi. Og'ir jismoniy ish bajaruvchi ishchilar sutkada 130-150g oqsil iste'mol qilishi lozim. Xomiladorlik va laktatsiya paytida, shuningdek, ayrim patologik xolatlarda (organizm siydik yoki asuit suyuqligi, eksudatlar oqsil yo'qotsa, masalan, nefritlarda, og'ir infeksiyon kasalliklarda, quyqanda, jaroxatlanganda va xakozo) oqsilga bo'lgan extiyoj keskinlashadi.

Aminokislotalarni ishlatilish yo'llari.

YOsh bolalarning oqsilga bo'lgan extiyoji birinchi navbatda ularning yoshi va tana massasi bilan aniqlanadi. Tananing xar bir kg og'irligiga 1,5 g oqsil ko'payib borishi lozimdir (Rubner koeffitsienti). Xattoki,

go'dak bolalar xam sutkada 55-72 g oqsil qabul qilinishiga muxtojdir. YOshi ulg'ayishi bilan (12-15 yoshgacha) oqsilning ushbu normasi katta yoshdagi odamning meyorigacha oshadi. Oqsilga bo'lgan extiyoj ma'lum darajada sutkalik raqionning kaloriyaligiga xam bog'liqdir. Ovqatlanish kaloriyasi etarli bo'lmasa, oqsillar birinchi navbatta organizmning energetik extiyojlarini qondirish uchun sarflanib, anobolik jarayonlarda foydalanilmaydi.

#### Musbat va manfiy azot balansi

Azot balansi – ovqat bilan birga tushgan azot miqdori bilan organizmda chiqarib turiladigan (asosan mochevina tarkibida) azot miqdori o'rtasidagi farqdir. Katta yoshdagi sog'lom odamda ovqat normal bo'lganida **azot muvozanati** qaror topadi, ya'ni organizmdan chiqariladigan azot miqdori unga tushadigan azot miqdoriga teng bo'lib turadi. Organizm unib-o'sib boradigan davrda shuningdek, xoldan toydiradigan kasalliklardan sog'ayib kelinayotgan paytda organizmga tushib turadigandan ko'ra kamroq azot chiqarib turiladi. Bu **musbat azot balansidir**. Odam qariganda, och qolganda va xoldan toydiradigan kasalliklar maxalida azot tushganidan ko'prok chiqib turadi. Bu **manfiy azot balansidir**.

Kaloriyalarning soni jixatidan etarli bo'lgan raqionda azot muvozanatini saqlash uchun zarur oqsillarning eng kam miqdori 30-50 g ni tashkil etadi. Ammo bu miqdor salomatlik va ish qobiliyati uchun zarur optimumni ta'minlab bermaydi. O'rtacha jismoniy mexnat bilan shug'ullanuvchi katta yoshli odam bir kecha-kunduzda 100g oqsil qabul qilishi kerak.

#### Oqsillarning biologik qiymati

YAxlit organizmni oqsil almashinuvining xolati faqat ovqat bilan qabul qilinadigan oqsil miqdoriga bog'liq bo'lmay, balki uni tarkibining sifatiga xam bog'liqdir. Xilma-xil oqsillar turlicha biologik qiymatga egadir. SHunga ko'ra organizmni plastik extiyojlarini qondirish uchun turli xil ovqat oqsillarni iste'mol qilish lozim. Extimol, iste'mol qilinadigan ovqat oqsilning aminokislota tarkibi tana oqsillari aminokislota tarkibiga qanchalik yaqin bo'lsa, bunday oqsillarning biologik qiymati shunchalik yuqoridir. Ammo, ovqat oqsilining o'zlashtirilishi darajasi oshqozon-ichak yo'li fermentlari ta'sirida uning parchalanishiga bog'liqdir. Qator oqsil moddalari, masalan jun, sochlar va boshqalar, tana oqsillari aminokislota tarkibiga yaqin bo'lishiga qaramay, ovqat oqsili sifatida ishlatilmaydi. CHunki ichak proteazalari ta'sirida gidrolizlanmaydi. Go'sht, sut, tuxum oqsillarining biologik qiymati birmuncha yuqoridir, chunki ularning aminokislota tarkibi tana oqsillari aminokislota tarkibiga yaqindir va ichak fermentlari ta'sirida oson parchalanadi.

Oqsillarning biologik qiymati tushunchasi bilan essenqial almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar degan savol chambarchas bog'langandir. SHuni ta'qidlash kerakki, odam organizmida 20 aminokislotalardan faqat 9 tasigina sintezlanib, ular almashtirib bo'ladigan aminokislotalardir; (uglevodlar va lipidlar almashinuvi maxsulotlaridan sintezlanadi), 3 tasi yarim almashinib bo'ladigan (jadval). Qolgan 8 ta aminokislota organizmda sintezlanmaydi, shuning uchun ular xayotiy muxim, essenqial yoki almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar deyiladi.

Jadval

Biologik qiymati jixatidan aminokislotalarni tasnifi

Almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar	YArim almashtirib bo'ladigan aminokislotalar	Almashtirib bo'ladigan aminokislotalar
Valin Leyqin Izoleyqin Treonin Lizin Metionin Fenilalanin Triptofan	Arginin Tirozin Gistidin	Alanin Asparagin kislotasi Gliqin Glutamin kislotasi Prolin Serin Tirozin Ijistein Ijistin

Ovqat aralashmasida almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalardan bironyasi bo'lmasa manfiy azot balansi rivojlanishi, ozib ketish, o'sishdan to'xtash, asab tizimi buzilishi xolatlari kuzatiladi.

#### Oqsillar xazimlanishi

Oqsillar va peptidlarni xazimlanishida ishtirok etuvchi proteolitik fermentlar oshqozon-ichak yo'llarida proferment sifatida sintezlanadi va ajralib chiqadi. Ular nafaoldir va o'zining oqsillarini parchalamaydi.

#### Me'dada oqsillarni xazimlanishi

Me'dada oqsillar pepsin proteolitik ferment ta'sirida xazm bo'lib boradi; bu jarayonda me'da shirasining xlorid kislotasi muxim roly o'ynaydi. Xlorid kislota me'da bezlarinin qo'shimcha xujayralarida xosil bo'ladi va me'da bo'shlig'iga ajralib chiqadi. Me'da bo'shlig'ida uning konqentraqiyasi 0,16 M (taxminan 0,5% ga) etadi. SHuning xisobiga me'da shirasiga rN qiymati past, 1-2 atrofida bo'ladi.

Emadigan yosh bolalarning me'da shirasida sutni ivitadigan renin fermenti bo'ladi: Sa<sup>2+</sup> ishtirokida renin sutning erigan kazeinlarini erimaydigan shaklga aylantiradi. Ma'lumki, suyuqliklar me'dada uzoq turmaydi. Sutni ivitishning fiziologik axamiyati uni oqsillari xazm bo'ladigan vaqtgacha me'dada ushlab turishdan iboratdir. Katta yoshli odamlar me'dasida renin bo'lmaydi, ularda sut kislotali muxit bilan pepsinning birgalikda ta'sir qilishi natijasida ivib ketadi. Me'dada pepsin ta'sirida oqsillardan turli xil kattalikda polipeptidlar va, extimol, uncha ko'p bo'lmagan miqdorda erkin aminokislotalar xosil bo'ladi.

Me'da shirasi rangsiz suyuqlik bo'lib, kuchli kislotali reaksiyaga egadir. Odamda sutkasiga 1,5 litr oshqozon shirasi ajralib chiqadi. Uning tarkibida suv, oqsillar, fermentlar (pepsin, gastriksin, renin, muin, gastrin gormoni, xlorid kislota, kislota muxit yaratuvchi fosfatlar va qator boshqa moddar) mavjuddir.

Me'da bezlarining asosiy xujayralarida pepsinning o'tmishdoshi – pepsinogen oqsil sintezlanadi. Uning molekulyar og'irligi 40000. Pepsinogen polipeptid zanjiri pepsin (molekulyar massasi 34000), pepsin ingibitori (molekulyar massasi 3100) va qoldiq polipeptiddan iborat. Pepsin ingibitori lizinni 8 qoldigi va argininni 4 qoldigini tutgani uchun kuchli asos xususiyatiga egadir. Me'da bezlarining shirasida pepsinogendan molekulasining 42 ta aminokislota qoldig'ini o'z ichiga oladigan N-uchli qismi ajralib chiqadi. Oldin polipeptid qoldiq ajraladi, so'ng ingibitorni ajralishi kuzatiladi. Qolgan qismining konformatsion tarzda qayta qurilishi natijasida aktiv markaz yuzaga keladi. Pepsin fermenti xosil bo'ladi. Pepsinogennning pepsinga aylanishi xlorid kislota yoki pepsinning o'z ta'siri bilan, ya'ni autokatalitik yo'l bilan borishi mumkin.

Xlorid kislota ishtirokida yuzaga chiqadigan reaksiya asta-sekin, xolbuki, autokatalitik jarayon juda tez o'tadi. SHunday qilib xlorid kislota ishtirokida xosil bo'lgan biroz miqdor pepsin me'da shirasi ajralib chiqqandan keyin ko'p o'tmay pepsinogen qogan qismining tezgina pepsinga aylanishiga olib keladi.

Pepsin peptid zanjirining uchlaridan olisdagi peptid bog'larini gidrolizlaydi, bunday peptidgidrolazalar **endopeptidazalar** deb ataladi. SHu munosabat bilan pepsin ta'siri natijasida me'dadagi oqsillar polipeptidlargacha parchalanadi. Pepsin rN 1-2,5 bo'lganda xammadan katta aktivlik ko'rsatadi. Pepsin ayniqsa, aromatik aminokislotalar karboksil gruppasida xosil bo'lgan peptid bog'larini uzadi. U deyarli barcha tabiiy oqsillarini parchalaydi. Alifatik va dikarbon aminokislotalardan xosil bo'lgan peptid bog'larga sekin ta'sir etadi. Ayrim keratinlar, protaminlar, gistonlar, mukoproteinlar bundan mustasnodir. Pepsin o'zining gidrolitik ta'sirini denaturatsiyaga uchragan oqsillarda kursatadi.

Proferment	Sintezlanish joyi	Faollanish joyi va faollashtiruvchi	ta'siri
Pepsinogen	Oshqozon shilliq qavati	Oshqozon bo'shlig'i. Pepsinogennning N-uchidan (42 aminokislota) peptidni XCl va pepsin (autokataliz) ta'sirida olib tashlanishi.	-x-Tir- -x-Fen-
Tripsinogen	Oshqozon osti bezi	Ichak bo'shlig'i. Ichak xujayralarida ishlab chiqiladigan enteropeptidaza va tripsin (autokataliz) ta'sirida tripsinogennning N-uchidan geksapeptidni uzib tashlash.	-Arg-x- -Liz-x-
Ximotripsinogen	Oshqozon osti bezi	Ichak bo'shlig'i. Tripsin ta'sirida.	-Tir-x- -Fen-x- -Tri-x-

Gastriksin molekulyar massasi bo'lincha pepsinga yaqindir (31500). Uning rN optimumi taxminan 3,5 teng. Gastriksin dikarbon aminokislotalardan xosil bo'lgan peptid bog'larga ta'sir ko'rsatadi. Meda shirasida pepsin/gastriksin nisbati 4:1 teng. YARA kasalligida uni gastriksin tomonga siljishi kuzatiladi. Me'dada bu 2 proteinazalarni birgalikda ta'siri organizmni turli xil ovqatlanishga moslashtiradi. Masalan, o'simlik va sut maxsulotlari bilan ovqatlanishda oshqozon shirasining kislotali muxitini qisman neytrallanishiga olib keladi va oqsillar pepsin ta'sirida emas, balki gastriksin ta'sirida parchalanishiga olib keladi.

Pepsin va gastriksin ta'sirida oqsillar polipeptidlar (albumozlar va peptonlargacha) parchalanadi, oqsillarning asosiy parchalanishi esa ingichka ichakda ketadi.

#### Xlorid kislota xosil bo'lish mexanizmi va axamiyati

Me'dada XCl xosil bo'lishining mexanizmi hozirgacha aniqlanmagan bo'lsa-da, ammo mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qonda NaCl dissoziatsiyasidan xosil bo'ladigan Cl<sup>-</sup> xujayra membranasidan o'tib, o'z navbatida, almashinuvining oxirgi maxsulotlari - N<sub>2</sub>O va SO<sub>2</sub> dan qoplovchi xujayralarda sintezlanadigan karbonat kislotalarning dissoziatsiyasi natijasida ajralib chiqadigan X<sup>+</sup> bilan birikadi. Xosil bo'lgan XCl so'ngra qoplovchi xujayralarga me'da bo'shligiga ajralib chiqadi. Ionlarning qon bilan qoplovchi xujayralar o'rtasidagi muvozanati xujayralardan qonga o'tuvchi manfiy zaryadlangan NSO<sub>3</sub><sup>-</sup> qondan xujayralarga o'tuvchi Cl<sup>-</sup> o'rniga almashinib o'tishi bilan erishiladi. Ushbu jarayonda ATF ning ishtirok qilishi taxmin qilinadi, chunki xlorid kislota sintezi energiya eltib berilishini talab etadi.

Xlorid kislotalarning quidagi biologik funktsiyalari mavjud:

1. pepsinogenni faollashtirish;
2. me'da shirasining kislotali muxitini ta'minlash;
3. ovqat oqsillarini denaturatsiyalash;
4. bakteritsid ta'siri
5. temirni so'rilishi.

Me'da shirasi tarkibida to'rt xil kislotalilik tafovut qilinadi:

- 1) xech qaysi birikma bilan bog'lanmagan xlorid kislota (erkin NSI);
- 2) oqsil bilan bog'langan xlorid kislota (bog'langan NCl);
- 3) erkin va bog'langan xlorid kislotalarning yig'indisi (umumiy NSI);

4) erkin, bog'langan va umumiy NSIning yig'indisi xamda meva shirasidan kislotali muxit yaratadigan boshqa nordon moddalarning yig'indisi (umumiy kislotalik).

Me'da shirasining ushbu kislotaliliklari indikator ishtirokida NaOX ning 0,1 mol/l eritmasi bilan titrlash yo'li orqali aniqlanadi. Umumiy kislotalilik fenoltalein indikator ishtirokida (rN ning o'tish chegarasi 8,2-10) 100 ml me'da shirasini titrlash uchun (NSI va boshqa kislotalik xususiyatiga ega bo'lgan moddalarning neytrallash uchun) sarflangan 0,1 mol/l NaOX miqdori bilan o'lchanadi. Umumiy kislotalilikning o'rtacha miqdori 40-60 mol/l ga teng. Erkin xlorid kislota dimetilaminoazobenzol indikator ishtirokida (rN 1,0-3,0) 100ml me'da shirasini neytrallash uchun sarflangan 0,1 mol/l NaOX miqdori bilan o'lchanadi. Uning o'rtacha miqdori 20-40 mol/l ga teng. Bog'langan xlorid kislota yuqoridagidek alizaringidrosul'fonat NaOX ishtirokida (rN 4,3-6,3) yoki fenoltalein va dimetilaminoazobenzol indikator yordamida aniqlangan umumiy kislotalilikni erkin kislotalilikdan ayirish yo'li bilan topiladi. Uning o'rtacha miqdori 10-20 mol/l.

Me'da shirasida kislotalilikni oshishiga **giperxloridriya** deyiladi (XCl oshishi xisobiga). Bu xolat ko'pincha me'da va o'n ikki barmoqli ichak yarasi va giperauid gastritda uchraydi. Me'da shirasida XCl kamayib ketishiga **gipoxloridriya** deyiladi (gipoauuid gastritda va me'da rakida kuzatiladi). Me'da shirasida faqat xlorid kislotaning bo'lmasligiga **axloridriya** deb ataladi (me'da raki va anauid gastrit uchraydi), xlorid kislota va pepsin fermentini bo'lmasligi **axiliya** deb ataladi (atrofik gastritda uchraydi).

### **O'n ikki barmoqli ichakda oqsillarning xazm bo'lishi**

O'n ikki barmoqli ichakda oqsillarga va me'dadan o'tgan turli xil kattalikda polipeptidlarga pankreatik va ichak shirasining fermentlari ta'sir qiladi. Xususan, oshqozon osti bezining proteolitik fermentlari tripsin, ximotripsin, karboksipeptidaza A va V lar ta'sirida oqsil va polipeptidlardan turli xil kattalikdagi peptidlar va erkin aminokislotalar xosil bo'ladi.

Me'da osti bezi xujayralarida tripsinogen, ximotripsinogen profermentlari, A va V prokarboksipeptidazalari, proelastaza sintezlanadi. Tripsinogenning aktivlanishi ichak xujayralari ishlab chiqaradigan enteropeptidaza fermenti ishtirokida o'tadi. Enteropeptidaza xam proteolitik fermentdir: U tripsinogenning N-uchidagi geksopeptidini ajratadi, shuning natijasida molekula qolgan qismi konformatsiyasi o'zgarib aktiv markaz yuzaga keladi – tripsin fermenti xosil bo'ladi. Me'da osti bezining boshqa xamma profermentlari xam qisman tanlab o'tadigan proteoliz yo'li bilan aktiv xolga keladi, natijada ximotripsin, A va V karboksipeptidazalar, elastaza degan fermentlar xosil bo'ladi.

Tripsin, ximotripsin, elastaza fermentlari – endopetidazalardir, va ma'mum peptid bog'lariga ta'sir ko'rsatadi. Tripsin asosan lizin va arginin aminokislotalarining karboksil guruxlaridan xosil bo'lgan peptid bog'lariga ta'sir etadi. Ximotripsin tirozin, fenilalanin va triptofan aminokislotalardan xosil bo'lgan peptid bog'lariga nisbatan faoldir. Elastaza esa polipeptid zanjirining lizindan xosil bo'lgan peptid bog'lariga ta'sir etadi. Karboksipeptidaza A – rux tutuvchi fermentdir va polipeptid zanjirining S-uchidagi aromatik va alifatik aminokislotalarni gidrolizlaydi. Karboksipeptidaza V esa faqat S-uchidagi lizin va argininni gidrolizlaydi. Ichak aminopeptidazalari rux yoki marganeu va uistein ta'sirida faollashadi va polipeptid zanjirining N-uchidagi aminokislotalarni gidrolizlaydi. Dipeptidazalar dipeptidlarni gidrolizlaydi, kobalst, marganeu va uistein ta'sirida faollashadi.

#### **Ichakda aminokislotalarning so'rilishi**

Oqsil gidrolizining maxsulotlari oshqozon-ichak yo'lidan asosan erkin aminokislotalar ko'rinishida so'riladi. Aminokislotalar so'rilishi maxsus transport tizimlari ishtirokida kechadi. Bu jarayon aktiv transport bo'lib Na<sup>+</sup> gradienti bo'lishini talab qiladi va Na,K-ATF-aza ishtirokida boradi. Aminokislotalarni tashish uchun taxminan 5 spetsifik transportyorlar mavjud:

1. neytral alifatik aminokislotalar uchun;
2. uiklik aminokislotalar uchun;
3. asosiy aminokislotalar uchun;
4. kislotali aminokislotalar uchun;
5. prolin uchun.

Ichakda juda oz miqdorda dipeptidlar va gidrolizmanmagan oqsillarni pinouitoz yo'li bilan so'rilishi kuzatiladi va xujayra lizosomalari ta'sirida gidrolizlanadi. CHaaloqlarda proteolitik fermentlar faolligining sustligi va ichak shilliq qavatining o'tkazuvchanligining yuqoriligi nativ oqsillarni so'rilishiga va shuning natijasida organizmning sezuvchanligini oshishi kuzatiladi. Bu esa ovqat allergiyasini kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

#### **Xazmlanish jarayonlarini boshqarilishi**

Oziq maxsulotlarni xazmlanishi me'da-ichak yo'llarida sintezlanuvchi gormonxos moddalar tizimi bilan boshqariladi (jadval). SHulardan gistamin – gistidinni dekarboksillanishidan xosil bo'ladi, gastrin, sekretin va xoleuistokinin – peptidlardir. Qolganlarning kimyoviy tuzilishi aniqlanmagan. Ularning xosil bo'lishi ovqatga va uning tarkibiga bog'liq. Me'daga ovqat tushganda gistamin va gastrin sintezlanadi, ular esa NSI va pepsinni ajralishiga olib keladi. Ximusni o'n ikki barmoqli ichakka o'tishi me'da suyuqligi ajralishini tormozlovchi enterogastronni qonga ajralishiga turtki bo'ladi. Ximusni ichakka o'tishi sekretin, xoleuistokinin-pankrezozimin, ximodenin, enterokrinin ishlab chiqilishiga sabab bo'ladi, ular esa xazmlanish uchun kerak bo'ladigan pankreatik va ichak shirasini ajralishiga olib keladi.

#### **Ichakda aminokislotalarning chirishi va chirish maxsulotlarning jigarda zararsizlantirish**

Ma'lumki, ichak mikroorganizmlar o'zlarining o'sishi uchun ovqat bilan ma'lum bir aminokislotalarning tushishiga muxtojdir. Ichak mikroflorasida xayvonlar to'qimasi fermentlaridan farq qiluvchi fermentlar sistemasi yig'indisi mavjud bo'lib, ovqat aminokislotalarining xilma-xil o'zgarishlarini katalizlaydi (shu jumladan, odam organizmiga xos bo'lmagan, xususan, chirishlik parchalanish). SHu tufayli ichakda aminokislotalar parchalanishini zaxarli moddalari - fenol, indol, krezol, skatol, vodorod sulfid, metilmerkaptan, xamda organizm uchun zaxarli bo'lmagan birikmalar-spirtlar, aminlar, yog' kislotalari, ketokislotalari, oksikislotalari va boshqalar xosil bo'lishi uchun optimal sharoit vujudga keladi. Ichak mikroorganizmlari faoliyati ta'sirida aminokislotalarning bu kabi o'zgarishlariga ichakda oqsillarning chirishi deb ataladi. CHunonchi, oltingugurt tutuvchi aminokislotalarning (uistin, uistein va metionin) ichakda asta-sekin va to'la parchalanishi natijasida vodorodsulfid ( $N_2S$ ) va metilmerkaptan ( $CH_3SH$ ) xosil bo'ladi. Diaminokislotalar – ornitin va lizin, dekarboksillanish jarayoniga uchrashi natijasida tegishli aminlar xosil bo'ladi – putreïn va kadaverin.

Aromatik aminokislotalar fenilalanin, tirozin va triptofanning bakterial dekarboksillanishidagi tegishli aminlar feniletilamin, parooksifeniletilamin (yoki teromin) va indoliletilamin (triptamin) xosil bo'ladi. Ichakning mikroblari fermentlari, ushbu jarayondan tashqari, uiklik aminokislotalar yon zanjirlarini parchalashi natijasida (xususan, tirozin va triptofanni) tegishli zaxarli moddalar: krezol va fenol, skatol va indol xosil bo'ladi.

Zaxarli moddalar (krezol, fenol, skatol, indol) darvoza venasi orqali so'rilgandan so'ng jigarga tushadi va sulfat kislotasi yoki glyukuronat kislotasi bilan kimyoviy birikib zararsiz juft kislotalar xosil bo'ladi (masalan, fenolsulfat kislotasi yoki skatolsulfat kislotasi). Ushbu kislotalar esa siydik bilan ajralib chiqadi. Jigarda arilsulfattransiraza va UDF-glyukuroniltransferaza fermentlari bo'lib sulfat kislotasi qoldigini uning bog'langan shakli 3-fosfoadenozin-5-fosfosulfatdan (FAFS), xamda glyukuronat kislotasi qoldigini uning bog'langan shakli uridildifosfoglyukuronat kislotadan (UDFGK) yuqorida ko'rsatilgan zaxarli moddalarga o'tkazilishini katalizlaydi. Indol (skatol kabi) dastlab indoksilgacha oksidlanadi (skatol skatoksilgacha), so'ngra bevosita FAFS yoki UDFGK bilan fermentativ reaksiyaga kirishadi. CHunonchi, indol efirsulfat kislotasi ko'rinishida bog'lanadi, uning kaliyli tuzi xayvon indikani deb atalib, siydik bilan ajralib chiqadi. Odam siydigida indikan miqdoriga qarab ichakda oqsillar chirish tezligi va jigarning funktsional xolati xaqida xulosa qilish mumkin.

Ko'pincha klinikada jigarning funktsiyasi va uning zaxarli moddalarni zararsizlantirish rolini aniqlash uchun benzoat kislotasi qabul qilingandan so'ng gippur kislotasi xosil bo'lishi va siydik bilan ajralib chiqish tezligi bo'yicha xulosa qilish mumkin.

#### **Endogen oqsillarni to'qimalarda parchalanishi**

Organizmda to'qima oqsillari doimo yangilanib turadi. Bir sutkada odam oqsilining 400g yangilanadi. Oqsillarning yangilanish tezligi turlichadir: bir necha minutdan to 80-120 kungachadir. SHulardan taxminan 100g aminokislotalar to'liq parchalanizga uchraydi.

To'qima oqsillarini gidrolizi to'qima proteinalari – **katepsinlar** ishtirokida boradi. Ular asosan lizosomalarda bo'lib, gidrolitik fermentlar xisoblanadi. Ammo katepsinlar boshqa xujayra organoidlarida xam uchraydi: mitoxondriyalarda, endoplazmatik turda, gyaloplazmada. Lizosomal katepsinlar kislotalidir, boshqa qismlardagi esa – neytral yoki kuchsiz ishkoriydir. Gidrolizga uchraydigan oqsil apparat Gol'dji va endoplazmatik turda autofagosomani xosil qiladi, so'ng birlamchi lizosoma bilan qo'shib autolizisga uchraydi. Ularning ta'sirini mitoplazmatik katepsinlar to'ldirib turadi.

Katepsinlar nafaqat rN muxiti, balki spetsifikligi bilan xam farqlanadi. Ular ekzo- va endopeptidazalarga bo'linadi, aktiv markazning katalitik guruxiga qarab tiol, asparagin va serinli katepsinlarga bo'linadi.

**Katepsinlarni biologik axamiyati.** To'qima oqsillarini gidrolizi ularning yangilanishiga, oqsil molekulasidagi nuqsonlarni yo'qotishga, endogen oqsillarni mobilizatsiyasiga kerakdir. Ular nafaqat parchalash, balki rekonstruksiya qilish uchun xam kerakdir. Katepsinlarni etishmasligi to'qima oqsillarini yangilanishini susaytiradi va ularda shikastlangan, sust funktsional faollikga ega bo'lgan oqsillarni to'planishiga olib keladi. Katepsinlarning qisman proteolizlash xususiyati – ularning reguliatorlik vazifasidan dalolat beradi. Maxsus neyrosekretor xujayralarda qisman proteolizlanish faol neyropeptidlar, mediatorlar va gormonlar xosil bo'lishiga olib keladi.

#### **Amaliy ish**

##### **Mavzuga doir bajariladigan laborator ishlar:**

##### **A. Oshqozon shirasi kislotaliligini aniqlash**

**Maqsad:** Oshqozon shirasi kislotaliligini aniqlash uquvlarini egallash.

##### **Bajariladigan bosqichlar:**

No	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	3 ta kolba olinadi	0	10
2.	Kolbalarga 5 mldan me'da shirasi solinadi.	0	10
3.	1-chi kolbaga 1-2 tomchi fenofalin, 2-chisiga 1-2 tomchi dimetilaminoazobenzol, 3-chisiga 1-2 tomchi alizarin qizil indikatorlari solinadi.	0	20
4.	Kolbalardagi suyuqlik yaxshilab aralastiriladi va har bir kolba 0,1 mol/l NaON eritmasi bilan titrlanadi..	0	30
5.	Kislotalilik miqdori titrlash uchun ketgan eritma miqdoriga nisbatan hisoblanadi va natijalar yoziladi.	0	20

6.	Olingan natijalar taxlili.	0	20
	Jami		100

**B. Oshqozon shirasi tarkibidagi bog'lanmagan NSIni aniqlash (1 usul)**

**Maqsad:** Oshqozon shirasi kislotaliligini aniqlash uquvlarini egallash.

**Bajariladigan bosqichlar:**

No	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	2 ta kongo indikator qog'ozchasi olinadi.	0	20
2.	1chi kogozchaga shisha tayoqcha yordamida bir tomchi 0,2 % li NS1 eritmasi, 2 chi qog'ozchaga me'da shirasi tomiziladi.	0	30
3.	Qog'ozcha har ikkala holatda ham ko'k rangga kiradi.	0	20
4.	Olingan natijalar taxlili.	0	30
	Jami	0	100

**V. Oshqozon shirasi tarkibidagi bog'lanmagan NSI aniqlash (2 usul)**

**Maqsad:** Oshqozon shirasi kislotaliligini aniqlash uquvlarini egallash.

**Bajariladigan bosqichlar:**

No	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	2 ta probirka olinadi.	0	10
2.	1 chi probirkaga 0,2% li NS1 eritmasi, 2 chisiga me'da shirasi 10 tomchidan solinadi.	0	30
3.	Har bir probirka ustiga 1-2 tomchi dimetilaminoazobenzol eritmasi tomiziladi.	0	20
4.	Har ikki probirkada rangli reaksiya kuzatiladi va qizg'ish rang paydo bo'ladi.	0	10
5.	Olingan natijalar taxlili.	0	30
	Jami		100

**8. Oshqozon shirasi tarkibidagi patologik tarkibiy qismlarni aniqlash.**

**A. Oshqozon shirasi tarkibidagi qonni aniqlash.**

**Maqsad:** Oshqozon shirasi tarkibidagi qonni aniqlash uquvlarini egallash.

**Bajariladigan bosqichlar:**

No	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	2 ta probirka olinadi.	0	10
2.	Probirkalarga 1 % li N <sub>2</sub> O <sub>2</sub> eritmasidan 5 tomchi solinadi.	0	10
3.	Probirkalarga 0,2 % li benzidinning spirtidagi eritmasidan 4-5 tomchi solinadi.	0	20
4.	1 chi probirkaga qon tutuvchi va 2 chi probirkaga qonsiz me'da shirasidan 20 tomchi tomiziladi.	0	10
5.	Rangli reaksiya kuzatiladi.	0	20
6.	Olingan natijalar taxlili	0	30
	Jami		100

**B. Oshqozon shirasida sut kislotasini aniqlash.**

**Maqsad:** Oshqozon shirasi tarkibidagi sut kislotasini aniqlash o'quvlarini egallash.

**Bajariladigan bosqichlar:**

No	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq to'g'ri bajardi
1.	2 ta probirka olinadi.	0	10
2.	Probirkalarga fenolning 2% li eritmasidan 20 tomchi solinadi.	0	10
3.	Probirkalarga temir (3) xloridning 1% li eritmasi binafsha rang hosil bo'lguncha tomiziladi	0	20
4.	1 chi probirkaga kislotaliligi kamaygan, sut kislota tutuvchi me'da shirasidan 1-3 tomchi solinadi.	0	10
5.	1 chi probirkadagi suyuqlik binafsha rangdan sariq-yashil rangga kiradi, 2 chi probirkadagi suyuqlikning binafsha rangi NS1 ta'sirida rangsizlanadi.	0	20
6.	Olingan natijalar taxlili.	0	30
	Jami		100

### «Miya xujumi»

O'rtaga bitta mavzu tashlanadi. Talabalar shu mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Kotiba tayinlanadi. O'xshash fikrlar birlashtiriladi. 5-7 daqiqa vaqt beriladi. Oxirida eng qoniqli fikrlar alohida ajratiladi va baholanadi. YOmon baxoga ball berilmaydi.

Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va talabani bilim safiyasini chuqurlashtiradi.

#### Interaktiv usul savollari:

- Oqsillarning ahamiyati, azot balansi va oqsilning biologik qiymati.
- Organizm oqsillarining dinamik xolati.
- Oshqozon ichak yo'llarida oqsillarning so'rilishi va xazimlanishi.
- Patologik va normal oshqozon shirasi. Oqsillar xazimlanishida oshqozon shirasining roli.
- Oshqozon shirasining kislotaliligi va ularni patologik xolatlarda o'zgarishi.
- Ekzo- va endopeptidazalar faollanishi, ularning nisbiy spetsifligi.
- pankreatit rivojlanish mexanizmi va davolash yo'llari.
- Ichak mikroflorasi ta'sirida aminokislotalarni chirishi va xosil bo'lgan mahsulotlarni jigarja zararsizlantirilishi.
- Katepsinlar, turlari va ahamiyati.

#### Vaziyatli masalalar:

1. Bemorning meda shirasi quyidagi ko'rsatkichlarga ega: rN i 6,0; umumiy kislotalagi 20 mmol/L; HCl ning erkin kislotalagi 8 mmol/L; birikkan HCl 3 mmol/L. Bu ko'rsatkichlarga qarab shifokor qanday hulosa chiqaradi va uni davolash rejalarini qanday belgilash lozim.

2. Bemorning me'da shirasi tarkibida xlorid kislotasi va pepsin yo'qligi aniqlandi. SHifokor qanday kasallik haqida fikr yuritish kerak. U davolash rejalarini qanday belgilashi lozim.

3. Bemor bolaning ishtahasi yo'q, ovqatning hazm bo'lishi qiyinlashib, u egan ovqatni qayt qilib tashlayapti. SHifokor qanday mulohaza yuritishi va qanday qilib bolani bu holatdan chiqarishi mumkin.

#### Testlar:

1. Bemorda jig'ildon qaynashi, o'tkir ovqat qabul qilgandan so'ng epigastriyada og'riqlari kuzatiladi.

- A. gipoaqid gastrit B. giperaqid gastrit  
V. oshqozon yara kasalligi\* G. o't yo'llari diskineziyasi D. o'tkir gastrit

2. Bemorda jig'ildon qaynashi, o'tkir ovqat qabul qilgandan so'ng epigastriyada og'riqlari kuzatiladi

II. Oshqozon shirasida qanday o'zgarishlar kuzatilishi mumkin:

- A. umumiy va erkin xlorid kislotani ortishi\*  
B. umumiy kislotalik va bog'langan xlorid kislotani ortishi  
V. umumiy kislotalikni ortishi, erkin xlorid kislotani kamayishi  
G. umumiy, bog'langan va erkin xlorid kislotani kamayishi  
D. umumiy kislotalikni kamayishi

3. Bemorda jig'ildon qaynashi, o'tkir ovqat qabul qilgandan so'ng epigastriyada og'riqlari kuzatiladi

III. Qanday preparatlar qo'llash tavsiya etiladi:

- A. gistamin N2-reseptorlari ingibitori, proton nasos ingibitorlari va shilliq qavat ximoya funktsiyasini ingibitorlari  
B. gistamin N2-reseptorlari faollashtiruvchilari, proton nasos ingibitorlari va shilliq qavat ximoya funktsiyasini faollashtiruvchilari  
V. gistamin N2-reseptorlari ingibitori, proton nasos ingibitorlari va shilliq qavat ximoya funktsiyasini faollashtiruvchilari\*

G. proton nasos ingibitorlari va biostimulyatorlar D. festal, mezimforte

4. Oqsillar xazimlanishida xlorid kislotasi muxim vazifalarni bajaradi.

I. U ishlab chiqariladi:

- A. oshqozon shilliq qavati parietal xujayralarida\*  
B. oshqozon shilliq qavati asosiy xujayralarida  
V. oshqozon shilliq qavati qo'shimcha xujayralarida

G. oshqozon mushak qavati xujayralarida

D. oshqozon shilliq qavati barcha xujayralarida

5. Oqsillar xazimlanishida xlorid kislotasi muxim vazifalarni bajaradi

II. Uning sintezi uchun kerak:

A. vodorod ionlari va fosfatlar

B. vodorod va xlor ionlari\*

V. vodorod va sulfat ionlari

G. fosfat va natriy ionlari

D. natriy va xlor ionlari

6. Oqsillar xazimlanishida xlorid kislotasi muxim vazifalarni bajaradi

III. Vodorod ionlari quyidagi fermentlar ta'sirida xosil bo'ladi:

A. karboangidrazlar va N-ATF-azalar\*

B. karboangidrazalar va Sa-ATF-azalar

V. karboangidrazalar va gidratazalar

G. degidratazalar va N-ATF-azalar

D. degidrogenazalar va karboangidrazalar

7. Oqsillar xazimlanishida xlorid kislotasi muxim vazifalarni bajaradi

IV. Xlorid kislotasi xosil bo'lishini boshqarishda reseptorlar muxim rol o'ynaydi:

A. xolinoreseptorlar

B. DOFA-reseptorlar

V. adrenalin alfa-reseptorlari

G. adrenalin beta-reseptorlari

D. gistamin N2-reseptorlari

8. Oshqozon shirasi kislotaligini ta'minlashda xlorid kislotadan tashqari qisman boshqa kislotalar xam ishtirok etadi.

I. Oshqozon shirasida xlorid kislotasi miqdorini ortishi nomladadi:

A. gipoxloridriya B. axloridriya

V. giperxloridriya\* G. Axiliya D. auidoz

9. Oshqozon shirasi kislotaligini ta'minlashda xlorid kislotadan tashqari qisman boshqa kislotalar xam ishtirok etadi.  
II. Oshqozon shirasida xlorid kislota miqdorini kamayishi nomladadi:  
A. gipoxloridriya\* B. axloridriya V. Giperxloridriya G. Axiliya D. aqidoz
10. Oshqozon shirasi kislotaligini ta'minlashda xlorid kislotadan tashqari qisman boshqa kislotalar xam ishtirok etadi.  
III. Oshqozon shirasida xlorid kislota bo'lmasligi nomladadi:  
A. gipoxloridriya B. axloridriya\* V. Giperxloridriya G. Axiliya G. aqidoz
11. Oshqozon shirasi kislotaligini ta'minlashda xlorid kislotadan tashqari qisman boshqa kislotalar xam ishtirok etadi.  
IV. Oshqozon shirasi bo'lmasligi nomladadi:  
A. gipoxloridriya B. axloridriya V. Giperxloridriya G. axiliya\* G. aqidoz
12. Ichakda mikroorganizmlar ta'sirida aminokislotalar chirishida toksik moddalar xosil qiladi.  
I. Oltingugurt tutuvchi aminokislotalar chirishida xosil bo'ladi:  
A. metilmerkaptan va serovodorod\* B. oltingugurt anhidridi va metilmerkaptan V. metilmerkaptan va ornitin G. metilmerkaptan va sul'fat-ionlar D. serovodorod va sul'fat-ionlar
13. Ichakda mikroorganizmlar ta'sirida aminokislotalar chirishida toksik moddalar xosil qiladi.  
II. Dikarbon aminokislotalar chirishida xosil bo'ladi:  
A. metilmerkaptan va kadaverin B. ornitin va beta-alanin V. putreçin va kadaverin\* G. triptamin va kadaverin D. putreçin va lizin
14. Ichakda mikroorganizmlar ta'sirida aminokislotalar chirishida toksik moddalar xosil qiladi.  
III. Aromatik aminokislotalar chirishida xosil bo'ladi:  
A. krezol, indol, skatol, fenol\* B. formil, indol, triptamin, feniletilamin V. triptamin, serotonin, putreçin, indikan G. krezol, indol, tirozin, lizin D. skatol, tiramin, feniletilamin, fenol
15. Aminokislotalarni ichaklarda aminokislotalar chirishidan xosil bo'lgan toksik moddalar zararsizlantiriladi.  
I. Bu jarayon qaysi a'zoda kechadi:  
A. taloq B. buyrak V. Mushak G. jigar\* D. ichak
16. Aminokislotalarni ichaklarda aminokislotalar chirishidan xosil bo'lgan toksik moddalar zararsizlantiriladi.  
II. Zararsizlantirishda qaysi moddalar ishlatiladi:  
A. FAFS, UDF-glyukuron kislota\* B. FAFS, UDF-glyukuron kislota, arginin V. UDF-glyukuron kislota, aqetil-KoA G. aqetil-KoA, sulfat kislota D. gliçin, glutamin kislota
17. Aminokislotalarni ichaklarda aminokislotalar chirishidan xosil bo'lgan toksik moddalar zararsizlantiriladi.  
III. Bu jarayonni qaysi fermentlar katalizlaydi:  
A. transaminazalar, dekarboksilazalar B. gidrolazalar, transferazalar V. arilsul'fattransferazalar, UDF-glyukuroniltransferazalar\* G. arilsul'fattransferazalar, reduktazalar D. UDF-glyukuroniltransferazalar, degidrogenazalar
- 18 Organizmda 1 sutkada taxminan 400 g oqsil yangilanib turadi.  
I. Ularning qanchasi to'liq parchalanishga uchraydi:  
A. 300 g B. 100 g\* V. 75 g G. 150 g D. 200 g
19. Organizmda 1 sutkada taxminan 400 g oqsil yangilanib turadi.  
II. To'qama proteinazalari qanday nomlanadi:  
A. kininlar B. kinureninlar V. Kallikreinlar B. bradikininlar D. katepsinlar\*
20. Organizmda 1 sutkada taxminan 400 g oqsil yangilanib turadi.  
III. Katepsinlarning biologik axamiyati (noto'g'ri javobni ko'rsating):  
A. oqsillar yangilanishi B. shikastlangan qismlarni reparaçiyasi V. proferment va progormonlarni faollanishi G. neyropeptid va mediatorlar sintezi D. faol oqsillarni nofaol xolatga o'tishi\*
21. Pepsinogeni faollanishi uchun oshqozon shirasining optimal rN ni ko'rsating:  
A. 6,4-7,0 B. 4,2-4,8 V. 1,5-2,5\* G. 7,8-8,3 D. 2,5-4,1
22. Oshqozon suyuqlig'ida erkin xlorid kislota meyoriy ko'rsatkichini ko'rsating:  
A. 40-60 mol' /l B. 20-40 mol' /l\* V. 70-80 mol' /l G. 90-100 mol' /l D. 15-20 mol' /l
23. Qon zardobina umumiy oqsilning meyoriy miqdorini ko'rsating:  
A. 10-20 g/l B. 20-30 g/l V. 30-40 g/l G. 50-60 g/l\* D. 60-70 g/l
24. Qon zardobida albumin meyoriy miqdorini ko'rsating:  
A. 5-10 g/l B. 10-20 g/l V. 20-30 g/l G. 30-40 g/l D. 40-50 g/l\*
25. Qon zardobida fibrinogen meyoriy miqdorini ko'rsating:  
A. 0.1-0.2 g/dl B. 0.2-0.3 g/dl\* V. 0.3-0.4 g/dl G. 0.4-0.5 g/dl D. 0.5-0.6 g/dl
26. Organizmda oqsil almashinuvini ifodalovchi azot balansining uch turini ko'rsating:  
A. Manfiy azot balansisi\* B. Ovqatda oqsil tanqisligi V. Musbat azot balansisi\* G. Ovqat tarkibida oqsil ko'pligi D. Azot muvozanati\* E. Ovqatda azot tanqisligi
27. Ovqat tarkibida oqsil meyori qaysi 5 omilga bog'liq:  
A. yoshi\*B. iqlim\* V. fiziologik holat\* G. ish faoliyati\* D. kasbi\* E. avitaminoz "D" J. gipervitaminoz "A" Z. gipervitaminoz "E"



I. uglevodlar qabuli K. yog'larni ko'p qabul qilinishi  
 28. Oqsillarning fiziologik qiymatini belgilovchi 3 omilni ko'rsating:  
 A. almashinib bo'lmaydigan aminokislotalar miqdori \* B. tirozin miqdori  
 V. qisman almashinadigan amikonislotalar miqdori  
 G. diaminomonokarbon kislotalar miqdori\*  
 D. uistein va uistin miqdori  
 E. hazmlanish darajasi\*  
 29. Ekstremal xolatlarda tarkibidagi oqsillar organizm uchun oqsil zahirasi vazifasini o'taydigan uch xil to'qimani ko'rsating:  
 A. Jigar\* B. Taloq V. Muskul\* G. Buyrak  
 D. Qon\* E. Miya  
 30. Oshqozon shirasi tarkibida mavjud bo'lgan proteinazalar guruxiga mansub bo'lgan uch fermentni ko'rsating:  
 A. Tripsin B. Pepsin\* V. Ximotripsin

G. Renin\* D. Elastaza E. Gastriksin\*  
 31. Pankreatik shira tarkibiga mansub va oqsillarni parchalovchi fermentlarning uch vakilini ko'rsating:  
 A. Tripsin\* B. Pepsin V. Kollagenaza\*  
 G. Renin D. Ximotripsin\* E. Gastriksin  
 32. Oshqozon shirasi tarkibidagi xlorid kislotalarining 5 asosiy ahamiyatini ko'rsating:  
 A. Pepsinogenni faollashtiradi\*  
 B. Uglevodni hazmlaydi  
 V. YOg'lar parchalanishini kuchaytiradi  
 G. Oqsillarni bo'ktiradi\*  
 D. Sekretin sintezini kuchaytiradi  
 E. Temir so'rilishini kuchaytiradi\*  
 J. Natriy ionlari so'rilishini ta'minlaydi  
 Z. Oqsil almashinuviga aloqasi yo'q  
 I. Mikroblarga salbiy ta'sir etadi\*  
 K. Oshqozon shirasida ishkoriylik muhit beradi\*

#### Joriy baxolash mezonlari

№	O'zlashtirish % va balda	Baho	Talabani bilish darajasi
1.	86-100	A'lo"5"	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'g'ri va javob beradi. Oqsillarning axamiyati, azot balansi va biologik qiymati. Tana oqsillarining dinamik xolati. Oqsillarni oshqozon-ichak yo'llarida xazmlanishi va so'rilishi. Normal va patologik oshqozon shirasi. Oshqozon shirasining oksillarni xazmlanishidagi axamiyati. Oqsillarni ichakda chirishi va chirish maxsulotlarini zararsizlantirish.
2.	71-85	Yaxshi"4"	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'liq javob berdi. Oqsillarni oshqozon-ichak yo'llarida xazmlanishi va so'rilishi. Normal va patologik oshqozon shirasi. Oshqozon shirasining oksillarni xazmlanishidagi axamiyati. Oqsillarni ichakda chirishi va chirish maxsulotlarini zararsizlantirish.
3.	56-70	Qoniqarli"3"	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'liq javob bermadi. Tana oqsillarining dinamik xolati. Oqsillarni oshqozon-ichak yo'llarida xazmlanishi va so'rilishi.
410.	54 va undan past	Qoniqarsiz"2"	Talaba mavzuni bilmaydi, laborator ishini bajarishda qiynaladi, anik tasavvurga ega emas.

#### Tarkatma materiallar

Testlar, vaziyatli masalalar

#### Adabiyotlar

##### Asosiy

1. Berezov T.T., Korovkin B.F. Biologicheskaya ximiya, 2004
2. Nikolaev A.YA. Biologicheskaya ximiya, 2004
3. Kushmanova O.D., Ivchenko G.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1983
4. Aleynikova T.L., Rubцова G.V. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1988
5. Sultanov R.G., Xolmuxamedova N.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii , 1996(uzb)
6. Sabirova R.A., Abrorov A.A., Inoytova F.H., Aripov A.N. Biologik kimyo, 2007.

##### Qo'shimcha

1. Lenindjer A. Bioximiyasi , 1,2,3 tom 1990.
2. Meuler D. Bioximiyasi , 1,2,3 tom 1980
3. Strayer L. Bioximiyasi , 1,2,3 tom 1985
4. Stroeve E. A. Bioximiyasi . 1986
5. Uayt i dr. Bioximiyasi . 1981
6. Sultanov R.G., Ibragimov U.K. Sbornik bioximicheskix pokazateley organizma cheloveka, 1995

7. Xorst A. Molekulyarnaya osnovy patogeneza bolezney. 1982
8. Kольman YA., Rem K. - G.Naglyadnaya bioximiya, 2000
9. Informacion texnik vositalar: kinofilmlar, elektron darslik, kompyuter, kodoskop, slaydlar, tarqatma materiallar.
10. [www.tma.uzsi.net](http://www.tma.uzsi.net).
11. Bioximiya. Kratkiy kurs s uprajneniyami i zadachami. Severin E.S., Nikolaev A.YA, 2002.
12. Bioximiya. Severin E.S., 2004.

**Mavzu: AMINOKISLOTALAR ALMASHINUVINING UMUMIY YO'LLARI.**

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -4 soat	Talabalar soni : 10-13 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	1. 1.Transaminlanish, transaminazalar. Vitamin V <sub>6</sub> ning kofermentlik vazifasi. 2.Aminokislotalarning dezaminlanishi. Bevosita va bilvosita oksidlanib dezaminlanish. 3.Aminokislotalarning dekarboksillanishi, biologik aminlarning vazifalari va zararsizlantirilish yo'llari. 4.Gistamin, uning allergik va yallig'lanish jarayonlarini vujudga kelishidagi ahamiyati. Antigistamin preparatlar.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarga aminokislotalarning dekarboksillanish ahamiyatini, biologik aminlarning vazifalari va ularni qanday yo'llar bilan zararsizlantirilishi haqidagi bilimlarni o'rgatish. Gistamin, uni allergik va yallig'lanish jarayonlarini vujudga kelishidagi ahamiyati bilan tanishtirish. Organizmda ammiakni zararsizlantirish yo'llari mexanizmlarni tushintirish. Siydikchil sintezi va uni organizmdan chiqarib yuborilishining buzulishi oqibati kelib chiqadigan giperammonemiya kasalligi haqida tushincha berish va uning sabablariga aniqlik kiritish. Olingan bilimlarni kelajakda diagnostikada ko'llash va kasalliklarni aniqlash hamda davolashda foydalanish yo'llarini o'rgatish.
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, amaliy mashg'ulot, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, amaliy mashg'ulot, laboratoriya jixozlari, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Javob: Konda ammiakni mikdorini ortishi epileptik titrashlarga olib keladi. Soglom odamda ortikcha ammiak glutamin, asparagin aminokislotalari bilan zararsizlanadi, shuning uchun shifokor birinchi navbatda shu aminokislotalarni glutamin, asparagin mikdorini aniklashi zarur.

4) Klinikaga surunkali pilonefrit diagnozi bilan kasal kabul kilindi. Kasalni konida gliçinamidintransferaza (GAT) ni mikdori, siydikda oksilni mikdori yukoriligi aniklandi.

1. Gliçinamidinotransferaza fermenti kaysi reakçiyani katalizlaydi?

2. Kaysi joyda fermentni sintezlash kuzatiladi?

Javob:

1. GAT arginin va gliçin urtasidagi amidin ( $NX_2 - C = NX$ ) gruppasini tashilishini katalizlaydi.

2. Fermentni sintezanishi buyrak va oshkazon osti bezida kuzatiladi.

5) Jarroxlik klinikasiga avto xalokatdan urtacha jaroxatlangan kasal yotkizildi. Uni siydigida va konida usib boruvchi azotli amin aniklandi, shulardan iistein, metionin, tirozin va glutamin kislotalarini mikdori yukori, kasaldagi bu uzgarishlarni nima bilan izoxlash mumkin.

Javob: Aniklangan uzgarishlar shuni kursatadiki jigarda aminokislotalarni dezaminlanish, transaminlanish jarayoni shiddatli kechganligi natijasidir.

**Testlar.**

1. Fenilalaninidan tirozinni sintozlovchi fermentni tanlang:

A) Tirozinaza

B) Fenilalanin-4-monooksigenaza

(fenilaningidroksidaza)

V) Aldolaza

G) Fenilalanintransaminaza

D) Fenilalaninizomeraza

2. Fenilketonuriya xolatiga olib keluvchi alkilinish reakçiyasini tanlang:

A) Fen→tir

B) Tir→katexolamin

V) Tir→oksifenilpirouzum kislota

G) Oksifenilpirouzum kislota→gomogentizin kislota

D) gomogentizin kislota →maleilacetosirka kislota

3. Qon plazmasi tarkibisha kiruvchi 4 xil oqsilni ko'rsating:

A. fibrin B. trombin V. gemoglobin

G. Giston D. fibrinogen\*

E. protrombin\* J. al'bumin\*

Z. globulin\*

4. Organizmda kechadigan turli kimyoviy

jarayonlarda oqsillarning 3 ahamiyatini ko'rsating:

A. koordinatçiya\* B. integratçiyalash\*

V. boshqaruv\* G. kuchaytiruvchi

D. ajratuvchi E. susaytiruvchi

5. Kaysi ferment me'da shirasida uchramaydi?

renin\$ tripsin\$ pepsin\$

pepsinogen\$ gastriksin#

6. Un ikki barmokli ichak shillik kavatida kaday gormon sintezlanadi?  
 AKTG\$ sekretin\$ adrenalın\$  
 insulin\$ gonadatropin#  
 7. Triptofanni ichakda chirishidan xosil buladi:  
 A) Fenol, krezol  
 B) Indol, skatol  
 V) Vodorod, sulʼfid  
 G) Metil merkaptan  
 D) Putresin, kadaverin  
 8. Ornitinni ichakda chirishidan zaxarli modda xisol buladi:  
 A) X<sub>2</sub>S  
 B) Metilmerkaptan CH<sub>3</sub>SH  
 V) Putresin G) Kadaverin  
 D) Triptafan  
 9. Kaysi reaksiyani tusiklanishi albiniizmga olib keladi?  
 A) Fen→tir B) Tir→DOFA  
 V) DOFA→DOFAxrom  
 G) DOFAxrom →indol 5,6-xinon  
 D) indol 5,6-xinon→melanin  
 10. Kaysi reaksiyani tusiklanishi alkantonuriyaga olib keladi?  
 A) Fen→tir B) Tir→ oksifenilpiruvat  
 V) Oksifenilpiruvat→ gomogentizin kislota  
 G) Gomogentizin kislota → maleilauetosirka kislota  
 D) Maleilauetosirka kislota →fumarilauetosirka kislota  
 11. Kaysi reaksiyani tusiklanishi tirozinozga olib keladi?  
 A) Fen→tir B) Tir→ oksifenilpiruvat  
 V) Oksifenilpiruvat→ gomogentizin kislota  
 G) Gomogentizin kislota → maleilauetosirka kislota  
 D) Maleilauetosirka kislota →fumarilauetosirka kislota  
 12. Kaysi reaksiyani tusiklanishi parkinsonizmga olib keladi?  
 A) Fen→tir B) Tir→DOFA  
 V) DOFA→DOFAmin  
 G) DOFAmin →noradrenalin  
 D) Noradrenalin→adrenalin  
 13. Kaysi fermentning etishmasligi albiniizmga olib keladi?  
 A) Fenilalaningidroksidaza  
 B) Oksilaza gomogentizinovoy kislotı  
 V) Tirozinaza  
 G) Dofamingidroksilaza  
 D) Dekarboksilaza oksifenilpiruvata  
 14. Kaysi fermentning etishmasligi alkantonuriyaga olib keladi?  
 A) Tirozinaza  
 B) Fenilalaningidroksidaza  
 V) Oksidaza gomogentizin kislota  
 G) Dofamingidroksilaza  
 D) Dekarboksilaza oksifenilpiruvata  
 15. Kaysi fermentning etishmasligi tirozinozga olib keladi?  
 A) Tirozinaza  
 B) Fenilalaningidroksidaza  
 V) Oksilaza gomogentizin kislota  
 G) Dofamingidroksilaza  
 D) Dekarboksilaza oksifenilpiruvat  
 16. Kaysi fermentning etishmasligi parkinsonizmga olib keladi?  
 A) Tirozinaza  
 B) Fenilalaningidroksidaza  
 V) Oksilaza gomogentizinovoy kislotı  
 G) Dofamingidroksilaza  
 D) Dekarboksilaza oksifenilpiruvat  
 17. Peptid bogini xosil kiluvchi gruppalarni kursating?  
 gidroksil va metil\$  
 karboksil va amino gruppalar\$  
 gidroksil va kaoboksil\$  
 amino va metil\$  
 amino va gidroksil#  
 18. Oksilning birlamchi strukturasi xosil kilmshda kaysi bog ishtirok etadi?  
 kon\$ vodorod\$ peptid\$ disulʼfid\$  
 fosfodiafid#  
 19. Oksilning birlamchi strukturasi tugri tasdik bering?  
 a. polipeptid zanjiridagi aminokislotalarning ketma-ketligi  
 b. zanjirdagi aminokislotalarning mikdori  
 minokislotalarning bir xil joylashuvi  
 g. oksil molekulasi aminokislotalarning joylashuvi  
 d. polipeptid zanjirning joylashuvi  
 20. Alfa spiralning turgun xolatini asosan kaday boglar taʼmin laydi?  
 disulʼfid boglari\$  
 zanjir ichi vodorod boglari\$  
 zanjirlararo vodorod boglari\$  
 Kon boglari\$ gidrofob boglari#  
 21. Globulyar oksilni kursating?  
 miozin\$ kreatin\$ fibrin\$ aktin\$  
 gemoglobin#  
 22. Kaysi modda tripsinogen, prokarboksipeptidaza, ximotripsinogen va proalastaza fermentlarini aktivlaydi?  
 xlorid kislota\$ tripsin\$ pankriozin\$  
 sekretin\$ xoleiustokinin#  
 23. Esh bolalar oshqozonida sut oksili kaday ferment taʼsirida parchalanadi?  
 pepsin\$ rennin\$ ximotripsin\$  
 tripsin\$ olastaza#  
 24. Pepsinogeni faollanishi uchun oshqozon shirasining optimal rN ni koʻrsating:  
 1,5-2,5\* 4,2-4,8 6,4-7,0 7,8-8,3  
 25. Oshqozon suyuqligʻida erkin xlorid kislota meyoriy koʻrsatkichini koʻrsating:  
 20-40 molʼ/l\* 40-60 molʼ/l  
 70-80 molʼ/l 90-100 molʼ/l  
 26. Meʼda shirasi umumiy kislotaliligining oshishi nomlanadi:  
 gipoxloridriya  
 \*giperxloridriya  
 gipoauidoz  
 axloridriya  
 27. Paratgormon stimullaydi (kuchaytiradi):  
 ichak peristaltikasini  
 tripsinogeni aktivlanishini

\*vitamin D ni uning faol - almashinuv shakliga utishini  
 pankreatik lipazani aktivlanishini  
 28. Metillanish jarayonida katnashadn:  
 \*metionin  
 izoleyuin  
 treonin  
 alanin  
 29. Endopeptidazalarga kiradi:  
 \*pepsin, tripsin  
 karboksipeptidaza A  
 aminopeptidaza

dipeptidaza  
 30 Kuruk massasi 20% dan kam miqdorda oksil tutuvchi 3 to`qimani kursating.  
 a) suyak b) yurak v) tishlar g) upka  
 d) nerv to`qimasi e) yog to`qimasi  
 31. Kiskaruvchi oksillarga kiradi  
 aktin\$ opsin\$ ferritin\$ kreatin\$ ximozin#  
 32. Katexolaminlarning 3 ta vakilini ko`rsating:  
 A. gamma-aminomoy kislotasi B. dofamin  
 V. Noradrenalin G. Kadaverin D. putrescin  
 E. adrenalin

### Joriy baxolash mezonlari.

86-100%	Talaba serin, glitsin, metionin almashinuvi, transmetillanish reaksiyalari, fenilalanin va tirozin almashinuvi, melaninlar biosintezi gistidin almashinuvi to`risida to`liq orginal javob bersa, amaliy ishda faol ishtirok etsa, bayonnoma va ma`ruza matnlari sifatli yozilgan bulsa.
71-85,9%	Talaba serin, glitsin, metionin, fenilalanin, tirozin, gistidin almashinuvi to`risida dastur talabalariga mos javob bersa, amaliy ishni bajarishda faol ishtirok etsa, ma`ruza matni bulsa.
55-70,9%	Talaba mavzu yuzasidan berilgan javobda urta darajadagi noanik javob bersa, amaliy ishni bajarishda ayrim kamchiliklarga yul kuysa, ma`ruza daftari bulsa.
55% past	Mavzu buyicha talab darajasidan past javob bersa, amaliy ishni bajarmasa , darsda passiv katnashsa, ma`ruza daftari bulmasa.

### Nazorat savollari

1. Serin va gliuin almashinuvi.
2. Bir uglerodli qoldiqlarning hosil bo`lishi.
3. Transmetillanish. Transmetillanish jarayonida metionin, folat kislotasi va vitamin V<sub>12</sub> ishtiroki.
4. Adrenalin, kreatin, xolin sintezi
5. Sul`fanilamid preparatlarning bakteriostatik ta`sir mexanizmi.
6. Fenilalanin va tirozin almashinuvi.
7. Aminokislotalar almashinuvining tug`ma kasalliklari.

### Tarkatma materiallar

Testlar, vaziyatli masalalar

### Adabiyotlar

#### Asosiy

1. Berezov T.T., Korovkin B.F. Biologicheskaya ximiya, 2004
2. Nikolaev A.YA. Biologicheskaya ximiya , 2004
3. Kushmanova O.D. , Ivchenko G.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1983
4. Aleynikova T.L., Rubcova G.V. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1988
5. Sultanov R.G., Xolmuxamedova N.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii , 1996(uzb)
6. Sabirova R.A., Abrorov A.A., Inoytova F.H., Aripov A.N. Biologik kimyo, 2007.

#### Qo`shimcha

1. Lenindjer A. Bioximiyasi , 1,2,3 tom 1990.
2. Meçler D. Bioximiyasi , 1,2,3 tom 1980
3. Strayer L. Bioximiyasi , 1,2,3 tom 1985
4. Stroeve E. A. Bioximiyasi .1986
5. Uayt i dr. Bioximiyasi .1981
6. Sultanov R G. , Ibragimov U.K. Sbornik bioximicheskix pokazateley organizma cheloveka, 1995
7. Xorst A. Molekulyarnaya osnovy patogeneza bolezney. 1982
8. Kolyman YA., Rem K. - G.Naglyadnaya bioximiyasi, 2000
9. Informacion texnik vositalar: kinofilymlar, elektron darslik, komp'yuter, kodoskop, slaydlar, tarqatma materiallar.
10. [www.tma.uzsi.net](http://www.tma.uzsi.net).
11. Bioximiyasi. Kratkiy kurs s uprajneniyami i zadachami. Severin E.S., Nikolaev A.YA, 2002.
12. Bioximiyasi. Severin E.S., 2004.

**Mavzu: Nukleotidlar almashinuvi**  
Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti -4 soat	Talabalar soni : 10-13 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
Mashg'ulot rejasi	Nukleoproteinlarning hazmlanishi. Nukleotidlarning vazifalari. 2.Purin nukleotidlarining sintezi, uning idora etilishi va parchalanishi. 3.Birlamchi va ikkilamchi giperurikemiya, podagra va ularni allopurinol bilan davolash. 4.Pirimidin nukleotidlarning sintezi, parchalanishi va ularni idora etilishi. 5.Dezoksiribonukleotidlar, timidin nukleotidlari biosintezi va tioredoksinning ahamiyati. 6.Orotatiduriya, uning sabablari va uridin bilan davolash mexanizmi.
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	nuklein kislotalarni oshqozon-ichak yo'llarida hazm bo'lishi to'g'risida ma'lumot berish;- purin va pirimidin nukleotidlarini hosil bo'lishi to'g'risida ma'lumot berish;- purin va pirimidin nukleotidlarini parchalanishi to'g'risida ma'lumot berish;- purin va pirimidin nukleotidlarini almashinuvi buzilishi to'g'risida ma'lumot berish; - giperurekemiya, podagra, Leysh-Nixan sindromini berish; - orotatiduriya va uning sabablari berish.
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, amaliy mashgulot,suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik, amaliy mashgulot,laboratoriya jixozlari,компьютер
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1.Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2.Talabalarni mashgulotga tayyorgarligini tekshirish 3. Davomatni nazorat kilish	
1. Mavzuga kirish (20 daqiqa)	1. Mavzu buyicha ukuv mazmunini tayyorlash 2. Amaliy mashgulot taqdimot silaydalarini tayyorlash 3, Vaziyatli masalalar echish 4. Test echish	
2 – asosiy bosqich (130 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruxlarga bulib mavzu buyicha savollar beradi. 2.Kurgazmali plakatlardan foydalanadi. 3.Slaydalar,multimediyalarni namoyish qilish 4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi,faol ishtirokchi talabalarni ragbatlantiradi va umumiy baxolaydi. 5.Laboratoriya ishi bajaradi.	Kichik guruxlarga bulinadilar Tomosha kiladilar. Katsnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar.
43- yakuniy bosqich (20 daqiqa)	1. YAKunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

**Nazariy qismi**

**Organizmda nukleotidlarning vazifalari:**

5. Mononukleotidlar nuklein kislotalarning struktur birligi hisoblanadi.
6. ADF—ATF tsiklida qatnashib, moddalarni oksidlanishi natijasida energiyani akkumulyatsiyasida qatnashadi. Ba'zi reaksiyalarda bu vazifani boshqa nukleotidlar xam bajarishi mumkin.
7. Kofermentlik funktsiyasi. Adenilat kislotaga qoldig'i degidrogenazalar (NAD, NADF, FAD) va aqilanish (KoA); UTF, GTF va UTF monosaxaridlar qoldiqlarini tashilishi; UTF xolintransferazalarning kofermentlari xisoblanadi.
8. Boshqaruv funktsiyasi. Tsiklik mononukleotidlar 3',5'-UAMF va 3',5'-UGMF gormonlar va boshqa signallarining xujayra ichiga olib o'tuvchi oraliq effektorlari hisoblanadi.

Organizmning barcha xujayralari nukleotidlar sintezlash qobiliyatiga ega. SHu bilan birga nukleotidlar manbai bo'lib nuklein kislotalar, hamda xujayra nuklein kislotalarning parchalanishidan hosil bo'lgan nukleotidlar xisoblanadi.



Nuklein kislotalar nukleoproteinlarning oqsilmas qismini tashkil etadi. Oqsillar metabolizmi singari nukleoproteinlarning oqsil qismlari xam xar xil metabolitik o'zgarishlarga uchraydilar. Nuklein kislotalar esa irsiy axborotni saqlash vazifasidan tashqari muhim regulyator vazifalarni xam bajaradilar, xujayralarning metabolitik jarayonlarini tezligini va bioenergetikasini nazorat qilish kabi.

Nukleoproteinlarning hazmlanishi va ularning parchalanishidan chiqqan mahsulotlarini so'rilishi oshqozon-ichak yo'llarida kechadi. Me'da fermentlari ta'sirida ozuqa nukleoproteinlari polipeptidlar va nuklein kislotalargacha parchalanadilar. Ingichka ichakda polipeptidlar erkin aminokislotalargacha gidrolitik yo'li bilan parchalanadilar. Nuklein kislotalar esa ichakda me'da osti bezi shirasi tarkibida bo'ladigan DNK-aza va RNK-aza ta'sirida parchalanadilar. RNK-aza ta'sirida purinli va pirimidinli mononukleotidlar xosil bo'ladigan, DNK-aza ta'sirida esa asosan dinukleotidlar, oligonukleotidlar va oz miqdorda mononukleotidlar chiqadi. Mononukleotidlar ichakda nosperifik fosfatazalar ta'sirida nukleozid va fosfat kislotagacha parchalanadilar va shu ko'rinishda so'riladilar.

#### **Purin nukleotidlari katabolizmi**

Purin nukleotidlari katabolizmi fofat qoldig'i, ribozani qoldig'i (yoki ribozofosfat qoldig'ini) va aminoguruxning gidrolitik parchalanishini o'z ichiga oladi. Bu reaksiyalar natijasida AMF dan gipoksantin, GMF esa — ksantin, undan esa siydik kislota xosil bo'ladi.

Gipoksantinni ksantinga, uni esa siydik kislotasiga aylanishi ksantinoksidaza; molekulyar kislorod ishtirokida kechadi va kislorodning 1 atomi purin xalqasiga, ikkinchisi esa vodorod peroksidni hosil qilishda qatnashadi:



Siydik kislota xosil bo'lishi asosan jigarda kechadi, u inson organizmiga xos, bir sutkada taxminan 0,5—1 g siydik kislota xosil bo'ladi va siydik orqali ajraladi.


#### **Giperurikemiya i podagra**

Sog'lom odam qonida 3-7 mg/dl urat kilota bo'ladi. Myorida qonda siydik kislota konnentratsiyasi to'yingan eritmalarga nisbatan yuqori bo'lib, uning bir qismi oqsillar qolganlari boshka tarkibiy qismlari bilan birikkandir. SHuning uchun siydik kislota miqdorining biroz bo'lsada ko'tarilishi kristallar (uratlar) xosil bo'lishiga olib keladi. Podagra kasalligining asosiy simptomlari xam ana shunga bog'liq.


Podagrani klinik jixatdan eng xarakterli bo'lgan belgisi — bo'g'imlar, aksari mayda bo'g'imlar takror-takror o'tkir yallig'lanish xodisalari bo'lib turishidir (podagra krizlari yoki atakalari). Kasallik odatda oyoq bosh barmog'ining birinchi bo'g'imi yallig'lanishidan boshlanadi. Podagra krizi bo'g'imda siydik kislota mononatriyli tuzi kristallari (natriy urati) to'planib qolishiga bog'liqdir. Podagrik krizlar paytida og'riqlar juda kuchli bo'lib bir necha soat yoki kunlar davom etadi va bir necha oylardan keyin takrorlanib turadi. Eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, agar urat kislota kristallar eritmasini xayvonlar bo'g'imiga kiritilsa podagra xos yallig'lanish reaksiyalarini kuzatish mumkin. Urat kristallari leykositlar tomonidan fagotsitlanishi ularning lizosoma membranalari shikastlanishiga, lizosomalarga xos fermentlarning uitozolga chiqishiga, bu esa yallig'lanishga olib keladi.

Podagrani giperurikemiya (aniqrog'i — to'qimalarda uratlar konnentratsiyasi ko'payib ketgani) oqibati deb xisoblash mumkin: qonida siydik kislota miqdori 7 mg/dl dan 8 mg/dl gacha bo'ladigan odamlar orasida podagra bilan og'riganlar 20% ga borsa, 9 mg/dl dan ortiq giperurikemiya kasallar soni 90% gacha boradi.

Allopurinol podagrani davolashda qo'llaniladi. Allopurinol gipoksantinning struktura analogidir. Allopurinol ksantinoksidazaning raqobatli ingibitori bo'lib, hisoblanadi va uni kuniga 0,2-0,8 g miqdorida ichib turish siydik kislota miqdorini kamaytirib normaga tushiradi.



**Аллопуринол**



**Гипоксантин**

#### **Purin nukleotidlar biosintezi**

Purin xalkasini xosil kilishda aspartat, N<sup>10</sup> — CHO — TGFK, glutamin, N<sup>5</sup>, N<sup>10</sup>=CH — TGFK, gliuin, SO<sub>2</sub> katanashadilar. Purinli nukleotidlarni inozinmonofosfatgacha (IMF) sintezi uz ichiga 11 reaksiyani oladi.

IMF sintezi ribozo-5-fosfatdan boshlanadi. Ribozo-5-fosft pentozofosfat yo'li bilan xosil bo'ladi va unga ATF ning pirofosfat guruxi qo'chiriladi. Xosil bulgan 5-fosforibozil-1-pirofosfat (FRPF) glutamin bilan ta'sirlashib (NX<sub>2</sub> guruxini donori) β-5-fosforibozilamimga aylanadi. Bu reaksiya purinlar sintezida kalit reaksiyasi bo'lib xisoblanadi, chunki bu reaksiya konfiguratsiya o'zgarishi bilan kechadi (β konfiguratsiyani α-ga). SHu kalit reaksiyasini katalizlovchi ferment (FPPF-amidotransferaza) regulyator xisoblanadi.

Inozin — bu nukleotid bo'lib, uning purin halqasini gipoksantin xosil qiladi; u minor nukleotid sifatida tRNK tarkibiga kiradi. SHu bilan birga IMF purin nukleotidlari — **AMF va GMF** sintezida oraliq mahsulot sifatida qatnashadi:

**Purin nukleotidlar biosintezini boshqarilish.** 5-fosforibozilamin xosil bo'lish reaksiyasida qatnashuvchi FPPF-amidottransferaza purin nukleotidlar biosintezini tezligini boshqaruvchisi hisoblanadi. Bu fermentning baolligi adenilat va guanilat kislotalar miqdori ortib ketishi ingibirlanadi. Purin nukleotidlar biosintezini IMF dan AMF va GMF xosil bo'lishida ham boshqariladi. AMF ning yuqori konsentratsiyasi adenilosukkinat xosil bo'lish reaksiyasini ingibirlaydi, GMF ning konsentratsiyasini ortishi esa — ksantilat kislotasi xosil bo'lishini ingibirlaydi. Bu esa xujayralarda AMF va GMF miqdorini meyorida ushlab turishga qaratilgan.

Xujayrada nukleotidlar metabolizmidagi doimo erkin purin asoslari — adenin va guanin xosil bo'lib turadi. Ular nukleotidlar sintezida qaytadan ishlatilishi mumkin. Bu jarayonni adeninfosforiboziltransferaza va gipoksantin-guanin-fosforiboziltransferazalar qatnashadi:



Ikkinchi ferment substrat sifatida gipoksantinni ishlatilishi mumkin:




Bu mexanizm asosan tez proliferatsiyalanuvchi xujayralarga xos bo'lib, purin nukleotidlar biosintezining «qutqaruv yo'li» deb nomlanadi. Giperurikemiyaning og'ir xili — Lesha-Nixana sindromi ma'lum, u X xromosoma bilan tutashgan recessiv belgi sifatida nasldan-naslga o'tib boradi. Bu kasallik gipoksantin bilan guaninning tegishligi IMF va GMF ga aylanishini katalizlovchi gipoksantin-guanin-fosforiboziltransferaza nuqsoniga bog'liqdir (qutqarish yo'li). SHuning uchun gipoksantin va guanin nukleotidlar sinteziga sarflanmasdan urat kislotaga aylanadi va giperurikemiya olib keladi. Bunday bolalarda cerebrall falajlar ham kuzatiladi, aql — idroki o'zgargan bo'ladi, ular o'zlariga jarohat etkazadilar — lab, barmoqlarini tishlab qonadilar.

#### **Pirimidin nukleotidlar metabolizmi**

##### **Pirimidin nukleotidlar parchalanishi**

Pirimidin nukleotidlar parchalanishi spetsifik fermentlar ishtirokida bir-necha bosqichda kechadi.

Ular oxirgi mahsuloti bo'lib  $\text{SO}_2$ ,  $\text{NX}_3$ , mochevina, b-alanin va b-aminoizomoy kislotasi hisoblanadi. Xosil bo'lgan b-alanin serin, karnozin va Koenzim-A xosil bo'lishda ishtirok etadi. Xayvon to'qimalarida b-alanin dezaminlanib piruvatga aylanishi mumkin, u esa transaminlanish natijasida alfa-alanin va formilacetatga (malon kislotasi yarim-aldigid) aylanadi:



Keyinchalik formilacetat oksidlanishli dekarboksillanib  $\text{SO}_2$  va acetil-KoA xosil qiladi.

##### **Pirimidin nukleotidlar biosintezini**

Pirimidinli nukleotidlarning pirimidin yadrosi uglerod dioksidi, glutaminamid gruppasi, asparaginat kislotasidan xosil bo'ladi. SHu moddalardan xosil bo'lgan uridinmonofosfat o'z navbatida boshqa nukleotidlar — uridinli va timidinli nukleotidlar o'tmishdoshi bo'lib xizmat qiladi.

Uridilat kislotasi biosintezining yo'lida birinchi reaksiyasi II karbamoilfosfatsintetaza ta'sirida karbamoilfosfat xosil bulishidir.





Mochevina sintezida I karbamoilfosfatsintetaza bilan katalizlanadigan reaksiyada glutamindan foydalanilmasdan, balki ammiakdan foydalaniladi. Bu fermentlar joylashishiga qarab ham bir-biridan farq qiladi: I karbamoilfosfatsintetaza nitrozolda karbamoilasparaginat kislotasi xosil qiladi, u dehidratatsiyalanib, digidrorotat kislotaning pirimidin tüklini yuzaga keltiradi. So'ngra karbamoilfosfat asparaginat kislotasi bilan yuzaga chiqadigan reaksiyada.


Birinchi 3 reaksiyalar — karbamoilfosfat, karbamoilaspartat va digidrorotat kislotaning xosil bo'lishini bir necha aktiv markazlarga ega bo'lgan 1 oqsil katalizlaydi. Karbamoilfosfat va karbamoilaspartat ferment-substrat kompleksidan ajralmaydi; ularning oxirgi reaksiya mahsuloti — digidrorotat kislotasi ajraladi. Demak, IMF sintezida xosil bo'lgan karbamoilfosfat siydikchil sintezida ishlatilmaydi.

Digidrorotat kislotasi dehidrorotatdehidrogenaza fermenti ta'sirida orotata kislotaga aylanadi. Keyingi 2 reaksiyalar — orotidilat kislotasi va uni dekarboksillanishi ham 1 oqsil ishtirokida kechadi. Demak, pirimidin nukleotidlar biosintezida qatnashuvchi fermentlar faqat 3 struktur genlar tomonidan kodlanadi.


2 molekula ATFning fosfat guruhlari hisobiga ikki kinaza ta'sirida IMF UTF gacha fosforillanadi



**Dezoksiribonukleotidlar** ribonukleotidlardagi ribozaning qoldig'ini qaytarilish yo'li bilan xosil bo'ladi. Ribonukleozidreduktaza ribozaning qoldig'ini gidroksil guruxini qaytarilishini katalizlaydi. Bu fermentning substratlari bo'lib nukleotid fosfatlari xizmat qiladi, va vodorod donori sifatida tioredoksin oqsili xizmat qiladi. SHu sistemaning ikkinchi fermenti tioredoksinreduktaza — oksidlangan tioredoksinni gidridlanishini katalizlaydi.




Kinazalar ta'sirida dezoksiribonukleoziddifosfatlar dezoksiribonukleoziduchfosfatlarga aylanadilar.



#### Timidilat nukleotidlar biosintezi.

Timidilat kislotasi (dTMF) dezoksiuridilat kislotasidan (dUMF) timidilatsintetaza tomonidan katalizlanadigan reaksiyasida hosil buladi. Bu reaksiyada bir uglerodli fragmentni donori bulib metilen-N<sub>4</sub>-folat xizmat kiladi. va degidrofolat kislotaga (N<sub>2</sub>-folat) aylanadi.




Boshqa dezoksiroboza tutuvchi d-RTF larning sintezi ATF ishtirokida dezoksiribonukleozid – 5–difosfatlarning fosforillanishi orqali amalga oshiriladi.



**Orotaciduriya** deb siydik bilan kup miqdorda orotat kislotasi chikib turishi aytiladi. Irsiy orotaciduriyada bir kecha-kunduzda 1,5 g, ya'ni normadagiga karaganda 1000 baravar kuproq miqdorda orotat kislotasi chikib turadi. Bemorlar siydigi sovutilganda unda orotat kislotaning ignasimon kristallaridan iborat chukma hosil buladi. Bu kasallik UMF sintezining sunggi ikki reaksiyasini – orotidilat kislotasi hosil bulishi va dekarboksillanishi reaksiyalarini katalizlovchi ferment etishmovchiligiga boglikdir. Natijada, nuklein kislotalar sintezi uchun zarur pirimidinli nukleotidlar etishmay kolib, orotat kislotasi esa aksincha tuplanib boradi. Ana shunday sharoitlarda UTF-ning idora etuvchi ta'siri bulmasligi – birinchi reaksiya allosterik ingibitorining yukligi xam orotat kislotaning tuplanib borishiga yul ochadi.

Agar bu kasallik vaqtda davolanmasa jismoniy va aqliy zaiflikga, bolalarni birinchi yilidayoq o'lib ketishiga sabab bo'ladi. Orotat kislotasi toksik xususiyatga ega emas; rivojlanishdan orqada qolishning sababi – pirimidin tanqisligidir. SHuning uchun bu kasallikni davolashda uridin (uracil va ribozadan tashkil topgan nukleozid) sutkasiga 0,5-1 g dan berib turiladi. Bu izdan chiqqan reaksiyalarni chetlab o'tib, UMF demak, boshqa pirimidinli nukleotidlar xam hosil bo'lib turishini ta'minlaydi.



Bunda nafaqat «pirimidin tanqisligi yo'qoladi», balki orotat kislotani ajralishi xam kamayadi, chunki teskari bog'lanish orqali ingibirlanish mexanizmi ishga turib bu metabolik jarayonning birinchi reaksiyasini ingibirlaydi. Davalash butun umr davom etishi kerak, hamda vitaminlarga va almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarga boy ozuqa qabul qilinishi kerak.

Orotaciduriya giperammonemiya paytida, siydikchil hosil bo'lishi ornitin uikli fermentlari funktsiyasining buzilishi natijasida ham kuzatiladi. Bunda mitoxondriyalarda hosil bo'lgan karbamoilfosfat siydikchil sintezi uchun sarflanmasdan, balki pirimidinli nukleotidlar sintezi uchun ham sarflanadi, barcha oraliq metabolitlar, jumladan orotat kislotasi konsentratsiyasi ortib ketadi.

Podagrani davolashda bemorga allopurinol berib turish ham orotaciduriyaga sabab bo'lishi mumkin. Allopurinol organizmda oksipurinolmononukleotidga aylanadi, u orotidilat kislotasi dekarboksillanish reaksiyasining kuchli ingibitori bo'lib, to'qimalarda orotat kislotasi to'planishiga sabab bo'ladi.

**Amaliy qism**  
**Mavzuga doir bajariladigan laborator ishlar:**  
 Siydik tarkibida siydik kislotani aniqlash

№	Tadbir	Bajarmadi (0 ball)	To'liq bajardi to'g'ri
1.	Probirkaga 1,5 ml siydik solinadi	0	20
2.	Uning ustiga 1 ml 20% li natriy karbonat eritmasi va 1 ml Folinning fosforvolʼfram reaktividan solib aralashtiriladi.	0	20
3.	Aralashma 0,01 n. kizil kon tuzi eritmasi bilan eritma rangsizlanguncha titrlanadi.	0	20
4.	Siydik kislotaning siydikdagi mikdorini xisoblash (1 ml kizil kon tuzi eritmasiga kancha siydik kislotaga tugri kelishini).	0	20
5.	Olingan natijalar taxlili va xulosa.		20
	Jami		100

**Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar:**  
**«Miya xujumi»**

Sценariy: O'rtaga bitta mavzu tashlanadi. Talabalar shu mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Kotiba tayinlanadi. O'xshash fikrlar birlashtiriladi. 5-7 daqiqa vaqt beriladi. Oxirida eng qiziqarli fikrlar alohida ajratiladi va baxolanadi. YOmon baxo berilmaydi. Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**Interaktiv usul savollari:**

14. Asosiy pirimidinli nukleotidlarni ayting.
15. Pirimidin yadrosi tuzilishi.
16. Uritidil va timidil nukleotidlarini utmishdoshlari bulib nima xisoblanadi?
17. Uridil kislotada biosintezini allosterik fermenti.
18. Uridil kislotadan timidil nukleotidini xosil bulish yullari.
19. Uridil kislotadan uritidil nukleotidini xosil bulish yullari.
20. Orotauiduriya deb nimaga aytiladi, uning alomatlari.
21. Kaysi ferment etishmovchiligi orotauiduriya kasalligini keltirib chikaradi?
22. Orotauiduriyani davolash usullari.
23. Timidil nukleotidlarini biosintezini.
24. Folat kislotalarini timidil nukleotidlari sintezidagi axamiyati.
25. Kaysi birikma dezoksiribonukleotid sintezida vodorod donori xisoblanadi?

Karbomoilsintetaza I va karbomoilsintetaza II fermentlarining bir-biridan farki nimada? **Vaziyatli masalalar.**

- 3) Purinli nukleotidlarining biosintezida ishlatiladigan ribozo-5-fosfat manbaini kursating.  
 Javob: Purinli nukleotidlarini biosintezida ribozo-5-fosfat glyukozani pentozofosfat yuli bilan oksidlanish jarayonidan chikadi.
- 4) Tez bulinuvchi xujayralar «kutkaruvchi yuldan» foydalanar ekan purinli nukleotidlar biosintezida. Bu kaysi yul?

Javob: Tez usuvchi to'qimalar (embrional, usma regeneratsiyalovchi) purin nukleotidlar biosintezini rezerv «kutkaruvchi» yulidan foydalanadi, ya'ni purin nukleotidlarini erkin azot asoslardan va ribozo-5-fosfatdan. Bu yulni katalizlovchi ferment – guanin (gipoksantin) – fosforiboziltransferaza.

- 3) Bemorni siydigini mikroskopiya kilinganda ignasimon orotat kislotada kristallari kurindi.

1. Sizning diaqnozizingiz:

- A. orotauiduriya\*
- B. podagra
- V. nesaxarby diabet
- G. giperurekimiya
- D. oratouriya

2. Bu jarayonda orotat kislotadan sintez buzildi...:

- A. pirimidinnukleotidlar\*
- B. purin nukleotidlar
- V. AMF
- G. TMF
- D. dezoksiriboza nukleotida

3. Bu bemorga uridin bilan birkatorda tavsiya etiladi...:

- A. vitaminlar almashtirib bulmaydigan aminokislotalar\*
- B. mineral moddalar, lipidlar
- V. karbonsuvar
- G. almashtirib buladigan aminokislotalar

4) Purin nukleotidlarini almashuvini buzilishi podagra olib keladi.

1. Purin nukleotidlarini katabolizmini 1-chi boskichida kaysi ferment ishtirok etadi :



- A. adenoindezaminaza
  - B. nukleozidfosforilaza
  - V. nukleotidaza
  - G. ksantinoksidaza
  - D A va V javob\*
2. Purin nukleozidlarini katabolizmini natijasida nima xosil buladi:
- A. AMF - gipoksantin
  - B. GMF - ksantin
  - V. cerin
  - G. arginin
  - D. A va V javob \*
3. Purin nukleozidlarini katabolizmini oxirgi maxsuloti:
- A. siydik kislota\*
  - B. adenilat kislota
  - V. kaxrabo kislota
  - G. inozinat kislota
  - D. folat kislota

### TESTLAR

1. Bemorni siydigini mikroskopiya kilinganda ignasimon orotat kislota kristallari kurindi.
1. Sizning diagnozingiz:
- A. orotauiduriya\* B. podagra V. Kandsiz diabet
  - G. giperurekimiya D. oratouriya
2. Bemorni siydigini mikroskopiya kilinganda ignasimon orotat kislota kristallari kurindi. Bu jarayonda orotat kislota sintez buzildi...:
- A. pirimidinnukleotidlar\*
  - B. purin nukleotidlar V. AMF G. TMF
  - D. dezoksiriboza nukleotida
3. Bemorni siydigini mikroskopiya kilinganda ignasimon orotat kislota kristallari kurindi. Bu bemorga uridin bilan birkatorda tavsiya etiladi...:
- A. vitaminlar almashtirib bulmaydigan aminokislotalar\*
  - B. mineral moddalar, lipidlar
  - V. karbonsuvlar
  - G. almashtirib buladigan aminokislotalar
- 4). Purin nukleotidlarni almashinuvini buzilishi podagra olib keladi. Purin nukleozidlarini katabolizmini 1-chi boskichida kaysi ferment ishtirok etadi :
- A. adenoindezaminaza
  - B. nukleozidfosforilaza
  - V. Nukleotidaza G. ksantinoksidaza
  - D A va V javob\*
5. Purin nukleozidlarini katabolizmini natijasida nima xosil buladi:
- A. AMF – gipoksantin B. GMF - ksantin
  - V. Cerin G. Arginin D. A va V javob \*
6. Purin nukleozidlarini katabolizmini oxirgi maxsuloti:
- A. siydik kislota\* B. adenilat kislota
  - V. kaxrabo kislota G. inozinat kislota
  - D. folat kislota
7. Odam organizmida purinlar parchalanishidan chikadigan oxirgi maxsulotlar:
- A) Gipoksantin B) Ksantin V) Inozin
  - G) Siydik kislota D) Mochevina
8. Kaysi fermentning etishmasligi orotauiduriyani chakiradi:
- A) Karbamoilfosfatsintetaza I

- B) Karbamoilfosfatsintetaza II
  - V) Aspartatkarbamoiltransferaza
  - g) OMF dekarboksilaza
  - D) Digidrorotaza
9. Podagrani davolashda kullaniladigan allopurinol kaysi moddani analogidir:
- A) Siydik kislota B) Alantoin V) Gipoksantin
  - G) Urauil D) Timin
10. Asosan podagra xuruji qaysi bo'g'inning yallig'lanishidan boshlanadi:
- panja bosh barmog'i\*
  - qo'l bosh barmog'i
  - qo'l ko'rsatkich barmog'i
  - panja qo'rsatkich barmog'i
11. Nukleoproteinlarni tarkibiga kiruvchi asos xususyatli amino kislotalari glutamin va aspargin\$ argenin va lizin\$ serin va treonin\$ alanin va gliuin\$ tistein va tistin#
12. RNK sintezlanadi lizosomada\$ yadroda\$ endoplazmatik turda\$ ribosomada\$ Gol'dji kompleksi#
13. DNK sintezlanadi lizosomada\$ yadroda\$ endoplazmatik turda\$ Gol'dji kompleksida\$ ribosomalarda#
14. Pankreatik RNK-azaning nuklein kislotalarga ta'sir etishi natijasida hosil bo'ladigan uch xil moddani ko'rsating:
- A. Mononukleotidlar\* B. Fosfat kislota
  - V. Riboza G. Di-, trinukleotidlar\*
  - D. Polinukleotidlar E. Oligonukleotidlar\*
15. Nuklein kislotalar hazmlanish jarayonida qatnashadigan 4 asosiy fermentni ko'rsating:
- A. DNK-aza\* B. Fosfodiesteraza
  - V. RNK-sintetaza G. RNK-aza\*
  - D. DNK-sintetaza E. Nukleotidaza\*
  - J. Fosforilaza\* Z. Enterokinaza
16. Purin yadrosi sintezida qatnashuvchi 3ta bir uglerodni birikmalarni ko'rsating:
- A. SO<sub>2</sub>\* B. Formimil guruhi
  - V. Metenil guruhi\*
  - G. Metil guruhi
  - D. Formil guruhi\*
  - E. Oksimetil guruhi

17. IMFdan AMF va GMF sintezida qatnashuvchi 4 xil fermentni ko'rsating:  
 A. Karbogidraza B. IMF dehidrogenaza\*  
 V. IMF gidrotaza G. GMF sintetaza\*  
 D. GMF gidrataza  
 E. Adenilosukuinatsintetaza\*  
 J. Adenilosukuinatgidrotaza  
 Z. Adenilosukuinatliaza\*
18. OMFdan sintezlanadigan 3 xil nukleotidni ko'rsating:  
 A. Uridil-nukleotidlar\*  
 B. Pirimidin-nukleotidlar  
 V. Timidil- nukleotidlar\*  
 G. Guanozin monofosfat  
 D. Ijtidil-nukleotidlar\*  
 E. Adenozindifosfat
19. AMF va IMF sintezida ishtirok etuvchi 4 fermentni ko'rsating:  
 A. IMF dehidrogenaza\* B. AMF dehidrogenaza  
 V. OMF sintetaza G. ATF sintetaza  
 D. GMF sintetaza\*  
 E. adenilosukuinatsintetaza\*  
 J. ADF fosforilaza  
 Z. adenilosukuinatliaza\*
20. UMF sintezining birinchi bosqichida digidroorot kislotasi hosil bo'lgunga qadar qatnashuvchi 3 fermentni ko'rsating:  
 A. Digidrooratdehidrogenaza  
 B. Karbamoilfosfatsintetaza\*  
 V. Orotatfosforiboziltransferaza  
 G. Aspartatkarbomoiltransferaza\*  
 D. OMF dekarboksilaza  
 E. Digidroorotaza\*
21. UMF sintezi oxirgi bosqichlarida digidroorotat kislotadan UMF hosil bo'lgunga qadar qatnashuvchi 3 fermentni ko'rsating:  
 A. Digidrooratdehidrogenaza\*  
 B. Karbamoilfosfatsintetaza  
 V. Orotatfosforiboziltransferaza\*  
 G. Aspartatkarbomoilfosfattransferaza  
 D. OMF-dekarboksilaza\*  
 E. Digidroorotaza
22. DNK nukleotidlar tarkibida nima bo'lmaydi:  
 A. urasil\* B. adenin V. guanin  
 G. Ijtozin D. timin
23. Ovqatning almashinmaydigan omillari (noto'g'risini belgilang):  
 A. vitaminlar  
 B. polien yog' kislotalari
- V. mineral moddalar G. suv  
 D. purin va pirimidin unumlari\*
24. Oratajuriyani davolash uchun qo'llaniladigan uridinni ta'siri bog'lik emas:  
 A. UMF miqdorini oshishiga  
 B. UTF miqdorini oshishiga  
 V. karbamoilfosfatsintetaza II ni tormozlanishiga  
 G. pirimidin nukleotidlari miqdorini oshishiga  
 D. orotat kislotaning ko'payishiga\*
25. .Degidrogenaza fermentlarini kofermentlari  
 NAD 1'5\$ NADF 1'4\$  
 FAD 2'5\$ FMN 1'3\$  
 konezim A 3'5#
26. . DNKdan gidrozlanganda nima xosil bulmaydi?  
 riboza#  
 dezoksiriboza\$  
 fosfat kislotasi\$  
 pirimidin asoslari\$  
 purin asoslari\$
27. Nukleozid tarkibiga qanday uglevod kiradi?  
 maltoza\$ glyukoza\$ saxaroza\$  
 pentoza\$ geksoza#
28. RNK tulik gidroliz kilinganda nima xosil bulmaydi?  
 fosfat kislotasi\$ purin asoslari\$  
 riboza\$ dezoksiriboza\$  
 pirimidin asoslari#
29. DNK ni gidrolizida kaysi nukleotidlar xosil buladi?  
 AMF GMF IJMF TMF\$  
 DAMF DGMF DIJMF DTMF\$  
 DATF DGTF DIJTF DDTF\$  
 ADF GDF NDF TAF\$  
 ATF GTF IJTF TGF#
30. Nukleotid molekulasida azotli asoslar b-n pentoza qanday bog b-n  
 Nglikozid\$ peptid\$  
 3,5-fosfodiefir bogi b-n\$  
 koordinatsion bog b-n\$  
 O-glikozid bogi b-n#
31. Fosfodiefir bog'i mustaxkamlaydi:  
 DNK ning birlamchi strukturasi\*  
 RNK ning ikkilamchi strukturasi  
 xromosomani  
 Nukleosomani
32. t-RNK dan nukleotidlar uzaro qanday bog orkali boglangan?  
 vodorod\$ peptid\$ gidrofob\$  
 ion\$ 3,5-fosfodiefir bogi#

### Joriy baholash mezonlari

No	O'zlashtirish (%) va ballarda	Talabning bilim darajasi
----	-------------------------------	--------------------------

	86-100	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'g'ri va aniq javob beradi. Nukleotidlarning qurilishini biladi. Ahamiyati haqida fikrlay olmaydi. Nukleotidlarning hazmlanishi va so'rilishida, purin va pirimidin nukleotidlarni sintez va katabolizmi ko'rsatadi xatoliklarga yo'l qo'ymasdan. Situacion (vaziyatli) savollarga aniq javob beradi, ularning mohiyatini tushunadi. Interaktiv o'yinlarda aktiv va ijodiy qatnashadi. Ko'rgazmali zamonaviy informativ qo'llanmalarni yoki oxirgi adabiyotlardan yoki 7-10tagacha internet ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yuqori sifatli referatlarni tayyorlay oladi. Laboratoriya ishlarni bajarishda olgan bilimlarini qo'llaydi.
2	71-85	.Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan. Nukleotidlarning qurilishini biladi. Ahamiyati haqida fikrlay olmaydi. Nukleotidlarning hazmlanishi va so'rilishida, purin va pirimidin nukleotidlarni sintez va katabolizmi ko'rsatadi. Situacion (vaziyatli) savollarga javob berishda qiynaladi. Interaktiv o'yinlarda aktiv va ijodiy qatnashadi. Ko'rgazmali zamonaviy informativ qo'llanmalarni yoki 3-4 tagacha oxirgi adabiyotlardan yoki internet ma'lumotlarni o'z ichiga olgan referatlarni tayyorlay oladi. Laboratoriya ishlarini bajarishni biladi.
3	56-70	Talaba mavzu bo'yicha o'qituvchining bergan savollariga to'liq javob bermadi. Nukleotidlarning tuzilishi, hazmlanishi va so'rilishini o'qituvchi yordamida aytadi. Ahamiyati haqida fikrlay olmaydi. Situacion (vaziyatli) savollarga javob berishda qiynaladi, ularning mohiyatini tushunmaydi. Laboratoriya ishi natijasini talqin qilishda qiynaladi..
4	0- 55	Talaba mavzuni bilmaydi, laborator ishini bajarishda qiynaladi, aniq tasavvurga ega emas.

#### Nazorat savollari.

1. Nuklein kislotalar almashinuvi. Nukleoproteinlar xazmlanishi va surilishi.
2. Purinlar sintezi, uni boshkarilishi.
3. Giperurikemiya, podagra, allopurinol.
4. Pirimidin nukleotidlar sintezi, boshkarilishi.
5. Dezoksiribonukleotidlar va timidilat nukleotidlar sintezi.
6. Orataqiduriya sabablari, uridin bilan davolanishi.

#### Tarkatma materiallar

Testlar, vaziyatli masalalar

#### Adabiyotlar

##### Asosiy

1. Berezov T.T., Korovkin B.F. Biologicheskaya ximiya, 2004
2. Nikolaev A.YA. Biologicheskaya ximiya , 2004
3. Kushmanova O.D. , Ivchenko G.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1983
4. Aleynikova T.L., Rubçova G.V. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii . 1988
5. Sultanov R.G., Xolmuxamedova N.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po biologicheskoy ximii , 1996(uzb)
6. Sabirova R.A., Abrorov A.A., Inoytova F.H., Aripov A.N. Biologik kimyo, 2007.

##### Qo'shimcha

1. Lenindjer A. Bioximiyasi , 1,2,3 tom 1990.
2. Meçler D. Bioximiyasi , 1,2,3 tom 1980
3. Strayer L. Bioximiyasi , 1,2,3 tom 1985
4. Stroeve E. A. Bioximiyasi .1986
5. Uayt i dr. Bioximiyasi .1981
6. Sultanov R G. , Ibragimov U.K. Sbornik bioximicheskix pokazateley organizma cheloveka, 1995
7. Xorst A. Molekulyarnaya osnovy patogeneza bolezney. 1982
8. Kolyman YA., Rem K. - G.Naglyadnaya bioximiyasi, 2000
9. Informacion texnik vositalar: kinofilymlar, elektron darslik, kompyuter, kodoskop, slaydlar, tarqatma materiallar.
10. [www.tma.uzsi.net](http://www.tma.uzsi.net).
11. Bioximiyasi. Kratkij kurs s uprajneniyami i zadachami. Severin E.S., Nikolaev A.YA, 2002.
12. Bioximiyasi. Severin E.S., 2004.

**Mavzu: Moddalar almashinuvi va funkciyalarning gormonlar**

**ishtirokida idora etishi**  
Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti -4 soat	Talabalar soni : 10-13 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	1.Idora etishning umumiy tomonlari va idora etuvchi sistemalar ierarxiyasi. 2.Gormonlarning kimyoviy tabiati, biologik funktsiyalari va ta'sir mexanizmi qarang tasnifi. 3.Endokrin va nerv sistemalarining o'zaro bog'liqligi. 4.Steroid gormonlar sintezi va katabolizmi. 5.Suv-tuz almashinuvining idora etilishi..
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	- gormonlarning kimyoviy tabiatiga ko'ra klassifikatsiyasini talabalar bilish; - gormonlarni xujayrada ta'sir qilish mexanizmi ko'ra klassifikatsiyasini bilish; - gipotalamus gormonlar misolida endokrin va nerv sistemalarining o'zaro bog'lanishini bilish; - steroid gormonlarning katabolizmi va biosintezi muhokama qilish; - vazopressin va mineralokortikoidlar misolida suv-tuz almashinuvining boshqarilishini bilishi.
Ta'lim berish usullari	Kurgazmali, amaliy mashg'ulot,suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma,darslik, amaliy mashg'ulot,laboratoriya jixozlari,kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqqa)	1.Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish 3. Davomatni nazorat kilish	
1. Mavzuga kirish (20 daqiqqa)	1. Mavzu buyicha ukuv mazmunini tayyorlash 2. Amaliy mashg'ulot taqdimot silaydalarini tayyorlash 3, Vaziyatli masalalar echish 4. Test echish	
2 – asosiy bosqich (130 daqiqqa)	1. Talabalarni kichik guruxlarga bulib mavzu buyicha savollar beradi. 2.Kurgazmali plakatlardan foydalanadi. 3.Slaydalar,multimediyalarni namoyish qilish 4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi,faol ishtirokchi talabalarni ragbatlantiradi va umumiy baxolaydi. 5.Laboratoriya ishi bajaradi.	Kichik guruxlarga bulinadilar Tomosha kiladilar. Katsnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar.
44- yakuniy bosqich (20 daqiqqa)	1. YAKunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi

**Nazariy qismi**

**Endokrin boshqaruvi ning umumiy tushunchalari**

Gormonlar - ichki sekreçiya bezlarining maxsus xujayralarida hosil bo'lgandan so'ng, qonga o'tib, moddalar almashinuvi va fiziologik funktsiyalarga regulyator (boshqaruvchi) ta'sir ko'rsatuvchi organik tabiatli moddalardir.

Boshkaruv sistemalarining ierarxiyasining 3 ta darajasi mavjud.

4. Xujayraviy darajasi. Bu darajada boshkaruv 3 yul buyicha amalga oshiriladi: - fermentativ, aktivatsion, uzgaruvchan yuli bilan; - ferment miqdorini uzgartirish yuli bilan; - moddalarning xujayra membranasi orkali utish tezligi uzgartirish yuli bilan.

5. Daraja – endokrin sistema.

6. Daraja – nerv sistema.

Birinchi darajasi. Idora etishning xujayra ichidagi mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Bunda fermentlar faolligi alohida yrinni egallaydi va unga quyidagi uch usul bilan ta'sir etish mumkin: A) fermentlarni ingibirlash yoki faollashtirish, muhit va harorat, kofaktor va kofermentlar, oraliq metabolitlar miqdorini o'zgartirish orqali ta'sir

etish mumkin.B) fermentlar va ba'zi oqsillar sintezini induksiya yoki repressiya qilish, ular parchalanish tezligini o'zgartirish yo'li bilan ular miqdorini o'zgartirish mumkin. V) membrana orqali moddalarning o'tishiga ta'sir etish orqali. Endokrin sistema idora etishning ikkinchi darajasidir. Ma'lum bir ta'sirotda javoban ichki sekretiya bezlaridan gormonlar ajralib chiqadi va ular nishon xujayralarda ichki mexanizmlar orqali u erdagi modda almashinuvini tegishli ravishda o'zgartiradi. O'z vazifasini bajarib bo'lgan gormon maxsus fermentlar ta'sirida parchalanadi.

Idora etishning uchinchi darajasi - nerv sistemasi bilan ham tashqi, ham ichki muhitdan keluvchi axborotlarni qabul qilib oladigan reseptorlardir. Mediator idora etishning xujayra ichidagi mexanizmlari orqali moddalar almashinuvining o'zgarishiga olib keladi. Nerv impulsiga javoban gormonni sintezlash va ajratib chiqarish bilan javob beruvchi endokrin xujayralar ham effektor xujayralar bo'lishi mumkin.

Idora etishning keltirilgan uchta darajasi o'zaro bog'langan bo'lib, yagona bir sistema tarzida ishlaydi. Idora etish sistemasiga gormonlar ishlab chiqarilishining qo'shilishi distant boshqarilishni amalga oshirishga imkon beradi, ya'ni xujayra o'z metabolizmini boshqarishdan tashqari boshqa xujayralar ta'siriga uchraydi.

Endokrin tizim gormonlar, ya'ni kimyoviy signallar sintezlovchi bezlardan tashkil topgan. Speçifik stimul (nerv impulsi yoki ma'lum bir moddaning konsentraciyasining qonda o'zgarishi) bo'lganda gormonlarning qonga ajralishi kuzatiladi. Gormonlar qonda maxsus oqsillar bilan tashilib, nishon-xujayralarga boradi. Ularni xujayralarga speçifin ta'siri xujayra membranasida yoki uitozoida maxsus reseptorlarning bo'lishiga bog'liq. Gormonni reseptor bilan birikishi xujayra ichi boshqarish mexanizmlarni (fermentlar miqdori yoki faolligini o'zgarishi, membrana o'tkazuvchanligini o'zgarishi) yo'lga soladi. Bular ta'sirida modda almashinuvini o'zgarishi stimolni yo'qolishiga olib keladi, gormon speçifik fermentlar ta'sirida parchalanadi va miqdori kamayadi. Xaar bir gormonning o'ziga xos speçifik reseptori bor. Reseptor bilan gormonni bog'lanishi qaytar jarayon bo'lib, reseptorlarning soni qonda gormonning konsentraciyasiga to'g'ri proporsionaldir.

Parakrin va autokrin ta'sir mexanizmlarida signal molekullar maxsus bezlarda emas, balki differentsiallangan xujayralarda sintezlanadi. Signal molekullarga uitoxinlar, eykozanoidlar, gistamin, oshqozon-ichak yo'li gormonlari va boshqalar. Ularning signal molekullari xujayralararo bo'shliqqa ajraladi va boshqa fenotipdagi yon xujayralar reseptorlari bilan bog'lanadi (parakrin regulatsiya) yoki shu fenotipdagi (autokrin regulatsiya) xujayra reseptorlari bilan bog'lanadi. Autokrin boshqarilishda signal molekula ishlab chiqqan xujayra nishon xujayra bo'lishi mumkin.

### **Gormonlarning kimyoviy tuzilishi, biologik funktsiyasi va ta'sir mexanizmi**

Gormonlar biologik faol moddalar bo'lib organizmning fiziologik funktsiyalarining xolatini, to'qima va a'zolarining makro- va mikrostrukturalarini, hamda kimyoviy jarayonlarning kechish tezligini boshqaradi. Gormonlar organik tabiatli moddalar bo'lib mahsus ichki sekretiya bezlarida sintezlanadi va qonga ajraladi, organizmning fiziologik funktsiyalarini va moda almashinuvini boshqarib turadi. Tiriklikning asosiy xususiyatlaridan biri bu organizmning ichki muhitining doimiyligini o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orqalidir saqlashdir. Bunda muxim rolni gormonlar o'ynaydi. Bu mexanizmlar orqali organizm turli tashqi signallarni qabul qilib modda almashinuvini tezligini o'zgartiradi va moslashuv jarayonlarini ta'minlaydi. Bu jarayonlarni boshqarishda gormonlar nerv tizimi va fermentlar ta'siri o'rtasida oraliq bog'lovchi (vositachi) xisoblanadi. Gormonlar tezkor javob reaksiyalarini (fermentlar faolligini o'zgartirib) (oqsil tabiatli gormonlar), yoki sekin amalga oshuvchi (oqsil sintezini kuchaytirib yoki susaytirib) (steroid gormonlar) javob reaksiyasini boshqaradi. Steroid gormonlar xujayraning genetik apparatiga ta'sir etib, mRNK va oqsil sintezini oshiradi. Oqsil tabiatli gormonlar o'z ta'sirini giston bo'lmagan oqsillarning fosforillaydi va ular orqali genlar faolligini nazorat qilishi mumkin. Barcha endokrin bezlar kasalliklari (tireotoksikoz, qandli diabet va boshqalar) modda almashinuvini molekulyar boshqarilish mexanizmlarining buzilishi natijasida kelib chiqadi.

Gormonlarga quidagi xususiyatlar xos:

- a) gormon o'z ta'sirini juda past konsentraciyada o'tkazadi;
- b) gormonal ta'sir oqsil reseptorlari va xujayra ichi ikkilamchi messendjerlari orqali o'tkaziladi;
- v) ferment va koferment bo'lmasdan turib, gormonlar fermentativ reaksiya tezligini yoki ularni sintezini o'zgartiradi;
- g) organizmda gormonlarning ta'siri MNS tomonidan nazorat qilinadi;
- d) ichki sekretiya bezlari va ularning gormonlari yagona tizimni tashkil qiladi va to'g'ri yoki teskari bog'lanishlar orqali boshqariladi.

Tashqi va ichki ta'sirotlar natijasida mahsus o'ta sezuvchang reseptorlarda impulslar xosil bo'ladi. Ular MNS borib gipotalamusga o'tadi va u erda distant ta'sir etuvchi birlamchi biologik faol moddalar – rilizing omillar sintezlanadi. Bu omillar qonga o'tmay tomirlarning portal tizimi orqali gipofizning speçifik xujayralariga etadi va gipofizda trop gormonlarning sintezini kuchaytiradi (liberinlar) yoki susaytiradi (statinlar). Ular qonga o'tib nishon periferik bezlarga borib kerakli gormonlar sintezini ta'minlaydi. Sintezlangan gormonlar speçifik to'qima va a'zolariga (nishon-a'zo), u erda kimyoviy va fiziologik javob reaksiyalarini namoyon qiladi.

Kimyoviy tabiatiga ko'ra gormonlar 3 ta guruxga bulinadi:

1. Peptid (oqsil) tabiatli gormonlar.

- a) murakkab oqsillar - glikoproteinlar; bularga FSG, lyuteinlovchi gormon, TTG va boshqalar;
- b) oddiy oqsillar: prolaktin, STG, insulin va boshqalar kiradi;

v) peptidlar: AKTG, glyukagon, kalsiytonin, somatostatin, vazopressin, oksitotsin va boshqalar kiradi;  
2. Aminokislotalar unumlari: katekolaminlar, tireoid gormonlar, melatonin va boshqalar kiradi;  
3. Steroid birikmalar va yog' kislotalar unumlari (prostaglandinlar). Steroidlar gormonlar moddalarning katta guruhini tashkil qiladi; ularga buyrak usti bezlari gormonlari (kortikosteroidlar), jinsiy gormonlar (androgenlar va estrogenlar), 1,25 - dioksisholekalkiferol va boshqalar kiradi.

Eykozanoidlar – ko'p to'yinmagan yog' kislotalar (araxidonat) unumlari bo'lib, uch sinf birikmalarni o'z ichiga oladi: prostaglandin, tromboksan va leykotrienlar. Ular suvda erimaydigan nostabil birikmalar bo'lib, o'z ta'sirini sintezlangan joyi yaqinidagi xujayralarga ko'rsatadi. Gormonlar signalini o'tkazishni molekulyar mexanizmlari :adenilatitsiklaza messenjer sistemasi;guanilatitsiklaza messenjer sistemasi;Sa+2 – messenjer sistemasi;azot oksidi arginin aminokislotasidan murakkab aralash funktsiyali Sa+2 bog'lik ferment sistemasi – NO-sintaza ishtirokida hosil bo'ladi.

